

M.M. AXMETJANOV, SH.SH. OLIMOV,
S.S. AVEZOV.

PEDAGOGIK MAHORAT



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

M.M. Axmetjanov, Sh.Sh. Olimov, S.S. Avezov

PEDAGOGIK MAHORAT

**MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYORLASH KURSI
TINGLOVCHILARI UCHUN O'QUV QO'LLANMA**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2017-yil 24-avgust 603-sonli buyrug'ining 7-ilovasiga asosan nashr
etishga ruxsat etilgan

**Toshkent
LESSON PRESS
2018**

UO'K 331.25
KBK 74.5

Taqrizchilar:

Q.T. Olimov – Buxoro MTI o'quv ishlari bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari doktori, professor.

Sh.R. Barotov – Buxoro davlat universiteti pedagogika fakulteti dekani, psixologiya fanlari doktori, professor.

G.S. Yunusova – Buxoro MTI, Tillar kafedrasining mudiri, falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Axmetjanov M.M., Olimov Sh.Sh., Avezov S.S.

Pedagogik mahorat / M.M.Axmetjanov va b.; - Toshkent: "Lesson press" nashriyoti, 2018. 288 b.

O'quv qo'llanma o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining pedagogika yo'nalishidan boshqa oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan kadrlarning pedagogik qayta tayyorlash kursi namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'quv qo'llanmada mualliflar pedagogik mahorat va nutq madaniyati o'quv predmetining maqsadi va vazifalari, pedagogik mahorat elementlari, pedagogik texnika, uni egallash yo'llari, pedagogik ta'sir usullari, pedagogik muloqot turlari va vazifalari, nutq madaniyatining ko'rinishlari, egallash yo'llari, til va nutqning qiyosiy tahlili, o'zbek adabiy til me'yorlari, nutq texnikasi va uni takomillashtirish, notiqlik san'ati, undan foydalanish aniq dalillar orqali yoritilgan.

O'quv qo'llanma malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari, xususan, pedagogik ma'lumoti bo'lmagan bakalavr yoki diplomli mutaxassis darajasidagi ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan kadrlar, akademik litsey, kollej o'qituvchilari, ta'lim muassasasi rahbariyati, guruh murabbiylariga mo'ljallangan.

UO'K 331.25
KBK 74.5

© M.M. Axmetjanov, Sh.Sh. Olimov, S.S. Avezov. 2018

KIRISH

Mamlakatda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish sharoitida Respublikaning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "... Bugun biz bir tarixiy davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' bir maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor, o'z kuch va imkoniyatlariga taya'nib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz...". Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmashligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur".¹

Mazkur qo'llanma malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari, xususan, pedagogik ma'lumoti bo'lmagan bakalavr, yoki diplomli mutaxassis darajasidagi ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan kadrlar, akademik litsey, kollej o'qituvchilari, ta'lim muassasasi rahbariyati, guruh murabbiylariga mo'ljallangan.

Ta'lim-tarbiya pedagogik mahoratning muhim tushunchalaridir. Ta'lim va tarbiya bir-birini to'ldirib, qo'llab-quvvatlab, rivojlanib, yoshlarni kamolot sari yetaklovchi zaruriy omil hisoblanadi.

Mazkur tushunchalarning mazmuni, mohiyati, funksiyalari haqida ma'lumot beruvchi "Pedagogik mahorat" fani bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining pedagogik kasbiga ilmiy-nazariy va metodik tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak pedagoglar "Pedagogik mahorat" fanini o'rganish jarayonida quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi:

- pedagogik mahorat haqida umumiy tushunchaga, uning mohiyati va mazmuni, fanning maqsadi, vazifasi va asosiy komponentlari;

- pedagogik mahoratni egallash vositalari, o'qituvchi kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni;

- pedagogik texnika tushunchasi va uning mazmuni, pedagogik texnika xususiyatlari, pedagogik texnikani namoyon etishda o'qituvchining kasbiy mahorati;

- pedagogik texnikani egallash usullari, o'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi;

- pedagogik muloqot va pedagogik muomala madaniyati, Sharqona tarbiya va muoharar odobining muloqotga ta'siri, muloqot asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillarini;

¹Ismo Karimov. "Yuksak manaviyat yengilmas kuch" Toshkent: "Ma'naviyat"-2008 y. 3-4 b.

pedagogik mahorat fani o'qitilsa, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda tajribalarga taya'nilsa, kasbiy mahoratni shakllantirishning omillaridan foydalanilsa, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy va shaxsiy sifatlar shakllanib, mohir pedagog bo'lishida zamin yaratiladi.

Ma'lumki, umumiy mehnat bilan kasb ixtisosligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Chinakam kasbiy mohirlik darajasi, shaxsning umumiy rivojlanishi bilan to'g'ridan - to'g'ri bog'liqlikda, aloqada bo'ladi. Zero, kasbni aniq tanlash, unga bo'lgan qiziqishni orttirish, mahoratli bo'lishni uyg'otadi. Mahoratli kasb egasining ma'naviy dunyosi boy, ishlash qobiliyati teran bo'ladi va u o'z kasbi yordamida o'ziga ham, boshqalarga ham katta foyda keltiradi. Shuning uchun, kasbiy mahoratni shakllantirish, tarbiyalashga va nihoyat uni takomillashtirishga intilish, uni kerakli ma'lumotlar, axborot(bilim)lar, malakalar bilan to'ldirib borish shu kunning, qolaversa ta'lim islohotlarining dolzarb masalasidir.

Mazkur masalaning dolzarbligini pedagogik nazariya va tajriba yana quyidagi holat bilan isbotlaydi: pedagogik izlanish, ta'limiy o'qish, o'qitishning me'yoriy hujjatlari, darsliklar, qo'llanmalar, axborot vositalari, qanchalik mukammallashtirishga bo'lmasin, pedagogik amaliyot, ta'lim - tarbiya ishlarining muvaffaqiyati oxir oqibatda pedagog shaxsiga, uning kasb - kor mahoratiga bog'liq. Ehtimol, shu nuqtai - nazardan ham Respublikamizning birinchi Prezidenti Oliy majlisning birinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyadagi "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusidagi ma'ruzasida "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning **ma'lumoti, malakasini oshirish** kabi pajsalsa solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Bizning fikrimizcha, ta'lim - tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo shu yerda. O'qituvchi o'quvchilarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo, zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak" - deb ta'kidlagani bejiz emas. Shuning uchun ham bugungi kunda "... domlarning saviyasi va bilimni oshirishga shart - sharoit tug'dirishimiz kerak. Domlalar, professorlar, kafedra mudirlari o'z ustida ishlamasalar, o'z sohasi bo'yicha chet mamlakatlarga ilmiy safarga borib kelmasa, tajriba almashmasa, albatta, bunday ahvol o'quv jarayoniga va uning samarasiga salbiy ta'sir qiladi... Ular, chet ellarda malakasini oshirsin, dong'i chiqqan universitetlarda o'zlari lektsiya o'qisin, tajriba orttirsin, mana shundan keyin O'zbekistonning obro'yi - nomi olamga ovoza bo'ladi, inshoolloh".

Bu haqiqat. Pedagoglarning kasbiy mahoratini shakllantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, kasbiy pedagogik ta'lim yo'nalishida "Pedagogik mahorat" fanini o'qitishni yanada yuksaltirish, uning samaradorligini oshirishga e'tiborni yana bir marta qaratichga da'vat etadi.

Darhaqiqat, har bir yosh mutaxassisi puxta ilmiy - nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash, ko'nikma va malakalarga ega qilish, tarbiyalash, albatta, oson ish emas. O'qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma'lumotlarni egallashga ehtiyojli, bilish faolligi va aqliy mehnat madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetkazish - muxim va davlat ahamiyatidagi vazifadir.

Buning uchun:

1. Pedagogik ishning mohiri bo'lishga intiluvchan, ya'ni kasbiy faoliyatning pedagogik yo'nalishlarini aniq belgilay oladigan shaxs bo'lish lozim. Shunga asosan, darslikning birinchi bobida pedagogik mahoratning nazariy - metodologik asoslari, mohiyati, mazmuni, funktsiyasi, tarkibiy qismlari, ularning vazifalarini ochib berishga harakat qilindi. Bu esa, o'z navbatida jamiyatning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, pedagogik mahorat asoslarining va zamonaviy pedagogikaning ilg'or ideallari zaminida shaxsga insonparvarlik nuqtai - nazaridan yondoshish imkonini beradi.

2. Pedagogik mahorat - bu pedagogik jarayonni aniq tashkil qilish, boshqarish, kutilayotgan natijalarni oldindan loyihalash va uni ro'yobga chiqarish texnologiyasi, shuningdek, pedagogik jarayonda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish va ularni bartaraf etish uchun tayyor bo'lish metodikasidir. O'quv qo'llanmaning ikkinchi bobida mana shu masalalar to'g'risida so'z yuritilib, pedagogning o'quv - tarbiya jarayonidagi mahorati, ijodkorligi, tamoyilliligi, o'z hissiyotlarini tartibga solish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

3. Pedagogik faoliyatning mohir ustasi bo'lish - bu, ilg'or tajribalarning hayotiyiligi, davr bilan hamnafasligi, aniq tavsiyalarni belgilash va ularni takomillashtirish, yoki rad etish demakdir. Shunga ko'ra, o'quv qo'llanmaning uchinchi bobida o'quv - tarbiya jarayonini boshqarish va buning uchun pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish, o'z-o'zini tarbiyalash, shaxsiy pedagogik tajriba to'plash, umumlashtirish, pedagogning faoliyatini shakllantirish xususida fikr yuritiladi.

1.2. Pedagogik mahorat fanining maqsadi, vazifasi va asosiy komponentlari

*Bilimni go'zal tarzda
o'qitish – ilohiy san'at!
A. Frans*

Tayanch iboralar: *yuksak kasbiy tayyorgarlik, o'quv - tarbiya jarayoni, kasb - korlar tizimi, o'quv fanining mavzusi, ijodkorlikni tarbiyalash, vazifalarni yechish masalasi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi, pedagogik mahorat egasi, kasbiy va shaxsiy tayyorgarlik, mahoratning tarkibiy qismlari, asosiy komponentlar, kasbiy xususiyatlar, pedagogik yo'nalishlar, shaxsiy va kasbiy sifatlar, "Novator pedagog", "Ijodkor o'qituvchi".*

Respublikamizning birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishni" - istayotgan bir davrda yashayapmiz. Bu istak esa, yoshlar ta'lim - tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kasb egalarini yuksak kasbiy tayyorgarlikka, g'oyaviy-siyosiy e'tiqodga, tashkilotchilik va boshqaruvchilik malakalariga ega bo'lish lozimligini talab etmoqda. Chunonchi, mustaqillik sharoitida mamlakatda ta'lim tizimining yangilanishi, u o'z navbatida ta'lim - tarbiya mazmunining yangilanishiga olib keldi, natijada o'qitish va tarbiyalashning shakli, usullari, vositalarining majmui, o'zbekona ko'rinish kasb etdi hamda milliy urf - odatlarning o'quv - tarbiya jarayoniga faol kirib borishi amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar har bir o'qituvchi - tarbiyachini yangicha fikrlashga, sharqona ish yuritishga, tadbirkorlik, ishbilarmonlik asosida ish yuritish hamda ma'naviy - ma'rifiy ishlarning faol ishtirokchisi bo'lishga da'vat etadi. Shuning uchun ham, bugungi kunda har davrdagidan ham ko'proq pedagogik mahorat fani oldida yangicha fikr yuritadigan yuksak ma'naviy - axloqiy salohiyat, aqliy zakovatga ega bo'lgan o'qituvchi - tarbiyachini tayyorlash, uning kasb mahorati va malakasini uzluksiz takomillashtirish uchun ta'lim va tarbiyaning zamonaviy mazmun, shakl, usul hamda vositalarini ishlab chiqish muammosi dolzarblashmoqda.

Darhaqiqat, barcha kasb - korlar tizimida o'qituvchilik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh qalblar kamolotining me'moridir. Bugun u yoshlarni g'oyaviy - siyosiy jihatdan chiniqtirib,

tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o'rgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb - hunar egallashlariga ko'maklashishi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy - iqtisodiy vazifani hal etishga chog'lamog'i darkor. Ana shu ma'suliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchi - yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun pedagogik mahorat fani o'qituvchidan doimo kasbiy mahorati ustida izlanishi uchun, unga turli shart - sharoitlar yaratishi, kerakli moddiy va ilmiy - metodik yordam ko'rsatishi hamda o'qituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga ko'maklashadi. Bu pedagogik mahorat fanining muhim vazifalaridan biridir.

Ma'lumki, har bir fan mustaqil o'quv maqsadi, mazmuni va o'zining o'rganish mavzusi (predmeti) va metodiga ega. Zero, o'quv fanining mavzusi u o'rganadigan, tadqiq qiladigan masalalarning majmuidir. Shunga asosan, "Pedagogik mahorat" fani, o'qituvchi - tarbiyachining kasbiy faoliyati, mohirligini o'rganuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar beruvchi fan hisoblanadi. Pedagogik mahoratning mohiyat - mazmunini, kasb malakalarini shakllantirish va rivojlantirishning yo'llari, vositalari, shakllari tashkil etadi. Chunonchi, pedagogik mahorat mazmunidan o'qituvchi - tarbiyachiga pedagogik ijodi, pedagogik texnikasi, ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etish qobiliyati o'qituvchi - o'quvchi hamkorligi, muomalasi, kasb madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy - ma'rifiy tarbiya ishlarini tashkil etish madaniyati va uni amalga oshirishi va bu jarayonda o'z xulq - atvori, hissiyatini tartibga solish va rivojlantirish kabi masalalar o'rin olgan. Shuningdek, mazkur fan tarkibida mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechish uchun o'quv - tarbiya jarayonini boshqarish hamda unga rahbarlik qilish, pedagogik - psixologik ta'limot nuqtai - nazaridan yondoshish, ta'lim - tarbiyani modellashtirish, o'quv - tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish to'g'risidagi ma'lumotlar va ularni takomillashtiruvchi ish tizimlari mujassamlashgan.

O'quv qo'llanmaning kirish qismida ta'kidlaganidek, "Pedagogik mahorat" fani, bo'lajak pedagoglarga kasb-kor malakalari va mohirligini egallash va shaxsiy mahoratni shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, pedagogik mahoratning, ko'nikma, malakalarini qo'lga kiritish uchun, pedagogik texnika, pedagogik qobiliyat, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokatni egallash to'g'risida atroflicha ma'lumot berishni maqsad qilib


ta'minlaydi.

Pedagogik mahorat - pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayon esa kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni yo'lga qo'yib, bo'lajak mutaxassisni mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shuning uchun, pedagog shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo'lishi lozim. Pedagogning shaxsiy fazilatlarini sirasiga iymon - e'tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy ehtiyoj va faolligi, odob - axloqi, fuqarolik burchlarini his qilishi, ma'naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat'iyligi va maqsadga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi va h.k.lar kiradi. Bular o'qituvchiga kasbiy xususiyatlarni o'zida tarbiyalab borishga ko'maklashadi.

Bularning barchasi xususiy mohiyat-mazmun kasb etsada, ular yaxlit holda o'qituvchi-tarbiyachi (pedagog)ning kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi.

Zero, pedagogik texnika - o'qitish, ta'sir ko'rsatish, ta'lim tarbiya oluvchilarga o'z his-tuyqulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalasa, pedagogik muomala - o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, ta'lim - tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining o'zaro ta'sir va hamkorligini aks ettiradi.

1.1-jadval. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari



Yuqorida qayd etib o'tilgan va pedagogik mahoratga berilgan ta'rif, hamda o'qituvchi-tarbiyachining professiogrammasi xususiyatlari va o'qituvchiga qo'yiladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy talablardan

kelib chiqib, pedagogik mahorat quyidagi asosiy komponent (tarkibiy qism)lardan iborat bo'lishi lozimligini ifodalaydi. (1.1 jadvalga qarang).

Pedagogik ijod - o'qituvchining mahorat pilapoyalaridan ko'tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo'lni, bu yo'ldagi qiyinchiliklardan qo'rqmaslikni anglatadi. O'z navbatida bu sohada o'qituvchining pedagogik qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki u pedagogik jarayonda o'qituvchining aqliy, emotsional - irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog'liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat o'qituvchi-tarbiyachilik burchi, mas'uliyati, qadr-qimmat, vijdoni, axloqiy e'tiqodini nazarda tutib, o'qituvchining talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo'yligi, to'g'riligini anglatadi. Pedagogik mahorat tizimida pedagogik nazokat (takt) - o'qituvchining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o'lchovi, me'yori va ta'sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi. Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari o'qituvchining kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari yyetaklaydi va o'qituvchi - tarbiyachida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi. Ammo, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun faqatgina ularga taya'nib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o'ylash, pedagogik ish tutish lozim bo'ladi. Bu deganimiz, o'z faoliyatini pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bog'lanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi ta'lim-tarbiyaga doir g'oyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim bo'ladi. Asosiy pedagogik-psixologik muammolarni topa olish ularni hal etishning eng qulay yo'llarini topish ustida o'ylash ham kerak.

Pedagogik mahorat tizimida uning asosiy komponentlaridan tashqari kasbiy xususiyatlari ham mavjud. Pedagogning kasbiy xususiyatlariga: o'z kasbini, o'quvchilarni sevishi, ziyrakligi, hozirjavobligi, vazminligi, pedagogik salohiyati, tasavvuri, iqtidori, tashkilotchiligi, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy layoqatliligi, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo'llay olishi, kasbiy ma'lumotni muntazam oshirishga intilishi va boshqa fazilatlar kiradi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslanib, kasbiy pedagogik mahoratni muayyan tayyorgarlik jarayonlaridan iborat deb aytish mumkin. Bu tayyorgarlikni shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

- 1) pedagogning shaxsiy fazilatlarini bo'yicha tayyorgarligi;
- 2) pedagogning ruhiy - pedagogik tayyorgarligi;
- 3) pedagogning ijtimoiy - pedagogik va ilmiy - nazariy tayyorgarligi;
- 4) pedagogning maxsus va ixtisosga oid uslubiy tayyorgarligi.

Ta'rifda qayd etilganidek pedagogik mahorat - o'qituvchi - tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlari yiqindisi xisoblanib, u pedagogik - psixologik, metodik bilimlar majmuasidan iborat bo'ladi. Buning uchun, avvalo:

a) ixtisoslik bo'yicha zamon, ilm - fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal ma'lumotga ega bo'lishi, o'z o'quv fanining kelishadigan o'quv fanlari bilan bog'liqligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;

b) o'quv - tarbiya jarayonini aniq tashkil qila olish va buning uchun muayyan pedagogik - psixologik, metodik ma'lumotga ega bo'lishi;

v) o'quvchini, jamoani "ko'ra bilish", ularning qiziqishi, intilishlarini tushuna olish va o'quvchilar faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va ularni o'z vaqtida ang'lay olish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini ang'lay bilish hamda ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning shakli, usul, vositalaridan xabardor bo'lish;

g) o'z shaxsiy sifatlari (madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va h.k.) ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lish kerak.

Pedagogik mahoratning ilmiy - nazariy asoslarini o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida tadqiq qilgan pedagog K. Zaripov, kasbiy pedagogik mahoratning mazmunini "Ilg'or pedagog", "Ijodkor o'qituvchi", "Novator pedagog" kesimida ko'rib chiqadi va ularning mazmun-mohiyatini shunday ta'riflaydi. "Ilg'or pedagog" avvalo, boshqa o'qituvchilarga qaraganda o'z ishiga ma'suliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o'rganib, o'z darslarida, ta'lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llaydi. Shu orqali u o'qituvchilarning ta'lim va tarbiyasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.

"Novator pedagog", bizningcha, o'zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga novator o'qituvchilarda ilmiy tahlil, o'ziga tanqidiy ko'z bilan qaray bilish xususiyatlari ham bo'ladi. Ularning ko'pchiligida g'oyat murakkab, boshqalar o'ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o'z ishlarining to'g'ri ekanligiga ishonch bo'ladi.

"Ijodkor o'qituvchi"da ham "Ilg'or pedagog"dagi xususiyatlar bo'lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilg'or pedagog mavjud manbalarni o'rganib, shular asosida ta'lim-tarbiya bo'yicha muayyan

ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o'qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l-yo'riqlarga o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga, o'zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli metodik usullardan foydalanadi".

Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, ham novatorlikni (bunyodkorlikni), ham ijodkorlikni (tadqiqotchilikni) tarbiyalashi lozim.

O'qituvchi pedagogik mahoratini "O'qituvchining axloqiy shakllanishi" yo'nalishida tadqiq qilgan professor M. Ochilov pedagogik mahoratni egallashning muhim asosi axloq deb ta'kidlab, kasb axloqini shunday ta'riflaydi: "Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar ham bor. Bunday axloq kasb (professional) axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda hukmron bo'lgan axloq bilan kasb axloqi o'rtasida ma'lum bir munosabat mavjud. Bu umumiylik bilan xususiylik o'rtasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalari va kamchiliklarini o'zida mujassamlashtiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi".

Ma'lumki, pedagogik mahorat tizimida o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) muhim o'rin tutadi. O'qituvchi nazokatsiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi. Masalaga shu nuqtai - nazardan yondoshilganda, professor M. Ochilovning so'zlari, o'qituvchi pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablarga mos va hamohangdir.

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning o'qituvchi shaxsi va kasbiy fazilatlarining o'zaro bog'liqligidadir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ega bo'lishi lozimligini tajriba ko'rsatmoqda. Buni yuqorida kasb axloqi to'g'risida bildirilgan fikrlar misolida ham ko'rdik. Shuningdek, pedagog ixtisosligining ko'pgina xususiyatlari M. Quronov, B. Muranov va M. Ochilovlar tomonidan ishlab chiqilgan o'qituvchi professiogrammasida o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, M. Quronov, B. Muranovlarning o'qituvchi professiogrammasi, asosan, o'qituvchini shaxsiy va kasbiy sifatlari, uning insoniy fazilatlarini, bilimi, tashkilotchiligi, konstruktiv, gnostik, kommunikativ malakalari, amaliy ko'nikmalari tarzida izohlangan. Hususan, shaxsiy sifatlari tizimida: milliy mafkuraviy ongillik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlik, o'z kasbiga sadoqat va vijdoniylik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat'iylik, har qanday vaziyatda o'zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati,

kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalalilik va h.k.lar kabi fazilatlar misolida ifodalangan bo'lsa, kasbiy sifatlar tizimida: pedagogik ziyraklik, O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'lining mohiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining besh tamoyilini, ma'naviy - axloqiy yangilanishning negizlarini bilishi, milliy tarbiyaning mohiyati va mazmunini chuqur anglashi, mukammal ilmiy-nazariy salohiyat, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlaridan xabardorlik, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, O'zbekiston Hukumatining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatlari, urf - odatlarini yaxshi anglash, siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik, texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish va h.k. tarzida o'z yechimini topgan.

Bo'lajak pedagoglarda qayd qilingan milliy pedagogikaning faoliyatga tayyorlovchi yuqoridagi shaxsiy va kasbiy sifatlariga ega bo'lish, uning pedagogik mahoratini tarkib toptirishdir. Bu kadrlar tayyorlashning milliy dasturi talablarini bajarishga amaliy ko'rsatmadir.

1.3. Pedagogik mahoratni egallash vositalari

*O'rnak ko'rsatish nasihatga
qaraganda har doim
kuchliroq ta'sir etadi.
S. Jonson*

Tayanch iboralar: pedagogik mahorat, pedagogik ta'sir, pedagogik turkum fanlari, urf-odatlar, psixologik muhit, tarix, pedagogik faoliyat, intellekt, yo'naltiruvchilik, tadqiqotchilik, din, siyosat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, pedagogning kasbiy imkoniyatlari tuzilmasi.

O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirish uchun, avvalo, pedagogik ishni ilmiy asosda tashkil qilish lozim. Buning uchun o'qituvchining istak va qiziqishlarini hisobga olish, uning intilishi va boshqa tashqi omillarini bir - biriga uyg'unlashtirib, kasbi va shaxsining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faolligini oshirishni nazarda tutish kerak. Bu hol tinmay izlanishlar, kuzatishlar, tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish lozimligini talab qiladi. Ilmiy pedagogik ta'limot, o'tmish ajdodlarimizning tajribasi va ta'lim muassasasining

amaliy faoliyati shundan dalolat bermoqdaki, kasbiy mohirlik, muntazam ilm olish bilan shug'ullanish, mashq qilish, takrorlash, xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalar asosida ish olib borish orqali qo'lga kiritiladi... Pedagogik mahorat avvalo falsafiy, pedagogik, psixologik, metodik bilimlar, o'quv predmeti bo'yicha keng va chuqur ma'lumotlarga ega bo'lish va ularni takomillashtirib borish orqali shakllanadi. Milliy Mustaqillik, "Ta'lim to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'lim - tarbiya jarayonining tashkilotchisi va ijrochisi, o'qituvchida kasb mahoratini tarbiyalash, ta'lim muassasasida ta'lim - tarbiya samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini ta'kidlar ekan, avvalo, o'qituvchilar kasb mahoratini shakllantirish - bu pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi deb qaralishi lozimligini alohida e'tirof etadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi - tarbiyachi pedagogik mahoratining shakllanishiga muayyan tarzda ta'sir etuvchi omillar mavjud. Bu omillarni e'tiborga olmaslik kasbiy pedagogik mohirlikning tarkib topishini qiyinlashtiradi. Ularni inobatga olish esa, o'qituvchi mahoratining pedagogik va psixologik funksiyalarini rivojlanishini, uning madaniy - tarixiy xususiyatini oshirishini ta'minlaydi.

Shuningdek, bu kasbiy-shaxsiy xususiyatlar o'qituvchi - tarbiyachiga, o'quvchi yoshlarning ruhiy-jismoniy rivojlanishlari, o'quv-biluv faoliyatlarining aktivlashuvini ta'minlash kabi bir necha pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishning tamal toshi bo'la oladi.

Qayd qilib o'tganimizdek, pedagogik mahorat har bir o'qituvchi tarbiyachi uchun xos bo'lgan ta'lim - tarbiya ishlarini doimo yuksakka ko'tarishga, uni takomillashtirishga asos bo'luvchi san'atdir. Bu san'at o'z ishini bilish, faoliyatini muntazam tartibga solib, nazorat qilib, yuksaklikka ko'tarish bilan tavsiflanadi. Unda eng asosiysi pedagogik-psixologik nazariyalarni samarali qo'llash nazarda tutilgan.

"Pedagogik mahorat" fani kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlash va takomillashtirish fani sifatida maydonga keladi. Zero, "Pedagogik mahorat" - bu pedagogik faoliyatni ustalik bilan boshqarishni o'rgatuvchi fandir. Shunday ekan, kasbiy - pedagogik mohirlik pedagogik - psixologik tayyorgarlikda, o'qituvchi - tarbiyachining ta'lim, tarbiya, ma'lumot tushunchalarining mohiyat - mazmunini, shaxs psixologiyasini, uning biologik shartlangan xususiyatlari (nerv tizimi, sur'aterament, layoqat-qobiliyatini, xarakterlarini bilish jarayonlari (sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol)ni, emotsional irodaviy xususiyatlar (hissiyot, emotsiya, irodalari)ni, ijtimoiy yo'nalgan xususiyatlari (ehtijoj, qiziqish)ni,


orttirilgan kasbiy xususiyatlar (bilim, ko'nikma, malaka, odatlar)ni o'rganib, anglab olish asosida shakllanib boradi. Pedagogik mahorat fani esa, qayd etilgan xususiyatlarning o'z mohiyatidan kelib chiqib, ularni amalda qo'llash yo'llarini o'rgatadi. Shu asosda ta'lim – tarbiya jarayonini to'g'ri, aniq tashkil qilish, o'zlashtirish imkoniyatlaridan aniq foydalanish, shart-sharoitlarini yaratish imkoni tug'iladi.

Ularini umumlashtirgan holda quyidagi jadvalda o'qituvchi pedagogik mahoratining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillarni keltiramiz (1.2.- jadvalga qarang).

1.2. Pedagogik mahoratning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar

Jadvalda keltirilgan unsurlar pedagogik mahoratni shakllantirish, mustaqillik yo'lidan dadil odimlab, fuqarolik jamiyatini qurishga intilayotgan mamlakat o'qituvchisini faol mehnatga tayyorlab, uning uzluksiz mahoratini oshirish ko'nikmalarini shakllantirish, ilmiy nazariy, amaliy - usuliy tayyorgarligini oshirish, jamiyatda, atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga ongli munosabatini tarkib toptirish, har bir o'qituvchining individual ijodiy qobiliyatlarini mustahkamlash uchun omil bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, pedagogik mahoratni shakllantirishda mutaxassislik kasbini tez va oson egallash yo'lini anglash muhim rol o'ynaydi. Zero, pedagogik mahorat bu maqsadning aniqligi, sub'ekt va ob'ekt aloqasining uzviyligini ta'minlovchi pedagogik hosiladir. Shu o'rinda e'tirof etish joizki, uning shakllanishi va takomillashuvi, murakkab va uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchi – tarbiyachidan pedagogik – psixologik, nazariy va metodik tayyorgarlikni chuqur egallash bilan birga pedagogik axborotlarni qunt bilan muntazam o'qib borishni, mavjud nazariy – amaliy pedagogik yutuqlardan o'z faoliyatida o'rinni foydalana olishga o'rganishni talab etadi.



O'qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishning birinchi sharti faoliyatdir. Zero, pedagogik mahoratni egallash va takomillashtirishda faoliyat yyetakchi omildir. Zero, mehnat, bilish, mahorat, ijod... Inson hayoti va faoliyatining bosh mezon. Bu mezon kundalik ish, faoliyat orqali amalga oshiriladi. Mehnat qilish, izlanish jarayonida, ya'ni amaliyot jarayonida yutuqlar qo'lga kiritiladi, mahoratga erishiladi. Kasbiy mahorat sirlarini o'rganishga harakat qiluvchi har bir o'qituvchi, avvalo, egallashi lozim bo'lgan pedagogik bilim va axborotlarga ega bo'lishga intilishi, qilayotgan ishining barcha qirralarini aniq tasavvur etishga harakat qilishi va natijalarni tahlil kilib, baholab borishi, yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarining mohiyatini tushunishga harakat qilishi lozim. Bu holatlar, albatta, faoliyat orqali amalga oshiriladi. Pedagogik mahoratni egallashda ham o'qituvchining pedagogik faoliyati asosiy rol o'ynaydi. Pedagogik mahorat pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun pedagogik mahoratni shakllanish jarayonining mohiyatini ochib chiqishdan oldin, ma'lum darajada pedagogik faoliyat xususida fikr

yuritishni lozim, deb bilamiz. Chunki, o'qituvchining kasbiy mahorati mehnat orqali qo'lga kiritiladi, mehnat esa, faoliyatning tarkibiy qismlari (o'qish, ijtimoiy ish, o'yin, sport mashg'ulotlari va h. k.)dan biri hisoblanadi. Shu asosda pedagogik faoliyat o'qituvchi mehnatining istiqboli, texnologiyasi, vazifalari va ta'sir ko'rsatish usullarining majmuidir.

Qayd etilganidek mahorat bu yuksak qudrat hisoblanadi. Shunga ko'ra pedagogik mahoratni shakllantirish muayyan sohani mukammal egallash, nazariy, amaliy ma'lumotlarga to'liq ega bo'lish, kasbiy tayyorgarlik ustida tinmay ishlash bilan birga kasbiy pedagogik mehnatning betakror, noyob, mohir ustasi bo'lish uchun o'qituvchi - tarbiyachiga ilhom, ijod va o'z kuchiga ishonchni tarbiyalash kerak. Mana shu ilhom, ijod va ishonchni yo'lga qo'yuvchi, uning imkoniyatlarini to'la ishga soluvchi kuch faoliyatdir. Faoliyatni aniq yo'lga qo'yish, uni boshqarish, amalga oshirish, o'qitish, tarbiyalash, bilim olish saviyasini yuksaltirishni, amalga oshirish ta'minlanadi. Shuning uchun pedagogik mahoratni shakllantirishda pedagogik faoliyat muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi entsiklopediyasida qayd qilinishicha "Faoliyat - atrofda olamga nisbatan insonning o'ziga xos aktiv munosabat shaklidir. Olamni maqsadga muvofiq va qayta o'zgartirish faoliyatining mazmunini tashkil qiladi... har qanday faoliyat maqsad, usul, natija va jarayonlardan iborat". Faoliyat turlari, shakllari xilma - xildir. Har qanday faoliyat singari o'qituvchilik faoliyati ham maqsad, usul, vosita, ob'ekt va sub'ektdan iborat. Pedagogik maqsad - o'qitish, tarbiyalash va shu asosda o'quvchilar shaxsini shakllantirish dan iborat. Usul esa, tarbiyalanuvchilar obro'sini egallash, hurmatiga sazovor bo'lish va ta'sir ko'rsatishdir. Pedagogik mehnatning ob'ekti sifatida - o'qituvchi shaxsi turadi, uning xarakteri, irodasi, ongi, aqli, odob - axloqining asosi hisoblanadi. Pedagogik faoliyat sub'ekti esa - tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatuvchi - pedagogning o'zi. Chunki, u o'qituvchi - o'quvchilarga tabiat, jamiyat, tafakkur qonunlari to'g'risida ma'lumot berish uchun, avvalo, ularni o'z faoliyatining ob'ektiga aylantiradi. Shu tariqa bilimlar o'zlashtiriladi, o'zlashtirilgan bilimlar o'quvchilarga yetkaziladi. "Pedagogik faoliyat, - deb yozadi psixologiya fanlari doktori, professor A.K.Markova o'zining "O'qituvchi faoliyati, muloqoti va shaxsi" nomli maqolasida, - o'qituvchi mehnatining umumiy strategiyasi, texnologiyasi, vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta'sir o'tkazish vositalari bilan amalga oshiriladigan professional aktivligidir".

Pedagogik faoliyat o'quvchi - yoshlarga ta'lim - tarbiya berish

jarayonida ularga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Natijada o'quvchilarga bilim beriladi, ularning shaxsiy sifatleri tarbiyalanadi, psixologik xususiyatlari rivojlantiriladi. Bunda esa, o'quvchi etuk mutaxassis sifatida kamol topa boradi. Shuning uchun kasbiy faoliyat jarayonida pedagog, ya'ni o'qituvchi - tarbiyachi, tashkil qiluvchi, yo'l - yo'riq ko'rsatuvchi, targ'ibot - tashviqot yurituvchi, ma'lumot - axborot to'plovchi va yetkazuvchi, shaxsiy xususiyatlari va kasbiy mahoratini omillashtiruvchi shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim. Bularning barchasi bevosita va bilvosita pedagogik mahoratning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik faoliyat aniq ko'rinishda bo'lsa, unda o'qituvchi o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish vazifalarini aniq ko'ra oladi va ularni hal qilishga harakat qiladi. Bu jarayonda faoliyat aqlni ruhiy jihatdan tayyorlaydi, ta'sir ko'rsatish vositalarini belgilaydi, natijalarni nazorat qiladi, tahlil qiladi, baholaydi va yangi vazifalarni belgilaydi. Bilimlarni o'zlashtirish vositasida shaxsning o'sishi ta'minlanadi, natijada jamiyat talabi va vazifalari bajariladi. Buning uchun o'qituvchi, avvalo, vaziyatni tushunishi, har bir o'quvchining o'zlashtirish jarayonini, rivojlanib shaxs sifatida shakllanish darajalarining mezonini aniq ko'ra bilish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor. Bu o'z navbatida o'qituvchidan katta bilim, tajribalarni talab etadi. Bu faqat kasbiy faoliyatni to'g'ri belgilash orqali amalga oshadi. Shunga ko'ra ta'lim muassasasi oldidagi muhim vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchiga pedagogik faoliyatni loyihalash zarurdir.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga asoslanib, pedagogik mahorat faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashib boradi deb aytish mumkin. U ishbiarmonlik, zukkolik, layoqat va zehn vositasida taraqqiy etadi. Shunga asoslanib, "Faoliyat dunyoni o'zlashtirishning birinchi shartidir", - deb aytish mumkin. Ko'rib o'tganimizdek pedagogik mahoratning asosiy ob'ekti - inson, uning aql - idroki, irodasi, ishonchi, tafakkuri, shukuridir. Bular yuksak darajada bo'lishi, ilmga, uni egallaganlik darajasiga bog'liq. Ilm esa tinimsiz mehnat, mashaqqat va azob - uqubatlar orqali qo'lga kiritiladi. Shuningdek pedagogik mahorat ham faoliyat, mehnat, o'z malakasi ustida muttasil ishlash yordamida shakllanadi. Shunday ekan, "Pedagogik mahorat" fanining pedagogik - psixologik fanlar tizimida mavqei baland. Zero, pedagogik mahoratsiz ta'lim - tarbiya, ya'ni pedagogik jarayon muvaffaqiyatini ta'minlab bo'lmaydi. Bu esa, pedagogik mahoratni egallash, har bir o'quvchi, o'qituvchi, tarbiyachi uchun zaruriy shart degani demakdir.

O'qituvchilik kasbidagi pedagogik faoliyatning xususiyatlari,

funktsiyalari, tuzilmasini tadqiq qilgan A.N. Sherbakov, N.V. Kuzmina, V.A.Slastyoninlar "pedagogik faoliyatning yo'nalishlari"ni ilmiy nazariy va amaliy jihatdan asoslashga harakat qiladilar. Bu esa, pedagogik mahoratni shakllantirish va takomillashtirishning ikkinchi shartidir. Ayniqsa, V.A.Slastyonin o'zining "Формирование личности учителя в процессе профессиональной подготовки" nomli o'quv qo'llanmasida pedagogik faoliyatning qirralarini ishlab chiqqan. Buni 1.3-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1.3-jadval. Pedagogik faoliyat qirralari

Kasb-korga oid kasbiy fazilatlar	Kasb-korga oid shaxsiy fazilatlar
Bilimdonlik, yo'naltiruvchilik, safarbarlik, tadqiqotchilik, loyihachilik	Rivojlantiruvchilik, vositachilik, tashkilotchilik, shaxsiy kamolot

Jadvalda ko'rsatilgan pedagogning kasb-korga oid fazilatlarining mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

Pedagogik faoliyat qirralari:

1. Bilimdonlik:

- o'qitadigan fanini puxta bilishi;
- notiqlik san'atiga (o'quv materialini tushunarli va ravon tilda bayon qila olish malakasiga) ega bo'lishi;
- bilimlarni gumanitarlashtira olishi;
- o'qitish vositalari (tevarak-atrofdagi buyumlar, harakatlar, modellar, chizmalar, sxemalar, jadvallar va hokazolar, o'qitishning texnika vositalari: diapozitivlar, diafil'mlar, o'quv kinofil'mlari, ovoz va videoyozuvlar, O'quv qo'llanmalar va o'quv qo'llanmalari, o'quvchilar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish uchun moslamalar, mikrokompyuterlar)ni egallanganligi;
- o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tahlil qila olishi va ularni baholay olishi;
- bilimlarni uzluksiz mustaqil egallab borishi;
- o'qituvchining shaxsiy sifatleri (mehnatsevarlik, ishga ijodiy yondashish, mustaqillik, kamtarlik, yuksak madaniyatlilik, epchillik, hozirjavoblik, vazminlik, ma'suliyatlilik, sinchkovlik, qat'iyatlilik, batartiblik, sabotlilik, tirishqoqlik, ijrochilik, vijdonlilik, xolislik, har tomonlama bilimdonlik, kuzatuvchanlik, xushmuomalalik, o'quvchilarni

sevish va ular shaxsini hurmat qilish va boshqalar).

2. Rivojlantiruvchilik:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning o'quv imkoniyatlarini bilishi;
- o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'ota olishi;
- ta'limning turli usullari (bayoniy-tasviriy, reproduktiv, muammoli ta'lim, qisman-izlanuvchan yoki evristik usul, tadqiqot usuli)ni egallanganligi.

3. Yo'naltiruvchilik:

- o'qitish tamoyillari tizimi (tarbiya va o'qitish jarayonida o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ilmiylik va bilimlarning o'quvchilar imkoniyatiga yarasha qiyinlik darajasi, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar ongliligi va ijodiy faolligi, o'qitishda ko'rsatmalilik va o'quvchilarning nazariy tafakkurini rivojlantirish, tizimlilik va izchillik, o'qitishdan bilimlarni mustaqil egallashga o'tishni ta'minlash, o'qitishni hayot, o'qitish natijalarining puxtaligi va o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini rivojlantirish, o'qitishda ijobiy hissiyot yaratish, o'qitishning jamoa tusidaligi va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish)ni o'zlashtirganligi.

4. Safarbarlik:

- darsda o'quvchilarning diqqatini barqarorlashtirishi;
- har xil tipdagi darslar (yangi bilimlarni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarni egallash, va ularni qo'llash, bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilish va tuzatish, aralash dars)ni o'tkaza olishi;
- politexnik ta'limga oid va kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshira olishi;
- egallangan bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirishi;
- hazil-mutoyibani uddalay olishi;
- mehnatni ilmiy asosda tashkil qila olishi va unga qo'yiladigan estetika va gigienik talablarga rioya qila olishi.

5. Loyihachilik:

- o'z mutaxassisligiga oid ta'lim muassasasi kursini puxta bilishi;
- o'z fanining metodikasini bilishi;
- o'qitish va o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish uchun o'quv manbalarini tanlay olishi;
- o'qitishda predmetlararo ichki va tashqi aloqalardan foydalanish malakasi;
- kerakli hujjatlarni to'g'ri olib borishi va rasmiylashtirishi;

- asosiy tarbiyaviy ishlarning turlarini aniqlash va uni o'tkazish shakllarini tanlashi;
- fan kabineti uchun zarur vositalarni aniqlash va uni qo'lda yasalgan ko'rsatmalari qurollar hisobiga boyitib borish malakasi.

6. Vositachilik:

- guruh jamoasini boshqara bilishi;
- o'qitishni tashkil qilish shakllari (frontal, individual, guruh)ni egallagan bo'lishi;
- o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlay olishi;
- muloqot jarayonida axloqiy normalarga rioya qilishi;
- lektor-tarqibotchi malakasini egallagan bo'lishi.

7. Tashkilotchilik:

- darsni tashkil qila olishi;
- guruh rahbari ishini rejalashtirishi;
- guruhdan va darsdan tashqari ishlarni, o'z faniga oid ommaviy tadbirlarni tashkil qilishi va ularni mohirona o'tkazishi.

8. Tadqiqotchilik:

- dars, shuningdek, o'quv-tarbiya tadbirlarini tanqidiy tahlil qila olishi;
- ta'lim-tarbiyaga oid uncha murakkab bo'lmagan pedagogik tajribalarni o'tkazishi va ishlab chiqishi;
- boshqa o'qituvchilarning tajribalarini tahlil qilish va ulardan tanqidiy foydalanishi;
- ilmiy va pedagogik ijodiyotga qiziqishi;
- mulohaza yuritganda fikrlashning dialektik usulini qo'llashi.

Ko'rib o'tganimizdek pedagogik faoliyat muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa. Uni aniq tashkil qilish, o'quvchi-yoshlar bilim olish jarayonini, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, motivlari, maqsadlari, amalga oshirish shakllarini to'g'ri yo'naltirish pedagogik mahoratning shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Har qanday faoliyat singari, pedagogik faoliyat ham maxsus tayyorgarlik (ma'lumotlilik), tajriba, ixtisoslik bo'yicha bilimiga ega bo'lishini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning tuzilishi uning boshqa jihat va sohalarga qaraganda kam o'rganilgan. Lekin, bu sohada ba'zi bir tadqiqotlar amalga oshirildi. Sankt - Peterburg universitetining professori N.V. Kuzminaning ilmiy - tadqiqod ishlarini pedagogik mahoratni shakllantirish yo'nalishidagi pedagogik faoliyat to'g'risida yaratilgan ilmiy ishlardan deb alohida ko'rsatib o'tish mumkin. O'qituvchilarning faoliyatini uzoq vaqt kuzatish, natijalarni ilmiy asosda ishlab chiqish, ta'lim muassasasi

rahbarlarining o'qituvchilar haqidagi fikrlarini sinchiklab o'rganishlari natijasida olim N.V. Kuzmina pedagogik faoliyat tuzilmasini uch asosiy sohadan: 1) konstruktiv; 2) tashkilotchilik; 3) pertseptiv, ya'ni o'qituvchi-o'quvchilar munosabatidan iborat deb biladi. Pedagogning ish sohasida o'quvchilar, ularning ota-onalari va hamkasblari bilan aloqasidan iborat yaxlitlik pedagogik faoliyat va pedagogik mahorat asosini tashkil etadi.

N.V. Kuzminaning pedagogik faoliyat tuzilmasidagi o'qituvchining konstruktiv faoliyati o'quvchilarga beriladigan materialni tanlash, ulardan eng asosiysini aniqlab olish hamda bu materialni o'quvchilarning yoshi, individual xususiyatlariga moslab qayta ishlab chiqish va shu asosda dars, suhbat tashkil etish, tarbiyaviy ishlar olib borish, o'quvchilar shaxsi, bilim saviyasi, dunyoqarashini aniqlash va rivojlantirishni nazarda tutsa, ushbu tuzilmadagi o'qituvchining tashkilotchilik faoliyati esa, ishini tashkil etish va o'quvchilarning darsda va darsdan tashqari vaqtlarda o'zlariga hamda mehnatlariga rahbarlik qilish, shu bilan birga ular faoliyatini tashkil etishdir.

Agar, o'qituvchi o'quvchilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lib, aloqa o'rnat olsa, uning konstruktiv va tashkilotchilik faoliyati ham muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu esa, pedagogik ishning sifat va xislatlariga, o'quvchilar psixologiyasini tushunishiga, o'quvchi-yoshlar bilan o'zaro munosabatini yo'lga qo'yishga, ularning yosh hamda individual xususiyatlarini e'tiborga olishiga, shuningdek, o'quvchilarga ta'sir eta bilishiga bog'liqdir. Bu pedagogik mahoratni shakllantirishning birinchi sharti hisoblanadi.

Pedagogik mahorat - bu o'qituvchi - tarbiyachining kasbiy va shaxsiy faoliyati natijasining umumlashmasi sifatida, muayyan bilim, ko'nikma, malakalar yig'indisidan iborat bo'ladi va o'zining shakllanishi jarayonida bir necha yo'lini bosib o'tadi:

- birinchi yo'l - o'quv - pedagogik faoliyat yo'li bo'lib, u o'z o'quv predmetini, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini ilmiy texnikaviy taraqqiyot va davr talablari darajasida bilishni nazarda tutadi;
- ikkinchi yo'l - shaxsiy faoliyat yo'li bo'lib, u o'ziga, o'z ishiga, hamkasblariga, o'quvchilarga, ularning ota-onalariga bo'lgan munosabatini bildirib, o'z mavqeiini tushunishi, o'z -o'ziga baho berish, o'z-o'zini anglash, mustaqil ravishda bilimni oshirishga intilish, o'zini - o'zi kamolotga y etkazish, bunyodkorlikka, ijodkorlikka, tadbirkorlikka layoqatini yangilikka muntazam intilishini anglatadi;
- uchinchi yo'l - ijtimoiy - pedagogik faoliyat yo'li bo'lib, u o'qituvchi-tarbiyachining o'quvchilarni, jamoani "ko'ra bilishini",

o'quvchi yoshlarning qiziqishi va talablarini, ular duch keladigan qiyinchiliklarni oldindan anglay olishini; har bir o'quvchi-tarbiyalanuvchining individual - psixologik xususiyatlarini ilg'ay olishini; darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarning shakllanganligini; turli ijtimoiy - foydali ishlarga o'quvchilarni jalb eta olishini; fanga, hayotga, san'atga, ijtimoiy-foydali mehnatga havas uyg'ota olish kabi qobiliyati qirralarining mavjudligini anglatadi;

- to'rtinchi yo'l - axborot - kommunikativ faoliyat yo'li bo'lib, u o'qituvchi - tarbiyachining ma'lumot-axborotga ega ekanligini; voqelik, pedagogik olamdagi voqea-hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan qurollanganligini; axborot va kommunikativ texnologiyalardan ma'lumotlar ola bilishini, uni o'z tafakkur elagidan o'tkazib, hamkasblari, o'rtoqlari, o'quvchilariga yetkaza olish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Qayd etib o'tilgan hamda tavsiflangan pedagogik mahoratni egallashning mazkur yo'llari o'qituvchi-tarbiyachi uchun dasturlamal bo'lib, kasb-mohiri bo'lish uchun katta imkoniyatlar yaratishga, o'quv-tarbiya samaradorligini oshirishga amaliy yordam ko'rsata oladi.

Pedagogik mahoratni egallashda pedagogning kasbiy faolligi jihatlarni tadqiq qilgan I.P. Podlasiy o'qituvchi - tarbiyachining ma'naviy-axloqiy qiyofasini yorituvchi "Pedagogning kasbiy imkoniyatlari tuzilmasi"ni ishlab chiqdi va unda pedagogik mahoratni shakllantirishga xizmat qiluvchi omillarni aks ettirdi. Buni 1.4.-jadvalda kuzatish mumkin.

1.4.-jadval. Pedagogning kasbiy imkoniyatlari tuzilmasi

№	Kasbiy tayyorgarlik	Kasbiy ijodkorlik	Kasbiy yetuklik	Pedagogik madaniyat
1.	Kasbiga intilish	Pedagogik salohiyat	Innovatsion faoliyatni tashkil eta olish	Pedagogik tafakkur egasi
2.	Kasbiy shakllanish	Kasbiy bilimdonlik	Insonparvar bo'lish	Pedagogik texnikani egallash
3.	Kasbiy yo'nalganlik	Faoliyatni tashkil etishda individual uslubga ega bo'lish	Kasbiy kamolot	Munosabatlarni ijobiy tashkil eta olish

4.	Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik	Faoliyatga bo'lgan ijodiy munosabat	Kasbiy pozitsiyaga egalik	Ijtimoiy faollik
5.	Kasbiy mahoratga erishish	Ijodiy tashabbuskorlik	Kasbiy faollik	Metodik mahorat

Jadvaldan shu narsa ko'zga tashlanadiki, pedagogik mahoratni egallash ko'pgina hollarda kasbiy imkoniyatlar va ularni tashkil etuvchi elementlar asosida ro'y beradi. Shunga ko'ra, pedagogik mahoratni takomillashtirishda kasbiy imkoniyatlardan foydalanish faoliyatni jadallashtiradi. Chunki, bu mexanizmlar o'qituvchi-tarbiyachilarning nazariy va amaliy bilimlarini muntazam boyitib borishga, kasbiy-pedagogik mahoratni oshiruvchi omillardan o'rinni foydalanishga katta yordam beradi.

Milliy mustaqillik ko'pgina muammolarni, jumladan, pedagogik jarayonning mazmuni, shakli, usullarini insonparvarlashtirish va demokratiyalashtirish, tarbiyaning maqsadi, shakli va usullarini milliy asosda qayta qurishni bosh maqsad qilib belgiladi. Bunday sharoitda yangicha fikrlaydigan, o'z ishining ustasi, yoshlar murabbiysi chinakam fidoiy, o'qituvchi, avvalo, bilimdon inson bo'lmog'i kerak. Bunday o'qituvchi- pedagoglar faqatgina faoliyat jarayonida shakllanadi. Chunki, har qanday oliy pedagogika ta'lim muassasasi bunday o'qituvchiga faqat pedagogik ilmni, kasbning yo'nalishlari, sirlari to'g'risida ma'lumot beradi, xolos. Chinakam pedagog kasbining ustasi ta'lim muassasasida, bevosita va bilvosita mehnat jarayonida, o'z kasbiy malakasi ustida tinmay ishlash orqali qo'lga kiritadi. Zotan, Pedagogik mahorat "... malaka, mashq qilish, o'quv, bilim, ko'nikma va aql hosilasidir".

Darhaqiqat, ta'lim - tarbiya jarayoni murakkab pedagogik tizimdir. Uning o'z oldiga qo'yilgan vazifalari, muammolari mavjud. Ularni optimal hal etish ko'pgina omillardan iborat bo'lib, eng asosiysi o'qituvchining kasbiy mahoratidir. Kasbiy mahorat izlanishlar, kuzatishlar, tinmay tajribalarni o'rganish, takrorlash, yozish, fikrlash, ma'lum xulosalarga kelish orqali qo'lga kiritiladi. O'tmish ajdodlarimizning tajribasi, nazariy ma'lumotlar, ta'lim muassasasi amaliy faoliyati shundan dalolat bermoqdaki, muntazam ilm olish bilan shug'ullanish, mashq qilish, takrorlash, xulosalar chiqarish, xulosalarni tahlil qila olish, har bir kasb egasini mahorat pillapoyalari sari yetaklaydi.

Chunonchi, bobokalonimiz Mir Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor"

dostonidagi Bahromning bir o'q bilan kiyikni ham oyoqlarini tushovlashi, ham bo'g'izlashi, yoki Hamid Olimjonning "Bunyod va Semurg" asaridagi Bunyodning uzukni aniq nishonga olishi, daraxtni tomiri bilan yerdan qo'porishi, ko'pgina mashqlar orqali qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatidir.

Xullas, kasbiy mahorat har bir davr uchun ham muhim pedagogik hodisa bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Pedagogik mahoratni takomillashtirishning istiqboli, avvalo, falsafiy, pedagogik, psixologik, fiziologik bilimlarni egallashi, o'quv predmeti bo'yicha keng, chuqur va mukammal ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni ijodiy o'rganib o'z faoliyatiga muntazam tadbiq etish hamda nazariya bilan amaliyotning uzviy bog'liqligida olib borish orqali hal etiladi. Chunonchi, pedagogik mahorat ma'lum zaruriy ma'lumotlarni egallash orqali takomillashadi. Darqaiqat, pedagogik mahoratni takomillashtirish uchun, avvalo, o'quv predmetining ilmiy-nazariy asoslari bilan qurollanish, uning metodologiyasini egallashni, ta'lim tarbiyaning davr talabidagi maqsad va vazifalarini tushunish va anglash, kompyuter savodxonligiga ega bo'lish, mustaqil bilim olish faoliyatini aniq rejalashtira olish, pedagogik taffakur egasi bo'lib, pedagogik texnikani egallash, ijtimoiy faollik va metodik madaniyatga ega bo'lish hamda boshqa ma'lumotlar kerak bo'ladi. Pedagogik faoliyatini boshlayotgan har bir yosh o'qituvchi, dastavval, o'z kasbiy mahoratini shakllantirish va takomillashtirish ustida g'amxo'rlik qilishi, bu yo'lda uchraydigan qiyinchiliklardan qo'rqmasligi, sarosimaga tushmasligi kerak bo'ladi.

Shu o'rinda e'tirof etib o'tish joizki, hozirgi davr, milliy mustaqillik o'qituvchi - tarbiyachining o'z faoliyati jarayonida quyidagi uch muhim vazifani amalga oshirishini talab etadi:

1. Ijtimoiy buyurtma sifatida ta'lim muassasalarida o'quv - tarbiya ishlarini tashkil etish, amalga oshirish orqali, aql-zakovatli, bilimdon, ishbilarmon tadbirkorlarni tayyorlash hamda ularni davr texnikasi va uning ishlash texnologiyasi bilan yaqindan tanishtirish.

2. Ta'lim - tarbiya ishlarini amalga oshira borib, o'qituvchi - o'quvchilarni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, egallangan bilimlar asosida ularda amaliy ko'nikma, malakalar hosil qilish va uzluksiz ta'limga tayyorlash.

3. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlar asosida o'quvchi - yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ma'naviy - axloqiy salohiyatini yuksaltirish, jamiyat uchun erkin fikrlovchi va irodasi baquvvat yoshlarni tarbiyalab voyaga yyetkazish, ularning o'z - o'zini anglash, o'z - o'zini boshqarish

malakalarini hosil qilish, mustaqil bilim olishga o'rgatish, g'oyaviy - siyosiy e'tiqodini hamda milliy - estetik fazilatlarini tarkib toptirishga erishish.

Bu vazifalarni hal etish va o'qituvchi - tarbiyachining pedagogik mahoratini takomillashtirish uchun bilim, mahorat, salohiyat talab etiladi. Pedagogik mahoratning takomili esa faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda yo'lga qo'ygan o'qituvchining bunday tayyorgarlikka ega bo'lishi va amalga oshirishini tajriba ko'rsatmoqda. Bular:

I. Ixtisoslik fanining ilmiy - nazariy va metodologik asoslari bilan qurollanish. Ma'lumki, har bir fan o'zining o'rganish sohasi, o'qitish muammosiga qarab ilmiy - nazariy va metodologik asosga ega bo'ladi. Zero, fanning ilmiy - nazariy va metodologik asosi bilan qurollanishi o'qituvchi - tarbiyachiga borliqni, uning taraqqiyot qonuniyatlarini aniq anglash va talqin qilish imkonini beradi. Chunonchi, ta'lim - tarbiya jarayoni mana shu taraqqiyot qonuniyatlarini anglashga, tushunib etishga qaratilgan, maqsadga yo'naltirilgan o'qituvchi - o'quvchi hamkorligining majmuadir. Bunday hamkorlikda o'quvchilar o'qituvchi rahnamoligida borliqdagi oddiy va murakkab narsa - hodisalarning mohiyat - mazmunini bilishdan, murakkab narsa va hodisa, voqea sirlarini anglashgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'zlashtirib ularga o'z munosabatini bildiradi. Shu munosabat natijasi o'laroq o'quvchi - o'quvchilar borliqdagi narsa va hodisalarning tuzilishini, ularning aloqadorligini, farqini, bordan yo'q, yo'qdan bor bo'lmashligini bilib oladilar, tasavvurlar hosil qiladilar. Shunga ko'ra asosiy ilmiy g'oyalar, davr kontseptsiyasi, qonuniyatlarni to'g'ri anglash, bilish oqibatida fanning bosh yo'nalishi, metodologiyasi egallanadi va amaliyotda qo'llaniladi. Bu davr taqozosidir.

II. Ta'lim - tarbiyaning hozirgi bosqichdagi maqsad va vazifalarini tushunib etish va uni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish. Hozirgi davrning o'qituvchi-tarbiyachisi zamon talablari asosida ta'lim va tarbiyaning maqsad, vazifalarini to'g'ri, aniq tushunsadagina uni talabga muvofiq amalga oshira oladi. Buning uchun har bir o'qituvchi - tarbiyachi, avvalo, "ta'lim", "tarbiya" tushunchalarining mohiyati, mazmuni, "ta'lim jarayoni", "tarbiya jarayoni"ning mexanizmini, ularning ob'ektiv va sub'ektiv qonuniyatlarini bilishi, amaliy faoliyatda ulardan o'rinli foydalanish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Shunga ko'ra o'qituvchi, dastavval, ta'lim - tarbiyaning, asosan, ijtimoiy, psixologik, didaktik xususiyatlarini, ilmiy - nazariy asoslarini muntazam bilib borishga odatlanmog'i, so'ngra esa, shaxsiy tajribalarini

davr talablari asosida tashkil etishi, ularni pedagogik - psixologik nazariyalar bilan taqqoslashi, ilg'or tajribalarni o'rganishi, o'qitish va tarbiyalash ishlarini hayot bilan, mehnat bilan, ishlab chiqarish texnologiyalari bilan bog'lash imkoniyatini qo'lga kiritishga harakat qilishi darkor. Zero, o'quvchilar hozirgi sharoitda unumli mehnat jarayonida tayyor bo'lishlari shart. Ta'lim muassasasidan o'qilgan ishlab chiqarishning barcha jabhalari tamoyillaridan voqif qilmoq lozim. Ayni paytda, ularga oddiy mehnat qurollari bilan ishlay olish malakasini berishi zarur.

III. Pedagogik faoliyatni mustaqil tashkil etish. Har bir o'qituvchi - tarbiyachi pedagogik faoliyatga kirishar ekan, avvalo, uni mustaqil tashkil etish, shaxsiy tajribalarini yaratish malakasiga ega bo'lishi lozim. Shundagina, u mahoratli kasb egasi bo'la oladi. Shuning uchun o'qituvchi, avvalo, o'z ixtisosligi, kasbiy faoliyati ustida mustaqil ishlashi, bilim olishi shaxsiy faoliyatini ilmiy - nazariy, usuliy - amaliy yo'nalishlarini mukammal egallashga intilmog'i darkor. Mustaqil ishlash, o'z faoliyatini mustaqil takomillashtirib borish, har bir o'qituvchi-murabbiy oldiga davr qo'yayotgan talabdir. Bu o'z navbatida o'qituvchining mustaqil bilim olishning kompleks malakalariga ega bo'lishini, o'z-o'zini nazorat qilishini, o'z faoliyat natijalarini tahlil qilib, o'z faoliyatini baholashning real ko'nikmalarini o'ziga hosil qilishi zarurligini ko'rsatmoqda. Bu faqatgina pedagogik faoliyatni mustaqil tashkil etish orqali amalga oshadi.

IV. Pedagogik jarayonga ijodkorlik nuqtai nazaridan yondoshish. Har bir o'qituvchi - tarbiyachi, eng avvalo, o'z pedagogik faoliyatiga tadqiqotchilik nuqtai nazarida ko'rib, unga izlanuvchanlik asosida yondoshsa, tadqiqotchilik malakalariga ega bo'lsa, shaxsiy tajribasini pedagogik tashxislar, tajribalar asosida yaratasa, mahoratga erisha oladi. Chunki, bunda o'qituvchi ilg'orlikdan ijodkorlikka o'tadi va kunlik ish faoliyatini tahlil qiladi, yo'l qo'ygan nuqson va kamchiliklarini aniqlab, uni tuzatishni loyihalashtiradi. Bunda ijodkorlikning muhim omillari tafakkur va faoliyat, iroda va qobiliyat izlanish hosilasi sifatida pedagogik mahoratni tarbiyalashga ko'maklashadi. O'qituvchi ijodkor bo'lgan taqdiridagina ta'lim-tarbiyaviy ishlarini tashkil etishning no'anaviy yo'lidan bora oladi.

Amaliy faoliyatning ijodkorlik darajasini o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning mazmunan va mohiyatan yangi, samarali majmuasini yaratishni tashkil etadi, u ishning samarasi hamda istiqbolini ta'minlaydi.

V. Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalana olish. Har bir fan o'qituvchisi yosh avlodga fan asoslarini o'rgatar ekan, u, avvalo,

berilayotgan ma'lumotlar asosida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalaydi, ularni mehnat va kasbga yo'llab, ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlaydi. Shuning uchun ta'lim va tarbiya yaxlitligini ilmiy jihatdan tushunish, ta'lim va tarbiyaning imkoniyatlaridan o'rinli va maqsadli foydalanish orqali mumkin. Bu qolaversa, har bir fan o'qituvchisining oldidagi insoniy burchi va pedagogikaning umumiy qonunidir. Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatidan foydalana olish, o'z navbatida, o'qituvchiga pedagogik g'oyalarni hayot bilan, ishlab chiqarish va fan bilan, taraqqiyotning ijtimoiy munosabatlari bilan, ijtimoiy ongning ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari bilan bog'lash imkonini beradi. Fanning tarbiyaviy imkoniyatlari kengayib, ta'lim samaradorligi oshadi, shuning uchun pedagogik mahorat sari intilayotgan har bir o'qituvchi buni chuqur his qilishi, teran anglay olishi va o'z o'quv fani doirasidagi bilimlar yordamida darsning tarbiyaviy maqsad, vazifa, yo'l hamda vositalarini aniq belgilab, ulardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'zida shakllantirgan bo'lmog'i lozim. Bu pedagogik mahoratni takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir.

VI. O'qituvchining kompyuter savodxonligi. XXI asr kompyuter, axborot kommunikativ texnologiyalari asridir. Bu asrda har bir o'qituvchi kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi, davr texnikasi va uning ishlash texnologiyasidan xabardor bo'lishi, o'qitish jarayoniga texnika va axborot-kommunikativ texnologiyalarini qo'llay olishi talab etiladi. Bu esa, o'z navbatida dars samaradorligini oshirishga, o'qish-o'qitish sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi didaktik hodisa hisobdanadi. Bundan tashqari kompyuter, yordamida olingan ma'lumotlar mashg'ulot mazmunini boyitish bilan birga o'qituvchining ilmiy-nazariy saviyasini oshirishga, savodxonligini ko'tarishga yordam ko'rsatadi, fanlararo integratsiya yo'lga qo'yiladi, o'quv topshiriqlarining amaliy yo'nalishi kuchaytiriladi, o'qituvchining pedagogik mahorati takomillashadi.

VII. O'z ishiga, o'rtoqlariga, kasbdoshlariga, ta'lim muassasasi rahbarlariga, ota - onalarga ijobiy munosabatda bo'lish. O'zaro hurmat, yordam, hamkorlik va bir birini aniq va to'g'ri tushunish kasbiy mahoratni egallashning muhim shartlaridan biri ekanligini tajriba ko'rsatmoqda.

VIII. Pedagogik izlanish ilmiy uslubiy, amaliy tayyorgarlikni rejalashtirish, pedagogika, metodika fanlari sohasida ijod qilish.

IX. Darsdan va ta'lim muassasasidan tashqari ishlarni tashkil etishning usul va shakllarini mukammal bilishi, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini qiziqarli va mazmunli o'tkazish metodikasini, ularni ijtimoiy -

foydali ishlarga jalb qilish yo'llarini, o'quvchilarda havas, qiziqish, tashabbuskorlikni tarbiyalash shakllarini har tarafлама bilish va amalda qo'llash uchun muhim omildir.

Pedagogik mahoratni takomillashtirishning qayd qilib o'tilgan yo'nalishlari, birinchi navbatda, o'qituvchi - tarbiyachi mohirligini oshirishga yordam bersa, ikkinchidan o'qituvchining ta'lim - tarbiya ishlarining yangi pedagogik g'oyalar asosida tashkil qilishga o'z kasbiy malakasini yuksaltirishga katta imkon beradi. Chunonchi, doimiy mashq qilish mahoratni takomillashtirish ta'lim-tarbiyani yaxshilash uchun nur ustiga, a'lo nur bo'lib xizmat qiladi

1.4. O'qituvchi kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni

*Umrning butun ma'nosi
mavhumlikni to'xtovsiz zabt
etish, tobora va hamisha
ko'proq bilishga intilishdir.*

Emil Zolya

Tayanch iboralar: jamiyat talabi, milliy dastur, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, shaxsiy sifatlar, kasbiy sifatlar, shaxs kamoloti, pedagogik qobiliyatlar, iste'dod.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo'lib kelgan O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etishi muharrar. O'qituvchi - O'zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, o'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasidagi obro'-e'tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart.

O'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Mustaqil Respublikamizning o'qituvchisi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da qayd etilganidek yuksak ma'naviy - axloqiy fazilat, xulq madaniyati va milliy istiqlof mafkurasini mukammal egallashi kerak bo'ladi. Zero, o'qituvchi - tarbiyachi yuksak ma'naviyat, axloq - odob, xulq madaniyatiga ega bo'lsadagina, o'quvchilarga insoniy nuqtai - nazardan mehribon, saxovatli bo'la oladi, uni hamma hurmat qiladi. Buning uchun aql - zakovatli, saxiy, qat'iy, irodali, ko'ngli ochiq bo'lishi, o'ziga va o'quvchilarga nisbatan talabchan, mehribon va xayrixoq, o'z shaxsiga tanqidiy nuqtai nazardan yondasha oladigan bo'lishi talab etiladi.

Shu o'rinda e'tirof etib o'tish joizki, pedagogik mahorat o'qituvchi - tarbiyachi kasbiy va shaxsiy fazilati to'g'risidagi fan sifatida ma'lum metodologik asosga ega. Darhaqiqat, o'qituvchi kasbiy mahoratini shakllantirishning ilmiy - nazariy, metodologik va amaliy yo'nalishlari Yu.P. Azarov, T.I. Gonobolin, A.K. Kuzmina, O.A. Abdulina, A.V. Mudrik, N.V. Kuxarev, V.A. Selastyonin, V.A. Kan - Kalik, N.D. Nikandrov, A.V. Petrovskiy, Umar az Zamaxshariy, Burxoniddin Zamudjiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, M.Ochilov, K.Zaripov, V.A. Krutetskiy, J.G. Yo'ldoshev, E. G'oziev, U. Mahkamov, B. Xo'jaev, A. Xoliqov va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritilgan. Ularning ta'kidlashlaricha, o'qituvchi o'z fanining bilimdoni bo'lishi bilan birga, insonparvar, adolatli bo'lishi, milliy tarbiya targ'ibotchisi hamda komil inson sifatida o'zida shaxsiy - kasbiy sifatlarni tarkib toptirgan kasb egasi bo'lishi lozim.

Ijtimoiy qiymat va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy psixologik hodisalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hozirgi davr bilan uyg'unlashtirish hamda ajdodlar bilan avlodlar vorisligini o'rnatish faqatgina shu kasb egalari yordamida amalga oshiriladi.

Mashhur Naqshband tariqatida shunday hikmat bor "... Adab bu xulqni chiroyli qilish, so'zni va fe'lni soz qilishdir. Hikmat odobi ulug' baxtdan yaxshiroq, uning belgisi amalning qabuli, vayron esa, amalning buzuqligidir. Adabni saqlash - muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxti, yana muhabbat urug'i hamdir".

Yurtdoshimiz Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil shahar kishilarining axloqiy qarashlari", "Ruh madaniyati haqida risola" kabi tarbiyaviy

qudratga ega bo'lgan pedagogik asarlarni qoldirgan alloma hisoblanadi. U: "... Tabiiy bog'langichlar ta'siri ostida komil insonga aylanishgina kifoya qilmaydi, chunki, inson bo'lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlash va kasb hunarga muhtojdir", - deganida haq edi. Shuningdek, jahon fani va madaniyatiga o'zining boy ilmiy merosi, ko'p qirrali ilmiy faoliyati bilan ma'lum va mashhur bo'lgan Abu Rayhon Beruniyning ijodida ham insonning ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan. U "O'quvchini hamma narsaga o'rgatish" nomli risolasida, ustoz shogirdni san'atga, tabiat ko'rsatmalariga asoslanishga, uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi lozim deb, ta'kidlagan.

Ibn Sino "Tib qonunlari" asarining birinchi kitobida yoshlar ta'lim-tarbiyasida alohida guruhlar bilan suhbat usulini tavsiya qiladi. Ibn Sino shu va shunga o'xshash usullar haqida fikr yuritir ekan o'qituvchilik - tarbiyachilik kasbining imkoniyatlarini ochib beradi.

O'qituvchilik kasbining pedagogik, psixologik qirralarini tadqiq qilgan F.N. Gonobolin o'zining "O'qituvchi haqida hissa" risolasida o'qituvchi Vera Aleksandrovna Raush nomidan fikr yuritib mahoratli o'qituvchini quyidagicha ta'riflaydi. "Menimcha yaxshi o'qituvchi bo'lib erishish uchun eng avval haqiqiy hayot kechirish, muayyan maqsadga yo'naltirilgan, to'la qonli hayotga intilish kerak. Tabiatni o'rganib, uning qonuniyatlarini kuzatib borish, kitob mutoala qilish, musiqa tinglash, teatrlarga borish, sayyohatga chiqish singari ishlar bilan shug'ullanish kerak. Keyinchalik boshqalarga ulashish uchun pedagogning qalbi juda ko'p narsani o'zida singdirishi zarur. Shuning uchun men uzluksiz ravishda kitobga murojaat qilaman, tabiatdan o'rganaman, doimo o'qiymen, astoydil o'qiymen."

Demak, o'z kasbining mohir egasi bo'lish uchun o'qituvchi muntazam o'z ustida ishlashi, tabiatdan, san'atdan, hayotdan, fandan bahra olib, rivojlanib, mukammallashib borgandagina maqsadga erishadi. Inson psixologiyasining mohir ustasi F.N. Gonobolin ta'kidlaganidek, o'qituvchi o'zining butun kuch - quvvatini, irodasini, bilimini, o'zida bor hamma yaxshi narsalarini o'z shogirdlariga, xalqqa beradi. Ammo, u o'zida bor narsalarning hammasini bugun, ertaga, indinga bersa-yu, o'z bilimini, kuchini, quvvatini yana va yana to'ldirib bormasa, u holda o'zida hech narsa qolmaydi. O'qituvchi bir tomondan o'zida borini berishi, ikkinchi tomondan bulut singari, hayotdan, fandan, nimaiki yaxshi narsalar bo'lsa olishga odatlanmog'i, xalqning eng ilg'or kishilari bilan hamkorlikda ishlamog'i lozim. Ana shunday bo'lganda, u o'z o'quvchilariga qancha ko'p narsa bermasin, agar xalqdan, hayotdan,

fandan oziqlanib, eng yaxshi xislatlarni o'qiy olsa, u holda, unda o'z o'quvchilari uchun bunday rizqli shiralar hamisha ortig'i bilan mavjud bo'ladi.

Binobarin, buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o'qituvchining muntazam ravishda fan bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday yozgan edi:- "O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda, u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bu o'qituvchidan hech natija kutib bo'lmaydi".

Hozirgi fan va texnika jadal ravishda rivojlanayotgan, axborotlar keskin oshib borayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror sohasida ro'y berayotgan yirik kashfiyot qariyb o'n, o'n besh yillik samarali va kishi zo'rg'a ishonadigan voqea hisoblangan bo'lsa, hozirgi vaqtda har yili, hatto har oy ichida fan, texnika sohasida shunday yangi - yangi kashfiyotlar ro'y bermoqdaki, bilimlarning ilgari noma'lum bo'lgan yangi yo'nalishlari maydonga kelmoqdaki, buning uchun har bir kasb egasi, jumladan o'qituvchi o'z mahorati ustida muntazam ishlash kerak bo'ladi. Kishilarda, eng avval yoshlarda, bilimga bo'lgan intilish beqiyos darajada o'sib borayotir. Shuning uchun hozir o'qituvchi faqat o'z fani bo'yicha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan sohalaridagi yangiliklarni bilishi ham lozim bo'ladi. Chunki, adabiyot darslarida o'quvchilarni - nisbiylik nazariyasi, molekulyar biologiya, kibernetikaga doir masalalar qiziqtirib qoladi. qiziquvchan o'quvchi - yoshlarni fanning bu sohalarini bo'yicha savollariga javob bera oladigan o'qituvchigina ularning sevimli o'qituvchisi bo'la oladi. Buning uchun mahorat zarur. Shunday vaqtlarda o'qituvchi va yosh o'qituvchilarga: "Izlaning, o'qing, iloji boricha yana ko'proq o'qing!", deging keladi. Fikrimizcha, badiiy adabiyotni yyetarli o'qimagan o'qituvchi tarixdan, fizikadan, matematikadan yaxshi dars bera olmaydi.

O'qituvchi faoliyatining pedagogik qobiliyatlar tizimida tadqiq qilgan N.V.Kuzmina shunday yozadi: - "Ta'lim-tarbiyada ro'y beradigan ko'pgina kamchiliklar o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik qobiliyatining amaliy yo'nalishini yaxshi bilmaslik, iste'dodning o'qituvchida yo'qligidir".

O'qituvchilik ishi uchun iste'dod zarurmi? Uning o'zi nima va u qanday paydo bo'ladi? Iste'dod - insonning muayyan bir faoliyat turi bilan shug'ullanib, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatidir. Faoliyatga intilish har bir kishida juda barvaqt paydo bo'ladi va hayot davomida

takomillashib boradi, insonga qoniqish, mamnuniyat bag'ishlab, kasbning haqiqiy egasi va maftunkori bo'lishga zamin yaratadi. Iste'dodning faoliyatga bo'lgan yo'nalishi uchun motiv va maqsad zarur. Zero, iste'dod motiv va maqsad asosida shakllanadi. Motiv - insonni harakatga, intilishga undovchi holat. Maqsad esa ana shu harakat, intilish orqali erishilgan natijadir.

Motiv inson ehtiyojlari bilan bog'liq bo'ladi. Ehtiyoj motivning paydo bo'lishi uchun turtkidir. Ma'lumki, motivlar ehtiyojni ro'yobga chiqarishga ko'mak bo'ladi. Ehtiyojlar moddiy, ma'naviy, madaniy (san'atga bo'lgan ehtiyoj) va mehnatga bo'lgan ehtiyojlar kabi turlarga ajratiladi. Mehnat ehtiyoji ma'lum faoliyat yuzasidan iste'dodni namoyish qilishda asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Muayyan mehnatga bo'lgan ehtiyoj asosida tarkib topgan motiv insonni o'z oldiga aniq maqsad qo'yish va unga intilishini ta'minlaydi. Masalan, o'qituvchilik kasbiga bo'lgan ehtiyoj, uni o'quvchilar bilan ishlash uchun, muayyan ma'lumotlarni egallash maqsadi sari yyetaklaydi. O'qituvchi faoliyatining maqsadi shu kasb uchun zarur bo'lgan ilmiy-nazariy, amaliy - metodik, ma'lumotlarni egallash motiviga asoslanadi. Motiv, maqsad o'qituvchini mahorat sari yyetaklaydi.

Pedagogik mahoratni tarbiyalashning ilmiy - nazariy asoslari yana bir rus pedagogi V.A.Slastyonin tomonidan tadqiq qilingan. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanishi yo'nalishidagi ilmiy maqolalarida V.A. Slastyonin pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: - "O'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchidan, ilmiy nazariyalar - taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini, tamoyillarini, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir. Amaliyot bo'lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat - falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezisiz pedagogik amaliyotni maqsadli qurish juda mushkul". Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lib, pedagogik amaliyotni to'g'ri va maqsadli tashkil qilish uchun ilmiy-nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish talab qilinarkan, o'qituvchi doimo uni qo'lga kiritishga harakat qilmog'i dardor.

Muammoli savollar:

1. Pedagogik mahorat nima?

2. Pedagogik mahoratni oshirishda bilim va ma'lumotlarning mazmuni nimalardan iborat?

3. Fanning maqsad va vazifalari nimadan iborat?

4. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?

5. Pedagogik texnika qanday malakalarni o'z ichiga oladi?

6. Pedagogik texnika talaba faoliyatida qanday rol o'ynaydi?

7. Pedagogik mahorat va pedagogik faoliyatning mazmuni nimalardan iborat?

8. Pedagogik mahoratni takomillashtirish tamoyillariga izoh bering.

9. Ijtimoiy pedagogik mahorat deganda nimani tushunasiz?

10. Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

11. Agar tarbiya-san'at bo'lsa, uni o'rganish va o'rgatish mumkinmi?

12. Pedagogik mahorat - tajribami? Malakami? Yoki boshqa narsami?

13. Pedagogik texnika bilan pedagogik mahorat qanday nisbatda bo'ladi?

14. Mohir o'qituvchilarning tarbiyaviy ish tajribasi nimalarda yordam berishi mumkin?

15. Har qanday holda ham yaroqli bo'lgan hammabop tarbiyaviy vositalar bormi? Agar yo'q bo'lsa, nima uchun?

16. O'qituvchi nima sababdan tadqiqot ishi bilan shug'ullanishi kerak?

17. Pedagogik texnikani egallashda aynan guruhda ish olib borishning roli nima uchun katta?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

1. "Pedagogik mahorat" fanini boshqa turdagi fanlar bilan taxlit qilib, uning mazmuni va mohiyatini dalillar orqali ochib bering.

2. "Pedagogik mahorat" fanini o'qitish - davr talabi deganda nimani tushunasiz? Misollar bilan izohlab bering.

3. Guruhlarga bo'linib, o'qituvchining kasbiy sifatlariga birma-bir tavsif bering.

4. "Pedagogik mahorat"ning tarkibiy qismlarini ochib bering.

5. O'qituvchi pedagogik texnikasining har bir qismlariga izoh bering.

6. O'zingiz xoxlagan pedagogik vaziyatni tanlab, mimika va pantomimika orqali tushuntiring.

TESTLAR

1. «Pedagogik mahorat» fanining predmeti izohlangan javobni belgilang.

b) muomalaning demokratik usuli.

c) jismoniy harakatlar usuli.

d) o'zaro munosabatlar usuli.

13. «Pedagogik mahorat» nimani o'rganadi?

a) Pedagogik taraqqiyotda sotsiologiya'ni.

b) Pedagogik mahoratda psixologiya'ni.

c) Ta'lim, tarbiya, ma'lumotni.

d) Pedagogik mahoratning mohiyat – mazmunini, uning tarkibiy qismlarini, pedagogik mahoratni shakllantirish va takomillashtirishni.

14. «Pedagogik mahorat»ning kategoriyalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) pedagogik texnika, pedagogik qobiliyat, pedagogik muomala, pedagogik nazokat, pedagogik hamkorlik, pedagogik ijod.

b) nutq texnikasi, ijodiy tafakkur, ovoz tembri.

c) tarbiya, o'qitish, ta'lim, ma'lumot.

d) irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim – tarbiya.

15. Bosh, gavda, qo'l, oyoq harakatlari nimani anglatadi?

a) mimikani.

b) nutq texnikasini.

c) pantomimikani.

d) o'qituvchining aktyorlik malakasini.

16. Xayrihohlik, optimizm, faoliyatni dam oldirish, xulqini nazorat qilish, o'z – o'ziga salbiy ta'sir ko'rsatishdan saqlanish, musiqaviy, jismoniy vaziyatlar yaratish nimani anglatadi?

a) jismoniy harakatlar usulini.

b) o'z hissiyotini nazorat qilishni.

c) his – tuyg'ularini tarkib toptirishni.

d) talabalarga hissiy ta'sir ko'rsatishni.

17. Qosh, ko'z, yuz muskullarining harakati nimani anglatadi?

a) mimik ifodaning asosiy detalini.

b) pantomimik ifodani.

c) o'qituvchining pedagogik texnikasini.

d) nutq ifodasini.

18. Tashkiliy – metodik malakalarga ega bo'lish nimani anglatadi?

a) pedagogik mahoratni.

b) nutq madaniyatini.

c) pedagogik texnikani egallash yo'lini.

d) aktyorlik mahoratini.

19. Pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar

orqali o'qituvchi – talabalarga o'z fikri va qalbini yetkazish nimani anglatadi?

a) pedagogik muomalani.

b) pedagogik texnikani.

c) pedagogik hamkorlikni.

d) nutq texnikasini.

20. Pantomimika nima?

a) o'qituvchining chiroyli nutqi.

b) o'qituvchining nazokati.

c) gavda, qo'l, va oyoq harakatidir.

d) pedagogik mahoratning tarkibiy qismi.

21. Mimika nima?

a) o'qituvchining kasbiy malakasti.

b) pedagogik ijod.

c) pedagogik texnikaning malakalaridan biri.

d) o'z fikrlari, kayfiyati, holati, hissiyoti, yuz muskullarining harakati bilan bayon qilish san'ati.

22. Atrofdagi olamga nisbatan insonning o'ziga xos aktiv munosabati, borliqqa ta'sir ko'rsatish va uni o'zgartirishga intilishi odamning qanday xususiyati?

a) mehnat.

b) faoliyat.

c) mahorat.

d) motiv.

23. O'qituvchi kasbiy va shaxsiy sifatlarining umumlashmasi bo'lib, uning bilimlar, ko'nikma va malakalar yig'indisi nima deb ataladi?

a) pedagogik qobiliyat.

b) pedagogik muomala.

c) pedagogik texnika.

d) pedagogik hamkorlik.

24. Har bir pedagogning individual shaxsiy dasturini ishlab chiqishi nimani anglatadi?

a) pedagogik muomalani.

b) pedagogik ijodni.

c) pedagogik muloqotni.

d) pedagogik texnikani egallash yo'lini.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 'Ta'lim to'g'risida'gi qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T. Sharq, 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T. Sharq, 1997, 31-61 betlar.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yyengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2009.-176 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, - 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", NMIU, 2017, - 488 b.
6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va insom manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, "Ma'naviyat", 2017, - 416 b.
7. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O'qituvchi, 2000.
8. Barkamol avlod orzusi. - T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", 2000 y.
9. "Barkamol avlod yili" davlat dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Adolat" gazetasi, 2010 yil, 29 yanvar.
10. Karimov I. O'qituvchi, ustoz, murabbiy...: Talabalar va yosh o'qituvchilar uchun. //Risola - Qo'qon DPI, 2009. - 99 b.
11. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - "Iqtisod-moliya", 2009. - 240 b.
12. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. //Saylanma. - O'qituvchi, 1997.- 118 b.
13. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomli TDPU. 2005. - 149 b.
14. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llamna (L I. Ruvinskiy tahriri ostida). - T.: O'qituvchi, 1991. - 376 b.

15. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T.: Fan, 2009. - 168 b.

16. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

II BOB. PEDAGOGIK MAHORAT ELEMENTLARI. PEDAGOGIK TEXNIKA HAQIDA TUSHUNCHA, UNI EGALLASH YO'LLARI

2.1. Pedagogik texnika tushunchasi va uning mazmuni

*Odamlar bilan ularning aqliga monand
gaplash. Oqillar nazdida gar o'ltirish
odobdir, maslahat tashlaganda so'zga
ko'rsatgil himmat. Ikki narsa aqlga
sig'maydi gar bilsang, so'zlash payti
sukutu, keraksiz joyda suhbat.*

Sa'diy Sheroziy

Tayanch iboralar: *pedagogik mahorat elementlari, pedagogik texnika tushunchasi, ma'naviy qashshoqlik, kasb-kor va shaxsiy-kasbiy malakalarning namoyon bo'lishi, malakalarni shakllantirish, pedagogik faoliyat jarayoni, pedagogik texnika xususiyatlari, pedagogik texnikaning shakllanishi, o'qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik ta'sir ko'rsatish, o'qituvchining chehrasi, pedagogik texnikani egallash usullari, tashkiliy-metodik malakalar.*

Pedagogik texnika - o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari - bu avvalo, o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalar hisoblanadi, ya'ni, uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali, o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir.

O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o'qituvchi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lib

o'rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlarini va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida o'z-o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyatini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'yata'sirlarga berilmaslik;

- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;

- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish. nutq sur'ati) bilishi va o'z o'rinda qo'llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;

- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;

- ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;

- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab, boshqara olishi.

O'qituvchining tarbiyalanuvchi obyektlar oldida o'z harakatlarini boshqarishida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni, mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki, bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, o'qituvchi butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy innovatsion usullar vositasida o'quvchilar ongiga yetkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko'radi, sinf jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib, pedagogik faoliyat ko'rsatishga majbur. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o'qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u, o'qituvchiga o'z gавdasini tuta bilishi (mimika, pantomimika), his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar

jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi.

Demak, pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Ilg'or va novator o'qituvchilarning texnik mahorati pedagogik faoliyat olib borishlarida mimik va pantomimik harakatlarida, ovozi idora qila olish xususiyatlarida kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, o'qituvchilar pedagogik texnika san'atini mukammal egallaganlar, uning ko'nikma va malakalarini o'zlarida aniq shakllantirishga va turli pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlariga egadirlar.

Pedagogikada o'qituvchi chuqur hissiyotga berilishini, shaxsiy hayotidagi turli ruhiy vaziyatlar tufayli kayfiyatining o'zgarib turishini o'zi qattiq nazorat qilish talab qilinadi. Ushbu nazoratni o'qituvchining o'zi boshqarishi lozim. Bu jarayonning ijobiy natijalari o'qituvchining refleksiv qobiliyatlarida namoyon bo'ladi.

Pedagogik texnikaning yana bir muhim xususiyati pedagogik ta'sir ko'rsatishdagi o'qituvchining ma'naviy va estetik qiyofasi. Bu tarbiyalanuvchilarga yaqqol namoyon bo'ladigan xususiyatdir. Agar o'qituvchi ma'naviy qashshoq bo'lsa, nutqi tartibsiz va muloqotda no'noq bo'ladi, didi past, o'z hissiyotlarini jilovlay olmaydigan qo'pol bo'lsa, uning ta'lim-tarbiya berishi haqida gap bolishi mumkin emas.

Pedagogik texnikaning sirlarini egallash yo'llari, o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlar va mustaqil pedagogik faoliyat jarayonida shakllanib boradi. Pedagogik texnika sirlarini mukammal egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'qituvchi o'z-o'zini doimiy shakllantirib borishi, ya'ni, o'z oldiga qo'yilgan talablar nuqtai nazaridan mohir o'quvchi, shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyati muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchining kasb-kor, shaxsiy-kasbiy malakalarini inobatga olgan holda, o'zaro bog'liqlik va yaxlitlikda qo'llaniladi. Shunda o'qituvchi pedagogik texnikasining shakllanishi va takomillasuvi uchun sharoit yaratiladi. Bu malakalar hamkorlikda va hamohanglikda ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, o'quvchi -o'quvchilarning bilimdonligi, kasbiy tayyorgarligini yuksaltirish, hamda barkamol inson shaxsini to'laqonli qilib tarbiyalash uchun imkon tug'diradi.

Shu o'rinda alohida qayd etib o'tish lozimki, o'qituvchi pedagogik malakalarni egallab, uning ustasi bo'lishi uchun pedagogik texnikani egallash yo'llarini bilishi ham kerak. endi esa, pedagogik texnikani egallash

yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Pedagogik texnikani egallash yo'llari. Pedagogik texnikani egallash uchun avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetini, pedagogika (tarbiyashunoslik), psixologiya (ruqshunoslik), metodika fanlarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, muntazam ravishda ilg'or tajribalarni o'rganib borishi, kasbiy-pedagogik jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashi zarur bo'ladi. CHunki, pedagogik texnika individual shaxsiy xususiyatga ega. har bir o'qituvchi, har bir pedagog o'zining kasbiy-pedagogik faoliyat yo'nalishi va kasbiy laboratoriyasiga egadir. Bu yo'nalish va laboratoriya o'qituvchiga mustaqil fikr yuritish, mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini mustaqil tahlil qilib, o'z-o'ziga baho berishga undaydi. Mohir o'qituvchiga xos bo'lgan bu malakalar o'qituvchi -tarbiyachini kasbiy ideallik sari yetaklaydi. Pedagogik texnikani egallashning birinchi yo'li shudir.

Pedagogik texnikani egallashning ikkinchi yo'li o'qituvchining tashkiliy - metodik malakalarni egallashi bilan bog'liq. Bu malakalar zarur fanlar bo'yicha ma'ruzalar tinglash, axborot - kommunikativ texnologiyalar, jahon hamjihatligidagi ma'lumotlardan xabardorlikni va maxsus adabiyotlarni o'qishni taqozo qiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko'nikma hosil qilgan taqdirda maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. CHunki, guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir pedagogga o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va hulq-atvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkonini beradi. Bu esa, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi va pedagogik g'oyalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarni hal qilish uchun tajriba maydoni bo'lib xizmat qiladi. Demak, tashkiliy - metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mustaqil ishlash mashg'ulotlari pedagogik texnika asoslarini egallash uchun imkon beradi.

Pedagogik texnikani egallashning uchinchi yo'li - bu har bir pedagogning individual-shaxsiy dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq. Bunday dasturni tuzishdan oldin pedagogik texnika malakalari shakllanganligining boshlang'ish darajasini aniqlab olish zarur. Ya'ni pedagogning dastlabki o'quv-tarbiya ishlaridagi natija, o'qituvchining nutq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri tashkil etilganligi, mimik va pantomimik aniqliklar va h. k. Bunda, dastlabki tajribaning natijasi yaxshi bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson kechadi.

Chunki, individual dastur ko'nikma va malakalar faoliyat davomida rivojlantiriladi, pedagogik texnika malakalarining yyetishmaydigan mexanizmlari to'ldiriladi. Shuning uchun bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmuidan iborat bo'ladi.

Shuni nazardan chiqarmaslik lozimki, pedagogik jarayonda pedagogning umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyoqarashi ham muhim o'rin tutadi. Agar, o'qituvchining nutqi qashshoq, so'zlarni talaffuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan o'rni, jahldor, bo'lar bo'lmasga hissiyotiga erk beradigan bo'lsa tarbiyalanuvchilarning e'tiqodiga, aql - idrokiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashga to'g'ri keladi. Bu pedagogik texnikani egallashning to'rtinchi yo'lidir.

Shunday qilib, pedagogik texnika, uning shaxsiy-kasbiy, kasb-kor malakalari, uni egallash yo'llaridan xabarsizlik, yoki ularga e'tiborsizlik, shuningdek pedagogik faoliyat jaryonida ularning mavqeiga yetarli baho bermaslik, shuningdek, pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir pedagogning individual xususiyatlarini inobatga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv-tarbiya ishidagi nuqsonlarning ko'payishiga olib keladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari mutaxassis rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash)dan iborat. Pedagogik texnika malakalarining individual-shaxsiy ko'rinishda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni, bo'lajak o'qituvchi o'quvchining o'zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari intilayotgan har bir o'qituvchi - tarbiyachiga bu harakatda ham pedagogik texnikani egallash muhim omil bo'lib qolaveradi.

Tashkiliy-metodik jihatdan tashkil etiladigan pedagogik texnikani egallash mashg'ulotlari individual, guruh yoki ketma-ketlikda o'tkazilishi ham mumkin. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotni (xususan, muayyan qo'llanmani) mustaqil o'qish orqali egallanadi. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (turli artikulyatsiya, fonetik nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) ketma-ket ko'rsatilishi darkor. Tegishli ko'nikmalarni shakllantirish, individual ishlash-dastlab o'qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ishlash orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda guruhiiy ish olib borish alohida ahamiyatga ega. Pedagogik texnikani egallashga doir mashg'ulotlarining ushbu shaklini batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir. Chunki, u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko'rsatib berilmagan. Xuddi shunday faoliyat jarayonida pedagog oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rish, hulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlab topish va sinab ko'rish, o'zining o'ziga kasbdoshlar bilan birga amalga oshiradigan faoliyat xususiyatlarini anglash va pedagogik ishning individual uslubini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Guruhiiy faoliyatda shaxsning o'z-o'zini bilishi va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullari tekshirib ko'riladigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maydoni uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Psixologlar pedagogik texnikani guruh bo'lib o'rgatish, rahbarlarning tajriba ishida bunday guruhlarining eng qulay miqdori 10-14 kishidan iborat bo'lishi kerak deb ta'kidlaydilar. Qatnashchilarning xuddi shunday mikdori ularning har biriga boshqa kishilar bilan birga ishlashning individual psixologik muammolarini to'liq ravishda aniqlab, hal etish, refleksiya va empatiya darajasini jiddiy oshirish, pedagogik fahm-farosatni rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarini kengaytirish imkonini beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha mukammal ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda, chunonchi, ham individual, ham guruhiiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi maqsadga muvofiq. Bunday dasturni tuzish uchun, avvalo, pedagogik texnika malakalari shakllanishining boshlang'ish darajasini aniqlab olish darkor. Biroq, tajribaning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, balki avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham fikr yuritish kerak. Bular, masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo'lga qo'yilishi, to'g'ri talaffuz, savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin. Bunday ko'nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko'nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan

shakllanib boradi.

Rivojlangan pedagogik texnika xususiyatlari o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqot jarayonida zarur so'z va gap ohangi, qarash, imo - ishorani tez va aniq topish, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda bosiqlik va osoyishtalik, aniq fikr yuritish, vaziyatni fikran va tez tahlil qilish kabi qobiliyatlarini namoyish etish bilan ifodalanadi. Pedagogik texnikaning ushbu xususiyatlari o'qituvchi kasbiy mahoratida aniq ifodalangan individual shaxsiy shakl oladi, ya'ni o'qituvchining psixologik-fiziologik xususiyatlari asosida uning shaxsiy pedagogik texnikasini tarkib toptiradi.

Individual pedagogik texnikaning shakllanishi o'qituvchining yoshi, jinsi, mijosi, fe'latvori, salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bogliq. O'qituvchilarda individual shaxsiy pedagogik texnika malakalarini shakllantirish muammolari, ayniqsa, psixolog olimlarning tadqiqot markazidan o'rin olgan. Psixolog olimlar R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, M.Abdullajonova kabilar o'qituvchilarning individual kasbiy faoliyatini batafsil o'rganishib, o'qituvchining shaxsiy "Mehnat professiogrammasi"ni ishlab chiqdilar. Olimlarning fikrlariga ko'ra o'qituvchi professiogrammasi o'qituvchilarga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga oladi hamda har bir fan o'qituvchisining alohida ixtisoslashgan xarakteristikasini belgilab beradi. Jumladan, ular ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib boradigan "O'qituvchi-murabbiy professiogrammasi"da quyidagi hislatlar, ya'ni "Pedagogik texnika" malakalari mujassamlashgan bo'lishini ta'kidlaydilar:

1. O'qituvchining shaxsiy xislatlari: bolalarni sevishi, kamtarligi, dilkashligi, mehnatsevarligi;

2. Kasbiga xos bilimlari: ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyatini bilishi, pedagogik va psixologik bilim asoslarini egallashi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga asosan psixologik imkoniyatlarini anglashi, tarbiyaviy ta'sir etishning samarali usullaridan oqilona foydalana olishi, ota - onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan faoliyat mazmunini puxta bilishi;

3. Kasbiga xos hislatlari: milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlarining asl mohiyatini tushunishi, kuzatuvchanligi, pedagogik qobiliyatga egaligi, o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini anglay olishi, pedagogik takt, nutq madaniyati;

4. Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: dars mashg'ulotlarida zarur materiallarni tanlay olishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishi, ta'lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirishi, o'quvchilar jamoasini boshqara olishi;

5. Tashkilotchilik malakalari: o'quvchilar jamoasini uyushtira bilishi, turli ziddiyatli vaziyatlarda ham o'quvchilar jamoasini boshqarishi, amaliy muammolarni hal etishda uddaburonligini namoyish eta olishi;

6. Kommunikativ malakalari: o'quvchilarni o'ziga jalb etishni bilishi, o'quvchilar va ota-onalar bilan, maqsadga muvofiq, pedagogik muloqotlarni tashkil qilishi, o'quvchilarning jamoada o'zaro munosabatlarida bir xil muvozanatni tartibga solishi;

7. Gnostik malakalari: o'quvchilarning asab, psixik holati darajasini aniqlay olishi, o'z pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, ustoz o'qituvchilar mahoratini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib borishi, psixologik va pedagogik adabiyotlardan to'g'ri foydalana bilishi, o'quvchilar xulq-atvorini mukammal o'rganishi;

8. Nazardan qolgan, qarg'ish olgan, loqayd murabbiylar tarbiya maskanlariga qadam bosmasliklari kerak. Ular ishlayveradilar, ammo, o'qituvchilikning noni yuqmaydi, ro'shnolik ko'rmaydilar, falokati arimaydi, niyatlariga yetmaydilar. Chunki, muqaddas kitoblarda "nel bersak, egallab turgan kasb koringizdan berurmiz" deb yozilgan;

9. "Kasalga halollik buyuk ibodatdir". Adiba o'qituvchidan o'z kasbiga sadoqatli bo'lishni, fidoyilikni, yuksak ma'naviyatni, tinimsiz mehnat o'quvchilarga nisbatan mehr va muhabbatni, halol va pokiza bo'lishni talab qiladi. Bu, aynan, o'qituvchi pedagogik texnikasining ham muhim xususiyatlaridan biridir.

2.3. Pedagogik texnikani namoyon etishda o'qituvchining kasbiy mahorati

*Suhbatni shunday olib borish kerakki,
suhbatdoshlarning har biri undan naf
olsin, bilimi yanada boyisin.*

Geraklit

Tayanch iboralar: bilim, ko'nikma, malaka, pedagogik texnika xususiyatlari, mimika, pantomimika, nutq texnikasi, o'qituvchining shaxsiy xislatlari, kasbiga xos bilimlari, kasbiga xos hislatlari, shaxsiy pedagogik uddaburonligi, tashkilotchilik malakalari, kommunikativ malakalar, gnostik malakalar.

O'qituvchining tashqi ko'rinishi pedagogik texnikasini namoyon etuvchi muhim xususiyatlaridan biridir. Har qanday insonning tashqi

ko'rinishi atrofda ilgarga estetik ma'no va zavq kasb etib, doimiy e'tiborda bo'lishini unutmaslik kerak. O'qituvchining tashqi ko'rinishi, asosan, namoyish etuvchi muhim xususiyatlari, uning chehrasidagi mehribonlik, jiddiylilik, yurishida bosiqlik, tabiiylikdir. O'qituvchi sinfga kirishi bilan so'zsiz o'quvchilar e'tiborida bo'ladi, ular bilan muloqotga kirishadi.

Sinf sahnasida bajarilayotgan, uning xoh ijobiy, xoh salbiy xatti - harakatlari o'quvchilarga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar ilk bor darsga kirishlaridan oldin his-hayajonini, qo'rquvini yyengishlari, o'zlarini erkin tutishlari, birinchi dars paytida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday muvaffaqiyatsizlikdan o'zlarini yo'qotmasliklari lozim.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida, pedagogik texnikasi tizimida mimik, pantomimik holatlar muhim ahamiyatga ega, o'qituvchining xatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi, yoki, istehzali tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

MIMIKA - bu o'z fikrlarini, kayfiyatini, holatini, hissiyatini qosh, ko'z va chehra muskullarining harakati bilan bayon qilish san'atidir. Ba'zan o'qituvchi chehrasining va nigohining ifodasi o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'qituvchining muomalasi va xatti-harakatiga qarab kayfiyatini, munosabatini tezda «uqib» oladilar. Shuning uchun, oiladagi ba'zi noxushliklar, hissiyotga berilish, g'am va tashvishning o'qituvchi chehrasida va mimik belgilarida ifodalaniishi mumkin emas. Chunki, ushbu noxushliklar o'qituvchining pedagogik faoliyatiga dars mashg'ulotlarini mukammal bajarishida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchining chehrasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga xos bo'lgan, o'quvchilarga ta'lim va tarbiyaviy topshiriqlarni yechishga yordam bera oladigan ko'rinishlarni ifodalash lozim.

O'qituvchining chehrasidagi ifoda, nutqi, o'quvchilar bilan o'zaro munosabati uning individual xarakteriga mos bo'lishi kerak. O'qituvchi chehra ko'rinishidagi mimik ifoda, ta'lim-tarbiya qonuniyatlariga mos ishonch, ma'qullash, ta'qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda, ovozdagi turli o'zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi

muhim ahamiyatga ega. Mimik ifodaning asosiy belgilarini namoyish etishda qosh, ko'z, chehra ko'rinishi ishtirok etadi.

Qosh, ko'z, chehra o'quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo'lish, faxrlanish yoki e'tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo'lish va boshqa belgilarni ifodalash bilan birga, o'quvchilar diqqatini bo'lmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishga ham yordam beradi. Shuni alohida qayd qilib o'tish joizki, mimik ifodalar o'qituvchining xarakterini, ichki dunyosini, ma'naviyatini, pedagogik faoliyatining individual xususiyatlarini bekamu ko'st namoyish etadi. O'qituvchining mimikasi ifodalangan nigohi o'quvchilarga, yoki ayrim o'quvchiga qaratilgan bo'ladi. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazmali qurollarga, yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoish qilish aslo mumkin emas.

PANTOMIMIKA - bu o'qituvchining gavdasi, qo'l, oyoq harakatini tartibga soluvchi uslubdir. O'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida o'quvchilar bilan muloqoti, muhim ahamiyat kasb etishi, barchaga ma'lum. Biroq o'quvchilar bilan muloqotda o'qituvchining pantomimikasi, ya'ni, gavda, qosh, oyoq harakati to'g'ri ifodalanmasa, ta'lim - tarbiyaga asoslangan muloqot natija bermastligi mumkin. O'qituvchi o'z gavdasi, qoshi, oyoq harakatlarining holati orqali har qanday pedagogik malumotlarning obrazini "chiza" olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ular ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shilib butun ongini o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishga qaratadilar. Pantomimika gavdani rost tutib yura bilish, qo'l va oyoq harakatlarining bir - biriga mosligi, fikrlarini aniq va to'liq bayon qilib, qo'lini, boshini turli harakatlarda ifodalashi, o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun, o'qituvchining o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalashi lozim. (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyog'i sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining yurishi, qo'l va oyog'i orqali imo-ishoralari ortiqcha harakatlardan holi bo'lishi kerak. Masalan auditoriyada orqaga va oldinga tez-tez yurish, qoidasi bilan turli imo-ishoralar qilish, boshini har tomonga tashlash va hokazo. Bunday holat dars davomida o'quvchilarning e'tiborini bo'lib, g'ashini keltiradi va o'rganilayotgan fanga, o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik kayfiyatini uyg'otadi.

O'qituvchi mashg'ulot o'tish jarayonida faqat oldinga yurishi tavsiya qilinadi. Uyondan, buyonga yurish talabalarfikrini bo'ladi. U tomonga yurayotganida o'qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi mumkin, chunki, bunda talabalar o'qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo'ladilar.

O'qituvchining pantomimik harakatlari tizimida o'z hissiy holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida qizg'in kuzatuv ostida bo'ladi. Uning kayfiyatida o'zgarishlar pantomimik harakatlarida namoyon boladi. Shu tufayli o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida (dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatida bo'la olish qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Pantomimik harakatlar tizimi o'qituvchiga birdaniga paydo boladigan ko'nikma emas. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, ilk pedagogik faoliyati davrida kamchiliklarini tezda topib, bartaraf eta olishi darkor. Chunki, yillar davomida o'qituvchi o'zining har bir harakatiga moslashib, odat qilib olishi mumkin. Mukammal pantomimik malakalarga ega boigan o'qituvchi o'z-o'zini nazorat qila oladi. Ko'p yillik faoliyati davomida soglom asab tizimini o'zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini saqlay oladi:

- sport bilan muntazam shug'ullanib borishi;
- yoshlar psixologiyasiga oid bilimlarni doimiy o'rganib borishi;
- o'quvchilarga nisbatan xayrixohlik va optimizmga ega bolishi;
- o'z harakatini nazorat qilishi (muskul zo'riqishini, qosh, oyoq, va bosh);
- harakatini, nutq sur'atini bir maromda saqlashda nafas olishini tartibga solish;
- madaniy hordiqni to'g'ri uyushtirishi (dam olishi, o'z sogligiga doimiy e'tibor, lirika, musiqa, yumoristik hajviyalarni sevib o'qiy olish);
- o'z-o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lib, ta'sir ko'rsata olish.

O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchining harakatlarida aktyorlik va rejissyorlik malakalari ham mujassamlashgan bo'lishi lozim. Xususan, gumanitar fanlar o'qituvchilari aktyorlik qobiliyatiga ega bolishlari lozim. Ma'lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlar haqida so'zlaganda aktyorlik, rejissyorlik malakalari zarur. Ular o'qituvchiga o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishda, mavzu qahramonlariga nisbatan hissiy-qadriatli munosabatda bolish tajribasini o'zlashtirishiga yordamlashadi.

Pedagogik texnika malakalari o'qituvchining maxsus fanlar bo'yicha bilimlarni egallash, pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilish, o'z kasbiga qiziqish, burch hamda mas'uliyatni his qilish asosida oshiriladi. Ular yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ'ibot qilish, mustaqil

bilim olish ishlariga yordam beradi.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida nutq texnikasi, his-tuyg'ularini boshqara olish, mimik va pantomimik malakalar bir qolipda mukammal olib borilganda ko'zlangan maqsadga albatta erishiladi. Bunda, so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishoralar, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda uddaburonlik, osoyishtalik bilan ziddiyatdan chiqish, voqelikni oldindan ko'ra olish va adolatli tahlil qilishga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Bu xususiyatlar o'qituvchining shaxsiy, individual psixik, fiziologik fazilatlariga asosida tarkib topadi. Pantomimik harakatlarni boshqarishda ham o'qituvchining individual pedagogik texnikasi, yoshi, jinsi, mijosi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi va anatomik-fiziologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi, avvalo, tarbiyachi sifatida o'zida yuqoridagi malakalarni shakllantirishi, ularning mazmunini chuqur o'zlashtirib, pedagogik texnikani egallashning imkoniyatlaridan foydalanishi kerak. Shunda, u o'qituvchini pedagogik mahorat sari yetaklaydi. Shunday qilib, o'qituvchining tashqi ko'rinishi ham pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib - tarbiyalanuvchilarga ko'rib, eshitib turgan narsalarini erkin fikrlash orqali, o'z mulohazalarini mustaqil, cho'chimasdan o'qituvchiga yetkazish imkoniyatini beradi. "Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin" - deb yozgan edi taniqli pedagog A.S. Makarenko.

O'qituvchining tashqi ko'rinishi pedagogik texnikasini namoyon etuvchi muhim xususiyatlaridan biridir. Har qanday insonning tashqi ko'rinishi atrofdagilarga estetik ma'no va zavq kasb etib, doimiy e'tiborda bolishini unutmashlik kerak. O'qituvchining tashqi ko'rinishi asosan namoyish etuvchi muhim xususiyatlari uning chehrasidagi mehribonlik, jiddiylik, yurishida bosiqlik, tabiiylikdir. O'qituvchi sinfga kirishi bilan so'zsiz o'quvchilar e'tiborida bo'ladi, ular bilan muloqotga kirishadi.

Sinf sahnasida bajarilayotgan uning xoh ijobiy, xoh salbiy xatti-harakatlari o'quvchilarga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar ilk bor darsga kirishlaridan oldin his-hayajonini, qo'rquvii yengishlari, o'zlarini erkin tutishlari, birinchi dars paytida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday muvaffaqiyatsizlikdan o'zlarini yo'qotmasliklari lozim.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida, pedagogik texnikasi tizimida mimik, pantomimik holatlar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining xatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi,

o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzali tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida nutq texnikasi, his-tuyg'ularini boshqara olish, mimik va pantomimik malakalar bir qolipda mukammal olib borilganda ko'zlangan maqsadga albatta erishiladi. Bunda so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishoralar, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda uddaburonlik, osoyishtalik bilan ziddiyatdan chiqish, voqelikni oldindan ko'ra olish va adolatli tahlil qilishga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Bu xususiyatlar o'qituvchining shaxsiy, individual psixik, fiziologik fazilatlar asosida tarkib topadi. Pantomimik harakatlarni boshqarishda ham o'qituvchining individual pedagogik texnikasi, yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, sihat-salomatligi va anatomik-fiziologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

2.4. Pedagogik texnikani egallash usullari

*Ta'limning siri o'quvchiga
hurmatda bo'lishdir.
Ral'f Uold Emereon*

Tayanch iboralar: *usul, vosita, ko'nikma, malaka, pedagogik texnika xususiyatlari, mimika, pantomimika, nutq texnikasi, nutq sur'ati, diksiya, tovush ohangi, o'qituvchining shaxsiy xislatlari, kasbiga xos bilimlar, kasbga xos hislatlar, shaxsiy pedagogik uddaburonlik, tashkilotchilik malakalari, kommunikativ malakalar, gnostik malakalar.*

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini mukammal takomillashtirgan holda o'z mahoratini oshirish uchun quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. O'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri, uning nutq texnikasidir (nutq sur'ati, diksiyasi, tovush ohangini baland, o'rta, past qila olishi va hokazo).

Dars jarayonida o'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muhim rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha, o'quvchilar tomonidan 12 foiz o'quv materialini tafakkur orqali idrok qilish va o'zlashtirishi o'qituvchilarning nutqiga va uning so'zlari to'g'ri talaffuz qilishiga bog'liq. O'quvchilar o'qituvchining nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik va qiziqish bilan tinglaydilar. Past ohangda gapiradigan o'qituvchining darsi

o'quvchilar uchun zerikarli bo'ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog'ida ovozni baland qilib so'zlashish o'quvchilarni darsdan bezdiradi va charchatadi. O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi. Shuning uchun, o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi o'qituvchilarning nutqlari o'quvchilar ongiga tez ta'sir etadi, o'quv materiallarini oson o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi, o'quvchilar bunday o'qituvchilarning darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. O'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinimsiz ishlashlari, so'zlarini chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi uchun mashq qilishlari, ovoz diapazonlarining kuchi, nutq tembrining harakatchanligi va diksiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim.

Ovoz diapazoni chegarasi baland, yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapazonning hisharishi tovushning past torligiga olib keladi. Past ohangda so'zlashish o'qituvchining idrokini bo'shashtiradi va susaytiradi.

O'qituvchi tovush diapazonini, uning tembri bilan bog'lab ishlatsa, gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni o'ziga jalb etadi va o'quv materiallari mazmuni yanada yaxshi idrok qilinadi.

O'qituvchining notiqlik texnikasi so'zlashi aniq, to'g'ri, tiniq eshitarli va tushunarli bayon qilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri va mukammal ovoz diksiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarini ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim. Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kasb etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish sur'ati, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapazoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur, ushbu jarayon alohida bir faslda ko'rib chiqiladi.

2. Pedagogik texnika malakalarini mukammal egallash uchun avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lishi, pedagogik va axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki, pedagogik texnika o'qituvchilarning individual shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Har bir o'qituvchi o'z tafakkuriga, fikrlash qobiliyatiga, o'zining kasbiy yo'nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega bo'lishi kerak. Bu yo'nalish va laboratoriya'ni o'qituvchilarning o'zlari mustaqil fikr yuritishlari, mustaqil bilim olishlari, pedagogik mahoratini

oshirib borishlari orqali qo'lga kiritadilar va mohir o'qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydilar hamda kasbiy ideal sari harakat qiladilar.

3. Pedagogik texnika sirlarini mukammal bilish o'qituvchining tashkiliy - metodik malakalarni egallashiga ham bog'liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha ma'ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlar o'qish orqali qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l - yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko'nikma hosil qilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki, guruh yoki jamoa bolib o'qish, ishlash har, bir o'qituvchiga refleksiv qobiliyatlari asosida, o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni va baho berishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va xulq atvorining yangi shakllarini izlab topish va sinash imkoniyatini beradi. Bu, esa, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydonini tashkil qilishga zamin yaratadi. Demak, tashkiliy - metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg'ulotlar pedagogik texnika asoslarini egallash imkoniyatini beradi.

4. Pedagogik texnikani bir maromda egallashda, har bir o'qituvchining o'z individual dasturini ishlab chiqishi, muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturni tuzishdan oldin, o'qituvchi o'zida pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang'ich darajasini aniqlay olishi zarur. Ya'ni, o'qituvchining dastlabki o'quv-tarbiya ishlaridagi natijalarida, nutq madaniyatining to'g'ri, yoki noto'g'ri qo'yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro'y beradigan nuqsonlar e'tirof etiladi. Bunda, natija yaxshi bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo'ladi.

Ushbu faoliyat natijasida ko'nikma va malakalar yanada rivojlanib turiladi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yyetishmaydigan jihatlari to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmunini o'z ichiga oladi.

5. Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik texnikani namoyish etishda o'qituvchining umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyo qarashi muhim o'rin tutadi. Agar, o'qituvchining tashqi ko'rinishi, qiyofasi, so'zlarni talaffuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan o'rni, bo'lar - bo'lmas voqealarga nisbatan o'z hissiyotiga erk beradigan bo'lsa, tarbiyalanuvchilarning e'tiqodiga, aql-idrokiga, bilish va anglash

tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim.

Ta'kidlash joizki, pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini egallash yo'llari to'g'risida bildirilgan fikrlarga e'tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning beqiyos ahamiyatiga, yyetarlicha baho bermaslik, shuningdek, pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir o'qituvchining individual xususiyatlarini hisobga olmay, ish yuritish pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida nuqsonlarning ko'payishiga olib keladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchining malaka oshirish kurslariga ishtiroki, ustoz murabbiylar rahbarligidagi mashg'ulotlar (ulardan pedagogik texnika sirlarini o'rganish) va mustaqil (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash) ishlashidir. Pedagogik texnika ko'nikma va malakalarini egallash, individual-shaxsiy salohiyat ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabalik yillarida o'zida tajribali o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat, yyetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari intilishda bu harakat pedagogik texnikani egallashda muhim rol o'ynaydi.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh, yoki ketma-ketlikda o'tkaziladi. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda, yoki tegishli adabiyotlarni mustaqil o'qish asosida integratsion bilimlarni egallash, portal, kompyuter texnologiyalari yordamida egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (turli artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) o'qituvchi tomonidan muntazam mashg'ulotlar asosida egallanadi. Tegishli ko'nikmalarni ishlab chiqish, individual ishlashni dastlab o'qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa, mustaqil ishlash talab qiladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda o'qituvchining jamoada faoliyat olib borishi va mashg'ulotlarda o'z-o'zini nazorat qilishi alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda ma'lum darajada ko'rsatib berilmagan.

Har qanday jamoada, xoh o'qituvchilar, xoh o'quvchilar jamoasi bolsin, o'qituvchi ular oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rishni,

hulq-atvor va muammolarning yangi shakllarini izlab topishi va sinab ko'rishi, o'zining jamoa bilan birga bajaradigan ishi xususiyatlarini anglashi lozim. Shundagina pedagogik faoliyatning individual uslublarini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Jamoa shaxsning o'z - o'zini bilishi va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullarini tekshirib ko'radigan, nazariy va amaliy masalalar, turli muammolar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.

Psixologlar pedagogik texnikaning keng imkoniyatlarini jamoa bo'lib o'rganishni. o'qituvchilar orasida bunday jamoalarning eng qulay miqdorini 10-14 kishidan iborat etib belgilashni ta'kidlab o'tadilar. Qatnashuvchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har birining boshqa o'qituvchilar bilan birga faoliyat olib borishda individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab hal etish, refleksiv va empatik darajasini jiddiy oshirish, kasbiy pedagogik fahm-farosatini rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarining kengaytirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy hamkorlik jihatidan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhviy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun, avvalo, pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq, tajribalarning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham mulohazalar olib borish mumkin. Masalan, nafas olish va ovoznining tabiiy bir holatga qo'yilishi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, bundan oldingi tarbiyaviy metodlarning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik harakatlar bolishi mumkin.

Bunday ko'nikma va malakalarning mavjudligi pedagogik texnika imkoniyatlarini mukammal shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan, barcha hollarda, ana shu ko'nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan faoliyat olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi yoytishmaydigan malakalarni

shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni, yoki ularning to'liq majmuasini ishlab chiqish lozim.

Pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiy sababi aynan pedagogik texnikaga oid ma'lumotlarni bilmasligi oqibatida sodir bo'lmoqda. Pedagogik texnika to'g'risida yuqorida aytib o'tilgan fikr va mulohazalarga e'tibor qilmaslik, pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy tajribalarning yo'qligi, o'z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan baho berolmaslik oqibatida hamda o'qituvchida individual pedagogik texnikani rivojlantirish, tahlil qilish va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning yo'qligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini unutmaslik kerak.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash, bo'lajak o'qituvchiga o'zining kasbiy yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan holi bo'lishda, talabalarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Muammoli savollar:

1. Tarbiyaviy ish jarayonida o'qituvchining o'z psixik holatini boshqarish vazifalari nimalardan iborat?
2. O'zining psixik holatini qanday usullar bilan boshqarish mumkin?
3. O'z-o'zini hissiyot jihatdan tarbiyalashni qanday qilib yaxshiroq tashkil etish mumkin?
4. Tarbiyaviy ish jarayonida o'zining ijodiy kayfiyatini qanday qilib yaxshiroq boshqarish mumkin?
5. O'qituvchining ta'lim-tarbiya ishiga psixik rag'batini qanday qilib amalga oshirish mumkin?
6. Tarbiyachi mahorati qaysi komponentlardan iborat?
7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati nimalardan iborat?
8. Guruhda tarbiyaviy ishlar rejasini tuzishda nimalarga etibor berish lozim?
9. Mehnatni ilmiy tashkil etishda tarbiyaning ilmiy o'rni haqida gapirib bering?
10. Talabalar bilan ishlash shakllari nimalardan iborat?
11. Mutaxassis mahorati nimadan iborat?
12. Mutaxassis mahoratining mazmuni haqida gapirib bering?

13. O'z-o'zini boshqarishda mutaxassis nimalarga e'tibor berishi lozim?
14. Mutaxassisning pedagogik odobi, nazokati deganda nima tushuniladi?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. Pedagogik mahorat, odobning mohiyat – mazmunini o'rganib chiqing va o'z fikringizni bayon eting.
2. Tarbiyachi ruhiy holatini tartibga solish uchun o'z ustida qanday usullar bilan ishlaydi? Misollar orqali izohlang.
3. Insondagi odob sifatlarining o'lchamli mezon bormi? Fikringizni dalillar orqali bayon eting.
4. Mutaxassis mahoratining mazmunini hayotiy misollar bilan ochib bering.

TESTLAR

1. Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga shaxsiy munosabatini namoyon qiluvchi, u yoki bu xatti – harakatini rag'batlantiruvchi, yoki taqiqlovchi usul nima deb ataladi?
 - a) ishonitirish.
 - b) talab
 - c) istiqbol
 - d) jamoatchilik fikri.
2. «... Pedagog pedagogika oliy ta'lim yurtini qancha muvaffaqiyatli tugatgan bo'lmasin, u qanchalik talantli bo'lmasin, agar u tajribalarni o'rganib, shaxsiy tajribasini yaratmasa, hech qachon yaxshi tarbiyachi bo'la olmaydi» - iborasi qaysi pedagogning qalamiga mansub?
 - a) Burhoniddin Zarnudjiy.
 - b) Abdulla Avloniy.
 - c) A.S. Makarenko.
 - d) A.V. Suxomlinskiy.
3. Tarbiyachi mahoratining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilovchi javobni aniq ko'rsating.
 - a) sabr – toqat, xushmuomalalik, g'oyaviy – siyosiy faollik.
 - b) quvnoqlik, vazbinlik, optimallik.
 - c) talabchanlik, ishonchlik, ko'tarinki ruhda bo'lish, g'azablilik, diqqat – e'tiborlilik.
 - d) barcha javoblar to'g'ri.

4. «Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurg'on hissiyot, ya'ni sezishni anglashdan iborat ma'naviy quvvatga aytilur. ... Vijdon insonning aql va fikrining haqiqiy mezonidirki, bu tarozu orqali o'z kamchiliklarimizni o'lchab bilib olamiz ...» iborasi qaysi pedagogning qalamiga mansub?

- a) Alisher Navoiy.
 - b) Voiz Koshifiy.
 - c) H.H. Niyoziy.
 - d) Abdullo Avloniy.
5. Darsda, tarbiyaviy tadbirlarda o'z fikrlari, his – tuyg'ularini ifodali, quvnoq, erkin gavdalantirish nimani anglatadi?
 - a) muomala madaniyatini.
 - b) muomala usulini.
 - c) ijodiy kayfiyatni.
 - d) gapirish, so'zlashish madaniyatini.
 6. Muayyan hissiy holatga xos bo'lgan, kishida hissiyotlarni keltirib chiqarishga qodir bo'lgan va K.S. Stanislavskiy tavsiya etgan usul nima deb ataladi?
 - a) his – tuyg'ularni boshqarish usuli.
 - b) jismoniy harakatlar usuli.
 - c) ijodiy kayfiyatni shakllantirish usuli.
 - d) muomalani boshqarish usuli.
 7. O'z – o'zini ishonitirish o'z – o'ziga buyruq berish, o'z – o'zini majbur qilish, o'z – o'ziga majburiyat qo'yish, o'z – o'zini rag'batlantirish, o'z – o'zini jazolash, o'z – o'zini mashq qildirish, o'z – o'ziga dalda berish, ijodiy kayfiyatni boshqarishning qanday usuli?
 - a) muomalaga kirishish usuli.
 - b) muomalaning demokratik usuli.
 - c) o'z – o'ziga ta'sir qilish.
 - d) jazolash usuli.
 8. Ta'lim – tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchilar bilan rah'batlantiruvchi, yoki to'xtatuvchi munosabat pedagog ta'sir ko'rsatishning qaysi usuliga kiradi?
 - a) istiqbol usuliga.
 - b) talab usuliga.
 - c) jamoatchilik fikri usuliga.
 - d) rag'batlantirish usuliga.
 9. Murabbiyning shaxsiy fazilatini belgilovchi asosiy sifat nima?
 - a) murabbiyning shaxsiy namunasi.

- b) murabbiyning bilimdonligi.
- c) murabbiyning mehribonligi.
- d) murabbiyning xayrihohligi.

10. Tarbiyachi mahorati qanday komponentlardan iborat ?

- a) talabalar psixologiyasini yaxshi bilishi.
- b) tarbiyachilikka doir bilimlarga ega bo'lishi.
- c) pedagogik – psixologik, metodik bilimga shaxsiy namuna egasi bo'lishi.
- d) sabr – toqatli, mehr – shafqatli bo'lishi.

11. Tarbiyachi tarbiyaviy ish jarayoni va kayfiyatini boshqarish, quvnoq, optimal, vazmin, zukko, ziyrak bo'lishi uchun nima qilishi kerak?

- a) muntazam ravishda aqli, axloqi, ongini nazorat qilishi.
- b) ongini rivojlantirishi.
- c) aqlini boyitishi.
- d) mayda – chuyda ishlarga e'tibor bermasligi.

12. Tarbiyalanuvchining tarbiyalangan darajasini aniqlashda qaysi mezonlar inobatga olinadi?

- a) ezguhislar, motivlar, niyatlar, istaklar, e'tiqodlar, ehtiyojlar, ijtimoiy qarashlar, shaxsiysifatlar.
- b) ezgu - niyatlar, ehtiyojlar, shaxsiy sifatlar, qarashlar.
- c) ilmga bo'lgan qiziqishi, axloqiy sifatlar.
- d) orzu – havas, e'tiqod, ehtiyojlar.

13. «Mutlaqo to'g'ri bo'lgan hech qanday tadbirni yoki tizimni o'rnatish mumkin emas. Hozirgi daqiqa, hozirgi bosqich sharoitlari va talablaridan kelib chiqmaydigan har qanday qotib qolgan qoida hamisha noto'g'ri qoida bo'ladi» - degan fikr muallifi kim?

- a) Burhoniddin Zarnudjiy.
- b) Voiz Koshifiy.
- c) Mirzo Tursunzoda.
- d) A.S. Makarenko.

14. Bir guruh malakalar majmuasini tashkil qilib, pedagogga tarbiyalanuvchilar ko'rib, eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini yetkazish imkonini beruvchi pedagogik mahoratning qanday tarkibiy qismi nomini olgan?

- a) pedagogik texnika.
- b) pedagogik hamkorlik.
- c) pedagogik qobiliyat.
- d) pedagogik muomala.

15. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala vazifasini amalga oshirish qanday sodir bo'ladi?

- a) bevosita muloqotda.
- b) sub'ektning ob'ektga ta'sirida.
- c) jamoadagi faoliyat va munosabatlar tizimida.
- d) yakka holdagi ta'sirida.

16. Talabalar jamoasi bilan muomala shakli qaysi javobda aniq ko'rsatilgan?

- a) suhbat, munozara.
- b) suhbat, ma'ruza, axborot
- c) axborot, savol – javob
- d) fikr almashish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997, 20-29 betlar.

2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997, 31-61 betlar.

3. Karimov I. A. "Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish". - T.: O'zbekiston, 2009.-24 bet.

4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yyengilmas kuch. - T.: "O'zbekiston", 2009.- 176 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, – 592 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : "O'zbekiston", NMIU, 2017, - 488 b.

7. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va insom manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, "Ma'naviyat", 2017, - 416 b.

8. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.

9. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi - T.: O'zbekiston, 1999. - 29 b.
10. Загвязинский В.И. Педагогическое творчество учителя. Библиотека учителя и воспитателя. - М.: Педагогика, 1987. - 160 с.
11. Коджаспирова Г.М. Теория и практика профессионального педагогического самообразования. - М.: МГОПИ, Альфа, 1993. - 120 с.
12. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. - 380 b.
13. Макаренко А.С. О воспитании //Золотой фонд педагогики. - М.: Школьная пресса, 2003. - 192 с.
14. Самуйленков Ф. Мастерство, педагогический такт - это авторитет учителя. - М.: Просвещение, 1990. - 254 с.
15. Sodiqova T. Murabbiy kim? - T.: Toshkent Islom universiteti. 2006. - 83 b.
16. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2005. - 149 b.
17. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011. - 420 b.

III BOB. PEDAGOGIK TA'SIR USULLARI HAQIDA TUSHUNCHA. PEDAGOGIK MULOQOT TURLARI VA VAZIFALARI

3.1. O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi

*Namuna ko'rsatgan holdagina inson
eng yuksak natijaga erishadi.*

S. Tsveyg

Tayanch iboralar: *pedagogni o'quvchilar bilan muomalasi, pedagogik ta'sir ko'rsatish, boshqarish vositasi, pedagogik qobiliyat, o'qituvchining ijtimoiy yo'l-yuriqlari, muomala maqsadi, pedagogik muloqot, pedagogik muomala madaniyati, o'qituvchining keskin darajada ajralib turishi, o'quvchining ruhiy holati, sharqona tarbiya, muosharat odobi, mutaxassisning pedagogik odobi, ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari, Sharq ma'naviy madaniyati, ijodkorlik omilini takomillash, muomala-axborot jarayonidir, muomala vazifasi, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini majbur qilish, sabr-toqat, muloyimlik, xolislik, darqazablik, vazminroq bo'lish, diqqat-e'tiborli bo'lmoq, kayfiyat, o'jarlik, tushkunlik.*

Pedagoglarning o'quvchilar bilan bevosita muomalasini ularga pedagogik ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos vositasi deb qarash mumkin.

Muomala - axborot jarayonidir. Axborot ikki yo'nalishda: boshqarish sub'ektidan (pedagogdan) boshqarish ob'ektiga (o'quvchilarga) boradi va aksincha - ob'ektdan sub'ektga boradi. Pedagog bevosita shaxslararo muomaladan, o'z tarbiyalanuvchilariga ham maqsadga qaratilgan axborotni, ham uning o'quvchilarga murojaat tarzida singib, kirib boradigan axborotni ma'lum qiladi.

Pedagog muomala vositasi orqali qanday axborot olishini qarab chiqar ekanmiz, o'quvchining shaxsi haqidagi axborotning muhimligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bevosita muomala shaxsni g'oyat xilma-xil sharoitlarda va ko'rinishlarda o'rganishga imkon beradi. U shaxsning hulk-atvorida namoyon bo'ladigan yorqin va eng ta'sirchan tashqi belgilarnigina qayd etish imkonini beradi. Pedagog o'quvchilar bilan muomala qilar ekan, juda mayda detallarni ham anglab olishga qodir bo'ladi, bu detallar sirtidan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmay,

shaxsda sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlarning ko'rinish alomatlari bo'lishi ham mumkin. Bu hol shaxsni chuqur tushunish imkonini berib, tashqi qatlam ostida boshqa usullar bilan aniqlab bo'lmaydigan narsalarni topish imkonini beradi.

O'quvchilar bilan bevosita muomala pedagogga jamoadagi, yoki ayrim o'quvchilardagi biron-bir voqeani rivojlanish jarayonini o'rganish zarur bo'lganda, ro'y berayotgan hodisalar va jarayonlarning sabab-oqibat aloqalarini payqab olishda, ularning tuzilishi, paydo bo'lishi va rivojlanishini kuzatish, bundan tashqari, bu hodisalar va jarayonlarning yanada takomillashishi to'g'riligini ma'lum darajada oldindan aytib berish kerak bo'lganda ham zarurdir. Biroq, muomala usullarida "axborot shovqini" ancha ko'p bo'lib, u ko'p, yoki oz darajada axborot tashuvchi bo'lishi mumkin. Bu hol birinchi navbatda pedagog bilan o'quvchilar o'rtasida qaror topgan munosabatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin, pedagogning shaxsi ham katta rol o'ynaydi.

Ayni bir xil hodisaning turli kishilar tomonidan zikir qilinishidagi farq uning shaxs o'tmishidagi tajribasiga bog'liqligi bilan izohlanadi, bu tajribaning uch jihati bor: umumiy - hayotiy tajriba, pedagogik faoliyat tajribasi va real jamoa, muayyan o'quvchilar bilan muomalada bo'lish tajribasi. Pedagogning boshqa kishilar bilan muomalada bo'lish tajribasi, bu tajribaning boyligi va muntazamlik darajasi, pedagogning o'zi shaxs sifatida qay darajada shakllanganligi, uning voqelikni qay darajada idrok etishga va olingan axborotga baho berishga qodirligini aniqlab beradi.

Ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyat kishini o'zi duch keladigan hodisalarni tahlil etish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi. Bu esa uning o'z sheriklari ahvolini fahmlab, bilib olish va ular haqida hukm yuritish qobiliyatini oshiradi.

Nihoyat, pedagogning o'quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning hatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy sababni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida u o'zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning hulq-atvorini o'rganish usullaridan foydalanadi. Bu narsa pedagogik faoliyatida, ayniqsa, sezilib turadi. Bu qonuniy bir holdir, chunki "biz kundalik hayotda odamlar bilan muomalada bo'lar ekanmiz, ularning hulq-atvorini bilib olamiz, chunki biz uni go'yo o'qiganday bo'lamiz, ya'ni xulq-atvorning tashqi ko'rinishlari ahamiyatini tushunib olamiz va shu tariqa kontekstda hosil bo'lgan, o'zining ichki psixologik rejasiga ega bo'lgan tekstning ma'nosini ochib beramiz. Bu "o'qish" yo'l-yo'lakay bo'ladi, chunki atrofdagilar bilan muomala jarayonida bizda ularning

xulqiga doir ma'lum darajada avtomatik tarzda mavjud bo'lgan psixologik tagma'no hosil bo'ladi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi, o'rni to'ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Shu munosabat bilan tarbiya diskret (uzlukli) jarayon ekanligini nazarda tutish kerak. O'quvchilar kiradigan turli jamoalar, unga nisbatan tarbiyaviy vazifani bajaruvchi katta yoshdagi kishilar, unga ta'sir qiluvchi tevarak atrofdagi voqelikning ko'pdan-ko'p omillari bir-biri bilan yetarli darajada aniq va puxta ishlab chiqilgan aloqa tizimiga ega emas. Har bir o'quvchiga har xil ta'sirlar oqimi etib boradi, ular bir-birlari bilan unchalik mos kelmasligi va ma'lum darajada biri ikkinchisiga zid kelishi mumkin. Bunday sharoitlarda pedagogning o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida shu narsada namoyon bo'ladiki, u ma'lum darajada bu ta'sirni birlashtiradi, ularning zanjiridagi yetishmovchi xalqlarning o'rni to'ldiradi, bu ta'sirning ziddiyatli tarkibiy qismlariga tuzatish kiritadi. Shubhasiz, muomala cheklangan tarzda bo'ladi. Lekin pedagogning o'z tarbiyalanuvchilariga ko'rsatiladigan turli-tuman ta'sirlarning xususiyatidan xabardorligi, uning ana shu ta'sirni birlashtirish, o'rni to'ldirish va unga tuzatish kiritishga intilishi, uning shaxsiy sifatleri, o'quvchilarga munosabati va pedagogik mahoratiga qarab, boshqarish vositasi bo'lgan muomalaning samaradorligi ko'p yoki oz darajada bo'lishi mumkin.

Boshqarish vositasi bo'lgan muomala vazifasini amalga oshirish jamoadagi faoliyat muomala, munosabatlar tizimi doirasida sodir bo'ladi. Bunga sabab shuki, muomala pedagoglarning o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi jarayonida ham va ular bilan bevosita muomala qilishda ham amalga oshiriladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala faoliyatdan oldin bo'ladi, pedagoglar bu faoliyatga o'quvchilarni jalb qiladilar. Bunday holda muomala orqali o'quvchilarning faoliyatini tashkil etish yuzasidan muayyan yo'l-yo'riq beriladi va uni amalga oshirish jarayonida munosabat normalari kiritiladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala o'quvchilarning faoliyatiga hamrohlik qiladi. U orqali pedagog faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish usullariga tuzatishlar kiritadi, ayrim o'quvchilarning, umuman jamoaning kuch-g'ayratini, faoliyat ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarini muvofiqlashtiradi. Nihoyat, boshqarish vositasi bo'lgan muomala faoliyatdan keyin boradi. Bu faoliyatga yakun yasash, uni amalga oshirish, unda ayrim o'quvchilarning ishtirok etishi, faoliyat jarayonidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni tahlil qilish, qo'shimcha normalarni ishlab chiqish tarzida

sodir bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, muomalaning yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha vazifalarini qulay tarzda amalga oshirish, uni pedagogik muomala, ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan muomalaning yuqori darajasi deb ta'riflash imkonini beradi. Hozirgi zamon o'qituvchisi xuddi shunday darajaga erishmogi lozim.

O'qituvchining o'quvchilar bilan bo'lgan muomalasining muvaffaqiyatli bo'lishi, ko'p jihatdan unda pedagogik qobiliyatning mavjudligiga va pedagogik nazokat (odobi)ni egallaganiga bog'liq bo'ladi.

Psixologiyada pedagogik qobiliyatlar deganda, insonning muayyan psixologik xususiyatlarini tushunish qabul qilingan. Bu xususiyatlar uning o'qituvchi vazifasida o'quvchilarni o'qitish va o'quvchilarga ta'lim berishda yuksak natijalarni qo'lga kiritishining sharti hisoblanadi.

Ma'lumki, shaxsning u, yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi xislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari yetakchi rol o'ynasa, boshqalari yordamchi rol o'ynaydi. Pedagogik faoliyatda shaxsning o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari yetakchi rol o'ynaydi. Birinchi navbatda pertseptiv, ya'ni idrok qilish sohasiga taaluqli bo'lgan xususiyatlar (ulardan eng muhimrog'i kuzatuvchanlikdir) yetakchi rol uynaydi, o'qituvchiga o'quvchining psixologiyasini, uning psixik holatini o'xshash tarzda idrok etish, muayyan holda umuman guruh, jamoaning ahvoriga va xususan, mazkur pedagogik vaziyatdagi ahvoriga to'g'ri baho berish imkonini beradi. O'qituvchi shaxsining o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlarining uchinchi tarkibiy qismi deb ijtimoiy o'zaro harakatga bo'lgan yuksak rivojlangan ehtiyojni hisoblash mumkin. U bilimlarni boshqalarga berishda, o'quvchilar bilan muomala qilishga intilishda, o'quvchilar jamoasini tashkil etish istagida namoyon bo'ladi. Tashkil etish qobiliyati ham pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U barcha o'quvchilarning har xil faoliyat turlariga jalb qilinishida, jamoaning har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatish quroliga aylanishida, har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo'ladi. O'qituvchida ijtimoiy o'zaro harakatga bo'lgan ehtiyojni muvaffaqiyatli amalga oshirishning sharti bo'lib, unda mavjud bo'lgan pedagogik nazokat maydonga chiqadi.

Endi pedagogik qobiliyatlar strukturasiga kiradigan yordamchi xislatlar va xususiyatlardan ayrimlarini qarab chiqamiz. Bu avvalo, aql-idrokning muayyan xislatlari: hozirjavoblik, tanqid ko'zi bilan qarash, sobitqadamlik va boshqa bir qator xislatlardir. O'qituvchining nutqi, notiqlik qobiliyatining mavjudligi, so'z boyligi va hokazolar ham muhim rol o'ynaydi. Tabiatida bir qadar artistlik qobiliyatiga ega bo'lish (xayol, fantaziya ishlata bilish) ham o'quvchilar bilan muomalada muvaffaqiyatga erishishda muayyan rol o'ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyat samarali bo'lishining shartigina emas, balki, ko'p jihatdan o'qituvchining muvaffaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. Shu munosabat bilan o'qituvchining o'zida pedagogik qobiliyatlarining aniq maqsadni ko'zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol o'ynaydi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar buning batamom xaqiqiy narsa ekanligini ko'rsatmokda. Masalan, shaxs pertseptiv xususiyatlarining eng muhim elementi bo'lgan kuzatuvchanlik o'qituvchining pedagogik tajriba hosil qilish jarayonida ham, uning maxsus kuch-g'ayrati natijasida ham rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'zining ijtimoiy-psixologik kuzatuvchanligini, ya'ni o'quvchilarda turli xarakter xususiyatlari va mayllarni payqab olish qobiliyati bilan birga ularning paydo bo'lish sabablarini bilib olish va bu sabablarning paydo bo'lish vaziyatiga muvofiq baho berish mahoratini va hokazolarni rivojlantirishga qodirdir.

O'qituvchining muhim ijtimoiy yo'l-yuriqlaridan biri dilkashlikdir. An'anaviy dilkashlik yoki odamlarga aralashmaslik shaxsning o'ziga xos xususiyatlari deb qaraladi, bu butunlay qonuniy qoldir. Lekin, bunday yondashuv bir tomonlamadir. Dilkashlik, odamlarga aralashmaslik shaxsning o'ziga xos xususiyatlarigina bo'lib qolmay, shu bilan birga odamning u, yoki bu vaziyatdagi muayyan hulq-atvori hamdir, ya'ni ijtimoiy yo'l-yo'rig'idir.

Shaxsning xususiyati bo'lgan dilkashlikni atrofdagilar bilan barqaror, kuchli rivojlangan aloqalarga intilish sifatida ta'riflash mumkin, bu intilish odamlar bilan tez aloqa o'rnatish bilan birga qo'shib olib boriladi. Dilkashlik va odamlarga aralashmaslikni shaxs xususiyatlari sifatida qarab chiqish ekstravert va introversiya tushunchalari bilan bog'liq ravishda samarali bo'ladi. Ekstravert shaxslarga umumiy faollik, osoyishtalik, ta'sirlarga moyillik xosdir. Introvertlar ichki olamga berilgan, odamlarga aralashmaydigan, o'z-o'zini nazorat qilishga, refleksiyaga, ichki xavotirlikka moyil bo'ladi. Albatta, o'ta introvertlar bilan ekstravertlar favqulodda hodisa bo'lib, individlar bu ikki chetki nuqtalar o'rtasidagi

oraliqda joylashadilar. Dilkashlik ko'proq ekstravert tiplarga, odamlarga aralashmaslik esa introvert tiplarga xosdir.

O'quvchilar bilan munosabatlar sohasidagi eng muhim ijtimoiy yo'l-yo'riqlarning ayrimlari ana shulardan iboratdir. O'qituvchida ularning mavjudligi uning pedagogik nazoratga rioya qilishining zamini va sharti hisoblanadi.

Turli yoshdagi o'quvchilarning muomalasiga ta'sir ko'rsatish sub'ekti bo'lgan o'qituvchi tutgan yo'lning umumlashtirilgan tavsifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Quyi guruhlarda o'qituvchi tashkilotchi bo'lib maydonga chiqadi. V. Dalning luqatiga qaraganda-tuzuvchi, ta'sis etuvchi (tashkil etish, yo'lga qo'yish, belgilash, tartibga keltirish, tuzish, hosil qilish, qat'iy asoslash, degan so'zdan) ma'noni bildiradi. Pedagogning kichik yoshdagi o'quvchilar hayotiga ta'sir ko'rsatishining asosiy mazmunini, uni tashkil etish zarurati bilan belgilanadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar jamoalarida talabchan va quvnoq tarbiyachi bo'la oladigan, o'quvchilarning faol ijodkorlik bilan to'la hayotini tashkil etib, ular orasida o'zaro hayrixoxlik, hamxo'rlik vaziyatini, zavqli vaziyatni vujudga keltira oladigan tarbiyachilar katta obro' - e'tibor qozonadilar. O'quvchilar katta yoshdagi bunday kishilarni o'z do'stlari deb qabul qilishga moyildirlar. Bu - eng yaxshi munosabatdir, chunki u katta yoshdagi kishiga jo'shqin qulaylik bag'ishlaydi, uning ko'pgina tashkiliy vazifalarni hal etishini osonlashtiradi, tarbiya vazifalarini samarali hal etishiga yordam beradi.

O'smirlar o'qiydigan guruhlarda o'qituvchining holati rahbar degan so'z bilan ifodalanishi mumkin. V. Dal' bu so'zni quyidagicha, ya'ni ko'rsatuvchi, murabbiy, ish boshi, boshlovchi deb ta'riflaydi. Pedagoglarning o'smirlarga ta'sir ko'rsatishining asosiy mazmuni ularning faoliyatiga rahbarlik qilish zarurati bilan belgilanadi, bu faoliyat o'z-o'zini tashkil qilishning ko'proq ulushini o'ziga qamrab oladi, bu esa o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayoni rahbari sifatida o'quvchilarga qo'yadigan talablari mazmunini belgilab beradi. O'smirlar pedagogik talablarni ongli va sidqidildan bajarishlari uchun mavzu talabiga nisbatan o'qituvchi va o'quvchining bir xil yo'l tutishi zarurdir, u bilish nuqtai nazaridan qiziqarli bo'lishi yoki amaliy jihatdan foydali bo'lishi zarur, yoxud hissiyotlarni yengillashtirish va hokazolar uchun kerak, boshqacha so'zlar bilan aytganda, jamoa faoliyat jarayonini qulaylashtirish uchun zarurdir, aks holda talab samarasiz bo'lib qoladi.

Katta yoshdagi o'smirlarga nisbatan o'qituvchi, homiy yoki tarbiyachi holatida turadi, bu so'zlar V. Dal luqatida "homiylik qiluvchi, g'amxo'r,

serharakat inson" sifatida ta'riflanadi.

O'quvchilar bilan muomala qilish pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun esa u gapirishni bilishi lozim. Gapirishni, muloqot qilishni doimo o'rganib borishi kerak. Bu o'rinda ikki savol tug'iladi: "nimani o'rganish kerak?" va "qanday o'rganish kerak?"

Pedagogik jamoa, o'quvchilar guruhi, ayrim o'quvchilar bilan gaplasha olishi kerak. U darsni samarali olib borish uchun gapirishni bilishi, suhbat, ma'ruza, hikoya qilish kabi usullardan foydalanishi, umuman butun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ya olishi lozim. O'quvchilar bilan gaplasha olish (har qanday shaklda), muayyan qoidalarni bilish va bu qoidalarni amalga oshirishning muayyan usullarini egallashni nazarda tutadi. Ularni ko'rib chiqamiz:

O'quvchilar jamoasi bilan muomala ko'pincha suhbat, ma'ruza, axborot va hokazolar shaklida bo'ladi. Xo'sh, bu muomala samarali bo'lishi uchun nimalar zarur?

Birinchi navbatda suhbatni qaysi so'zdan boshlash, qanday qilib darhol o'qituvchining gaplariga o'quvchilarning diqqatini tortish, ularni qiziqtirish mumkinligi haqida gapirib o'tamiz. Buning uchun bir necha usullar bor. Gapni masalaning qo'yilishidan boshlash mumkin, bu masalada bo'lajak suhbatning ma'nosi mujassamlashgan bo'ladi. Mavzuga diqqatni tortishga urinib ko'rish ham mumkin, bunda gapni erkin, qiziqarli faktni ma'lum qilishdan boshlasa bo'ladi, keyin uni tushuntirish va tahlil qilish esa muomalaning mazmunini tashkil etadi. Tegishli maqola, yoki tsitata keltirish ham muvaffaqiyatli bo'lib chiqishi mumkin. Bundan tashqari, darhol o'quvchilarga bo'lajak suhbat ularning qiziqishlari bilan (jamoaning yoshi, xususiyatlari asosida) bog'liq ekanligini aytib o'tsa ham bo'ladi.

Mana suhbatga o'quvchilarning diqqati jalb qilindi, ham deylik, endi uning mavzusini ancha qisqa, lekin yetarli darajada aniq qilib ochib berish vazifasi turadi. Buni qanday amalga oshirish mumkin. Masalan, suhbatni tuzishning bunday varianti bo'lishi mumkin. Dastlab, pedagog o'quvchilar ongi va hissiyotiga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy fikr qisqacha bayon etiladi. So'ngra u ochib beriladi, buning uchun faktlar, misollar va illyustratsiyalar tizimi bayon qilinadi. Bunda erkin taqqoslashlar, kutilmagan o'xshatishlardan foydalanish juda foydali bo'ladi. Shundan keyin xulosa chiqarish, ya'ni suhbatning asosiy fikrini boshqacha so'zlar bilan takrorlash mumkin.

Muomala maqsadini bu xilda ta'riflash o'quvchilar muomalasining

asosiy ikki turi: rollararo va shaxslararo muomalaning nisbiy mustaqilligi sharoitida uning dialektik birligini ko'rsatib beradi.

Rollararo (amaliy) muomala tashkiliy faoliyatning har - xil turlari jarayonida amalga oshiriladi. Faoliyat qatnashchilarini uning maqsadiga, bir-biriga munosabati, xarakteriga qarab ular o'rtasida sheriklik, yoki o'rtoqlik muomalasi vujudga keladi. O'rtoqlik muomalasi faqat faoliyat qatnashchilarining o'zlari emas, balki xodimlarining faoliyat maqsadiga erishishdagi o'zaro yordami, hayrixoxligi va manfaatdorligini nazarda tutadi.

Shaxslararo (erkin) muomala tashkiliy faoliyatdan tashqari amalga oshiriladi. Muomala qiluvchilarning hissiy ko'ngil bog'lashuviga qarab tanishuv, oshna-og'aynigarchilik, do'stlikni farqlash mumkin.

O'quvchilar muomalasining mazmun tomoni, ular faoliyatining butun xilma-xilligi bilan belgilanadi. Har bir yoshdagi o'quvchilar uchun muomalaning o'ziga xos hissiy-ma'naviy g'oyasiga xosdir. Muomalaning asosiy g'oyasidagi farq shunda namoyon bo'ladiki, u har bir yosh bosqichida o'quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanish xususiyatini belgilab beradigan yetakchi ijtimoiy munosabatlarni asosiy munosabatlar sifatida o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, o'quvchilar muomalasining mazmuni o'ziga turmushning buyumlar sohasini, hayotning voqeyi qatlamini, g'oyaviy-ahloqiy muammolari va hissiy-ahloqiy sohasini qamrab oladi. Yoshga qarab har bir qatlamning aniq mazmuni va ularning o'zaro nisbati turlichadir. har bir yosh bosqichidagi muomalaning bosh g'oyasi o'quvchilar muomalasining asosiy mazmunini aks ettirib, muomala mazmunining, u yoki bu tomoni ustun bo'lishini belgilab beradi va asosan uning xilma-xil bo'lishini cheklamay, o'quvchilar uchun ichki sub'ektiv jihatdan ahamiyatli bo'lgan rejani tashkil etadi.

Muomalaning asosiy g'oyasi va mazmuni bilan bog'liq ravishda muomala darajalarini qarab chiqish maqsadga muvofiqdir, ular o'quvchilar muomalasi, ob'ektiv mazmunining chuqurligini aks ettiradi. Muomalaning to'rtta darajasini ajratib ko'rsatish mumkin: faktik, axborot, munozaraviy va oshkoraviy.

Muomalaning faktik darajasi - bu suhbatni qo'llab-quvvatlash uchun nutq ayiriboshlashdir, buning natijasida suhbatdosh bilan aloqa o'rnatish mumkin bo'ladi. U individ (o'quvchi)ning atrofdegilar bilan munosabatda o'zini qulay his qilishini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lgan muhim vazifani bajaradi.

Muomalaning axborot darajasi - o'quvchilar o'rtasida ham rollararo,

ham shaxslararo muomalada ro'y beradigan g'oyat turli-tuman xossaga ega bo'lgan axborot bilan doimo almashinib turishdir. Bunda o'quvchilarning aqliy qiziqishlari doirasiga juda xilma-xil axborotlar jalb qilinadiki, ularni o'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida, o'qituvchilardan, boshqa turli-tuman manbalardan oladilar.

Muomalaning munozaraviy darajasi shu sababdan vujudga keladiki, o'quvchilar bir vaqtning o'zida bir qancha birlashmalarga kiradilar va o'ziga xos shaxs bo'lib, faqat shaxsiy axborot tashuvchilar va u yoki bu faktlarga shaxsiy tarzda izoh beruvchilargina emas, balki normal va qadriyatlarga ham izoh beruvchilar hisoblanadilar. Natijada, o'quvchilarning o'zaro muomalasida turli nuqtai nazarlar to'qnash keladi. Bu to'qnashuvda u yoki bu faktlarga, voqealarga va hokazolarga izoh berish imkoniyati aniqlanadi. Munozaraviy daraja faoliyatning har - xil ko'rinishlari jarayonida o'quvchilarning muomalasida katta rol o'ynaydi. Chunki, faoliyat maqsadiga erishish odatda sheriklarning shaxsiy kuch g'ayratlarini kelishib olishni talab qiladi, bu esa odatda munozara jarayonida sodir bo'ladi.

3.2. Pedagogik muloqot va pedagogik muomala madaniyati

Birdan-bir haqiqiy ne'mat - odamlarning bir-biri bilan muloqotidir.

A. Sent-Ekzyuperi

Tayanch iboralar: *pedagogning o'quvchilar bilan muomalasi, pedagogik ta'sir ko'rsatish, boshqarish vositasi, pedagogik qobiliyat, o'qituvchining ijtimoiy yo'l-yurig'lari, muomala maqsadi, pedagogik muloqot, pedagogik muomala madaniyati, o'qituvchining keskin darajada ajralib turishi, o'quvchining ruhiy holati, sharqona tarbiya, muosharat odobi, mutaxassisning pedagogik odobi, ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari.*

O'qituvchi shaxsini shakllantirish muammosi har qaysi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lqusi pedagogik kadrlarda shaxsiyatga yo'nalganlikni tarkib toptirish mutlaqo zaruriy shart ekanligi ta'kidlanadi. Respublikamizda o'qituvchilik

kasbining o'ziga xos etnopsixologik fazilatlarini, xislatlarini, qobiliyatlarini ish uslublarini mahoratga erishishning yo'llari, shaxslararo muomala maromlari yuzasidan har xil davrlarda bir muncha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Muomalaning tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatlarini bilan belgilanishini aytib o'tish kerak. Pedagogik muomalaning to'g'ri tanlangan, pedagogning betakror individualligiga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi:

birinchidan, pedagogik ta'sir ko'rsatish pedagog shaxsi bilan ayni bir narsa bo'lib qoladi, auditoriya bilan muomalada bo'lish jarayonining o'zi soddalashadi, u pedagogning o'zi uchun yoqimli, uzviy bo'lib qoladi;

ikkinchidan, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish jarayoni ancha yengillashadi;

uchinchidan, pedagogik muomalaning barcha eng muhim vazifalarining, samaradorligi ortadi, shu bilan birga bularning hammasi muomalaning barcha bosqichlarida pedagogning hissiy xotirjamligining ijobiy negizida ro'y beradi.

O'quvchilarda muomalalarning individual uslubini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilar muomalasi individual uslubining xaqiqiy shaxsiy xususiyatlarini o'rganish va ularni o'quvchilarning anglab etishi. O'quvchilarning mustaqil tahlil qilishi, o'zaro har tomonlama tavsifnomalari, o'qituvchilarning kuzatishlari asosida amalga oshadi. O'quvchilar shu maqsadda "Men boshqa kishilar bilan muomalada qandayman?" mavzuida insho yozadilar, bir-birlariga shunga o'xshash mazmunda tavsifnoma tayyorlaydilar va hokazo.

2. Shaxsiy muomaladagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham toptirish yuzasidan qilinadigan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muomala uslubidagi salbiy holatlarni yengish.

3. Pedagog uchun muomalaning hissiy jihatdan qulay bo'lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlari bilan taqqoslash.

4. Muomalada o'z individual uslubi asosida pedagogik muomala tarkibiy qismlarini egallash (maxsus mashg'ulotlarda) sohasidagi ishlar.

5. O'z muomala uslubiga muvofiq ravishda pedagogik muomaladan iborat yaxlit hodisani bilib olish borasidagi ishlar va muomala uslubiga aniqliklar kiritish (maxsus mashg'ulotlarda).

6. haqiqiy pedagogik faoliyat individual uslub asosida o'quvchilar bilan muomala qilish, bu uslubni mustahkamlash (pedagogik amaliyot va

stajirovka jarayonida).

Ishni endi boshlayotgan o'qituvchi individual muomala uslubini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishi zarur.

Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muomalaning jihatlari muhim rol o'ynaydi, ular pedagog bilan o'quvchilarning bevosita o'zaro harakati bilan bog'liqdir. Bu o'rinda bir necha bosqichlar ajratib ko'rsatiladi.

Birinchi bosqich - bu tarbiyachining tarbiyaviy jarayon vaziyatidan xabardorligidir, bu jarayon o'ziga pedagogning xotirasida guruh bilan muomalaning oldingi xususiyatlarini tiklashni, muomala vaziyatini qayd etishni, uni o'zaro harakatning oldingi vaziyati bilan, bu harakatning ilgari rejalashtirilgan andazasi bilan tezda qiyoslab chiqishni, o'z muomala uslubiga aniqlik kiritishni qamrab oladi. Shuni nazarda tutish kerakki, bu bosqich juda tez kechadi va xuddi shu bosqichda zarur so'z, ohang, hулq-atvor vujudga kelishi lozim.

Ikkinchi bosqich: Pedagogik muomalaning samarali jarayoni uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi. O'quvchilar bilan o'zaro harakatning boshlanishi o'zaro fikr almashishga doir yana bir muhim vazifani hal qilish bilan muomala ob'ektlarining diqqatini o'ziga jalb qilish bilan bog'liqdir. Muomala ob'ektlarining, ya'ni o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi bo'lajak o'zaro harakatga, ta'limning rejalashtirilgan usullariga, tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olish, darsni o'tkazish uchun zarur bo'ladigan o'quvchilar diqqatini jalb qilishdir. Ko'pincha yosh pedagoglar, o'quvchilar har doim o'qituvchiga o'z diqqatlarini qaratishlari lozim deb hisoblaydilar va o'zaro fikr almashishga doir bu muhim vazifalarni sobit qadamlik bilan hal qilmaydilar.

Ko'rsatib o'tilgan bevosita muomala bosqichlari pedagogik ta'sir ko'rsatishning nisbatan mustaqil, har bir ko'rinishida vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi, tarbiyaviy jarayonni tashkil etganda ularni nazarda tutish kerak bo'ladi.

Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni tashkil etishda muomalaning ahamiyati bilan bog'liq ravishda pedagogik muomala madaniyatiga, tarbiyachining dalkashligiga alohida talablar qo'yiladi, dalkashlik unda kasbkorlik fazilati sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi jamoa, guruh va individual ish olib borish jarayonida odamlar bilan muomala qila bilishi, uni o'quvchilar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tashkil eta olishi va ularni boshqara bilishi lozim. Kasb-korga oid pedagogik dalkashlikning yosh o'qituvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

o'quvchilar bilan turli sohalarida muntazam muomala qilishda barqaror ehtiyojning mavjudligi, muomalaning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo'lishi, o'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligi.

Mamlakatimizning o'qituvchisi quyidagi tomonlari bilan keskin darajada ajralib turishi lozim:

- Mustaqil Respublikamizning talablari va ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, buyuk davlatimiz ideallari, milliy g'oya va istiqlol mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoiyluk tuyg'ulari shakllanganligi, jamoaviylik hissini mukammal aks ettiruvchi, ijtimoiy-siyosiy faol shaxs ekanligi;

- bolalarga, o'quvchilarga, hattoki, jamiyatimizning barcha a'zolariga ham otash, ham samimiy mehr - muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, hattj-harakatlari motivlari, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi, malakasi va uquvining mavjudligi;

- jamiyat hodisalari, holatlari, tabiat va voqeliklari, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlariga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, ya'ni pertseptiv (idrokka nisbatan sezgirlik) qobiliyatga egaligi;

- hayot va faoliyatning u yoki bu jabhalarida odamlarning hatti-harakatlari, munosabatlari xususiyatlarini oqilona tushunish ularni identifikatsiyaga, refleksiyaga yo'llashga qobiliyati;

- favqulotdagi vaziyatlarda, o'zgaruvchan shart - sharoitlarda omilkorlik bilan mo'ljal olish, maqsad qo'yish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z-o'zini namoyon etishga qobiliyatligi;

- pedagogik faoliyatda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini egallanganligi;

- umumiy qiziqishi ko'lamining kengligi, bilishga oid qiziqishlarning serqirraligi, ilmiy izlanishlarga layoqatliligi, muayyan salohiyat, mahorat darajalariga erishganligi;

- muomala maromi, nutq madaniyati, mantiqan ixcham, ma'nosi kuchli, ta'sirchan fikr uzatish, ta'sir o'tkazish o'quvi bilan qurollanganligi;

Fikrimizcha, zamonaviy o'qituvchi muomaladoshiga to'g'ri, omilkor axborot uzatishi va unga suhbatdoshini ishontira bilishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi.

Tarbiyalashning o'zaro fikr almashish aloqasiga doir quyidagi dasturini tavsiya etish mumkin.

1. Kasbkor jihatidan o'z-o'zini anglashni (muomalada o'zining o'zaro

fikr almashishga doir sifatlarini, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o'zaro fikr almashish yo'li bilan o'z-o'zini tarbiyalashning dasturini ishlab chiqish. Bu o'rinda o'z shaxsiga quyidagi yo'nalishlarda baho berish, tajribani tahlil qilish, o'quvchilar bilan maqsadga muvofiqdir, kishilar bilan bo'lgan muomalada olingan sezgilar tajribasini tahlil qilish, kishilar bilan bo'lgan muloqotda oldingi muomalaning hozirgi darajasini tahlil qilish, muomala haqida o'zining ideal tasavvurlarini tahlil qilish, sizning muomaladagi imkoniyatlaringizni boshqalar (o'quvchilar, o'qituvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarni tahlil qilish.

2. O'zida dilkashlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlash.

O'quvchilar va kishilar bilan xilma-xil jamoat ishlari olib borish, bunda o'zaro fikr almashish faoliyatining tajribasi (ma'ruzalar, suhbatlar) hosil bo'ladi.

4. Muomalada salbiy kayfiyatlarni yengish tajribasini shakllantiradigan va dilkashlikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.

Taklif etilgan bu tizimga taya'nib ish ko'rish pedagogning kasb - korga oid shaxsiy fazilati bo'lgan dilkashlikni shakllantirishni tezlashtiradi.

Inson dunyoga to'liq shakllangan fe'l-atvor, axloqiy xususiyatlar dasturi bilan tug'ilmasligi, unga xos fazilatlar, axloqiy me'yorlar ijtimoiy hayot va oilaviy tarbiya mahsuli ekani barchaga ma'lum. Barcha zamonlarda xalqlar markaziy ko'cha, maydon va xiyobonlarni millatning jasoratli farzandlari nomi bilan atab kelgan.

Ular orasida mardlik namunalarini ko'rsatgan sarkardalargina emas, ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot kabi sohalarida jasoratli mehnat qilganlar ham oz emas. Demak, jasorat kasb tanlamaydi. U ijtimoiy-ma'naviy muhit, maqsadli va izchil tarbiya mahsulidir. Shunday ekan, oila va o'quv maskanlaridagi muhitni yanada takomillashtirish orqali farzandlarimizni ishontirib va ta'sir qilib tarbiyalash mumkin.

Avvalo, o'qil - qizlardagi qo'rquv, ikkilanish va jur'atsizlikni yengishga o'rgatish lozim. Chunki, bolani suvga tushirmay suzishga o'rgatib bo'lmaydi. Darqaciqat, bolalarni dadillik va jasorat talab etadigan vaziyatlarda sinamasdan ulardagi qo'rquv va jur'atsizlikni yyengish mushkul.

Agar, biz yoshlarimizni jasur, mard, qo'rqmas etib tarbiya qilmoqchi bo'lsak, bu ishga boshqacha yondashuv kerak bo'ladi. CHunki tarbiya

tarixining, demak, jasorat tarbiyasining romantik bosqichi ortda qolgan. Taraqqiy etgan davlatlar allaqachon uning texnologik bosqichiga o'tib olgan.

Farzandlarimizni oqil va dono, faol va uddaburon, mard va jasur etib tarbiyalash, avvalo, ota-onaga bog'liq. Biz ularni eng zamonaviy ilg'or bilimlar bilan qurollantirishga harakat qilamiz. Endi tarbiyaning yangi tamoyili - shaxs, davlat, millat manfaatlariga xizmat qiladigan eng muhim fazilatlarini shakllantirish texnologiyasi yaratilmog'i lozim. Chunki, bilim - masalliq bo'lsa, fazilat - olovdir. Olovsiz ovqat pishmaganidek, yoniq qalb, bukilmis iroda, tetik ruh, cheksiz jasorat va soqlom aql bo'lmasa, zamonaviy bilim va texnologiyalarni hayotga tadbiiq etish ham, yangi kashfiyotlar yaratish ham amrimahol.

Shunday ekan, biz farzandlarimizni yer yuzining eng ishonchli yoshlari etib tarbiyalashimiz kerakmi? Agar, shu ishga falsafamiz, irodamiz etsagina, biz eng peshqadam millatlar qatoridan o'rin olishimiz mumkin. Aks holda, ularga kashfiyot, mahsulot sotib emas, sotib olib yashashga to'g'ri keladi. Buxoriy, Farg'oniy, Beruniy, Xorazmiy, Moturdiy ajdodlari bunga ko'narmikan?

Ishonishning otasi - aql, onasi - yurak. Ishonch insonning fikrida sodir bo'ladi, so'ngra til va xatti-harakat orqali amalga ko'chadi. Shuning uchun o'zbek milliy pedagogikasi darg'alari aql tarbiyasini muallimlar vijdoniga yuklangan muqaddas vazifa, deb ta'kidlab kelgan. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy fikr tarbiyasi haqida bunday degan edi:

Fikr, agar yaxshi tarbiya topsa,

Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkir.

Fikrning oynasi olursa zang,

Ruhi ravshan zamir o'lur benur.

Bu yo'lda qanchalik ko'p pedagog yelkadosh bo'lsa, usul va vositalar qanchalik turlicha qo'llanilsa maqsadga erishish shunchalik tezlashadi.

Pedagogika o'z usullarini yo'q narsadan yaratmaydi, ularni o'ylab topmaydi. U hayotdan kishilar hulq-atvorining real omillarini, o'quvchilar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, tarbiyaviy ishda pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari sifatida foydalanadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasi o'quvchilarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalaniladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning hulq-atvorini rag'batlantiradi, ularning qiyin va murakkab vazifalarini quvunch ijodiy

zavq-shavq manbaiga, ularning shaxsiy muddaolariga aylanadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir.

Talab - tajribada juda keng tarqalgan usul bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga shaxsiy munosabatining namoyon bo'lish yo'li bilan u yoki bu hatti-harakatlarning rag'batlantirilishi yoki to'xtatilishini ta'minlaydi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli bo'lgan talab bilan jamoani tashkil etish usuli sifatidagi yagona pedagogik talablarni bir-biridan farqlash kerak. Agar, yagona pedagogik talablar o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag'batlantirish mazmunini va jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan o'quvchilarning harakatlari birligiga erishish yo'llarini ta'minlasa, talab esa, hulq-avtor va faoliyat normalarini, o'quvchilarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir.

Istiqbol - ta'sir ko'rsatishning juda ta'sirchan usuli bo'lib, u o'quvchilarning hatti-harakatlarini, ular oldiga maroqli maqsadlar qo'yish yo'lini ta'minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi. Bu usul ta'lim muassasasi o'quvchilarida shaxsning eng muhim fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Rag'batlantirish va jazolash - tarbiyaning eng an'anaviy usuli bo'lib, o'quvchilar hulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya'ni foydali hatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirish va tarbiyalanuvchilarning nomaqbul hatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi, bunda ularning huquq burchlarini kengaytirish yoki cheklash, ularga axloqiy ta'sir ko'rsatish yo'lidan foydalaniladi.

Rag'batlantirish va jazolash usuli o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi sababli (bu qaqda quyiroqda gap boradi) uni qo'llash alohida ehtiyotkorlikni, pedagoglarning sezgirligi va xushmuomalaligini talab qiladi.

Jamoatchilik fikri - ta'sir ko'rsatishning qudratli usuli bo'lib, o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag'batlantirib borishni ta'minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to'liq amalga oshiradi. Bu usul jamoa a'zolarining ijtimoiy faolligini va o'rtoqlarcha birdamligini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini alohida-alohida tasvirlashga o'tishdan oldin ularni muvaffaqiyatli qo'llanishning umumiy qoidalarini qarab chiqamiz; Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan samarali foydalanishning zarur sharti - pedagogning o'quvchilarga bo'lgan

munosabatlarining chinakam insonparvarligidir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari o'z tarbiyalanuvchilari taqdiriga beparvo bo'lgan kishilar qo'lida sof kasbkorlik vositalari majmui emas, bu usullar bir jamoa bo'lib, yagona intilishlar, umumiy ma'suliyat bilan birlashgan jonli kishilarning jonli munosabatlaridir.

Qattiqlik va toshbag'irlikni, rasmiy ma'muriyatchilikni o'zining o'quvchilar bilan munosabati normasiga aylantirgan kishilar haqiqiy pedagog bo'lolmaydilar. Bizning sharoitimizda faqat pedagoglar bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'rtoqlarcha munosabatlarni rivojlantirishga va mustahkamlashga qaratilgan yo'lga pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosi bo'lishi mumkin. Binobarin u yoki bu usullarni qo'llash har holda o'quvchilarning faoliyatida faqat juz'iy o'zgarishlarga olib kelmay, shu bilan birga hamisha pedagoglar bilan tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga faol xizmat qiladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usulini qo'llashning ikkinchi umumiy qoidasi shundan iboratki, bu qoida oqilona tayyorlangan bo'lishi lozim, uni qo'llash esa amalga oshirish uchun shart-sharoitning mavjudligini nazarda tutadi.

O'quvchilarning real imkoniyatlari, ularning tarbiyachi rag'batlantiradigan ishlarni bajarish qobiliyatini hisobga olish pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalaridan foydalanishdagi shaxsiy yondashuvning mohiyatini tashkil etadi. Ba'zan, u yoki bu pedagogik ta'sir natijasiz qoladi, chunki pedagogning uning amalga oshirilishi uchun zarur moddiy vositalarning mavjud bo'lishini oldindan ta'minlamagan bo'ladi. Masalan, barcha o'quvchilar ham ishga zarur bo'ladigan asboblardan ta'minlangan emas, o'qituvchi esa ularga navbatdagi topshiriqni bajarishni taklif qiladi. Pedagogik ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishda o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish kabi umumiy tamoyillarni izchillik bilan o'tkazish ham muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ta'lim-tarbiya jarayonining u yoki bu usulini to'g'ri tanlash va uni qo'llanishining muvaffaqiyati pedagogdan pedagogik vaziyatni bilish va hisobga olishni talab qiladi. Pedagogik vaziyat pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari uchun o'ziga xos xususiyatlarga ega. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun zarur bo'lgan hal qiluvchi shart-sharoitlarni aytib o'tamiz. Bu avvalo, tarbiyalanuvchi bilan pedagogning munosabatlaridir. Bu munosabatlar doimiy bo'lib qolmaydi, ular o'zaro muomala jarayonida birgalikdagi faoliyatda rivojlanadi va boyib boradi. Shu narsa mutlaqo

ravshanki, o'rtoqlarcha munosabatlarda ta'sir ko'rsatish usullaridan biri ta'sirchan bo'ladi, betaraf yoki salbiy munosabatlarda (bunday munosabatlar ham bo'lishi mumkin) boshqa usul, boshqa shakl kerak bo'ladi.

So'ngra tarbiyalanuvchilarning pedagog taklif qilgan faoliyatga munosabati muhim shartlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, o'quvchini oson va yechimli ish bilan shugullanishga majbur qilish - boshqa gap, uning jiddiy, odatdan tashqari mehnatni bajarishiga erishish esa, butunlay boshqa bir gap.

Ko'p narsa tarbiyalanuvchining jamoadagi mavqeiga bog'liq bo'ladi. U hali yangi bo'lishi, an'analar va o'rtoqlarining qiliqlarini bilmasligi mumkin. Jamoa hayotning hamma sohasida tajribasi bor bo'lishi ham mumkin. Birinchi holda ham, keyingi holda ham tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatish usuli bir xilda bo'lishi mumkin emas.

Nihoyat, hamisha o'quvchilarning ruhiy holatini hisobga olishga to'g'ri keladi, pedagog ularga biror topshiriq bilan murojaat qiladi: o'quvchilar quvnoq va vazmin bo'lishlari, biror narsadan ranjib jahllari chiqqan bo'lishi ham mumkin. Bu ham yana ta'sir ko'rsatish shaklini tanlashga asos bo'ladi.

Pedagogik vaziyat bilan u taqozo qilgan pedagogik ta'sir ko'rsatish usulining biror shakli o'rtasidagi bog'lanish muhim ahamiyatga ega. Bu aloqadorlikni tushunish tarbiyachilarga o'z harakatlarida ko'proq samaradorlikka erishish, ularni ongli ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning ayrim usullarini qarab chiqishni talab usulidan boshlagan ma'qul.

Talab - pedagogik ta'sir ko'rsatishning boshlang'ich usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilarning muayyan faoliyatini rag'batlantirishni yoki to'xtatishni va aniq amaliy hamda ahloqiy sifatlarini namoyon qilishni taminlaydi.

Talab qilish usuli o'quvchilarning ko'pgina ahloqiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi, lekin tarbiyalanuvchilarda o'ziga nisbatan ma'suliyat va talabchanlikni rivojlantirishda alohida vazifani bajaradi.

Yagona pedagogik talablarni qarab chiqar ekanmiz, faqat bizning insonparvar jamiyatimizdagina xalqning ma'naviy-siyosiy birligini mustahkamlashda pedagogik ta'lim - tarbiyaning ta'sirchan usuliga aylanishini aytib o'tgan edik.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli bo'lgan talabning ahamiyati nimadan iborat ekanligini qarab chiqamiz.

O'qituvchi o'quvchilar bilan ishlab, ularning faoliyatini tashkil etar ekan, o'z ko'rsatmalari bilan o'quvchilarning ayrim harakatlarini rag'batlantiradi. Ish jarayonida ularga muayyan mulohazalar bildiradi, tanbeh beradi yoki rag'batlantiradi, yakun yasaydi. Uning ayrim buyruqlari qisqa va lo'nda bo'lib, sezilar-sezilmas majbur qilish rolini o'ynasa, boshqalari ancha keng tushuntirish yo'l-yo'riqlar shakliga ega bo'ladi. Ayrimlari o'quvchilarni faqat ishga jabr qilish zarurati tufayli, boshqalari o'quvchilarning ayrim ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishiga tuzatish kiritish ehtiyoji bilan vujudga kelgan; bir xillari o'quvchilarning keraksiz va noto'g'ri harakatlarini to'xtatasa, boshqalari muvaffaqiyatli harakatlarini mustahkamlaydi va qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchi tomonidan berilgan barcha ko'rsatmalar va tushuntirishlar, mulohaza va tanbehlar pedagogik ta'sir ko'rsatishning ana shu eng muhim usuli bo'lgan talab qilishning turli shakllariga aytiladi. Shuning uchun ham mubolag'a qilishdan qo'rqmay aytish mumkinki, pedagogning talabisiz o'quvchilarning o'quv va ijtimoiy foydali faoliyatini tashkil etishni tasavvur etib bo'lmaydi.

Tajribali pedagog o'quvchilar huzuriga keng harakatlar dasturi bilan birga boradi, o'z tarbiyalanuvchilaridan har biri qachon nima qilishini aniq va muayyan tarzda biladi. Zero, talablar ana shu dasturni ularning ishlari va xatti-harakatlarida amalga oshirish vositasidir, xolos.

Talablar - o'quvchilar jamoasi bilan ishlashning boshlang'ish davrida, dastlabki darslarda ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. Ana shu bosqichda guruhda ishlarning qanday borishi, u yoki bu harakatlarning o'quvchilar tomonidan qanchalik aniq bajarilishi ham, o'qituvchining o'quvchi bilan munosabatlari qanday yo'lga qo'yila boshlashi ham, o'quvchilar uni obro'li o'rtoq - o'z rahbarlari deb e'tirof qiladilarmi yoki yo'qmi, - bularning hammasi tarbiyachining talablariga chambarchas bog'liqdir.

Shunday qilib, o'quvchilar bilan ishlashning boshlang'ish davrida va ular faoliyatining yangi-yangi turlarini tashkil etishda pedagogning talablari o'quvchilarning zarur xatti-harakatlarini rag'batlantirishning muhim vositasi hisoblanadi, shuningdek, noma'qul va foydasiz harakatlarning oldini olish va to'xtatish vositasi ham bo'ladi. Talabning asosiy guruhlari va shakllarini qarab chiqamiz.

Pedagogning talablari bevosita talablar bo'lishi mumkin, bunda ular shunday o'quvchilarga qaratilgan bo'ladiki, tarbiyachi ulardan muayyan harakatlarga erishishni kutadi, yoki pedagogning talablari vositali talablar bo'ladi, bunda o'qituvchi o'z talablari bilan o'quvchilarda o'z o'rtoqlariga nisbatan navbatdagi talablarni keltirib chiqaradi.

Biz avvalo, talabning asosiy shakllarini ta'riflashga o'tamiz, bu usulning u yoki bu shaklini tanlash, pedagogik vaziyatni hisobga olish bilan bog'liqdir. Bevosita talablar uchun pedagogik vaziyat ikkita asosiy shartdan, ikki omildan vujudga keladi. Birinchi omil - kimdan talab qilinsa, o'shaning talab qiluvchiga bo'lgan munosabatidir. Ikkinchi omil - bu tarbiyalanuvchining pedagog rag'batlantiradigan faoliyatiga munosabatidir. Umuman, olganda bu munosabatlarni biz ijobiy, betaraf va salbiy munosabatlar deb ta'riflaymiz, holbuki, amalda bu munosabatlarning juda ko'pdan-ko'p ko'rinishlari ham bo'lishi mumkin.

Endi talab shakllariga to'xtalib o'tamiz. Talab to'ppa-to'g'ri bo'lishi mumkin, bunda o'qituvchining murojaati "Shunday va faqat shunday qil" formulasi bo'yicha qat'iy, dadil ohangda ifodalangan aniq ko'rsatmaga ega bo'ladi. Bunday holda o'quvchilarni harakatga undovchi omil talabning o'zi hisoblanadi.

To'ppa - to'g'ri talab jamoa bilan ishlashning birinchi bosqichida ayniqsa, ta'sirchan bo'ladi. Buni bir adib ko'rsatib o'tgan edi: "Samimiy, oshkora, ishonarli, qizg'in va qat'iy talab bo'lmasa, jamoani tarbiyalashni boshlab bo'lmaydi, binobarin, kimda-kim ikkilanuvchilardan, berilgan va'dalarni shuvab ketuvchilardan ish boshlashni o'ylasa, u xato qilgan bo'ladi".

Pedagog o'quvchilar uchun yangi bo'lgan faoliyatni tashkil etayotgan joyda ham to'ppa-to'g'ri talab zarurdir. Bu erda to'ppa-to'g'ri talab ta'limning boshlang'ish usuli bo'lgan yo'l-yo'riq berishga o'xshab ketishi, o'ziga e'tiborni jalb qiladi. Shuni ham aytib o'tamizki, to'ppa-to'g'ri talab ko'pincha o'quvchining pedagogga, yoki u boshlagan faoliyatga betaraf munosabatda bo'lishi sharoitida ishlatiladi. Bunday vaziyatda to'ppa-to'g'ri, bevosita talabning quyidagi qoidalariga rioya qilish ayniqsa muhimdir:

Birinchi qoida: odatda, talab ijobiy bo'lishi, ya'ni mutlaqo muayyan xatti-harakatni keltirib chiqarishi, o'quvchilarning u yoki bu harakatlarini shunchaki ta'qiqlamasligi, to'xtatmasligi lozim.

Albatta, o'qituvchining taqiqlashlaridan ayniqsa, o'quvchilar belgilangan hulq-atvor qoidalarini har xil tarzda bo'lgan hollarda foydalaniladi. Biroq pedagoglar talablarining asosiy mazmunini ta'qiqlashlar tashkil etmaydi. Talablardagi asosiy narsa o'quvchilar hulq-atvori va faoliyatining ijobiy dasturidir.

Ikkinchi qoida: to'ppa-to'g'ri talab yo'l-yuriq tarzida, ya'ni bir xil ma'noli, aniq va tushunarli, konkret bo'lishi lozim. Dastlabki paytlarda o'quvchilarning yangi harakatlarini rag'batlantirganda talab, yo'l-yo'riq

berish bilan qo'shib ketganday bo'ladi, bu harakatlarni detallashtirib, ularni aniq ta'riflab beradi.

Uchinchi qoida: pedagogning harqanday oqilona, aniq va tayyorlangan to'ppa-to'g'ri talabi albatta bajarilishi, oxiriga yetkazilishi kerak.

Shuni esda tutish kerakki, o'xshash pedagogik harakat qonunining namoyon bo'lishi natijasida har bir yangi talabning bajarilishi pedagogning keyingi talablarining kuchi va ta'sirchanligini oshiradi. O'quvchi - tarbiyachiga aql-idrok bilan aniq bo'ysunish odatini shakllantiradi. Va aksincha, har bir bajarilmagan talab shundan keyingi talablarning samaradorligini pasaytiradi.

To'ppa - to'g'ri talablarning texnik ijrosi haqida gapirganda, ularni qo'yishning qat'iy, ishonarli ohangini ta'kidlab o'tish kerak. U osoyishta, vaziyatga qarab, jiddiy bo'lishi, lekin hech vaqt baqirishga, bolani haqorat qilishga aylanib qolmasligi kerak.

Talab-maslahat tarbiyalanuvchi ongiga ishonchsizlik bildirishdan iborat bo'lib, u yoki bu xatti-harakat, amaliy vazifani turli usulda yechishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida o'qituvchining mustaqil ravishda qaror qabul qilish uchun tarbiyachining tavsiyasini o'z ichiga oladi.

Iltimos singari, maslahatni ham majbur qilib tiqishtirmaydilar, tanlash huquqi bolaning o'zida qoladi. Bu shakl ishga ongli munosabatni rivojlantiradi va bundan tashqari, pedagogni katta yoshdagi o'rtoq deb bilishga o'rgatadi, uning obro'si keng bilimlarda, katta hayotiy tajribada, mahoratda yashirilib yotganligiga asoslanadi. Shu bilan birga maslahat-bu hamma narsani ipidan ignasigacha tasvirlab beradigan yo'l-yo'riq emas, balki ko'pincha yechimlarni mustaqil izlashga undashdan iboratdir.

Bevosita talabning bu shakli yana shunisi bilan foydaliki, u o'quvchilarni muayyan vaziyatlarda, ayniqsa paydo bo'ladigan qiyinchiliklarda o'rtoqlari, o'quvchilar bilan maslahatlashishga o'rgatadi. O'z navbatida pedagoglar o'zlariga o'quvchilar maslahat uchun murojaat qilishini, qadrlashni, o'zining javob reaksiyasini shunchaki aytib berish emas, balki, kichik yoshdagi o'rtoqlariga tabiiy yordam ko'rsatishni o'rgatishlari lozim.

Talab - sha'ma o'quvchilarni muayyan hatti-harakatlarga ilhomlantirishning yashirin shakli va eng nozik vositalaridan biridir. Sha'ma ilgari ishlatilgan, yaxshi tanish bo'lgan talablarni, ma'nosi ochib berilmaydigan talablarni o'ziga xos shartli qisqartirishdir. Tajribali pedagogga ba'zan o'quvchilarning zarur harakatlarini bajarishini

ta'minlash uchun ko'z tikib qarash, qoshlarning harakati, ritorik savolning berilishi kifoya qiladi. Muayyan sharoitda sha'ma talabning "yashirin" shakli rolini o'ynaydi, u faqat ikki kishiga tushunarli bo'lib, atrofda qilarning diqqatini jalb qilmaydi.

Shartli talab shundan iboratki, bola uchun yoqimli bo'lgan biror faoliyat turi yoqimsiz, yoki qiyin faoliyat uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

"Darslarningni qilsang-o'ynagani borasan"- bu bevosita talabning ana shu shakliga eng oddiy misol bo'ladi. Shartli talabdan foydalanganda bajarilishi shart bo'lgan faoliyat bilan sarflangan kuch - g'ayrat uchun o'ziga xos mukofot bo'lgan faoliyat o'rtasidagi aloqa tabiiy edi. Aks holda, o'quvchilarda o'z manfaati yo'lida foydalanish kayfiyati paydo bo'lishi mumkin, bunda shartli talabga endi pedagog amal qilmaydi, o'quvchilar esa, uning oldiga o'z shartlarini qo'yadilar: "Bizni futbol o'ynashimizga ruxsat etsangiz, sinfni yig'ishtirib chiqamiz" va hokazo.

Umuman talabning bu shaklini qo'llanishi o'quvchilarni, ularning qiziqishlari va mayllarini yaxshi bilishni, ularning individual qobiliyatlarini va me'yor tuyg'usini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu usulni (xullas, boshqa har qanday usul kabi) suv iste'mol qilmaslik kerak.

O'yin shaklidagi talabdan odatda qiziqarli bo'lmagan va ba'zan zerikarli mashg'ulotlarni tashkil etish haqida gap boradigan joyda, biror ishni, ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashni jonlantirish uchun foydalaniladi.

Misol keltiramiz: "Ta'lim muassasasi - internat tarbiyalanuvchilaridan bir guruhi odatda uxlashga yotish uchun juda uzoq, hozirlik ko'rishardi. O'quvchilar tez yechinishni bilmas, o'z buyumlarini tartibsiz qilib tashlayverishardi. Shunda tarbiyachi kechqurunlari "Kim tezroq?" o'yinlarini o'tkaza boshladi, har kimning vaqtini sekondomer bilan qayd qilib qo'ydi, o'yin hammani jalb qildi, hatto o'z rekordchilari paydo bo'ldi".

O'quvchilar jamoani tashkil qilishda o'yinga singib ketishi lozim, degan edi bir adib. Bevosita talabning bu shakli nihoyatda ta'sirchan bo'lishi mumkin, chunki, o'quvchilarni qiziqitirib, ularga quvonch bag'ishlaydi, birinchi qarashda eng yoqimsiz bo'lib ko'ringan ishlarni bajarishdan qoniqish hosil qilishga imkon beradi.

Qoralovchi talabdan pedagog shunday hollarda foydalanadiki, bunda bolaning u yoki bu harakatlariga salbiy baho berish uning yoqimsiz xatti-harakatlarini to'xtatishda rol o'ynaydi va foydali harakatlarni rag'batlantiradi.

3.3. Sharqona tarbiya va muosharat odobining muloqotga ta'siri

*Suhbatni shunday olib borish kerakki,
suhbatdoshlarning har biri undan
naf olsin, bilimi yanada boyisin.*

Geraklit

Tayanch iboralar: sharqona tarbiya, muosharat odobi, muomala odobi, pedagogik ta'sir ko'rsatish, boshqarish vositasi, pedagogik qobiliyat, o'qituvchining ijtimoiy yo'l-yuriqlari, muomala maqsadi, pedagogik muloqot, pedagogik muomala madaniyati, o'qituvchining keskin darajada ajralib turishi, o'quvchining ruhiy holati, sharqona tarbiya, muosharat odobi, mutaxassisning pedagogik odobi, ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari, Sharq ma'naviy madaniyati.

Mahorat so'zining lug'aviy ma'nosi haqida gapiradigan bo'lsak - bu ma'lum ishni a'lo darajada bajarmoqdir. Mutaxassis - murabbiy mahorati deganda esa, chuqur bilimli, o'quvchilar ruhiyatini yaxshi biladigan, o'qituvchilikning g'ururi, yuqori darajada bo'lgan insonlar faoliyati tushuniladi. Aslida bizning kasbda mayda ish yo'q. Har bir harakatimiz katta ahamiyatga ega.

Bola eng toza, eng nafis va eng buyuk mavjudotdir. Shuning uchun hali u, bu yoshda gunoh qilishga ulgurmagan bo'ladi. Hamma narsaga g'ayrat va hayajon bilan boqadi. U kattalarni juda aqlli, ishonchli, ibratli deb biladi. Bola-rostu yolg'oningizga chippa-chin ishonadi.

Bola shuning uchun ham nafiski, u hali aldovga yo'liqmagan, zarbaga duchor bo'lmagan-bir aldov uning ming ishonchini poymol qilishi, bir zarba uning murgak dunyoqarashini alg'ov-dalg'ov qilib yuborishi mumkin.

Ayting, ruhiyatning bolalikda shakllanadigan poydevoriga darz ketmasin!

Xayoldagi qalban nogiron odamlar kattalarning o'quvchilar ko'nglini asrab-avaylab olmaganining natijasidir. O'quvchilarning buyukligi shundaki, ular yer kurrasining ertangi sohiblari, kelajak tarixini bituvchilaridir.

Aytingchi, shunday toza, nafis va buyuk zot qoshiga qanday qilib taraddudsiz, shunchaki, ro'baro'y kelib bo'ladi? Bu bokira olamga bo'ynida la'nat, ko'nglida loqaydlik bilan kirish gunohi azim-ku! Bir

noqobil shifokor umriga kushanda bo'lishi, no'noq muhandis muhim mexanizmi ishdan chiqarishi mumkin. Noqobil muallim esa, har gal o'ttiz nafar bolaning ma'naviy dunyosini qorong'i qilib chiqaveradi.

Haqiqatdan ham hayotda turli xil murabbiylarni uchratamiz. Ba'zilar o'quvchilarni joni dilidan ortiq sevadi, biroq bilimi sayoz, ba'zilar chuqur bilimga ega bo'lsada o'quvchilar bilan muomala qilishni bilmaydi, ba'zilar o'rta miyona. Sanasangiz nuqsonlar ko'payaveradi. Xo'sh, pedagogik mahorat nima o'zi? U hammada ham bormi? Albatta, mahoratni hammada shakllantirish mumkin. Buning uchun avvalambor sabr - bardosh, qunt bilan o'qish, o'z ustida ishlash, o'quvchilarning ruhiyatini, ularning rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganib, tahlil qila olish va yana eng asosiy narsalar o'quvchilarga mehr va o'qituvchining o'zida pedagogik g'urur mujassam bo'lmog'i lozim.

Demak, pedagogik mahorat bu o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida shaxs sifatidagi xususiyatlarini yuqori darajada tashkil qila olish mahoratidir.

Mutaxassis - murabbiyning mahorati bir qator komponentlardan tarkib topadi.

U pedagogika va psixologiya bo'yicha ilmiy bilimlarni, ya'ni kasbiy bilimlar, kasbiy qobiliyat, pedagogik etika va pedagogik texnikani o'z ichiga oladi.

O'qituvchilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ishlarining chinakam ustalariga aylanadilar. O'qituvchilar bilan bo'lgan suhbatlaridan birida: ".... men o'zimni bir oz bo'lsada, talantli pedagog deb hisoblamaganman va hisoblamayman ham ... Ammo, men ko'p ishladim, o'zimni ishga qobiliyatli deb hisobladim va hisoblayman, men ana shu mahoratni egallashga harakat qildim, dastlab, hatto ishlaganim ham yo'q, ha shunday mahorat bormi, yoki pedagogik talanti deb aytilishi lozim bo'lgan narsa haqida gapirish kerakmi, deb o'ylayman. Ammo, biz talantlarning tasodifiy taqsimlanishiga bog'lasak bo'ladimi? Bizda bunday juda talantli tarbiyachilar qani? Mahorat haqida, ya'ni, tarbiyaviy jarayonni chindan ham bilish to'g'risidagina, tarbiyalash o'quvi haqidagina gapirish lozim. Men o'z tajribamda masalani ko'nikma va malakaga asoslangan mahorat hal qiladi, degan xulosaga keldim", deb ta'kidlagandi bir adib. Sog'lom fikr yurituvchi har bir kishi mahoratli tarbiyachi bo'la oladi, mahoratga tajriba hamda fikr yuritish orqali erishiladi, deb ishongandi. Mutaxassis - murabbiylik mahorati - bu avvalo, o'qituvchiga pedagogik vaziyatni ta'lim tizimi oldida turgan siyosiy va pedagogik vaziyatlarga muvofiq tarzda hal etish imkonini beradigan kasbiy bilim, ko'nikma va

malakalarni egallashdir. Mutaxassis - murabbiylik mahoratining nazariy asosi kasbga oid bilimlardir. Tarbiyaning birinchi galdagi vazifalarini konkret aniqlab, yuzaga kelgan pedagogik vaziyatda pedagogik bilimlarni qo'llashni, tarbiyaviy ishda maqsadga qat'iy va zo'r g'ayrat bilan intilish talab qilinadi. Bu nimaga erishmoqchi bo'lganimizni bilishimiz va buni qech qachon unutmashimiz kerak. Ammo, pedagogika, psixologiyaga doir bilimlar konkret tarbiyaviy momentlarda yuzaga keladigan barcha vazifalarga tayyor javoblar berolmaydi. Mutaxassis - murabbiyning faoliyati - ijodiy faoliyati va aynan bilimlarini ijodiy qo'llash, mohir - pedagogning o'ziga xos xususiyatini ko'rsatib turadi.

Mutaxassisning pedagogik odobi - yuksak madaniyati va ma'naviyatida bilinadi. Ochiq ko'ngil, qat'iylik, turli vaziyatlarda o'zini tuta bilishi, o'quvchilarga nisbatan talabchan va mehribon, tamoyilli va g'amxo'r, ota-onalar, o'quvchilar, kasbdoshlar bilan ijobiy muloqotda bo'la oladigan, fikrlovchi va dunyoqarashi keng bo'lishi lozim.

Kasb odobining tarkibi-axloqiy bilim, axloqiy his-tuyg'u, axloqiy e'tiqod, axloqiy idealdan iborat.

Axloqiy bilimlar - insonning hulqini tartibga soluvchi xulq-atvor to'g'risidagi tushunchalar, qoidalar, talablar, tamoyillardir.

Xulq-atvor tushunchalari: yaxshilik, adolat, mas'uliyat, burch, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kasbga sodiqlik.

Axloqiy qoidalar - umuminsoniy va axloqiy qadriyatlar, diniy, dunyoviy axloqiy bilimlarga ega bo'lishlik.

Axloqiy his-tuyqu-o'z kasbidan faxrlanish, zavqlanish, g'ururlanish, o'z qadr-qimmatini anglash, ma'suliyatni, javobgarlikni his qilish.

Axloqiy e'tiqod-jamiyatga, o'z kasbiga, o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar oldidagi vazifasini bajarishini his qilish, axloqiy bilim qarashlariga ega bo'lishdir.

Bir adib o'z vaqtida "Biz pedagoglarga unday qiling yoki bunday qiling demaymiz. Biz ularga o'zingiz boshqarmoqchi bo'lgan psixik hodisalarning qonunlarini o'rganing va shu qonunlarni hamda ularni qo'llamoqchi bo'lgan muhitlarni nazarda tutib, ish ko'ring deymiz. Faqat mana shu muhitlarning o'zigina xilma-xil emas, balki tarbiyalanuvchilarning tabiati ham bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Tarbiya muhitining hamda tarbiyalanuvchilar shaxsining shunday o'ta xilma-xilligida qandaydir umumiy tarbiyaviy retseptlar berish mumkinmi? Mana shuning uchun ham biz pedagoglarga imkon boricha umuman kishini o'rganishi, o'z tarbiyalanuvchilarini va ularni o'rab turgan muhitni o'rganishni, har doim ham xayolga kelavermaydigan pedagogik tadbirlar

tarixini o'rganishni, o'zida tarbiyaning aniq ijobiy maqsadini tarkib toptirishni va egallagan bilimlarga hamda o'z aqliga taya'nib, bu maqsadga erishish sari og'ishmay borishni maslahat beramiz". Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi o'ta xilma-xil kasbiy va shaxsiy sifatlarni namoyon qiladi. Bu sifatlarda bir-biri bilan uzviy bog'langan va mutaxassis - murabbiyning amaliy faoliyatida bir butun sifatida yuzaga chiqadi. Shaxsiy sifatlarda, maxsus bilimlar va kasbiy bilimlar murakkab va ko'p qirrali birikmasini pedagogik qobiliyatlar deb, atash qabul qilingan. Pedagogik qobiliyatlar murakkab strukturaga egadir.

Pedagogik qobiliyatlarning shakllanishiga o'qituvchilarni tayyorlab yetishtiradigan o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni katta ta'sir ko'rsatadi. Ammo, har bir bo'lajak mutaxassis - murabbiy, bilim yurtida ishlayotgan o'qituvchi o'zlarida pedagogik qobiliyatlarini o'stirish uchun zo'r ishtiyoqni namoyon qilishlari kerak. Pedagogik qobiliyat pedagogik faoliyatning shartigina emas, balki natijasi hamdir. Pedagogik mahorat mutaxassis - murabbiyda pedagogik odobi(nazokati) ning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Mutaxassis - murabbiyning umumiy ma'naviy tarbiyalanganligi pedagogik odobining asosidir. Pedagogik odobi - bu o'quvchilarga nisbatan pedagogik etikaning o'ziga xos amalga oshirilishidir. Pedagogik odob - bu o'qituvchining yuksak insoniylik, insonga mehribonlik, o'zini tuta bilishi, sabr-bardosh, har qanday vaziyatlarda ham hayrihohlik munosabatlarini o'rnatib bilishi kabilarni qamrab oluvchi ma'naviy xulq-atvoridir. Pedagogik odobiga ega bo'lgan mutaxassis - murabbiy o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblari bilan bo'ladigan o'z munosabatlarini ustalik bilan boshqaradi. Pedagogik odobda, avvalo, insonga chuqur hurmat namoyon bo'ladi. Murabbiy o'quvchining tarkib topayotgan shaxsi bilan ish ko'radi va uning o'quvchilar bilan bo'ladigan barcha munosabati: insonga mumkin qadar aql, talabchanlik va unga imkon darajasida ko'p hurmat tamoyili asosida ko'rinishini amalga oshiradi.

Bir qator kasbiy malakalar pedagogik odobi bilan bog'langan. Bu pedagogik vaziyatni baholash, o'quvchilarning xususiyatlarini hisobga olish, pedagogik ta'sir keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan samarani oldindan ko'rish malakasidir. Pedagogik odob - yuksak pedagogik mahorat mavjudligining belgisidir. Pedagogik odobni egallash mutaxassis - murabbiydan o'z ustida puxta o'ylab ishlashni talab qiladi. Murabbiy o'z hatti - harakatini doimo nazorat qilishi, qarashi, ishorasi bilan o'quvchilar hatti-harakatiga o'z munosabatini bildirib olishi kerak. Ya'ni, pedagogik odobi o'qituvchida o'z tuyqularini ifoda qilishning sof tashqi malakalari

mavjud bo'lishini ham nazarda tutadi. Malakalarning bunday majmui pedagogik mahoratining tarkibiy qismi bo'lib, u pedagogik texnikasi deb ataladi. Pedagogik texnikas murabbiyga o'quvchilar va ularning otionalari bilan muloqotda bo'lishda to'g'ri muomala tarzini tanlash imkonini beradi. Muomala tarzi, o'quvchilar bilan munosabat uslubi, diktsiya, mimika, imo-ishorani to'g'ri tanlash, bularning barchasi pedagogik texnikasi tushunchasiga kiradi. Mutaxassis - murabbiyning pedagogik mahorati, uning intellekti va madaniyatiga milliy dasturda jiddiy e'tibor beriladi va shu o'rinda mutaxassis - murabbiy o'z pedagogik mahoratini, kasbga doir vazifalarini hal qilish qanchalik qo'ldan kelishini doimo tekshirib borishi, bola ongi hamda qalbga eng yaxshi yo'llarni axtarishi kerakligi ta'kidlab o'tiladi. Milliy dasturda mutaxassis - murabbiy o'z tarbiyalanuvchilarini faqat bilimlar bilan qurollantirib qolmasligi ta'kidlanadi. U ularga o'zining hatti-harakati bilan ham ta'sir etadi. Uning intellekti va madaniyati, qaqgo'yiligi va insoniyiligi, uning ma'naviy sifatleri o'quvchilar tomonidan etalon sifatida qabul kilinishi kerak. Ilmiy - psixologik - pedagogik bilimlar tizimining mavjudligi mutaxassis - murabbiyga faqat o'z guruhini hamda ayrim o'quvchilarni o'rganish va ularning to'g'ri tavsifnomasini tuzishgagina emas, balki o'quvchilar jamoasi va uning har bir a'zosining rivojlanish istiqbollarini ham belgilash imkonini beradi. Mutaxassis - murabbiyning amaliy faoliyati - bu ko'plab pedagogik vazifalarni beto'xtov hal qilishdir. O'zining kasbga doir bilimlari boyligidan ijodiy foydalangan pedagoggina, ularni muvaffaqiyatli hal etishi mumkin. Pedagogik mahoratni egallashi uchun murabbiy o'quvchini rivojlantirish va shakllantirishning hozirgi bosqichida nimalarga erishmoqchi ekanligini aniq tasavvur qilishi lozim. Bunda u mafkuraviy tarbiyaning umumiy maqsadlariga asoslanishi kerak.

Pedagog o'quv yurtidayoq ilmiy bilimlar tizimini puxta egallab olishi kerak. Pedagogik mahoratni egallashda psixologiya - pedagogika fanlariga doir bilimlar katta rol o'ynaydi. Pedagog, ko'pincha rus tili, matematika bo'yicha bilimlarni egallagan bo'lishi, ammo ularni o'quvchilarga yaxshi tushuntira olmasligi mumkin. Fan asoslarini egallagan ayrim pedagoglar guruh bilan aloqa o'rnatolmaydilar, o'quvchilar bilan to'qnashuvlarga duch keladilar. Bularning barchasi pedagogning tarbiyaviy jarayon, tarbiyaviy malakalar haqida yetarli darajada bilimlarga ega emasligidan dalolat beradi.

Pedagogik mahoratni egallashi uchun mutaxassis - murabbiyga faqat o'z predmeti yuzasidan bilimlarga ega bo'lish kifoya qilmaydi, u

pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarni o'zlashtirishi va ularni muntazam ravishda kengaytirishi lozim.

3.4. Muloqot asosida ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari

*Hamma ishda va har qanday suhbatlarda sabr-qanoatli bo'ling.
J. Lebbok.*

Tayanch iboralar: muloqot, ma'naviy madaniyat, muloqot turlari, pedagogning o'quvchilar bilan muomalasi, pedagogik ta'sir ko'rsatish, boshqarish vositasi, pedagogik qobiliyat, o'qituvchining ijtimoiy yo'l-yuriqlari, muomala maqsadi, pedagogik muloqot, pedagogik muomala madaniyati, o'qituvchining keskin darajada ajralib turishi, o'quvchining ruhiy holati, sharqona tarbiya, muosharatodobi, mutaxassisning pedagogik odobi, ma'naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari va omillari, sharq ma'naviy madaniyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq mamlakatimizni rivojlantirishning ma'naviy - axloqiy negizlari haqida o'z fikrlarini bayon etgan: "Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrat manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab asrab kelmogda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ilarga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir".

Darhaqiqat, O'zbekiston zaminida Sharq ma'naviy madaniyatining muhim jihatlari uyg'onish davrida rivojlangan bo'lib, bu davrda yashab ijod etgan al-Xorazmiy, al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Shayx Sa'diy, Tusiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ko'plab mutafakkirlarning ijodiy meroslari pedagogik tafakkur taraqqiyotida, insonning ma'naviy-axloqiy kamolotida, umumbashariy ma'naviy qadriyatlarning yuksalishida muhim bosqich bo'ldi. Ular, Sharqona odob-axloq talablari asosida komil insonni tarbiyalashning

3. Ma'naviy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatidan ta'sirlanish va amaliy faoliyatda ularga taya'nish, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilishini ta'minlab, o'quvchi ma'naviy madaniyatini tarbiyalashdagi ahamiyatini yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilaridan (o'qituvchi va o'quvchi) doimiy ijodkorlikni talab qiladi. Ijodkorlik - milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O'qituvchi ta'lim - tarbiya jarayonida uning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi.

4. O'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirishning muvaffaqiyati o'qituvchining muloqot olib borishida, psixologik taktikasi omillariga ham bog'liq. Ushbu omilni harakatlantiruvchi sharoitlar:

- o'qituvchining pedagogik-psixologik va maxsus fanlar integratsiyasi bo'yicha chuqur bilimga ega bolishi;

- mutaxassisligi bo'yicha kasbiy mahorati;

- o'quvchilar bilan o'zaro do'stona muloqot madaniyati;

- o'quvchilarning ruhiy holatini tez bilib olishi;

- o'qituvchi ma'naviy madaniyatining shakllanganlik darajasi;

- ta'lim-tarbiyaning zamonaviy usul va metodlarini tanlay bilishi;

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari to'g'risida chuqur ma'lumotlarga ega bolishi;

- o'qituvchining pedagogik jamoa orasidagi hurmat - e'tibori.

5. O'qituvchi muloqot asosida o'quvchilarda ham ijodkorlik omilini takomillashtirib boradi. O'quvchida uning sifatleri quyidagi belgilar bilan namoyon bo'ladi:

- ma'naviy qadriyatlarni, an'analarni o'zlashtirishga, qiziqishda ehtiyoj va talabning kuchliligi;

- o'rganilayotgan fanlar asoslarini egallashga ijobiy munosabat;

- ma'naviy madaniyat saviyasi, dunyoqarashi;

- o'z-o'ziga nisbatan talabchanlik;

- tabiatga, atrof-muhitga ongli munosabat;

- yangiliklarni va axborot texnologiyalarini o'rganishga qiziqish;

- ijtimoiy va shaxsiy faolligi;

- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi;

- tashabbuskorligi va ijodkorligi.

O'quvchilarda ma'naviy madaniyatni shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatli borishi, ta'lim mazmuniga asoslanib, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri tashkil etish saviyasiga bog'liq. Bu, quyidagi faoliyat turlarini mukammal bilishni taqozo etadi:

Birinchidan, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas'uliyatni, faollikni va eng asosiysi, muloqot madaniyatiga rioya etishni talab qiladi.

Ikkinchidan, har bir darsda o'qituvchi ham, o'quvchi ham belgilangan maqsadni aniq qo'ya bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to'g'ri belgilab olishi lozim.

Uchinchidan, dars jarayonida bilimlar mazmunining ilmiyligi, uzluksizligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, o'qituvchining notiqlik san'ati asosida bayon etish shaklining mukammalligi, qiziqarliligi o'quvchilarda ta'limiy va tarbiyaviy tomondan o'rganiladigan qadriyatlarga qiziqishni kuchaytiradi, ularda tarixiy, adabiy, milliy va diniy xarakterdagi milliy qadriyatlar bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish ishtiyoqi rivojlanadi.

To'rtinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, nazariy va uslubiy tayyorgarligi, o'z kasbiga, faniga munosabati, olib boradigan darsi andozasini va uning natijasini oldindan ko'ra bilish, har bir dars samaradorligini ta'minlovchi texnik va texnologik belgilardan biridir.

Beshinchidan, dars jarayonida o'quvchilar jamoasiga erkin fikr yuritish, o'z fikr-mulohazasini erkin bayon etishga imkoniyat yaratish, o'quvchilar jamoasi fikriga taya'nish, ularning fikr-mulohazalari, istak - xohishlarini e'tiborga olish, o'quvchilarning mustaqil ishlaridan keng foydalanish zarur.

Oldinchidan, o'quvchilar bilimiga, xulqiga beriladigan bahoning xolisona va adolatli bo'lishi barcha ta'lim va tarbiyaviy faoliyatini to'g'ri tashkil etilishiga ijobiy ta'sir etuvchi omil ekanligini unutmaslik kerak.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar ongiga muloqot asosida milliy qadriyatlar va ma'naviy madaniyatni shakllantirish, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqotini hozirgi zamon pedagogik talablari asosida mukammal tashkil etilishini ta'minlaydi.

Muammoli savollar:

1. Shaxsning o'zaro fikr almashish xususiyatlariga ta'rif bering. Bu xususiyatlar bizda bormi? O'rtoqlaringizda - chi?

2. Pedagogik muomalada bir qolipdagi usullar hamisha ham ijobiy rol o'ynaydimi? Pedagogik tajriba Sizni qanday xulosalar qilishga undaydi?

3. O'qituvchining rahbarlik qilishda individual uslubni tanlashi nimalarga bog'liq? Aytib o'tilgan hamma uslublarni egallash kerakmi?

4. Talabalar bilan muomala qilish metodikasini egallash nimani bildiradi? Uning tarkibiga kiradigan malakalar nimalardan iborat?

5. Talaba shaxsining shakllanishida muomala qanday rol o'ynaydi?
6. Jamoa faoliyati maqsadini belgilashda talabalarni qanday qilib jalb etish kerak? Pedagogik amaliyot vaqtida olingan o'z tajribangizni dalil qilib keltiring.
7. Jamoaning o'z-o'zini tashkil etishida ko'rsatiladigan pedagogik yordam qanday bo'lishi mumkin?
8. Turli yoshdagi talabalar muomalasini tashkil etish xususiyatlari nimalardan iborat? Yoshlar o'rtasidagi muomalani tashkil etish metodikasi qanday bo'lishi mumkin?
9. Individual muomala uslubiga qo'yiladigan metodik talablar nimalardan iborat?
10. Individual muomala uslubini mashq qildirish bilan hosil qilish mumkinmi?
11. Kasbiy-pedagogik muomala jarayonida ijodiy kayfiyatni boshqarish muammolari nimadan iborat?
12. Ijodiy kayfiyatda muomala ta'siri haqida nima deya olasiz?
13. Pedagogik mahorat tizimida psixologik ta'sir usullariga izoh bering.
14. «Jismoniy harakatlar» usuli deganda nimani tushunasiz?
15. Ijodiy kayfiyatni shakllantirish degani nima?
16. Pedagogni talabalar bilan muomalasining mohiyati nimadan iborat?
17. Muomala uslubining pedagogik faoliyat uslubi bilan bog'liqligi nimada?
18. Avtoritar, demokratik va liberal uslublariga izoh bering.
19. Talabalar faoliyatini tashkil etishda muomala qanday rol o'ynaydi?
20. Talaba muomalasini yaxshilashda nimaga e'tibor berish lozim?
21. Talabalar ta'sir ko'rsatish vositalarining hammasini ham tarbiyaviy vositalar deb hisoblash mumkinmi?
22. Pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasidan samarali foydalanish shartlari qanday?
23. Pedagogik tajriba qanday xulosalar chiqarishga imkon beradi?
24. Talabalarga metodik jihatdan qanday qilib to'g'ri talab qo'yish kerak?
25. Pedagogik mahorat tizimida ishonirish usuli nimadan iborat?
26. Qanday sharoitda ishonirish tarbiyaviy vosita bo'lib qolishi mumkin?

27. Nima uchun o'qituvchi o'z ishida psixik holatning anglab bo'lmaydigan tarkibiy qismlarini hisobga olishi kerak?

Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. Guruhlarga (o'qituvchi-talaba) bo'linib, o'qituvchining kommunikativ qobiliyatlarini ochib bering.
2. Yoshlar o'rtasidagi muomalani tashkil etish metodikasi deganda nimani tushunasiz?
3. Mashq qildirish yo'li orqali individual muomala uslubini takomillashtirish mumkinmi?
4. K.S. Stanislavskiyning "Jismoniy harakatlar" usuli bo'yicha o'yin o'tkazing.
5. Pedagogik boshqaruv va muomalaning avtoritar, demokratik va liberal uslublari misolida namunalar keltiring.

TESTLAR

1. Muomalada pedagogning o'z hissiy munosabatini ifodalashdagi tashqi shakllarini mustahkamlash nima deb qabul qilingan?
 - a) pedagogik hamkorlik.
 - b) muomalada ijodiy kayfiyatni vujudga keltirish.
 - c) ijodiy hamkorlik.
 - d) madaniy muomala.
2. Pedagogik muomala usullari aniq keltirilgan javobni belgilang.
 - a) demokratik usul, ijodiy kayfiyatni joriy qilish usuli.
 - b) avtoritar usul, liberal usul, hamkorlik usuli.
 - c) ishonirish usuli, talab va rag'batlantirish usuli.
 - d) avtoritar usul, demokratik usul, liberal usul.
3. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari to'liq keltirilgan javobni belgilang.
 - a) demokratik usul, rag'batlantirish usuli.
 - b) talab, istiqbol, jamoatchilik fikri, rag'batlantirish va jazolash usullari.
 - c) rag'batlantirish va jazolash usuli.
 - d) jamoatchilik fikri va demokratik usul.
4. O'z fikrlari, kayfiyati, holati, hissiyoti, talabalar xatti - harakatidan rozilik yoki noroziligini yuz muskullari harakati orqali bildirish nimani anglatadi?
 - a) pantomimikani.

- b) mimikani.
- c) aktyorlik, rejissyorlikni.
- d) nutq madaniyatini.

5. Muomala nima?

- a) axborot jarayoni.
- b) ikki shaxsning muloqoti.
- c) so'zlashish madaniyati.
- d) gapirish.

6. Pedagogning talabalar bilan muomalasining muvaffaqiyati nimaga bog'liq?

- a) hamkorlik qila olishga.
- b) so'zlashish va gapirishga.
- c) pedagogik qobiliyatning mavjudligi va pedagogik nazokat (takt)ga.
- d) pedagogik mahoratga.

7. Talaba – talaba faoliyatidagi, xulq – atvoridagi nuqsonlarga barham berish maqsadida taqiqlash usuli qanday nomlanadi?

- a) ta'sir ko'rsatish.
- b) rag'batlantirish.
- c) jazolash.
- d) ogohlantirish.

8. Muomala darajali aniq va to'liq ko'rsatilgan javobni belgilang.

- a) faktik, aks ta'sir.
- b) munozaraviy, ta'sir.
- c) faktik, munozaraviy, axborot.
- d) axborot.

9. Talabalarda muomalaning individual usulini shakllantirish o'z mazmuniga necha bosqichni oladi?

- a) uch bosqichni.
- b) olti bosqichni.
- c) sakkiz bosqichni.
- d) o'n bosqichni.

10. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari aniq ko'rsatilgan javobni belgilang.

- a) ishonitirish, talab.
- b) demokratik, avtoritar, liberal.
- c) talab, istiqbol, jamoatchilik fikri, rag'batlantirish va jazolash.
- d) jamoatchilik fikri, istiqbol.

11. Tarbiyalanuvchilarning ongiga ishonch, optimizm, rag'bat va intilishni uyg'otish qanday talab shaklini bildiradi?

- a) talab – ishonch.
- b) talab – nasihat.
- c) talab – maslahat.
- d) talab – ta'ma.

12. Pedagogik hamkorlik usulini ishlab chiqqan amaliyotchi – pedagoglar nomi ko'rsatilgan javobni belgilang.

- a) V.I. Pirogov, Navoiy, A. Avloniy.
- b) S. N. Lisenkova, A. S. Makarenko, L.N Tolstoy.
- c) E.N. Il'in, S.N. Lisenkova, V.F. Shatalov.
- d) M.A. Abdurasulov, V.A. Suxomlinskiy.

13. Jamiyat ehtiyoji talablari asosida talabalarda yaxlit zakovat, ma'naviy - axloqiy salohiyat, mehnat ko'nikmalari va jismoniy kuchlarni rivojlantirishga intilishi nimaga bog'liq?

- a) davlat dasturiga.
- b) darsliklar sifatiga.
- c) darsdagi o'qituvchi mehnatiga.
- d) mutaxassismahoratiga.

14. «Inson hayotda erishadigan narsalar – mavqe, e'tiborga loyiq bo'lish, maqsadni aniq qo'ya olish, o'ziga baho berish insonning o'ziga bog'liq» - iborasi kimning hlamiga mansub?

- a) A. S. Makarenko.
- b) V. A. Suxomlinskiy.
- c) D.S. Lixachyov.
- d) H.H. Niyoziy.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997, 31-61 betlar.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yyengilmas kuch. - T.: O'zbekiston, 2009. - 176 b.
4. Mahmudov N. M. O'qituvchining nutq madaniyati. Darslik. - T. O'zb. Milliy kutubxonasi, 2007. - 185 b.
5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - T. O'qituvchi, 1996. - 192 b.
6. Navoiy A. Mahbub ul - Qulub. Asarlar 15-tom. - T.: "Fan" 2005.
7. Ochilov M. Muallim qalb me'mori: Saylanma. -T.: O'qituvch2000.
8. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: "Iqtisod-moliya". 2009.-240 b.
9. Педагогика. (Под ред. П.И. Пидкасистого).- М.: Педагогическое общество России, 2003.- 608 с.
10. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007. 380 b.
11. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari, - T.: 2001.
12. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomidagi TDP, 2005.- 149 b.
13. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri - T.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. - 187 b.
14. O'zbek pedagogikasi tarixi. //A. Zunnunov tahriri ostida. - T.: O'qituvchi, 1997. - 272 b.
15. Hotamov N T. Davraga she'r ulasin. - T.: "MERIYUS" 2009.-287 b.
16. Husanov B. G'ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. - T.: "Iqtisod - moliya" 2009.- 156 b.
17. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik /; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, - 420 b.

IV BOB. NUTQ MADANIYATINING KO'RINISHLARI, EGALLASH YO'LLARI HAQIDA TUSHUNCHA. TIL VA NUTQNING QIYOSIY TAHLILI. O'ZBEK ADABIY TILI ME'YORLARINING TASNIFI

4.1. Nutq madaniyati, uning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni

*Suhbatda vazminlik va o'rinli gapirish
gapga chechanlikdan yuqori turadi*

F. Bekon

Tayanch iboralar: *Nutq, madaniyat, til madaniyati, nutq madaniyati, adabiy til, sheva, nutq madaniyati fani tarixi, og'zaki nutq, yozma nutq, fanning maqsadi, vazifalari, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, uslubshunoslik, mantiq, falsafa, pedagogika, psixologiya fanlari bilan aloqadorligi.*

Nutq-inson tafakkuri mahsul. U o'zining ongli, mazmunan sarmahsul va jozibador nutqi bilan jamiyatda o'rin topadi. Xususan, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan betinim rivojlanib borayotgan yangi demokratik jamiyatimizda shaxs kamoli, uning yuksak madaniyati va milliy xarakter xususiyatlari, milliy mentalitetga ega yangicha dunyoqarashi bilan alohida mas'uliyat kasb etadi. Bu sohada, ayniqsa, respublikamizning barcha oliy o'quv yurtida o'rganilayotgan "Nutq madaniyati" fani ana shu maqsadga qaratilgan. Pedagogik yo'nalishdagi ilm dargohlarida esa bu fan "Nutq madaniyati" maqomida nom olib, u nafaqat talabalarga yuksak til madaniyati, til qonuniyatlari, ularning qat'iy adabiy til me'yorlari asosida faoliyat ko'rsatish, pedagogik jarayonni ham shu asosda tashkil etishning nutqiy va uslubiy xususiyatlarini, moddiy va ma'naviy jihatdan yuksak darajaga ko'tarish omillari, amallarini egallashga, izlashga da'vat etadi. "Nutq madaniyati" fani aslida tilshunoslik fani negizida yaralgan bo'lib, nutqimizda uchraydigan til qoidalariga rioya qila olmaslik natijasida yuz berayotgan til xatolarining oldini olish, bu xatolarning yuzaga kelish sabablarini anglash, shu asnoda adabiy til me'yorlari, mohiyatini muayyan dalillar asosida namoyon etishdan iborat.

Endigi kunda bu fanning mazmun darajasi va chegarasi yanada kengaydi. Fan maqsadi va mohiyati jihatidan yanada boyib, u talabalarga adabiy til me'yorlarini o'rgatib qolmasdan, adabiy til uslublarini egallash, bu adabiy til uslubidan foydalanishga erishish, shu asnoda nutqning

to'g'riligi, aniqligi, ifodaliligi, ta'sirchanligi va sofligi xususida ilmiy tushunchalar berishdan iboratdir. Nutq jarayonida tilning badiiy tasviri vositalaridan foydalanish, unda so'z kuchi va qudratini his qilishga o'rgatish vazifalari bilan bir qatorda bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyatida nutq go'zalligi, jozibadorligi, turli nutq uslublari ish ko'ra olishi yuksak madaniyat asosi ekanligi ham yoritiladi. Shu asnoda bu fan orqali ularning jamiyatdagi o'rinlarini topib olishdagi xizmati va roli oydinlashtiriladi. Bundan tashqari, nutq madaniyati nafaqat uning ko'rkamligi bilan, balki milliy madaniyat zaminidan nur olganligi tufayligina urf-odat, ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan umriboqiy qadriyatlar, an'ana va etiketlarga yo'g'rilganda yanada ma'naviy darajaga etishi asoslanadi. Ularda yuksak nutq madaniyati ruhini tarbiyalash, adabiy til me'yorlari qoidalarini asosida faoliyat ko'nikmasini kamol toptirish, shu asosda milliy urf-odat, qadriyat va etiqodlarimizni anglagan holda notiqlik san'ati malakalarini ham egallashga xizmat qiladi. Bu talablar bilan qaraganda, ushbu fanning maqsadi va vazifalari nihoyatda keng va murakkab bo'lib, uning alohida xususiyatlari namoyon bo'lmoqda.

Inson bu ko'hna olam qo'ynida yashar ekan, u shu jamiyat kishilari bilan muloqotga kirishib, munosabat ko'rsatishga majburdir. Zero, har bir insonning boshqalar, yoki ko'pchilik bilan munosabati nutq orqali yuzaga chiqadi, shu asnoda uning aql-zakovati, madaniyati va ma'naviyati namoyon bo'ladi. Nutq til birliklari asosida yuzaga keladi. Til esa, asl ma'noda moddiylik kasb etadi (lug'aviy manosi – nutq azosi hisoblanib, kishilarda nutq tovushi hosil qiladigan vosita), ikkinchi manosi ham madaniyatga taalluqli bo'lib, u ajdodlarimizdan bizlargacha yetib kelgan manaviy meros sanaladi. Yoxud o'zbek tilidagi lug'at - so'z manbasining umumiy yig'indisidir. Uchinchi manosi ijodiy mazmun kasb etib, so'z manbasidan qanday va qay tarzda foydalanib, nutq faoliyatimizdagi xatti-harakatimiz, aql-zakovatimiz, ruhiy holatimizni ifoda etuvchi jarayon anglashiladi. Ko'rinadiki, ikki manba faoliyat doirasi asosida so'z yotadi. So'z – inson faoliyati, hayoti uchun to'g'ri, aniq mano kasb etib muomala-munosabatda qo'llansagina, u jon oladi, "tiriladi". So'z - muomala, suhbatda qatnashmasa, umri hisharib boradi. Demak, har bir so'z ham inson kabidir, lekin insondan ko'p yashaydi, uning mehri bilan avloddan- avlodga meros bo'lib qolaveradi. Shuning uchun so'z manosini his qilish, uning kuch- qudratini anglash, u orqali bir- biriga ijobiy tasir ko'rsata olish esa inson madaniyati darajasini belgilaydi. Ulug' mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy so'z kuchi, qudratini his qilib unga shunday baho bergan edilar:

So'z din o'likning tanida ruhi pok,

Ruhdagi tan aro so'z din halok.

(Ma'nosi: so'z orqali o'lik kishiga ruh, tanadagi ruhga esa o'lim ham keltirish mumkin).

So'z – ilmiy, badiiy adabiyotlarda til va nutq ma'nosida ham qo'llanib keladi. Hozirgi kunda so'z va til o'zaro so'zlashuv uslubida, munosabatda, nutq esa ilmiy uslubda ko'proq qatnashadi. Nutq o'zaro muomala munosabatda "gapirish", "suhbatlashish", "so'zlashish" ma'nolari bilan ifodalanadi. Shuning uchun "Gapirganda bilib gapir, tilingni (so'zingni) tiyib gapir", "Birov bilan so'zlashganda ehtiyot bo'l", "Suhbat odobing" kabi iboralar aslida nutq ma'nosini anglatadi. Chunki nutq ikki yoki undan ortiq gapning mazmunan va grammatik jihatidan hosil bo'lgan fikrlar majmuasidir. Nutqning eng kichik birligap. Ulug' alloma va shoirlar o'zaro munosabatda nutq go'zalligini nafaqat mazmunli gap tuza olish, balki uni odob, madaniyat, aql- zakovat bilan "bezab", bayon etishga davat etganlar. So'z sohibqironi Alisher Navoiy "Tiling birlan ko'nglingni bir tut" deb bejiz aytmaganlar. Chunki, qalb –odamning botiniy ko'rinishi. Qalb birdaniga ma'nan boyimaydi, u atrofdagi muhitni tahlil etish, uni ruhiy – hissiy anglash orqali yashnab boradi. Inson gapirayotganda uning aql – zakovati, odobi, muomalasi bilan birga qalbi ham namoyon bo'lib turadi. Yaxshi muomala kishilarga saxovat, yaxshilik ko'rsatishdir. Zero, Alisher Navoiy:

So'z dadur har yaxshilikki, imkoni bor,

Mundin depturlarkim, nafasning joni bor

Bundan tashqari, xalqimizda deganlarida ana shu ma'no yotadi. Bizning yomon qopib gapirar, yomon qopib gapirar", "Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar" kabi mahollarda ham yaxshi til, shirin muomala va ma'noga to'liq nutq ulug'langan. Biz ulug' ajdodlarning zanjiridagi bir bo'g'inli avlodimiz. Ularning urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini bilan yo'g'rilgan shirin, latofatli, nazokatli tili-so'z boyliklarini ham keyingi avlodga eson-omon yetkazish shart. Har bir so'z nutqimizda qo'llansa, o'z o'rmini topsagina, jon oladi. Tilimizdagi latif so'zlarimizning umriga zomin bo'lmaylik! Bu shafqatsizlik, ona tilimizga ajnabiy so'zlarni kiritib, meros so'zlarni anglamaslikdangina sodir bo'ladi. Biz nutqimizni qanchalik go'zallashtirsak, dilbar so'zlarni qo'llab, tinglovchi quloqlariga yetkazsak, bu bizning ulug' va buyuk o'zbek millatiga, xalqimiz, ona tilimizga e'tiqodimiz, ehtiromimiz va vatanparvarlik xislatimizdir. Bu esa har bir o'zbek kishisining o'zligi, millatparvarlik va milliy mentalitetidir.

Kishilarga tushunarli, mantiqli va yoqimli nutq orqali ta'sir eta olish

nutq madaniyatining go'zal namunasi sanaladi. Nutq jarayonida til shakllari va birliklaridan ilmiy jihatdan to'g'ri, mantiqiy jihatdan aniq foydalana olsak, bu til go'zalligini his qilish- til madaniyatiga erishish hisoblanadi. Demak, til va nutqni qiyoslaganda ularni quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini bir-biridan ajratish mumkin:

1. Til aloqa materiallari- nutq esa aloqa shakli.
2. Tilni xalq yaratadi- nutqni esa bir shaxs yaratadi.
3. Tilning hayoti uzoq xalq hayoti bilan bog'liq, nutqning hayoti qisqa, u aytilgan paytda mavjud (yozma nutq bundan mustasno).
4. Shaxs ayni zamonda bir necha tilni bilishi mumkin; chunki u vaqt va o'rin bilan bevosita bog'langan. Shaxsning nutqi ayni zamonda bitta bo'ladi; chunki, u ma'lum vaqtda va ma'lum o'rinda yuz beradi.
5. Tilning hajmi noaniq-nutqning hajmi aniq; u dialog, monolog, ayrim matn yoki kitob shaklida nutqda namoyon bo'ladi.
6. Til to'g'ri statik(ma'lumotlarga asoslangan) hodisa-nutq harakatda bo'luvchi, dinamik (asta-sekin rivojlanuvchi) hodisa. (Usmon S. Umumiy tilshunoslik. -T: "O'qituvchi", 1972, 151-bet).

Nutq madaniyatiga erishish-o'qituvchining yuksak faoliyati namunasidir. Shuning uchun ham u ustoz maqomiga ega bo'ladi. Ustozlar haqida buyuk mutasavvuf olim Abu Homid G'azzoliy shunday deydi: "Ustoz haqqi ota-ona haqqidan ham ko'proq bo'ladi. Chunki ota-ona dunyoga kelishiga sababchi bo'lsa, ustoz esa oxirat binosining tiklanishiga asosiy sababchidir". Shunday ekan, o'qituvchining bu darajaga erishuvi uning yuksak nutq madaniyati va insoniy fazilatlariga egaligi asosida yuzaga keladi. Umuman aytganda, o'qituvchining ustoz darajasiga etib, o'quvchi qalbiga cheksiz his- tuyg'u uyg'ota olishi, havas va hayrat tuyg'usini jo etishi, unga namuna bo'lishi ustozning til madaniyatini qay darajada bilishi va nutqda so'zdan mahorat bilan foydalana olishiga bog'liqdir.

Til madaniyati – adabiy tilning orfoepik, orfografik qoidalari, grammatik xususiyatlari, lug'at tarkibi, semantik, uslubiy xususiyatlari va boshqa til faniga oid tomonlarini o'rganish tushuniladi.

Nutq madaniyati – gapirayotganda, o'zaro munosabatda tildan o'rinli, to'g'ri, mantiqli, jo'yali, ifodali va ta'sirchanlik ruhida foydalanish anglashiladi.

Tilimiz mazmun va mundarija jihatidan boy hamda rang-barangdir. Tilimizdagi barcha adabiy so'zlar, mahollar, afsona va rivoyatlar, ertak va topishmoqlar, dostonlar, she'r va g'azallar kabi xalq og'zaki ijodi namunalari, badiiy va ilmiy yozma yodgorlik til donishmandligi orqali yaratilib, bizgacha etib kelgan, bugungi kunda ham yaratilayotgan ma'naviy

merosdir.

Til bir qancha umumiy xususiyatlarga ega. Uning asosiy xususiyati- ijtimoiyligidir. Kishilarning o'zaro aloqa va munosabat qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bir-birlariga orzu-istak, shodlik, quvonch, tashvish, o'y-xayollarini ifoda etishda muhim vazifani bajaradi. Shu asnoda insonlarni bir-birlariga yaqinlashtirish tamoyiliga ham ega.

Til – etik xususiyatga, ya'ni tarbiyalovchilik takomilini ham bajaradi. Tildagi ko'pgina so'zlarning ma'nosini tushunish, anglash ularning aql-tafakkurini boyitishga, yaxshi fazilatlarini o'stirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, "yaxshilik", "ymon", "diyonat", "mehr-muhabbat", "vijdon", "to'g'rilik", "lafz" kabi so'zlarning lug'aviy ma'nosi inson tabiatini qat'iyashtirish uchun xizmat qiladi. Chunki har bir so'z ham muayyan xalqning yashash tarzi va tajribasi asosida dunyoga kelgan. Shuning uchun chuqur anglash lozimki, har bir so'z hayotiy ehtiyoj va uning in'ikosi zahirida paydo bo'lgan yoxud tug'ilgan, shuningdek, aloqa-aralashuv munosabatiga kiritilib, yashab kelmoqda.

Til – ruhiyat bilan bog'liq hodisa. U nafaqat nutqda axborot olish yoki berish manbai bo'lib qolmasdan, u aql-tafakkurni boyituvchi, insonda mehribonlik va boshqa his-tuyg'ular majmuasidir. Chunki har qanday so'z tinglovchining tabiatiga ta'sir ko'rsatadi. U yaxshi, mantiqli, yoqimli bo'lsa, tinglovchi kayfiyati ko'tariladi. Agar so'z o'ylanmasdan, nopisandlik bilan aytilsa, tinglovchi kayfiyati buziladi. Masalan, o'zidan katta bo'lgan kishiga so'zlovchi birgina "sen" deb murojaat etsa, tinglovchi so'zlovchining o'ziga nisbatan mensimaslik, hurmatsizlik munosabatini anglab etadi. Yoxud noto'g'ri, o'rinsiz hazil-mutoyiba ham kishida yomon taassurot qoldiradi. Shuning uchun ham xalqimiz orasida "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir" maqoli bejiz yaratilmagan.

Til – estetik vazifa bajaradi. Estetik vazifa keng tushuncha bo'lib, kishilarning o'zaro muloqoti, suhbatida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatimizga mos ravishda go'zal, nafosatli va noziktab bilan munosabat qilish anglashiladi. Unda kishilarning nima haqda gapirayotgani bilan qanday holatda gapirayotgani, odob va axloqni qay darajada ifodalayotgani ham nazarda tutiladi.

Tilning estetik xususiyati badiiy adabiyotda yaqqol namoyon bo'ladi. Fikr tushuncha, mulohaza estetik bo'yoq-o'xshatish, jonlantirish, sifatlash singari ko'pgina ifodaviy vositalar orqali jilolantirib beriladi. Chunonchi, buyuk shoir Jaloliddin Rumi odob bilan olam go'zalligini quyidagi misralarda mahorat bilan tasvirlaydi:

Nurga to'lmishdir odob birlan falak

Ham adabdin ma'sumu pokdir malak.

O'qituvchining jamoa orasidagi etiketi. Sir emaski, faoliyatining asosiy quroli nutq bo'lgan kasblar orasida o'qituvchilik birinchi o'rinda turadi.

O'qituvchi nutq etiketida uning ovozi, talaffuzi, diksiyasi o'qituvchilar uchun o'ziga xos namuna vazifasini bajaradi. O'qituvchining nutqidagi har qanday nuqson o'quvchi nazaridan chetda qolmaydi. Kasbiga sadoqatli o'qituvchi o'z o'quvchisi ko'zi o'ngida qo'rquvsiz va hardli ustoz imidjini yaratish, hamisha nutqining ovoz rasoligi uchun qayg'urishi zarur. To'g'ri, tug'ma hiriroqlik, chiyildoqlik kabi ovozdin qutulishning iloji yo'q. Ammo nutq texnikasini yetarli darajada bilmaslik oqibatida yuzaga keladigan nuqsonlardan, fonetik bilimlardan xabardorlik, ovozni yo'lga qo'yish, aniq talaffuz qilish, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish bo'yicha turli mashqlar yordamida imkon qadar xalos bo'lish mumkin.

O'qituvchi jamoa orasidagi nutq etiketi asosida – muomala yotadi. "Muomala" so'zi zamirida butun insoniyat taqdiri mujassam. Uning ildizi Odam ato va Momo havomiz o'rtasidagi muomala va muloqotlariga borib tahaladi. Shundan buyon insoniyat muomalaning to'g'ri va ravon yo'llarini izlaydi. Inson tabiatdagi salbiy illatlardan biri- manmanlik va keraksiz g'urur. Bunday illatlar o'zaro muloqotga raxna soladi va o'zaro munosabatni taqiqlab qo'yadi.

Avvalo, muallim tarbiyachi va talim beruvchi inson shu manoda muallim manaviy –axloqiy jixatdan qalbi pok, ilmiy etuk inson bo'lishi kerak. Muallimning tili va dili bir-biriga mutanosib bo'lmog'i, so'zi va amaliy faoliyatida muntazam muvofiqlik bo'lmog'i juda muhim. Tashqi ko'rinishi yoqimli, istarasi issiq, yuuzida nim tabassum sezilib turishi lozim. Har bir so'zida mayin va shirinlik sezilib turtmog'i darkor. U doimo ozoda va shinam kiyinishi muhim. Pala –partish kiyinish, soch – sahollarini o'sirib yurishi muallimga yarashmaydi. Chunki undan talim va tarbiya olayotgan shogirdlari unga katta ishonch bilan qarab, uning ko'p jihatlarga havas bilan qaraydi va unga taqlid qila boshlaydi. O'z navbatida muallim ham o'zi talim –tarbiya berayotgan shogirdlariga mehribon va talabchan bo'lishi kerak. Agar muallimning shogirdlari qizlar bo'lsa, o'zining qiziday ko'rishi, shogirdlari o'g'il bolalar bo'lsa, o'zining o'g'iliday ko'rib muomala qilishi shogirdlariga hech qachon tamagirlik ko'zi bilan yoki qiz shogirdlariga noto'g'ri ko'z bilan qaramasligi muallim qalbining pokligidan dalolat beradi.

Muallimning boyligi shu shogirdlari ekanligini esdan chiqarmasligi kerak. Negaki, u shogirdlariga manaviy oziq bermogda, kelajak avlod

uchun ulardan hosil kutmogda. Shogirdlarini biridan-birini kamsitmasin, dilini og'ritmasin. "Toyni toy dema, toy ham bir kun ot bo'ladi" –deydi dono xalqimiz.

Qadimda ota –bobolarimiz –muallimga katta ishonch va umid bilan qarashib, izzat va hurmatlarini joyiga qo'yishgan. Ular qo'lga farzandlarini olib borib topshirganlarida "Eti sizniki, suyagi bizniki" deyishlari bejiz emas. Ana shunday ulug' ehtirom va hurmatni joyiga qo'ya olmagan muallim bu nomga loyiq emas.

Muqaddas kitob sanalgan "Avesto"-da yomon muallim haqida shunday deyilgan: "Rostini aytam, yomon ustoz hayotni g'amgin qiladi, johillarni ulug' sanab, buyuk ayol-u erkaklarni, Yazdon nematlariga etishishdan mahrum etadi. Bunday ustozlar o'z nodurust ta'limi bilan xalqni eng yaxshi yumushlardan bezdiradilar, noto'g'ri pandlar bilan xalqni tirikchilik yo'lidan urib, yomon yo'lga boshlaydilar. Hayot chirog'ini so'ndiradilar. Johillarni buyuk bilib, eng mo'tabar ayol-u erkaklarni Tangri yo'lidan qaytaradilar. O'z nodonliklaridan yuz o'giradilar, jahon xalqlari hayotini gaplar bilan parishon qiladilar". Kitobning boshqa bir o'rnida Zardushtning mana shu tarzidagi iltijosi ham bor: "Noshud, yomon muallim o'quvchi qalbida xiradmanlik (ulug'lik)ni uyg'otarmas ekan, ey Yazdon, yomon ustozdan o'zing asra!" –deb yomon o'qituvchini qoralaydi.

Mirzo Ulug'bek haqiqiy ustoz sanalgan. Bu haqda yozadilar: "Ulug'bek mudarrislarining insoniy xislatlariga, bilimi va mahoratiga katta ahamiyat bergan. Talabalarining o'qishdan so'vib ketishiga o'qituvchining razolati sabab deb hisoblagan, u davlat ishlari bilan juda band bo'lishiga qaramay, mudarrislarining darslarini tahlil qilishga, ilmiy munozaralarda ishtirok etishga doimo vaqt ajrata olgan. U Qozizoda Rumiy, Mavlono Koshiy, Ali Qushchi, Avaz Kirmoniylarning darslaridagi mahoratlarini yuksak qadrlagan. Ayni paytda u mudarrislarining dars berishdan tashqari ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etishlarini talab etgan. Ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borishga uquvsiz mudarrislarini ishdan bo'shatgan.

Agar, o'qituvchida notiqlik qobiliyati sust va past bo'lsa, u o'z fani sohasida bilimini shogirdlari ongiga singdirolmaydi. Ikki o'rtada ustoz-shogird qiynaladi. Agar muallim notiq bo'lsa, barcha bilganlarini talabalar va o'quvchilar qalbiga yo'naltiradi va bundan o'zi ham tinglovchilar ham rohatlanadi. Ba'zi bir o'quvchilar darsga kirib "charchab chiqdim"desa, ba'zi bir o'qituvchilar dars o'tib "dam olib chiqdim" deydi. Dam olib chiqdim degan muallim, bilimini o'z ona tilida, notiqlik mahoratini ishga solib mehnatidan rohatlangan. Charchab chiqqani esa buning aksi sifatida notiqlikda no'noq. U, albatta, charchaydi-da, chunki tinglovchilar uni

yaxshi qabul qilmagan, fikrlarini ko'ngildagidek yyetkazolmagan. Uning nutq quroli nosoz, uni tarbiyalash va moylash kerak. Buni o'sha muallimning o'zi ham yaxshi biladi.

O'qituvchi nutq etiketi – jamoa orasida yaqqol namoyon bo'ladi. Ayrim o'qituvchilar o'zidan bir yosh kichik, hatto tengdoshi bilan ham bolalarga xos tabiat bilan bermalol "senlashib" gapiraveradi. Bu nutq etiketining buzilishidir. Ayniqsa, talabalar bilan ham, o'quvchilar bilan ham "siz"lashib gapiradigan o'qituvchi nutq etiketi go'zalligidan dalolat beradi. Sizlashib gapirishning o'ziyoq ikki shaxs – o'qituvchi va tarbiyalanuvchi munosabatining qat'iylashuvidan dalolat beradi.

Nutq etiketidagi asosiy talablaridan biri-burchlilikdir. O'qituvchi topshirgan topshirig'i, bildirgan gapi va fikriga mas'ul bo'lishi shart. "Aytilgan gap – otilgan o'q" degan naql ushbu etiketning tub mohiyatining tashkil etadi. Nutq etiketidagi go'zal fazilatlardan biror-bir manbaga asoslanib gapirish, aniq daliliy misollar bilan fikrini boyitish uning dunyoqarashi, bilimining asosli ekanligidan dalolat beradi. Biror manbani yuzaki o'rganish, pala- partish o'zlashtirish va uni o'z nutqida yoki boshqalar bilan munosabatda qo'llash o'qituvchi nufuzini past bo'lishiga olib keladi.

O'qituvchi o'quvchi ota – onasi, atrofidagi kishilar bilan shirin muomalada bo'lishi ham katta sanat. Chunki, insondan qoladigani eng ulug' meros – bitta yaxshi va shirin so'zdir. Nutq etiketining go'zal namunasi shirinso'zlik odatidir. Axir o'zingizga yarashmaydigan, sizni chiroyli, qimmatli qilib ko'rsatmaydigan libos yoki kiyimni kiyimaslikka harakat qilasiz. So'zingizga libos sifatida "ohang"ni kiydiring. Gapingizning libosi ham ohangdan tashkil topsin. Ana shunda tinglovchi o'sha "ochilmagan qo'riq" so'zingizni, gapingizni qabul qiladi, bag'riga oladi. Hattoki, taboatda "Shunday vositalar bo'ladiki, ularni faqat so'z bilan davolamoq zarur", -deydi Abu Ali ibn Sino.

Donishmandlar: "So'z"ni doriga o'xshatadilar, ortiqchasi zarar keltiradi" – deydilar. Bir rivoyatda keltirishicha, yunon faylasufi Arastuning huzuriga ezma va sergap bir yigit kelib, notiqlik sanatini o'rganmoqchi bo'libdi. Kelgan yigit Arastuga dabdabali so'zlarni o'rgatgani uchun aytganidan ham ko'p haq to'layman – deb so'raydi.

-Sendan ikki barobar haq olinadi- debdi Arastu.

-Nima uchun? -hayron bo'libdi yigit.

-Chunki, sen bilan ikki barobar ishlashga to'g'ri keladi. Senga so'zlashni o'rgatishdan avval, jim turishni o'rgatishim lozim, -degan ekan Arastu.

Eshitish qobiliyati tufayligina insonda til, nutq paydo bo'ladi. Quloqdan kirgan tovush, so'z, gap va iboralar og'izdan chiqadi. Dono xalqimiz: "Suv onasi buloq, so'z onasi quloq", - deb bejiz aytmaydi.

"So'zlamog" so'zining o'zagi "so'z" bo'lib, inson so'zlangan gapni qulog'i orqali "so'radi". Shu bois uning fikri, so'z boyligi ortib, nutqi ravonlashadi, yaxshi suhbatdoshga aylanadi.

Alisher Navoiy hazratlari: "Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim", -degan hikmatlarida intiluvchanlik motiviifodalangan. O'zimizga zamondosh, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov: "Xalqning o'zidan tinglab o'ziga qaytardim", deb yozgan bo'lsa, O'zbekiston Qahramoni, sevimli shoirimiz Erkin Vohidov ham:

El ustozim, men esam tolib,

So'z durlarin termoqdir ishim.

Odamlarning o'zidan olib,

Odamlarga bermoqdir ishim. . . -

deya haq gapni bayon etadi.

Inson hamisha sodda va samimiy so'zni sog'inib, tabiiylikka intilib yashaydi. Maqtov so'zlar hammaga yoqadi, ayniqsa, sanatkor va ijodkorlarga, yosh boladan tortib nuroniy bobolarimizga mehrimon momolarimizgacha.

Inson hayajonlanganida, qattiq qo'rqqanida yoki og'ir musibat ichida bo'lganida, umuman, turli hissiy holatlarga tushganida so'zlarkan, nafas olish va nafas chiqarish a'zolarini nazorat qilolmay qoladi. Buning natijasida me'yoriy fonatsiya uchun nafasi to'g'ri taqsimlanmaydi, ko'pincha oddiy bir so'z uchun ham nafasi etmay qoladi. Tabiiyki, uning nutqi, so'zlari, tovushlari g'ayriodatiy bir shakllarda voqelanadi. O'qituvchi bunday holatlarni ham hisobga olishi maqsadga muvofiq. U dars jarayonida keraksiz hissiyot va hayajonlarini jilovlab olishi kerak, aks holda bu holatlar uning nutqiga salbiy ta'siro'tkazishi mumkin.

Tajribali o'qituvchi faqat baland yoki past ovozda dars o'tmaydi. Tovushlarning balandligi, kuchi, tovlanishi va cho'ziqligidan iborat akustik sifatlarining turli darajalari (bu darajalarning diapazoni juda keng)ni bayon qilinyotgan axborotning mazmuni va tabiati, ayni paytda dars xonasidagi talabalarning ruhi –kayfiyatiga muvofiq ravishda modulyatsiya qilinadi, ya'ni almashtirib turadi. Ana shu tarzda monoton, quruq, ifodalilikdan mahrum nutq shaklidan qutuladi va nutqning ohangdorligi, tasirchanligiga erishadi. O'qituvchining nutq texnikasi bilan bog'liq nuqsonlardan yana bir nutq sur'ati, tezligini to'g'ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maqsadga ko'ra mo'tadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Nutqning sur'ati,

albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, ifodalananayotgan fikr qurilishiga uyg'un bo'lishi maqsadga muvofiq, aks holda, ya'ni o'qituvchi materialni faqat jadal sur'atda bayon qilsa, o'quvchi axborotni o'ziniki qilib olishga, axborot tarkibidagi muhim jihatlarni o'z vaqtida ilg'ashga, to'la idrok etishga qiynaladi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchining idrok surati o'qituvchining nutqi tezligidan orqada qoladi, unga "etib borolmaydi". Zotan, o'qituvchi nutqidagi me'yoridan ortiq jadal sur'at dars berish metodikasi qoidalari uchun ham begonadir. O'qituvchinutq sur'atini o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyati, dars paytidagi ruhiyati, charchagan yoki charchamaganligi, materialni qanday qabul qilayotganligidan kelib chiqqan holda tanlasa, ham pedagogik, ham psixologik jihatdan to'g'ri yo'l tutilgan bo'ladi.

O'qituvchi nutqida fonatsiya jarayoni, ya'ni nutq paytida nafas olish nafas chiqarish bir tekisda, bir me'yorda va davomiy bo'lishi lozim. Ba'zan noto'g'ri taqsim-langan nafas olish noo'rin to'xtamning yuzaga kelishiga, fikrning mazmuni va estetik qurilishiga salbiy tasir ko'rsatadi. Bu holat, ayniqsa, o'qituvchining dars jarayonida haddan ziyod yoki ortiqcha his-hayajonga berilib ketishi va uni boshqara olmasligi tufayli sodir bo'ladi. Chunonchi, qo'shma gaplar bayonida sodda gaplar orasida to'xtamga erishish, bayon qilinayotgan axborotning mazmuni va zaruriyatini chuqur his qilish orqaligina amalga oshirish lozim. Masalan: Parpitayyor Ibrohimboyning hovlisida chorikorlik qilar ekan. U boy bug'doyini o'rar, "ho'p"qilar va don qilib, boyga eltib berar ekan. (N. Aminov "Kekirdak" hikoyasi). Agar o'qituvchi ushbu gapda to'rt o'rinda(ikki o'rinda ekan, o'rar va qilib so'zlaridan keyin) to'xtamga rioya etmasa, hatto fikr mazmuni va izchilligiga ham raxna solinadi. Tajribali o'qituvchi dars jarayonida nutq suratini baland yoki past ovozda doimiylikini belgilamaydi. Nutq surati (sur'ati) bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, xabarning oddiy yoki hissiy bo'yoqdorligiga alohida ahamiyat etiladi. Zero, o'qituvchi nutqidagi jadal surat o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatini susaytiradi, dars samaradorligiga putur yetkazadi.

Nutq texnikasida ohang ham alohida o'rin tutadi. Har bir tovush alohida, to'g'ri va aniq talaffuz qilish muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlarni noto'g'ri talaffuz etish ularning gapdagi o'zaro o'rni va bog'lanishini yaxshi anglamaslik fikr mantiqiylikiga ham putur yetkazadi. Masalan, asil-asl, azim-azm, maxsul-mas'ul, asir-asr kabi so'zlarning manosi chuqur anglamasdan qo'llash, bo'lsa, kelsa kabi so'zlarda -l tovushi tashlab aytish, shuningdek, -lar qo'shimchasini -la tarzida qo'llash nutq ohangdorligiga raxna soladi.

Xullas, o'qituvchi nutq faoliyatida nutq etiketi va uning asosiy ko'rinishi nutq ifoda vositalari madaniy tabiatining muhim belgisi sifatida qat'i ahamiyat kasb etadi.

"Nutq madaniyati" fani juda ko'p fanlar bilan o'zaro aloqada rivojlanmoqda. Uning usuliy asosi tilshunoslik fanidir. Chunki, nutqning eng kichik tarkibi tovush va uning talaffuzi (fonetik), so'z tarkibi qismi va uni turkumlarga bo'lish (morfologiya), til vositalarining lug'aviy ma'nosini o'rganish (leksikologiya), iboralarining lug'aviy ma'nosini anglash (frazologiya) va ularning nutq jarayonidagi o'zaro bog'lanishi (sintaksis), imlo xususiyatini o'rganish va nutqni uslubiy jihatidan qo'llay olishga (uslubiyat) tilning to'g'riligi (ifodalilik) va grammatik qoidalarga asoslanmog'i lozim.

"Nutq madaniyati"- pedagogika fanining zamirida rivojlanmoqda. Nutq asosida odob -axloq, tarbiya vositalari, xuddi shuningdek, milliy urf-odat, qadriyat va ananalar o'ziga xos ko'rinishlari ifodasini topmog'i lozim. Birgina salomlashish yoxud rost qo'lni ko'krak ustiga qo'yib, boshini xiyol eggancha "Assalomu aleyko'm" deyish boshqa millatlardan farqli xususiyatimizni namoyon etadi. Tavoze bilan muloqot qilish, yosh go'daklarga ham "siz-siz"lab murojaat etish, har bir kishiga samimiy munosabat ko'rsatish bizning millatimizga xos fazilat, urf-odatlarimiz ko'rinishlaridir.

Fan mantiq va ruhshunoslik fanlari bilan o'zaro aloqada ish ko'radi. Gapda so'zlarning manosi va ifodalananayotgan fikr mazmunini mantiq tekshiradi. Mantiqiy fikrlash nutq qurilishini yuzaga chiqaradi. Tilda qo'llanadigan o'rinsiz so'zlar, gaplar inson ruhiyatini vayron etishga, buzishgacha olib boradi. Ruhshunoslar nutqning inson ongiga, ruhiyatiga tasirini nazorat qiladi, nutqiy malakalarni rivojlantirish va mustahkamlash vositalarini aniqlaydi. Bu fan, ayniqsa, adabiyot bilan ham chambarchas bog'liq. Nutq jarayonida badiiy tasviriy vositalar- o'xshatish, sifatlash, jonlantirish va boshqa ifodaviy vositalar tinglovchiga fikrni aniq, jozibali yyetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, adabiyotshunoslik fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Nutqda maqol, frazeologik iboralar, hikmatlar va rivoyat, afsonalardan ham fikrni rivojlantirish uchun o'rinli foydalanish notiqning bu sohada mahoratini namoyon etadi.

Fan, bundan tashqari, etnografiya bilan ham uzviy vositadir. Chunki nutq jarayoni, asosan, milliy urf-odat, qadriyat, marosim va an'analar zamirida o'z in'ikosini topmog'i zarur. Garchi nutq qanchalik yoqimli, mazmundor va jozibali bo'lmasin, u milliy va urf-odat asosida qurilib undan zuhur topmagan bo'lsa, ta'sirchanligi va natijasi samarali bo'lmaydi.

Til – rivojlanuvchi va boyib boruvchi xususiyatga ega. To'g'ri, tildagi ayrim so'zlar uzoq davr yashasa-da, ma'lum vaqtdan so'ng aloqalaralashuvdan to'xtaydi. Bunday so'zlar eskirgan so'zlar sanalib bugungi kunda ular nutqimizda qo'llanilmaydi. (Masalan, yog'iy-dushman, jumhuriyat-respublika, mirshab-militsiya, qozi-sud'ya va boshqalar). Til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy va texnikaviy rivojlanishi natijasida menejer, broker, modernizatsiya, tarif, uyali telefon, kompyuter, innovatsiya, texnologiya kabi bir qancha yangi so'zlar qo'llanilmoqda. U ichki manbalar asosida rivojlanuvchi, boyib boruvchi sanaladi. Masalan, "oylik" so'zi faqat "maosh" ma'nosini bildirgan bo'lsa, hozir bir oyda chiqadigan jurnalning nashriy davrini ham anglatadi. Masalan, maktab-ta'lim-tarbiya va ilm maskani ma'nosida qo'llansa, endilikda "Sportchilar maktabi", "Ota-onalar maktabi", "Kelin-kuyovlar maktabi", "Ustoz maktabi" kabi muayyan yo'nalishdagi ta'lim-tarbiya, saboq va maslahat beradigan maskanlar ma'nosini ham izohlaydi.

Xullas, til, yuqorida ta'kidlaganimizdek, tashqi va ichki manba asosida doimiy rivojlanib, boyib boradi.

Til madaniyati va nutq madaniyati bir-biri bilan bevosita bog'liq. Lekin ularning farqlanuvchi tomonlari mavjud. Nutq til orqali nash'u namo topgani singari til ham nutqsiz kamol topa olmaydi. Qaysiki, tildagi so'zlar nutq jarayonida "jon oladi", tiriklik kasb etadi. Tildagi qo'llanilmay qolgan so'zlar bora-bora o'ladi. Shuning uchun ham har bir til egasi (millat egasi - S. a)ham o'z tilidagi so'zlarni o'rinli, go'zal tarzda jo'yali tarzda qo'llasa, bu ish ona tilimizga nisbatan kishilarning nafaqat mehr-muhabbati, balki millatsevarligi, vatanparvarligini ham aks ettiradi. CHunki til ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy merosidir. Biz uni boyitib, go'zallashtirib, kelgusi avlodga yetkazmog'imiz lozim va shart.

Nutqning madaniyligini uning kommunikativ (aloqaviy) sifatleri belgilaydi. To'g'ri, aniq, mantiqiy, ifodali, jo'yali va ta'sirchan (bu sifatlar ustida alohida to'xtalamiz) shu kabi nutq sifatleri nutq madaniyatini yuzaga chiqaruvchi vositalardir. Bundan tashqari, insoniylik fazilatlariga asoslangan nutq ham madaniylik ko'zgusi sanaladi. Xushmuomalalik, samimiylilik, odob qoidalariga bo'ysungan nutq o'zaro muomala, munosabatning yuksak ko'rinishi bo'lib hisoblanadi. Bularning barchasi kishilarning bir-biriga yaxshi so'zdan foydalanib, samimiy muomalaga kirishishni anglatadi. Shuning uchun ham A. Navoiy bu haqda shunday degan edi:

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar
Har neki ag'yor durur yor aylar
So'z hattig'i el ko'ngliga ozor aylar
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar

Nutqning madaniyligi uning adabiy tilga asoslanganligidir. Tilning lug'aviy, fonetik va grammatik jihatdan ma'lum bir qolipga keltirilgan, qoidalashtirilgan, qat'iy lashgan va sayhallashgan tilga **adabiy til** deyiladi.

Adabiy tilni atroflicha bilgan, unda amaliy ish ko'ra oladigan, muomala munosabatda faqat shu tilda so'zlasha oladigan kishigina madaniyatli inson nomiga ega bo'la oladi. Chunki Respublikamizda Oliy Majlis yig'ilishlari, radio, televidenie, matbuot va jamoat joylaridagi yig'in, majlislar adabiy tilda olib boriladi. Ushbu fanni o'rganishdagi asosiy maqsadimiz ham adabiy tilni chuqur o'rganish va ana shu sayhallashgan tilda ish ko'ra olish malakasi va ko'nikmasiga ega bo'lishdir.

Nutq madaniyatishaxs umumiy madaniyatining eng muhim unsuriekanligi va uning mazmuni. Nutqni jonli, obrazli qilib gapirish mahorati va qobiliyati ham mavjudki, u kishilarni notiqlik san'atini kamol toptirish uchun xizmat qiladi. Bu adabiyotda badiiy tasviriy vositalar deb nomlanib, nutqda voqelik, shaxs yoki qahramon xatti-harakati, tabiatini tinglovchi ko'z oldida aniq tasvirlash hisoblanadi. Masalan: yor qoshlari yoyga, ko'zlari o'hu ko'zlariga, osmonning tiniqligini – shisha yuziga qiyoslab nutqqa olib kirish ana shu vositalardan biridir. (Bu haqda keyingi mavzularda batafsil fikr yuritamiz).

Nutq madaniyati - shaxs umumiy madaniyatining asosiy qismini tashkil etadi. O'zaro munosabat, yurish-turish, kiyinish, ovqatlanish, jamoa orasida o'zini tuta bilish umummadaniyatni aks ettirsa-da, nutq madaniyati ularning jamini o'ziga ifoda etuvchi madaniyat shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, tilshunoslikning mustaqil qoidalari asosida go'zal nutq tuzish qonuniylari, sirlari, til me'yorlari, nutqning mezon va sifatleri, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarni anglash, nutq talaffuziga doir muammolarni anglash ana shu madaniyatning asosiy ko'rinishlari sanaladi.

Shunday qilib, nutq madaniyati murakkab tushuncha bo'lib, umumxalq madaniyatining rivojiga qaratilgan. Yuqoridagi fan maqsadini anglagan va vazifalarini bajarish uchun sa'y -harakat qilgan inson yoki bo'lajak o'qituvchi madaniyati yuksak shaxs darajasiga erisha oladi. Bu esa har bir kishidan juda katta mas'uliyat va izlanish talab etadiki, u shaxsning jamiyatdagi o'rmini belgilash bilan o'chanadi.

4.2. Nutq madaniyatini ta'minlovchi xususiyatlar

So'z bilan ifodalangan har qanday fikr ta'sir ko'lamiga tugamaydigan kuchdir.

L.N. Tolstoy

Tayanch iboralar: Adabiy til, til boyliklari, nutq uslublari, so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub, til tizimi, uzus, uzual so'zlar, umumiy me'yori, uzual me'yori, adabiy me'yori, fonetik me'yori, talaffuz me'yori, so'z yasash me'yorlari, morfologik me'yorlar, sintaktik me'yorlar, uslubiy me'yorlar, lug'aviy me'yorlar, agglutinatsiya, singarmonizm.


Adabiy til – har bir madaniyatli insonning bir-biri bilan o'zaro kommunikativ (aloqaviy) munosabatining yuksak namunasidir. Adabiy til va adabiy me'yori nutq madaniyatining asosiy tekshirish ob'ekti sanaladi. Binobarin, o'zbek nutqi madaniyatini yanada yuksaltirish uchun, eng avvalo, o'zbek adabiy tili, uning me'yoriy qonuniyatlarini o'rganishimiz, nutqning madaniy-namunaviy ko'rinishlarini yanada takomillashtirish va yaxshilashga intilmog'imiz lozim.

Tilning leksik, fonetik, grammatik jihatdan ma'lum bir me'yorga keltirilgan, qat'iylashgan va sayhallashtirilgan qismiga adabiy til deyiladi. Hozirgi paytda radio-televidenie, matbuot, oliy yig'in va majlislar adabiy tilda olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Asosiy Qomusining birinchi, "O'zbek tiliga Davlat maqomi berilishi to'g'risida"gi Qonunning to'rtinchi moddalarida ham "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir" degan qonunlarida ham o'zbek adabiy tili nazarda tutilgan.

Til – kishilarning aloqa vositasidir. Tildan foydalanuvchi jamoa yoki ma'lum bir millat vakillarining bir-birlarini tushunishi, anglashi uchun muayyan qonun-qoidaga asoslangan, jamoat ko'nikmasiga aylangan yagona aloqa-aralashuv vositasi mavjud bo'lishi lozim. Chunki o'zbek tili ham turli ijtimoiy ko'rinishlarda, turli xil shakllarda xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tili ichida adabiy tildan tashqari, xalq so'zlashuv tili, shevalar, jargon, argo, kasbiy so'zlar ham mavjudki, ular jamiyatdagi ma'lum toifa va guruhlarga xos so'zlar sanaladi. Bunday lisoniy birliklar hammaga ham tushunarli bo'lavermaydi, ularning ma'nosini anglash qiyin. Shu nuqtai nazardan, o'zbek tilidagi so'zlar me'yoriy jihatdan ikki turga bo'linadi.

1. Umumiy me'yori
2. Xususiy me'yori

Umumiy me'yori-ma'lum til, o'zbek tilining barcha ko'rinishlarida qo'llaniladigan me'yoriy tizimning yig'indisidan iborat. Buni quyidagi jadvalda ko'rsatish mumkin:



Shunday qilib, umumiy me'yori – xususiy me'yorlardan tashkil topadi. Xususiy me'yorni ikki guruhga ajratish mumkin.

Adabiy me'yori yoki adabiy bo'lmagan me'yori, umuman, har qanday nutqni baholashning ikki xil o'lchash mezonini mavjud:

1. Adabiy til me'yori mezonini. 2. Adabiy til bo'lmagan nutq mezonini yoki uzus mezonini.

Xususiy me'yori ichida adabiy me'yori eng ko'p ijtimoiy vazifa va ahamiyatli me'yordir. Chunki u milliy til rivojining yuqori bosqichi sanaladi va umumiylik xarakter kasb etadi.

Adabiy til – xususiy tilning boshqa ijtimoiy ko'rinishlaridan farq qilib, u quyidagi xususiyat va fazilatlariga ega:

1. Butun o'zbek xalqi (millati uchun mushtaraklik).
2. Umumxalqlaro me'yoriylik.
3. Umumme'yoriylik.

4. Ko'p vazifalilik.

5. Me'yorlanganlik.

6. Ko'p uslublilik.

Adabiy tilning mushtarakligi shundaki, bu shaxs me'yorda so'zlashuvchini mamlakatimizning har bir hududida to'g'ri tushuna oladilar va aloqa-aralashuvga kirisha oladi. Chunki har bir hududning o'ziga xos shevasi bo'lishidan qat'iy nazar, adabiy til shaxslar o'rtasida yakdil munosabat uchun kishilarda imkon yaratadi.

2. Adabiy til – umumxalqiy tildir. Bu tilning butun xalq yoki millat uchun yagona va umumiy ekanligi anglashiladi. Chunki xalq har bir faoliyatida: o'quv o'qitish ishlari, matbuot, ilmiy-adabiy anjuman va yig'inlarda faqat shu tilda ish ko'radi. Hatto o'zaro muomalada ham adabiy tilda gaplashishga intiladi. Xalqning hayoti, ilmiy, madaniy hayotiga singib boradi.

3. Adabiy til – umummajburiy tildir. Chunki bu tilda gaplashuvchilar ixtiyoriy tarzda shu milliy madaniyatni adabiy tilda muloqot qilib, o'rganishda o'zlarida zarurat his qiladilar. Adabiy tilda faoliyat ko'rsata olmaslik madaniyatsizlik belgisi sanaladi. Bundan tashqari, adabiy til– shu millat tilining shakllanishida til me'yorlarining bir butunligini namoyon etuvchi vosita sanaladi. Binobarin, o'zbek adabiy tilidagi grammatik vositalar: kelishiklar bilan turlanishi, tuslanish qo'shimchalarining og'zaki va yozma shaklda qo'llashda ma'lum bir qoida asosida qo'llash qomuniy tarzda belgilangan. Chunki o'zbek tilining orfografik (imlo)qoidalari yozma nutq uchun asos bo'lganidek, unga to'g'ri amal qilmaslik yozma nutq madaniyatining ham buzilishiga olib keladi.

4. Adabiy til – ko'p vazifali tildir. Ko'p vazifali deganda tilning ijtimoiy vazifasi anglashiladi. Masalan, shevalar ma'lum guruh faoliyatida xizmat qilsa, adabiy til yuqorida aytganimizdek, adabiy til ilmiy, adabiy san'at, radio va televidenie sohasida birdek xizmat qiladi. Ko'p vazifalilik-bu xalq kasbining barcha sohasida birdek xizmat qila olish imkoniyati va darajasidir.

5. Adabiy til – me'yorlangan. Me'yorlangan deyilganda adabiy tilning mushtarak, umum xalqlik, umummajburiylik, ko'p vazifalilik, uslubiy tarmoqlanganligi anglashiladi. Tilimizning boshqa ijtimoiy guruhlari bunday me'yoriy darajasidankeng emas. Ular doiraviy chegaralangan bo'lib, adabiy til kabi bunday xususiyatlarga ega emas.

6. Adabiy til – uslubiy tarmoqlangan tildir. Adabiy tildan ijtimoiy hayotning turli ko'rinishlarida nutqning sharoitga qarab ish tutish mumkin. Bunda so'zlovchining nutqiy sharoiti, ijtimoiy muhiti(uy, ko'cha, majlis,

to'y yoki turli xil yig'in, o'quv dargohi va boshqa vaziyat) da so'zlash shakli yoki nutq orqali ish ko'rish jarayonidir. Bu faoliyatda nutqning og'zaki yoki yozma shakli ham muhim rol o'ynaydi. (Bu haqda adabiy til usublari haqidagi mavzuda alohida to'xtalamiz).

7. Adabiy til – qat'iy qoidalarga solingan me'yor sanaladi. U o'zbek tilidan ob'ektiv qonuniyat va qoidalari me'yorlariga bo'ysunadi. Tilning morfologik, so'z yasashi imlo qoidalari, fonetik, orfoepiya va orfografiya, so'z qoidalarining qo'llash doiralarini ko'rsatuvchi uslubiy belgilarida va boshqa sohalar asosida ish ko'rish jarayoni anglashiladi. Bundan tashqari, adabiy til – yozuvda ham qat'iy qoidalarga asoslangan, me'yorlangan tildir. Adabiy tilning yozuv qoidalari quyidagi manbalarda aniq ko'rsatiladi:

1. O'zbek tilining imlo qoidalari va imlo lug'atlarda

2. O'zbek tilining orfoepik (talaffuz) qoidalari va orfoepik lug'atlarda.

3. Ikki tili o'zbekcha-ruscha (o'zbekcha-inglizcha) inglizcha-o'zbekcha lug'atlarda.

4. O'zbek tilining izohli lug'atlarida .

5. O'zbek tilining atamalar lug'atida.

6. O'zbek tilining eksiklopedik(qomusiy) lug'atlarida.

7. O'zbek tilining frazeologik lug'atlarida.

8. O'zbek tilining chastotali va chappa lug'atlarida.

9. Oliy va o'rta maxsus akademik litsey, kollejlari va umumta'lim maktablari uchun chiqarilgan ona tili darsliklarida.

10. O'zbek tili bo'yicha yaratilgan metodik qo'llanmalar(ko'rgazmali qurollar)da.

Adabiy til– an'anaviylikva tarixiy yo'nalishga asoslangan bo'ladi. Bu – adabiy til va uning me'yorlariga an'anaviy hodisa sifatida qabul qilinib, uning o'tmish ajdodlarimiz tomonidan etib kelgan meros deb bilishga, uni hurmat qilishga, xalq mulki deb qarashga da'vat etadi. Til hodisalari va birliklariga hurmat, vorislik va meroslikni ta'minlaydi. Keyingi avlodga uni ma'naviy, madaniy(adabiyoti, san'ati jihatidan) boyitib yetkazish majburiyatini yuklaydi.

Til me'yori doimiy xarakterga ega. U ma'lum vaqt o'tishi bilan asta-sekin yangilanib boradi. Me'yordagi ayrim so'zlar o'rniga boshqasi keladi. M: A. Navoiy davrida men, sen-bog'lamalari, hozirgi kunda -man, -san tarzida (boramen-boraman, kelasen-kelasan) yoki debon-deb, ul- u tarzda qo'llanib kelmoqda. Til me'yori doimo harakatda va faoliyatda bo'ladi. Tildagi imkoniyatlar u yoki bu so'zni tanlashda nutqdagi til imkoniyatlaridagi sharoitga mos foydalanish- munosabatda adabiy me'yor-asosiy boshqaruvchilik rolini bajaradi. Adabiy tilda ana shu me'yor-

muayyan qoidalar asosida davrga mos ommalashtirilib, ma'lum bir tizimga solinadi. Demak, me'yor- ma'lum bir til jamoasida mustahkam qo'llanib kelayotgan lisoniy til hodisalari yig'indisidir. Me'yor til ko'rinish unsurlarining hammasiga taaluqlidir. Shunga ko'ra adabiy til me'yorlari quyidagi me'yorlar asosida yashaydi:

1. Fonetik me'yor.
2. Lug'aviy me'yor.
3. Orfoepik (talaffuz) me'yori.
4. So'z yasash me'yori.
5. Imloviy me'yor.
6. Sintaktik me'yor.
7. Uslubiy me'yor.

1. **Fonetik me'yor.** Lotin yozuvidan yangi alifbo asosidagi hozirgi o'zbek adabiy tilida 6 ta unli, 23 ta undosh tovushining qo'llanish me'yori sanaladi.

2. **Lug'aviy me'yor.** So'z ma'no va variatlarini hamma uchun tushunarli tarzda nutqda qo'llash anglashiladi. So'zning ma'nosini bilmasdan qo'llash(mahsul-mas'ul, tana- ta'na kabi) paronim(dalil-dadil, ta'mirlash- ta'minlash kabi), sinonimlarning o'rmini anglamaslik (kalla-bosh) ruscha nutq mazmuni va jarayonlarini aynan tarjima qilish(bayramingiz bilan, boshliq o'zidami kabi) holatlar ushbu me'yorning buzilganligini ko'rsatadi. Lug'aviy me'yorning to'g'riligini imlo, izohli va tarjima lug'atlar orqali anglash keng yo'l ochib beradi.

3. **Talaffuz me'yorlari.** Nutqdagi so'zlarning adabiy til birliklari bilan mos kelishidir. Bunda ko'pincha sheva so'zlarining ta'siri(qazon, tabaq, alma kabi) yaqqol sezilib turadi.

4. **Grammatik me'yor.** Nutqimizda gapdagi so'zlarni bir- biriga bog'lovchi qo'shimchalarni to'g'ri qo'llay olish malakasini hosil qilishdir. Ayniqsa, Buxoro hududida -ga va -da, -ni va -ning qo'shimchalarini qo'llash (televizorga ko'rdim, Ahmadni kitobi kabi), ko'plik qo'shimchasi (kelingla, boringla kabi), hozirgi zamon qo'shimchalarini qo'llash (ketopman, boropman kabi) holatlarda grammatik me'yor buzilganligini kuzatish mumkin.

5. **So'z yasash me'yori.** So'z yasovchi qo'shimchalarning tovush jihatidan to'g'ri qo'llashdir. Chunonchi, bolali uy bozor deyish o'rnida, bolalik uy bozor deyiladi, keyingi fikrga -lik qo'shimchasi noto'g'ri qo'llanganligi so'z yasash me'yoring buzilganligidir.

6. **Imloviy me'yor.** Imloviy me'yorda yozma nutqda so'zlarning to'g'ri yozilishi, imlo qoidalariga mos tushishi nazarda tutiladi. YOzma

nutqda "O'zbek tilining imlo qoidalari" asos bo'ladi.

7. **Uslubiy me'yor.** So'zni uslubiy me'yorga asosan o'rinli qo'llash anglashiladi. Chunonchi, kun so'zlashuv uslubida qo'llansa, quyosh-ilmiy uslubda, oftob-badiiy uslubda qo'llanishi joizdir. Binobarin, sinonimlardan to'g'ri foydalanish, fikrni uslubiy jihatdan o'rinli ifoda eta olish talabi ushbu me'yorning o'ziga xos talabidir. Xullas, adabiy til qoidalari va me'yorlari keng tarmoqli tushuncha bo'lib, u og'zaki va yozma nutqning o'ta murakkab qurilish asosida yuzaga kelishini, uning ijtimoiy so'zlashuv guruh tilidan tubdan o'zgartirilgan, qat'iylashgan va sayhallashgan qoidalar bilan qurilishini talab etadi.

Nutq madaniyatining sifati, go'zalligi yoki saviyasi, eng avvalo, uning adabiy til mezonlariga qay darajada e'tibor qilinganligi, ahamiyat berilganligi bilan o'lchanadi. Binobarin, "Nutq madaniyati" fanining ilmiy atamalariga aylangan nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliqi, ifodaliligi, ta'sirchanligi (obrazlilik) o'rinliliqi (jo'yaliqi) kabi sifatlari ham mavjudki, bu nutq mezonlari bevosita so'zlovchining tinglovchi bilan muloqot vaqti, kommunikativ munosabati jarayonidagi faoliyatining adabiy til mezonlariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Nutq jarayonida ulardan biri o'z me'yoridan chetlashsa, nutq madaniyatiga raxna solinadi.

Quyida ana shu nutq me'zonlari va sifatlarning o'ziga xos ma'noxususiyatlarini tavsiflaymiz.

Nutqiy madaniyatning asosiy belgisi so'zlovchining fikrini to'g'ri, mazmunli ifoda eta olish mahoratidir. Bu esa uning adabiy til me'yorlariga qat'iy rioya qilish bilan uzviy bog'liq. So'zlovchining adabiy tilning fonetik, talaffuz, lug'aviy, so'z yasash, grammatik, uslubiy qoidalarga qat'iy rioya qilib bayon etgan og'zaki yoki yozma nutqiga to'g'ri nutq deyiladi.

To'g'ri nutq tuzish uchun so'zlovchi adabiy tilning quyidagi talablarini chuqur va atroflicha egallab olishi zarur:

1. **Nutqning talaffuz me'yorlari.** Har bir inson ulg'ayar ekan, u avvalo, o'zi yashab hayot kechirgan hududda shevalari ta'sirida munosabat qiladi. Bu esa shaxsning o'sha muhit doirasidan chiqib, adabiy me'yorni egallash ma'lumotini anchagacha cheklab qo'yadi. Shunday ekan, talaffuz deganda til tizimidagi tovushlar, ularning sifatlari, o'zgarishi adabiy talaffuz qoidalari asosida o'zgarishni, unga moslashishi anglashiladi. Masalan, Buxoro shevasida man (men tarzida), qazon (qozon), tavaq (tovoq), qavun (qovun), tarbuz(tarvuz), kelopti (kelayapti), boropti (borayapti), aytdila (aytdilar), ishka (ishga) tarzida talaffuz etiladi.

Badiiy so'zlarda ko'pincha "o" va "a", "b" va "v", tovushlari, "opti"-

“yapti”, -ka-ga, la-lar tarzida aytilishida xato va kamchiliklar uchraydi. Xuddi shuningdek, arab va rus tillaridan kirib kelgan soʻzlarda “f” va “r” tovushlari nutqda almashuv holatlari kuzatiladi: poyda (foйда), pabrika (fabrika), “u” tovushi i tarzida ifodalaniladi: gugirt (gugurt), uchirmoq (yozuv taxtasini oʻchirmoq). Soʻzlarning talaffuzi jihatidan bunday qoʻllanish adabiy tili meʼyorlariga ziddir. Soʻzda “L” tovushining tushishi holatlari uchraydi: boʻlsa-boʻsa, kelsa-kesa kabi.

2. **Kelishik meʼyorlari.** Tilimizda ayniqsa, Buxoro shevasida ayrim kelishik qoʻshimchalari nutq jarayonida adabiy til meʼyoriga nisbatan notoʻgʻri qoʻllanish holatlari yuz beradi. Bunday kelishik qoʻshimchalari koʻpincha haratqich kelishigi bilan tushum kelishigi, joʻnalish kelishigi bilan oʻrin-payt kelishigining oʻrnini anglamaslik natijasida roʻy beradi. Masalan: Menga Ozodbek Nazarbekovni “Onajonim” qoʻshigʻini qoʻyib bering (suhbat). Ahmadni uyiga bordim. Bu ikki gapda haratqich kelishigi oʻrnida tushum kelishigi qoʻllangan. Nutqda qarashlilik maʼnosi oʻrnida voqelik asosidagi bosh fikr (Ozodbek Nazarbekovning “Onajonim” qoʻshigʻi) ga harakat tushishi ohang yordamida uqtiriladi va nutqda kelishikning toʻgʻri qoʻllanishda xatoga yoʻl qoʻyiladi. Xuddi shuningdek, joʻnalish kelishigi va oʻrin-payt kelishigini qoʻllashda ham nutqda yoʻnalish yoki oʻrinni farqlash emas, obʼekt birinchi navbatda haraladi: Men akamnikiga mehmon boʻldim. Shaharga hishloqdan avtobusga keldim. (suhbatdan).

3. **Gapda ohang meʼyori.** Nutqda ohang oʻzaro suhbatda juda qatta ahamiyat kasb etadi. Mantiq talabi, vaziyat holatiga koʻra soʻzlar nutq yoki matn ichida turli xil maʼno ifodalashi mumkin. . Birgina “yoʻq” soʻzining quyidagicha ohanglarda turli maʼno aks ettirishni kuzatamiz:

“Yoʻq”- mavjud emas.

“Yoʻq”-nahotki manosida!

“Yoʻq-ku!”-koʻrayapsiz, umuman yoʻq maʼnosida

“Yoʻqmi?”- rozi emasmisiz maʼnosida

“Yoʻq -yoʻq”-hech qachon maʼnosida

“Yoʻq. . .”- bunday boʻlishi mumkin emas

“Yoʻq, -dedimmi-yoʻq !”- qatʼiy norozilik maʼnosida

“Yoʻq. . .”- yashirin maʼnosida

“Yoʻq boʻlgan”-yoʻqolgan maʼnosida!

Xullas, bir “yoʻq” soʻzi orqali bir necha xis-tuygʻu: mavjudsizlik, jerkish, zugʻum, norozilik, harakat, inkor kabi maʼnolarni ohang orqali ifodalash yoxud bu soʻz zamirida soʻzlovchining ruhiy holati va voqealikka munosabatini his qilish mumkin.

4. **Nutqda sinonimlardan foydalanish.** Sinonimlar nutqning ravonligi uchun xizmat qiladi. Ular gapda bir soʻzni takror qoʻllashdan saqlaydi. Agar gapda bir soʻz ketma-ket takrorlansa, nafaqat fikr gʻalizligi, balki soʻzlovchi nutqi darajasining pastligini bildirib, tinglovchining zerikishigacha olib keladi. Sinonim soʻzlar voqelikdagi vaziyatni hisobga olish asosida shu voqelikni toʻla ifodalashga xizmat qiladigan soʻzlardan oʻrinli foydalanishni talab etadi. Chunonchi, bir yigit doʻstiga: Sening kallang ishlamaydi - deb tanbeh beryapti . U “kalla” soʻzi faqat hayvonlarga xos soʻz ekanligini anglamaydi. “Miyang ishlamaydimi? Yoki aqling etmaydimi?” deb murojaat qilganda, ham hurmat, ham oqilona munosabatni anglab olar edik. Bundan tashqari, koʻp soʻzlar borki, ular bevosita odamlarga nisbatan qoʻllansa, oʻsha shaxsning suhbatdoshiga nisbatan past nazar bilan qarashini ifoda etadi. Masalan: vaqillaysan, (qurbaqa), xurillamoq (choʻchqa), hangillamoq (eshak), hurrilamoq (it) kabi soʻzlar nutqda oʻzaro insoniy munosabatga raxna soluvchi holatlardir. Xuddi shuningdek, bir suhbatda: “Bugungi shanbalikka oʻqituvchi xotinlar qatnashmadi” deb fikr bildirildi. Bu gapda “xotin”- biror erkak nikohidagi ayol maʼnosi uning asl maʼnosidir. Jinsiy jihatdan erkak toifasiga zid maʼnosida esa “ayol” soʻzi koʻproq qoʻllaniladi. Soʻzlovchi bu soʻzlarning maʼno jihatidan nozik farqlashni anglab eta olmayapti.

5. **Nutqning joʻyaligi.** Nutq jarayonida fikrni oʻrinli, tinglovchiga hech qanday izohsiz, murakkab tarzda ifodalamay, maʼqul etib anglatish mahoratidir. Bu atamani tilshunos olim N. Mahmudov ilk bor qoʻllab, shunday deb yozadi: “ Joʻyalilik til vositalarini shunday tanlash, ularni shunday aloqalanirish va bir-biri bilan bogʻlashki, buning natijasida nutq konkret muloqotning maqsadi va sharoitlariga tamomila javob beradigan tarzda tarkib topadi. Ayni taʼrifdan kelib chiqilsa, joʻyali nutq ifodalanmoqchi boʻlgan axborotning mavzusi, uning mantiqiy va xissiy mazmuni, tinglovchi yoki oʻquvchilar tarkibining yosh, ijtimoiy, madaniy-maʼrifiy va boshqa xususiyatlari, yozma yoki ogʻzaki nutqning xabar berish tarbiyaviy, estetik va shu kabi vazifalarga toʻla mos kelishi asosida yuzaga keladi” —deb koʻrsatadi.

6. Bu nutq sifatining uslubiy jihatdan notoʻgʻri qurilishi joʻyalilikning buzilishi tarzida ham namoyon boʻladi. Chunonchi, avtobusda suhbatlashib ketayotgan ayollardan biri: “ Mening onam ikki qorin egizak tuqqan” deb dugonasiga xabar bildirayapti. Goʻyo bu fikr mazmunan toʻgʻri boʻlsa-da, uslubiy mazmuni jihatdan notoʻgʻri. Chunki: “bir qorin, ikki qorin tuqqan” soʻzlar xalq orasida hayvonlarga, xususan, sigirga nisbatan aytiladi. Bilʼaks, “Mening onam ikki marta egizak farzand koʻrgan “ deyilsa edi, fikrning

jo'yaliligiga e'tibor berilgan bo'lar edi. Nutqning jo'yaliligiga erishishning yana bir talablaridan biri, doimiy odat bo'lib takrorlanadigan (siyqa) so'zlardan saqlanmoqdir. Masalan, demak, o'sha, anavi, nima, masalan, tak kabi so'zlarni o'rinsiz, ketma-ket qo'llayverish nutq sifatini xiralashtiradi.

Nutq hozirgi kunda uning to'g'riligiga putur yetkazuvchi holatlardan biri-chet tilidan, ayniqsa, rus tilidan kirib kelgan so'zlarni qo'yib ishlatish juda ko'p sezilib turadi. Xususan, bu oliy ta'lim tizimidagi o'quvchi mutaxassislari nutqida uchrashi ham achinarli holdir. Chunki kundalik hayotda zvanok, dejur, doska, kontrakt, glavniy, bosh korpus, aktiv zal, vedomost, otchislenie, daje, karotche kabi so'zlarni qo'llayotgan talaba va o'qituvchilar nutqidagi holatga duch kelsangiz, ular ona tilimizga nisbatan g'amxo'rlik tuyg'usi umuman esdan chiqib ketganligini his qilassiz. Chunki ona tilimizdagi har bir so'z ham nutq jarayonida xizmat qilsagina, u barhayotlik kasb etadi. O'z tinglovchisiga ega bo'ladi va boshqalar, xususan kelgusi avlod hayotida ishtirok etish "baxt"iga ega bo'ladi. Agar nutq jarayonida ishtirok etmasa, u asta-sekin aloqa-aralashuvdan chiqib boshlaydi. Biz nutqimizdagi bunday qo'pol nuqsonlarga e'tibor bermasak, kelgusi avlod "ilma-teshik" bo'lib etib borgan ona tilimiz ahvolidan bizni kechirishmaydi.

Nutq to'g'riligida xalqimizdan bizga meros bo'lib qolgan ona tilimizdagi lug'atlardan tashqari, mahollar, hikmatli so'zlar va iboralardan foydalanib, fikrimizni tinglovchi, o'quvchiga yetkazsak, uning kommunikativ sifatini yanada oshirgan bo'lamiz. Bu esa so'zlovchi nutq madaniyatining yuksak fazilatidir.

Xulosa qilib aytganda, nutqning to'g'riligi nutq madaniyati fanining muhim atamalaridan biri bo'lib, u so'zlovchi, ayniqsa, bo'lajak o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. Nutqning to'g'riligi inson nutq madaniyatining go'zal namunasi sifatida namoyon bo'ladi.

Nutq aniqligi deganda, so'zlovchining tinglovchiga bildirilayotgan axborot mavzusi va kengligini aniq ifoda eta olish mahoratidir. Nutq aniqligi nutq o'lchovlaridan biri bo'lib, u yuqorida izohlangan nutq to'g'riligi bilan bevosita uzviy bog'liqdir. Nutq aniqligida ham til vositalarining lug'aviy va grammatik jihatdan mazmunan to'g'ri shakllanganligi asosida yuzaga keladi. Biroq, nutqiy aniqlik deganda, tabiat va jamiyat, narsa va voqea-hodisa o'rtasidagi munosabatni real, muayyan tarzda ifodalash anglashiladi. So'zlovchi o'zi mulohaza, munozara yuritayotgan narsa-hodisa, voqelik haqida tushuncha va tasavvurga aniq ega bo'lmasa, uning nutqi aniq ifodalanmaydi. Demak, so'zlovchining o'zi bayon qilgan fikrini tafakkur qilishi nutqidagi so'z va iboralarning o'rini

aniq belgilay olishi nutqning aniqligini belgilovchi xususiyatdir.

Nutq aniqligiga raxna soluvchi unsurlar quyidagilar: So'z ma'nosiga e'tibor bermasdan qo'llash: "Biz amaliyot ishlari bo'yicha mahsulmiz" (mahsul-mas'ul), 2" Bizning karxonamiz bu yil juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi(karxona-korxona). Biz 50 gektar erga paxta ekdik (paxta-chigit). Bahorda 1000 to'p chakalak daraxti o'tkazdik. (chakalak-halamchasi yoki nihol tanasidan).

Nutq aniqligi o'qituvchidan dars jarayonida juda katta mas'uliyatni talab etadi. Xususan, fanga doir atamalardan o'rinni foydalanish, uning ma'nosi va mohiyatini aniq ifodalash bu sohadagi talablardandir. Zero, har bir fanni egallashda undagi atamalarning ma'nosini tushunish, uni nutqqa olib kirish, biror narsa-buyum, hodisalarning muayyan ma'nosini ifoda etishda atamalarning o'rni beqiyosdir. Fan va texnikada ayrim tushuncha, maxsus buyum-narsalarni aniq ifodalash uchun qo'llanadigan so'zga atama deyiladi. Masalan, ona tili fanida ot-mustaqil so'z turkumi. Bu so'z so'zlashuvda hayvon, ism ma'nosini ifoda etadi. Lekin fanda umuman boshqa ma'no kasb etib, tabiat va jamiyatdagi shaxs, buyum-narsalarning nomini bildiruvchi mustaqil so'zlar turkumini ifodalaydi. So'ng o'tni ifoda etuvchi so'zlarning ma'nosi, aniq yoki mavhum, sanalish-sanalmaslik xususiyatlari haqida malumot beriladi. Yoxud ona tili fanida ham son atamasi mavjud. Bunda son narsa-buyumlarning son-sanog'i, tartibini ifodalovchi atama sanalsa, matematikada son-rahamlarning xususiyatiga ko'ra 2 turga bo'linishi: aniq sonlar va natural sonlarga bo'linishi izohlanadi. Nutq aniqligi, xususan, yozma nutqda fikrning aniq, qisqa va lo'nda ifodalanishda namoyon bo'ladi. Taniqli so'z sanatkori A. Qahhor badiiy ijodda nutqning soddaga, aniq ifodalash uchun intilish zarur ekanligini yoshlarga uqtirish maqsadida bir yozuvchining hikoyasidagi mavhumlikni quyidagicha tanqid qiladi: "Tasavvur qilar edim"- deyish o'miga "Xayolim uni tasavvur qilar edi" - deydi. "O'tni jilovlatdi"- deyish o'miga O'tning jilovini siltab, tezlashinini histadi"- deydi. ² Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biridir. Ko'pincha talabalar nutqida "Chiroyli" "so'zi buyum-narsa, predmetga nisbatan qo'llanilsa, manoli bo'ladi. Voqea - hodisa yoki faoliyatiga nisbatan esa go'zal, so'zi qo'llansa, nutq aniqligiga erishiladi: "U go'zal nutq so'zladi". "U go'zal ovoz egasi".

Nutq aniqligini nutq sifatining birinchi sharti hisoblaganlar. Chunonchi, buyuk mutafakkir, notiqlik san'atining asoschisi Aristotel: "Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga yyetishmaydi"-degan edi. Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida esa: "Ey farzand, so'zning yuz-orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so'zlaganda ma'noli gapir, bu

notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtında soʻzning qanday maʼnoga ekanligini bilmasang, qushga oʻxshagaysan” – deb uqtiradi².

Aniq nutq yaratish uchun soʻzlovchi quyidagilarni oʻrganishi va ularga amal qilishi zarur:

1. Nutqda soʻzlarning talaffuz meʼyorlariga qatʼiy rioya qilishi zarur, undagi tovushlarni adabiy til meʼyori va qoidalariga asosida nutq jarayoniga olib kirishi zarur.

2. Kelishik qoʻshimchalarini qoʻllashda, soʻzlarni bir-biriga bogʻlashdagi maʼno xususiyatiga koʻra qoʻllash, voqelikda harakatni obʼektga koʻchirish mazmunida qoʻllamasliklari lozim.

3. Soʻzlarning sinonimlik xususiyatlaridan oʻrinli foydalana olishga erishish, sinonimlik qatordan kerakli variantni ajratib nutqda qoʻllash malakasiga erishish darkor.

4. Nutqda qoʻllanadigan soʻzning maʼnosini his qilish, anglashga intilish va bilim: nojiddiy, takroriy qoʻllashlardan saqlanish, chunki betayin soʻz qoʻllash soʻzlovchini beburd qiladi.

5. Soʻzning koʻp maʼnoliligiga jiddiy eʼtibor berish, ularning nutq jarayonidagi maʼnosini chuqur his qilgandan soʻnggina foydalanish.

6. Paronimlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklarini his qilish.

Aniq aytilgan yoki yozilgan oʻzaro mantiqiy gaplar yigʻindisi nutqiy asar deyiladi. Nutqiy asar tushunchasi ogʻzaki yoki yozma nutqning qatʼiy mazmun va voqelik asosidagi parchasi ham, xalq ogʻzaki ijodiy namunalari (oddiy maqol, naql, hikmati gaplar) yoki badiiy adabiyotning kichik namunalari (fard, kichik hikoya va hokazo) dan tortib to roman, epopeya asarlargacha oʻzida qamrab oladi. Har qanday tugal mazmunga ega nutqiy asar matn orqali ifodalanadi. Matn deb, u yoki bu holda tugallangan mazmun (maʼno) va nutq birligini oʻzida shakllantirgan ogʻzaki yoki yozma asarga aytiladi.

Matnning belgilari quyidagilar:

7. Matn mazmunan tugallangan gap yoki gaplarning oʻzaro maʼno va grammatik jihatdan qatʼiy shakllangan gaplardan tashkil topadi.

8. Matndagi gaplar oʻzaro ichki (mantiqiy) va tashqi (grammatik) bogʻlangan boʻladi.

9. Matnda oʻzaro mazmunan bogʻlangan gaplar orqali axborot, voqea-hodisa haqidagi fikrlar inson ongida shakllantiradigan, uning tasavvur va tafakkuriga taʼsir eta oladigan aniq bir mantiqiy, hissiy (emotsional) nafasat, maʼnaviy, maʼrifiy tuygʻularni uygʻota olishi zarur. Hajm jihatidan katta matnlar gapdan tashqari, xat boshi (abzats)lar bilan ajratiladi. Gap -

hajm va mazmun jihatidan matn (nutq) ning eng kichik birligidir.

Xat boshi (abzats) umumiy fikrning kattaroq boʻlagi boʻlib, bir va undan ortiq gaplardan iborat boʻladi. Xat boshi (yozuvda bir oz ichkariroqdan yoki). Soʻz (yoki oʻqituvchi dars jarayonida) matn mazmunini turli usullarda yuzaga chiqarishi mumkin. Bunda uch janr: tasvir, hikoya qilish, mulohaza alohida oʻrin tutadi.

Tasvir. Nutqda ifodalangan narsa yoki hodisani maxsus til vositalari orqali xarakterlash, uning xususiyatlarini, sifatlarini koʻrsatish usuliga tasvir deyiladi. Tasvir fikr yuritiladigan shaxs, narsa yoki voqea-hodisani tinglovchi tasavvurida erkin shakllantirish uchun ishlatiladi.

Boshlangʻich taʼlim oʻqish darslarida tabiat, atrof-tevarak, shaxs, bola tasvirini ifodalash dars jarayonida koʻp uchraydi. Ayniqsa, qahramon tasvirini oʻquvchilarga yetkazish ularda shu obrazga nisbatan qiziqishni orttiradi. Adib oʻzi yaratgan obraz tasviridayoq, uning ijobiy yoki salbiy qahramon ekanligini anglab olish mumkin. Koʻpgina ijobiy qahramonlar baquvvat, baland boʻyli, jussasi kelishgan, koʻzlari tim qora, harakati tez, atrofda har bir voqeani mushohada va mulohaza qiladigan bola yoki oʻsmir, shuningdek, barvasta, shijoatli, aqlli, vazmin kishi boʻlib tasvirlanadi. Bundan tashqari, tasvirda oʻxshatish, qiyoslash juda katta oʻrin tutadi. Yozuvchi A.Qahhor Gogol haqida gapirib:” U oʻxshatish uchun narsa izlanganda uydin, hovlidan tashqariga chiqmaydi”-deydi. “Uning yuzi silliq kurakka oʻxshaydi”, “ Uzun engidan qoʻli supurgiga oʻxshab chiqib turgan edi”- deb yozadi. Adib obraz tasviridagi yuz, qoʻlning jonli qiyosiga yuksak sanʼatkorona mahorat sifatida baho beradi.

Tasvirda bir qancha badiiy tasviriy vositalar ham muhim oʻrin tutadi. Jonlantirish- insonga xos boʻlgan xususiyatlarni jonsiz predmetlarga koʻchirishdir.

Masalan, shoir Hamid Olimjon “Oʻrik gullaganda” sheʼrida bahor faslida oʻrikning gullashi, uning oppoq tusga burkanishi va shabadalardan uning sarxush hidlari har tomonga tarqalishini quyidagicha tasvirlaydi:

Derazamning oldida bir tup

Oʻrik oppoq boʻlib gulladi. . .

Novdalarni bezab gʻunchalar

Tongda aytdi hayot otini

Va shabboda qurgʻur ilk sahar

Olib ketdi gulning totini. . .

Bu badda shoir gunchalarning “Hayot otini aytishi” shabbodalar gulning totini olib ketishi”-jonlantirishning yorqin namunasidir.

Yuqoridagi badda peyzaj (tabiat manzalarini tasvirlash) sanʼati ham

² Kaykovus “Qobusnoma” T, “Sharq” 1992, 83-het

qo'llangan.

Tasvirda ko'pincha qahramonning portretini chizish usuli ham muhim o'rin egallaydi. Portret insonning tashqi ko'rinishi, yuzi, kiyim-kechak, yurish-turish tasviri bo'lib, qahramonning ma'naviy qiyofasini yorqinroq, aniqroq tasvirlash san'atidir. Masalan, A. Qodiriy "Mehrobdan chayon" romanida Ra'no obrazining portretini so'z orqali shunday tasvirlaydi: "Ra'noning sochi gungurt-qora, ya'ni quyoshsiz joylarda qora ko'rinsa ham, quyoshda biroz sarg'ish bo'lib ko'rinar edi." "Qoshi tutash kabi ko'rinsa ham ko'ndalang yotgan ikki qilich orasini nafis bir quyilib ko'tarish ajratib turar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillar orqa o'ngini tutib yotar, qaddi uzunlik bilan hishalikning o'rtasi, do'ndiq barmoqlarining jimjilog'ida xino gullar; har holda bu qiz yolg'iz Qo'qondagina emas, umuman Farg'onani kuylariga qo'shilib maqталaturgan go'zallardan edi".

Xullas, tasvir janri o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirishda, ularning kishilar, tabiati voqea- hodisalarni anglashda, darsning mavzusini yaxshi o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hikoya qilish. Bo'lib o'tgan va yuz beradigan voqea-hodisalarni batafsil so'zlash- hikoya qilish usuli hisoblanadi. Biror voqea-hodisa, rivoyat, hikoya va kichik hajmli nasriy asarlar, katta asarlarning ayrim parchalari dars jarayonida hikoya qilib beriladi. Hikoya qilishda voqealar batafsil yoki qisqartirilgan holda bayon etilishi mumkin. Bunda har bir narsa (ayiqsa, hlkoyadagi badiiy detal) va hodisa o'z nomi bilan ifodalanmog'i lozim.

Hikoya qilishda o'qituvchi quyidagilarga alohida ahamiyat bermog'i lozim:

1. Hikoya qilinayotgan asarning mazmuni va g'oyasiga (Mazmun nima haqda? G'oya esa nima uchun? degan so'roqqa javob bo'ladi. Masalan, "Zumrad va Qimmat"ertagining mazmuni —mehnatsevarlikni ifoda etsa-da, uning g'oyasi-o'gay onaning nomxribonligini qoralash g'oyasi asosida yoritilgan).

2. Asardagi obraz, qahramonlarning xatti-harakati, nutqi va ijobiy yoki salbiy fazilatlarini yoritish.

3. Qahramonlar, muallif nutqini farqlay olish.

4. Asardagi tabiat manzarasini his qilish va uning voqelik bilan uzviy bog'liqligini hisobga olish.

5. Asar voqealarining uzviyligini ta'minlash, uning yakuniga erishish.

6. Asarning mazmuni, xissiy, ma'naviy, ma'rifiy, estetik, emotsional va axloqiy-tarbiyaviy xususiyatlarini tinglovchiga yuqerkazishga erishishdan iboratdir.

Hikoya qilishga o'quvchilarni o'rgatish, ularda og'zaki nutqni shakllantirish, uni kamol toptirishda, tabiat va jamiyat haqida tasavvur va tafakkurlarini rivojlantirish muhim omil sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Mulohaza. Kuzatilgan, erishilgan yoki o'qilgan asarlar ustida fikrlash, uning turli tomonlarini ko'z oldiga keltirish **mulohaza** deyiladi. Mulohaza o'quvchilarni ilmiy fikrlashga o'rgatishning muhim vositalardan biri sanaladi. Kishi mulohaza orqali hayot tajribalariga ega bo'lib boradi. Dunyoqarashi rivojlanib, aql-zakovati to'lishadi. Ibn Sino bu haqda: "Narsalarning haqiqatini bilish faqat farosat yo'li bilan amalga oshadi". deb bejiz aytmagan.

O'qituvchi o'quvchilarni darsda va darsdan tashqari paytlarda muomala vaziyatlari ustida fikr yuritishga, ular xususida xulosa va natijalarga erishish bilan ularning tajribasini kengaytirib borishi lozim. Bunga esa boshlang'ich sinfdanoq zamin tayyorlanishi zarur. Bu sohada badiiy adabiyotning barcha janrlari kabi topishmoq, yuqori sinflarda esa lug'z, tuyuq kabi janrlar mavjudki, ular bevosita o'quvchilarni yashirin voqelik ustida o'ylashga, mushohada yuritishga majbur etadi. Tabiat va jamiyat hodisalari ustida mulohaza yuritishga o'rgatadi.

Fikrni og'zaki bayon etish usullari. Dars va darsdan tashqari matnlarda fikrni og'zaki bayon etish usulidan ko'p foydalaniladi. Bu turning suhbat, muhokama, munozara usullari doimiy tarzda qo'llanib kelinadi.

Suhbat. Ma'lum bir mavzu yuzasidan ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasida nutqiy muloqotga suhbat deyiladi. Suhbat mavzu ta'lim-tarbiya doirasida bo'lib, unda o'zaro savol-javob muhim o'rin tutadi. Suhbat mavzusining ahamiyatli tomoni shundaki, unda savollar mavzu doirasida puxta o'ylangan, muammoli vaziyatlarini hal etishga qaratilganligi bilan o'lchanadi. O'qituvchi o'zaro suhbatdan ta'limiy-tarbiyaviy xulosalarga kela olishi, o'quvchilarning fikrlarini umumlashtira olishi bilan bu usulning afzalligiga erisha oladi. Suhbatning sifati va qiziqarliligi shunda bo'ladiki, qatnashuvchilar nutqi nafaqat voqea-hodisa bayonidan iborat bo'lib qolmay, unda mavzuga oid daliliy fikrlar, ma'lumot va dono kishilar, olimu adib, ulug'larning so'zlaridan parcha (sitata) keltirsalar, suhbat darajasi yanada oshib boradi. Suhbat monologik tarzda ham olib borilishi mumkin. U ma'ruza tarzida tashkil etiladi. Ma'ruza- o'rta maktabning yuqori sinflarida (qisman), o'rta maxsus va oliy ta'limda ko'p qo'llaniladi.

Ma'ruza soatlarida, asosan, ikki kishi- ma'ruzachi va tinglovchi ishtirok etadi. Talabalar tinglovchi vazifasini bajaradi. Ma'ruzachining mavzu bo'yicha fikrlarini kuzatib, yozib boradi. Ma'ruza davomida savol tashlamaydi, anglashilmagan fikrlar bo'lsa, dars soati oxirida hal etiladi. Ma'ruza davomida tinglovchilar notiq fikrini bo'lmaydi, izohlamaydi, to'ldirmaydi. Ma'ruza ham dars o'tish shakllaridan biridir.

Muhokama - ma'lum bir mavzu yoki muammo yuzasidan ko'pchilikning fikrini tinglash, bir mavzudagi turli qarash va munosabatini anglab, bir to'xtamga kelishga muhokama deyiladi. Muhokamada har bir ishtirokchi o'zining erkin fikrini bayon etadi. Muhokamada fikrni og'zaki bayon etishning dialogik va monologik usullaridan foydalaniladi. Muhokama-biror masala yoki muammo yuzasidan guruh, shakllarining o'zaro bahsi, tortishuvi asosida olib boriladi. Bahs jaryonida har bir ishtirokchi o'zining haq ekanligini ishontirishga intiladi. Munozara- biror mavzu asosida ishtirokchining qarash va munosabatlarini anglash hisoblanadi. Muhokama bilan munozara usullari shunisi bilan farq qiladiki, munozarada his-hayajon, ruhiy munosabatlar turlicha bo'ladi. Muhokamaga qaratilgan ob'ekt yoki mavzu umumiy bo'lishi, ishtirokchilarning voqelikka munosabatlari bir-biriga yaqinroq bo'lishi mumkin. Masalan, "O'tkan kunlar" romanidagi timsollar (Yusufbek Xoji, Otabek va Kumush) xarakterida milliy urf-odat xususiyatlarining ifodalanishi" mavzusida bo'lsa, o'quvchi o'zi anglagan tasavvuri doirasida bayon etadi. Munozarada mavzu muammoligi jihatidan ustun bo'ladi. Masalan: "Shum bola baxtlimi yoki baxtsiz?", "Zaynab o'zi baxti uchun kurashuvchimi yoki johil?". Ko'rinadiki, munozara uchun tanlanadigan mavzu so'roqli yoki muammoli tarzda bo'lishi lozim.

Ishtirokchi munozarada quyidagi uch talabni aniq his qilishi zarur:

1. Munozara uchun qo'yilgan mavzuni to'g'ri tushuna olishi lozim.
2. Mavzuga doir o'z fikrini quvvatlaydigan ashyoviy va mantiqiy dalil topib bilish, ularni nutq orqali to'g'ri ifodalay olish.
3. Keltirilgan dalillardan mantiqiy xulosalar chiqara bilish.

Yuqoridagi talablarga rioya qilmaydigan nutq tinglovchilarga ta'sir etmaydi, so'zlovchining munozarada yutib chiqishiga imkon yaratmaydi.

Ma'lumki, har qanday muhokama va munozara boshlovchisiz o'tkazilmaydi. Unda munozarani olib boruvchi shaxsdan qat'iy ifodali, odobli, sezgir, qatnashuvchining nutqlaridan eng muhim fikrlarni ajrata oladigan, qatnashuvchining turli yoki noto'g'ri fikrlarini izohlay oladigan, muayyan tahlil eta oladigan shaxs bo'lishi zarur.

Notiqona so'zlash. Aytilyotgan fikrning tinglovchi ongi,

dunyoqarashi va xulqiga ta'sir etib, unda hissiyot, yangi fikr-tasavvur uyg'otadigan nutqqa notiqona so'zlash deyiladi. Oddiy suhbatdan notiqona so'zlashning farqi shundaki, notiq har bir gapdagi so'zlarning ma'no ta'sirchanligi, ularning o'zaro bog'lanib, mantiqiy izchillikka ega bo'lishini, turli ohang va harakatlardan tinglovchilarga ma'qul bo'ladigan tomonlarini tanlay olishidir. Nutqda ifodalanayotgan gap, ibora va fikrning bildirayotgan maqsadga mos tushishi, uni yoritish uchun asos bo'la olishi notiqona so'zlashning muhim talablaridir. Bunda notiq dunyoqarashi, uning ko'pchilikka yetkazayotgan fikr va g'oyasi ijtimoiyligi, hayotiyliigi va xalqchilligi bilan ham o'lchanadi.

Notiqona nutqning maqsadi va yuqorida aytilgan xususiyatlariga ko'ra uch turga: tashviqiy, tanqidiy, tabrik nutqlariga ajratish mumkin.

Tashviqiy nutq deb notiq ko'zda tutgan biror voqea-hodisani bajarishda tinglovchilarni da'vat etuvchi, undovchi nutqqa aytiladi. Tashviqiy nutqqa xalq hayoti, tarixi, urf-odat, an'ana va qadriyatlaridan olingan dalillarga taya'nish, fikrni shu dalillar asosida mustahkamlash, uning ta'sirchanligini oshiradi. Masalan, o'zbek kishisining timsolini yaratish, o'zbek xalqiga xos bo'lgan xususiyatlarni shu timsolda mujassamlashtirish orqali yaratiladi. Shoir Muhammad Yusuf "O'zbek" she'ridagi kishilarni ana shunday o'zbekona tabiatga, urf-odatga ega bo'lish uchun quyidagi misralarni yaratgan:

Bir qo'lda belanchak, bir qo'lda Qur'on,

Bir yelkada ketmon, birida iymon,

Barchaga barobar bir odatsimon,

Yashnasin olam deb, yashaydi o'zbek

O'zbekning bolajon tabiat ekanligi quyidagicha ifodalanadi:

O'nta bo'lsa o'rni boshqa uning-chun

O'g'lim otashimdan yaralgan uchqun

Qizim parilardan chehrasi gulgun

Yuzlari lolam deb yashaydi o'zbek

Unda muallif she'rxonni o'zbek tabiatida farzandni cheksiz mehr-muhabbat bilan tarbiyalashi va ardoqlash muhim maqsad, fazilat ekanligi ham tashviq qilinmoqda.

Tanqidiy nutq. Voqea-hodisalarga, shaxslar xatti-harakatiga e'tirozli, norozi yoki qarama- harshi munosabatda bayon etilgan nutqqa tanqidiy nutq deyiladi. Tanqidiy nutq kuchli mantiqiy va aniq mushohada, mulohazalarga tayanadi. Notiq ishonchli manba, dalillarga tayanmasdan tanqidiy fikrlar bildirsa, beburd bo'lib qoladi. Tinglovchilarga nisbatan yomon yoki noto'g'ri taassurot uyg'otadi. Tanqidiy nutqda ham nutq

qurilishi, jozibadorligi, ohangdorligi muhim o'rin tutadi.

Tanqidiy nutqda tanqid etilayotgan kishining shaxsiyatiga tegish madaniyatsizlik belgisidir. Tanqid qiluvchi shaxs tinglovchilar bilan o'zaro xushmuomala va hurmatda bo'lib, tanqid ham yumor, latifa yoki rivoyatlardan foydalanib, nuqson yoki kamchiliklar ko'rsatilsa, nutqning go'zal xususiyatini namoyon etadi. Bu usullar nutqning yaxshi etib borishini ta'minlash bilan birga tinglovchilarni zerikishdan, asabiylikdan saqlaydi.

Tanqidiy nutq g'araz, birovdan o'ch olish, asabiga tegish kabi maqsadlardan xoli bo'lishi lozim.

Tabrik nutqi. To'y, tantana, tavallud kunlarda so'zlanadigan nutq tabrik nutqi deyiladi. Tabrik nutqi atalgan shaxs va hodisalarning yaxshi maqtoqli xususiyatlarini ko'rsatishda, ularning asosiy tomonlarini e'tirof etishga qaratilgan bo'ladi. Shu nuqtai nazardan bunday nutq ko'rinishi ko'tarinki, tantanali ruhda yaratilmog'i lozim. Tabrik nutqida notiq turli dalillardan foydalanadi. Bu dalillar shaxsning yaxshi fazilatlarini, xulqi, insoniyligi, xalq oldidagi xizmatlarini ko'rsatishdan iborat. Notiq dalil sifatida uning tarjimai holidan, ijtimoiy hayotdagi yutuqlaridan, u haqda boshqalarning fikrlaridan foydalanishi mumkin. Tabrik nutqining noo'rinligi qutlanayotgan shaxsni uncha munosib bo'lmagan maqtoqlar bilan olhishlash, haqiqatdan uzoq bo'lgan so'zlar bilan olhishlash tinglovchida yomon taassurot qoldiradi. Tabrik nutqi hajmi jihatidan ixcham, mazmunan boy bo'lib, tinglovchining vaqtini ko'p olmasligi lozim. Xullas, nutq aniqdagi voqelikni aniq ifoda eta olish mahoratidir. Nutq nafaqat mazmuniy jihatdan emas, balki ob'ekti, bayon etish usullari jihatidan ham aniqlik kasb etishi zarur. Chunonchi, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, tasvir, hikoya qilish, mulohaza usullari, darsni og'zaki bayon etishni esa suhbat, muhokama, munozara kabi usullarida tashkil etish, nutq jarayonining samaradorligini belgilaydi. Nutq ijtimoiyligi, mazmunan yo'nalishga ko'ra tashviqiy, tanqidiy va tabrik nutqdan tarkib topishi izohlandiki, bunday nutq ko'rinishlari ham to'g'riligi va aniqdagi jihatidan muhim ahamiyat kasb etgandagina, u tinglovchisiga etib boradi. Bu esa notiqona so'zlash mahorati bilan izchil bog'liqligini anglatadi.

Nutq madaniyati va uslubi

Uslubiyat- tilshunoslik fanining alohida bir bo'limidir. Bu bo'limda til birliklarining nutq sharoiti jarayonining maqsadi, mohiyati va muhitiga mos ravishda foydalanishni anglatadi.

Tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohasidagi ko'rinishiga nutq

uslubini deyiladi. O'zbek adabiy tilida, asosan, 3 ta nutq uslubi bor. Ular 1. So'zlashuv uslubi. 2. Kitobiy uslublar. 3. Badiiy uslub.

Bu uslublarni nutq shaklining ikki turida kuzatish mumkin. So'zlashuv uslubi- og'zaki nutq shaklida namoyon bo'ladi. Kitobiy uslublar: rasmiy uslub, ilmiy uslub va matbuot uslub turlariga bo'linib, ularning barchasi yozma nutq shaklida olib borilsa-da, unda so'zlashuv uslubi-og'zaki shakl namunalari ham qo'llaniladi. Ayniqsa, adiblar badiiy obrazlar xarakterini yaratishda so'zlashuv uslubi tarzidan dalil sifatida foydalanadilar. Shuning uchun ham badiiy uslub aralash uslub ham deb yuritiladi.

So'zlashuv uslubi

So'zlashuv uslubi- ikki yoki undan ortiq kishining o'zaro so'zlashuvi, suhbat va muloqoti vaziyatida kechadigan og'zaki nutq shaklining ko'rinishidir. So'zlashuv uslubi erkin uslub ham deyiladi. Chunki ijtimoiy hayotda har bir shaxs o'z orzu- istak, tashvish va qarashlarini o'zi xohlagan tarzda, ona tilimizdagi bor bo'lgan, his qilgan so'zlari orqali bayon etadi. Bunday paytda u o'z shevasidan, o'z kasbiga xos bo'lgan so'zlardan, piching, hazil-mutoiba, erkalash, maqol va latifa yoki boshqa unsurlardan ham foydalanishi mumkin.

So'zlashuv uslubida, bundan tashqari, quyidagilar ham qo'llaniladi:

- imo-ishoralar,

- nutqda so'zlarni qisqartirish (Zulfiya-Zulya, Nargiza-Nargiz)

Nutq orasida noo'rin ruscha, chet so'zlarni qo'llash (tak, znachit, uje, daje, va hokazo);

Parazit(takror) so'zlarni qo'llash (demak, o'sha, nima, anavi, masalan va hokazo);

Sheva (sigir-inak, supurgi- jo'rob, tovoq-tavaq, buzoq- go'sala, qazon-qozon, do'ppi- kalapo'sh) grammatik vositalarni xohlagancha qo'llash:-lar-la: kelinglar, boringla, -aytayapman-aytopman, kelopman.

Jargon, argo va vulgar so'zlar: go'zalim-asalcham, qushcham, kabutarcham kabi, vulgar: yaramas, iflos kabi so'zlar;

Yangi paydo bo'lgan so'zlar: biznes, sotka(qo'l telefon), kompyuter, dollar va hokazo;

So'zlashuv uslubida ijtimoiy hayotning turli toifadagi kishilari o'zlarining hayoti, nutqiy tajribalari asosida ish ko'radilar. Umumiy iste'moldagi so'zlardan foydalanadilar. Shu bilan bir qatorda har bir toifa kishilari orasida ham madaniy nutqqa intiluvchi shaxslar uchraydi. So'zlashuv nutqini go'zal, adabiy til me'yorlariga mos tarzda tashkil etuvchi kishilar borligi nutq madaniyatini ijtimoiy hayot talablari darajasida

ko'rishga intiladilar. Bu esa ajdodlarimizdan ma'naviy meros bo'lgan ona tilimizga cheksiz hurmat namunasi bo'lgan ruhiy, hissiy vatanparvarlik namunasidir. Ana shu milliy madaniy tuyg'uni his etgan har bir shaxs adabiy til me'yorlariga qat'iy rioya qilib so'zlashuv nutqini yanada yuksak ko'rinishga ko'tarishga intilmog'i lozim. So'zlashuv nutqi ijtimoiy hayotda ega ko'p qo'llanadigan uslub turi bo'lib, u quyidagi ijobiy xususiyatlarga ega:

- so'zlovchi tinglovchini ko'rib turadi, unda o'z nutqining ta'sirchanligini his qiladi;

- so'zlovchining nutqi sodda, qisqa, mazmunan ta'sirchan bo'lishga erishmog'i lozim;

- nutqda har gap, so'z, ibora, maqol, latifa, rivoyat yoki dalil so'zlovchining bildirayotgan maqsadiga, fikrining mohiyatiga haratilmog'i lozim;

- suhbat o'zaro hurmat, samimiyat va yuksak insoniy fazilatlariga asoslangan bo'lishi lozim. So'zlashuv uslubining o'ziga xos yutuq va kamchiliklari mavjud. YUtuqlari:

- tinglovchi ko'z oldingizda bo'ladi. Uning sizning nutqingiz, so'zingizdan qanchalik muttaa'sir bo'layotganligini ko'rib turasiz;

- so'zlashuv uslubida tinglovchi bilan siz o'rtangizda vaqt har doim ham chegaralangan bo'lmaydi. Xohlagan paytda muloqotda bo'lish imkoniyati mavjud bo'ladi;

- so'zlashuv uslubida ko'pincha tayyorgarliksiz muloqotga kirishiladi;

- tinglovchiga javobingiz yoki zarur fikrlaringizni qisqa, oson bayon eta olasiz, buning uchun hech qanday vosita kerak bo'lmaydi.

Kamchiliklari:

- so'zlashuv uslubida ko'pincha tayyorgarliksiz muloqotga kirishiladi; so'z, gap va fikrlar uzviyligi har doim ham tartibli bo'lavermaydi;

- so'zlashuv uslubida fikrlar, munosabatlarning barchasi ham barqaror emas, doimiy esga saqlanib qolavermaydi. O'zaro suhbat, so'zlashuv vaqt o'tishi bilan tez esdan ko'tariladi, unutiladi.

Kitobiy uslublar. Uslubiyotning ikkinchi turi kitobiy uslublardir. Kitobiy uslublar yozma nutq shakli bo'lib, u uch turga bo'linadi. 1. Rasmiy-idoraviy uslub. 2. Ilmiy uslub. 3. Ommabop (publitsistik) yoki matbuot uslub. Bu uslublar, asosan, monologik tarzda ifodalanadi. (Ayrim hollarda, radio, televideniya og'zaki uslubda olib borilishi mumkin).

Rasmiy - idoraviy uslub. Prezident, Hukumat va davlat tomonidan chiqariladigan farmon, qaror, nizom, mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro shartnoma, hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi.

Rasmiy-idoraviy uslubda, bunday tashqari, ariza, ma'lumotnoma, bildirishnoma, dalolatnoma, tarjimai hol, ishonchnoma, majlis qarorlari, o'zaro shartnoma va boshqa hujjatlar yoziladi. Qadimda hujjatlarni yozuvchi, ularni amalga oshiruvchi kishilar mirzo yoki munshiy deb nomlangan.

Xujjat matnlariga qo'yiladigan talablardan biri homiylik sanaladi. Xujjat matni aniqlik, ixchamlilik, lo'ndalik va mazmuniy to'liqlikka ega bo'lishi shart. Bu talablarda yozilmagan xujjatlar inobatga olinmagan. Bundan tashqari, rasmiy idoraviy xujjatlarda dag'al, ma'nosini tushunish qiyin bo'lgan so'z va gaplar, badiiy-tasviriy vositalar: o'xshatish, qiyoslash, jonlantirish, maqol, mubolag'alar ishlatilmaydi.

Bu uslubning asosiy belgisi jumalarning bir qolipda, bir xil shaklda, chunonchi: sizga... ni ma'lum qilamiz, sizga... ni bildiramiz; ...qaroriga binoan..., ... qaroriga muvofiq ravishda" kabi darak gaplardan, boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan lavozimidan ozod etilsin; ... faol va samarali ishtiroki uchun tashakkur e'lon qilinsin" tarzida yozilgan.

Rasmiy idoraviy uslubdagi xujjat qog'ozlarini yozishda asosan, quyidagilarga qat'iy rioya qilinadi:

- hujjat nomlari alohida va bosh harf bilan yozilib, undan so'ng hech qanday tinish belgisi (nuqta yoki boshqa) qo'yilmaydi;

- ko'pgina xujjatlarda darak (xabar) yoki axborot gaplardan foydalanib fikrlar 4-5 gapdan ortiq bo'lmasligi lozim;

- deyarli fikrlar oddiy, odatdagi tartibda ifodalanadi;

- majlis qarorlari, buyruq, nizomlarda faqat buyruq gaplardan foydalaniladi;

- hujjatlar, asosan, yozma shaklda bo'lib, unda imlo va tinish belgilarining qo'llanishiga alohida e'tibor berish kerak. Shundagina savodli yozilgan hujjat o'z vazifasini mustaqil bajaradi va xujjat egasini maqsadga erishtiradi.

Ilmiy uslub. Ilmiy uslubda darslik, monografiya, doktorlik, nomzodlik ishlari, ilmiy-usuliy risola yoki qo'llanma, ilmiy maqola, bitiruv malakaviy ish, kurs ishi va referatlar yoziladi. Ilmiy uslubning asosiy talabi ijtimoiy hayot voqealigini aniq daliliy materiallarga tayangan holda kichik axborotlar asosida matn yaratishdir. Bundan tashqari, mantiqiy fikrlash, fikrni tahlil qilish, umumlashtirish va ma'lum bir xulosaga kelish, fikr natijasiga erishish ilmiy uslubning xarakterli xususiyatlaridir.

Fan -texnika, madaniyat va san'at sohasida yoziladigan darslik, ilmiy to'plam va jurnallardan ilmiy maqolalardagi asosiy xususiyat shundaki, undagi har bir soha, fanga xos ilmiy atamalar, formula, jadval va

xulosalardan foydalanish ilmiy uslubni tashkil etuvchi vositalar bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy uslubdagi matnlar ham monologik tarzda bo'lib, bu nutq ko'rinishida ko'chma ma'noli so'z, majoz, o'xshatish, jonlantirish, maqol kabi badiiy tasviriy vositalar deyarli qo'llanilmaydi. Ilmiy uslubdagi matnlar ma'lum bir mutaxassislik doirasida yaratilib, asosan shu mutaxassislik egalariga qaratilgan bo'ladi. Binobarin, bunday matnlarda o'sha mutaxassis sohasiga boshlangan atamalar (masalan tilshunoslik-frazcologiya, morfologiya, sintaksis, adabiyotshunoslik- janr, tur, jonlantirish, tibbiyot: kardiologiya, endekriologiya, tashxis, biologiya, aorta va vena qon tomirlari, hujayra va qon), qoidalar, dalillar (ko'pincha raham tarzida), chizma, jadval, ko'rsatkich, formula va turli xil belgilardan foydalaniladi.

Ilmiy uslubda matnlarning hozirgi paytdagi asosiy xususiyati shundaki, unda matnga qo'yilgan sarlavha asosiy g'oya bo'lib, sarlavha mazmunini ochishga olimlar, mutaxassislar mavzuga doir qilingan ishlarni yoritib, o'z fikrlarini boshqa mutaxassislar qarashlari bilan u yoki bu tarzda munosabatga kirishishda va uni asoslashda parcha (iqtiboc) keltirish orqali o'z fikrlarini boyitadi, (manba) ko'rsatkichi (nashri, chiqarilgan yili, beti). YOxud ayrim hollarda boshqa mutaxassis fikr va qarashlari rad etiladi. Matn muallifi masalaga doir o'zining qarashi yoki pozitsiyasini bildiradi. Shu asnodan matn sarlavhasidagi masala xususida o'z xulosa va natijalariga erishadi.

Ilmiy uslubdagi matnlarning yana quyidagi xususiyatlari mavjud:

- muallif ko'pincha o'zi amalga oshirgan ishlarni bir ishga (men tarzda emac) ko'plik imkonidagi olmosh bilan (biz tarzida) ifodalaydi;
- qo'shma gaplardan, xususan, bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gaplardan ko'p foydalaniladi;
- kirish so'z, birikma va kirish gaplar ham tez-tez uchraydi;
- deyarli gaplarning odatdagi tartibida fikrlar bayon etiladi;
- qo'llaniladigan yangi atamalarga izoh beriladi;
- fikrni adabiy tilning yuksak ilmiy uslubida bayon eta olish, fikrlar barqarorligida turish, fikrni bayon etishda ilm namoyandalari nazariyasidan turib yoritish, uni dalillay olish, hozirgi davr qarashlari asosida tahlil etish, u yoki fikrni boyitish, inkor qilish madaniyatiga ega bo'lishi, mutaxassislar shaxsiyatiga tegmaslik, fikrlarni umumlashtira olish, shuningdek, muallifning o'z xulosa va qarashlari natijasiga erishish malakasi mavjud bo'lmog'i lozim.

Shunday qilib, ilmiy uslubda matn yaratish mehnat faoliyati bo'lib, har

bir oliy mutaxassislikka ega bo'layotgan shaxs bu uslub talablarini ta'limning ilk bosqichidan egallab bormog'i lozim. Talaba shu davrdan boshlab, kichik ilmiy uslubdagi matn, maqola, referat va kurs ishlarini yozish malakasini egallashi, bu sohada tajriba to'plab bormog'i lozim. Ana shundagina u bitiruv malakaviy ish yozish tajribasi va malakasiga atroflicha ega bo'ladi. Shundagina o'z mutaxassisligiga xos bo'lgan sohalar bo'yicha erkin va amaliy mulohazalarni ifoda eta oladi.

Ilmiy uslub har bir shaxsning o'z mutaxassisliklari darajasidagi tajriba va malakasini namoyon etuvchi nutq ko'rinishidir.

Ommabop (publitsistik) yoki matbuot uslubi. Matbuotda doimiy yoritiladigan ijtimoiy hayotning kundalik, dolzarb muammolari, masalalari ifodalangan ish uslubi ommabop uslubdir. Aslida bu uslub nomi publitsistik so'zi "Ruscha opublikivayu" -"yoritaman"degan ma'noni bildiradi. Bu uslub asosan, jurnalistik uslub bo'lsa-da, boshqa shaxslar ham ushbu uslubda ish ko'ra olishi, davriy matbuotda qatnasha olishi zarurdir. Bu uslubda xabar, axborot, lavha, intervyu, ocherk, feleton, publitsistik maqolalar yoziladi. Bu uslubning asosiy talabi mantiqiyligi va ta'sirchanligi bilan ommabop, barchaga tushunarli, kundalik hayotiy muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunday matnlarda umunga tushunarli bo'lgan siyosiy- ijtimoiy so'zlar (istiqlol, demokratik, ma'naviy, madaniy, axloqiy, ijtimoiy kabi), kasb-hunarga xos so'zlar: (tarbiya, metod, usul), shifokor: jarrohlik, tibbiyot, analgin, tenpalgin, trimol va hok.) sohaga oid so'zlar: dehqonchilik (ekin, chekanka, pilla, terim), chorvachilik (qo'zilatish, qirqim, sjk va hok). Bu uslubda xalq mahollari, majoz, badiiy tasviriy vositalardan foydalaniladi. Ritorik so'roq gaplar, gapning o'zgargan tartibidan foydalanilsa-da, asosan, darak (xabar, axborot) gaplardan, hayotiy daliliy fikrlardan foydalanish ustunligi sezilib turadi. Voqcaning oddiy bayoni (aytdi, dedi, gapirdi so'zlari) ko'p uchraydi.

Axborot janrida ko'pincha biror voqealikularning ishtirokchilari, shu bilan bir qatorda shu voqealikka tegishli dalil, rahamlardan foydalaniladi. Lavha janrida esa umum yoki ijtimoiy hayotning dolzarb mavzusiga asoslangan manzara, mehnat jarayonining umumiy tasviri, ishtirokchilari, muvaffaqiyati badiiy so'z orqali ifodalanadi. Lavhaga keng paxta dalasi, ishchining stanok oldidagi faoliyati, o'qituvchining dars jarayoni manzarasi asos bo'lishi lozim.

Intervyu- jurnalist yoki biror shaxsning boshqa kishi bilan o'zaro savol-javob asosida tuzilgan muloqot shakli. Bu muloqot muayyan mavzu doirasida, shuningdek, biror voqealik asosida uyushtirilishi mumkin.

Badiiy uslub. Badiiy uslub ijtimoiy hayot voqealilari va shu voqealik

shaxslarini badiiy timsollar, majoziy ifodalash usulidir. Bu uslub, asosan ko'chma ma'noli so'zlar, iboralar, xalqona so'zlash vositalari, mahollar, ayrim hollarda sheva, jargon, vulgar so'zlar, shuningdek, boshqa badiiy tasviriy vositalar: (o'xshatish, qiyoslash, jonlantirish, sifatlash, mubolag'a) lardan unumli foydalaniladi. Badiiy uslubdagi matn tuzishda sinonim, antonim, omonim, eskirgan va yangi paydo bo'lgan so'zlar o'rinli qo'llaniladi. Qisqasi, badiiy uslubda yaratilgan matnda estetik, axloqiy-tarbiyaviy va g'oyaviy tuyg'ular ustuvorlik qiladi.

Badiiy uslubda badiiy asarlar yaratiladi. Badiiy adabiyotning barcha janrlari (she'r, hikoya, ertak, hissa, roman va boshqalar) shu uslub namunalari sanaladi. Bu uslubda fikr shunchaki xabar tarzda bayon etilmaydi, balki badiiy asar (matn) yaratuvchi adibning ijtimoiy hayot haqidagi tushuncha, qarash va tasavvurlari "jonli" yoki "yashirin" tarzda ifodalaniladi. Buni o'quvchi faqat badiiy uslub vositalarini yaxshi anglagandagina tushunib etadi. CHunonchi, anor-qizil gulli daraxt yoki buta. Yoki shu daraxtning ichi qizil donalar bilan liq to'la yumaloq mevasi. Agar biz: "Anor cgik, anor mazali ekan, u yurakka quvvat beradi"- kabi gaplardan foydalanib suhbatlashsak, u so'zlashuv uslubiga xos matndir. Shoir Uvaysiyning "Anor" chistonida u o'z davrida yashagan ayollarning mahkumligini quyidagicha tasvirlaydi:

U! na gumbazdir eshigi tuynugidin yo'q nishon
Necha gulgunpok qizlar bunda aylabdir makon
Alarning holidan olmoq bo'lsam xabar,
Yuzlarida parda tortig'liq, turarlar bag'ri qon.

Anor mevasi o'zining badiiy tasviriy ifodasini topganligini anglaymiz.

Shu o'rinda shunchaki his-tuyg'u ifodalangan she'r, qo'shiqlar ko'payib ketayotgan-ligini afsus bilan eslash mumkin. Ular badiiy uslubdan yiroq, shuning uchun ham qanchalik dardli, hasratli bo'lmasin, u tezda yoddan ko'tariladi.

M: Men sevaman, sen sevasanmi,
Jonim, ertaga kelasanmi,
Hech kim seni mendek seva bilmas,
Shuni bilasanmi, bilasanmi?

Zero, ulug' bobomiz A. Navoiy o'z asarlarida deyarli "sevgilim", "sevaman" kabi so'zlarni qo'llamaydilar. Lekin har-bir g'azallarida uni qalban his qilib turamiz:

Lolazor ermaski ohimdin jahonga tushdi o't,

Yo'q shafaqkim, bir qiroqdin osmonga tushti o't,
baytida shoir: "U lolazor emas, jahonga ketgan olov, u shafaq emas,

chegasariz osmongacha ketgan olov mening ohimdir" degan fikrida bir "oh" dard-alamni lolazorga, shafaqqa, olovga qiyos etadi.

Badiiy uslubaralash uslub ham deyiladi. Chunki unga boshqa uslublarga xos bo'lgan shakl va ko'rinishlar uchrab turadi. Ayniqsa, so'zlashuv uslubi ko'rinishlari ko'p. Badiiy uslubda biror xalq vakili: jurnalist, olim, aspirant, ilmiy tadqiqotchi obrazlari yaratilsa, tabiiyki, shu shaxs nutqiga xos bo'lgan so'zlashuv me'yori yaratiladiki, unda ommabop, ilmiy uslublardan foydalanishga ham to'g'ri keladi. Biroq bu nutq uslubiga xos shakllar boshqa uslubga asossiz, noo'rin qo'llansa, fikr mazmundorligi yo'qoladi, tinglovchining zerikishi va nutq loqaydligiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, nutq uslublari so'zlovchining o'z fikrlarini bayon etishda uni qaytarzda yyetkazish yo'li, ko'rinishini ifoda etish vositasidir. Ayniqsa, o'qituvchi bu uslub turlarini yaxshi egallamog'i, uni o'z o'mida qo'llay bilish mahoratini o'zlashtirmog'i lozim. Zamon, jamiyatimizning har bir sohasida nutq uslublarimizning turli ko'rinishlari ularda muomalaga va munosabatning asosiy talablari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

4.3. Zamonaviy tarbiya mazmunida nutq madaniyatining o'rni

*So'z-buyuk narsa. Shuning uchun ham
buyukki, so'z bilan odamlarni birlashtirish,
so'z bilan ularni bir-biridan yuz ko'rmas qilib
yuborish mumkin, so'z bilan mehr qozonish,
so'z bilan nafrat va adovatga yo'liqish
mumkin. Odamlarni bir-biridan ajratadigan
so'zni aytishdan saqlan.*

L. N. Tolstoy

Tayanch iboralar: *Nutq, nutq madaniyati, nutq to'g'riliqi, nutq aniqliqi, nutq mantiqiyliqi, nutq tozaligi fikrni og'zaki bayon etish usullari, suxbat, mulohaza muhokama, munozara, notiqona so'zlash, tashviqiy nutq, tanqidiy nutq, tabrik nutqi*

Har bir nutq (muomala, munosabat yoxud suhbat) o'ziga xos madaniyat kasb etadi. "Madaniyat" arabcha so'zdan olingan bo'lib, "ma'dan" yoki "boylik" degan ma'noni ifodalaydi. Shuningdek, madaniyat so'zi Madina atalmish muqaddas shahar nomidan ham kelib chiqqanligi e'tirof etiladi. Ramziy qiyos ma'nosida esa "shaharlik" mazmunini ham

kasb etgan. Nutq odob xushmuomalalik, yoqimlilik, jozibadorlik kabi sifatlardan iborat bo'lishi zarur. U inson ma'naviyati (fazilatleri va xatti-harakatlari) ni namoyon etadi. Shuning uchun ham Yusuf Xos Hojib nutqning odobga yo'g'rilishini quyidagicha ifodalaydi:

So'zingni avayla, uzayar yoshing

Tilingni avayla, omondir boshing

Inson xushmuomalali bo'lishi zarur. Shoir A. Navoiy so'zlovchi tili (nutqi) bilan boshqalarga zarar bermasligi, ko'nglini og'ritmasligini ta'kidlaydi:

Til- shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir,

Agar nutq nomaqul bo'lib chiqsa – tilning ofatidir.

Hozirgi yoshlarimiz orasida o'z atrofidagi kattalarni hisobga olmasdan gapiraverish yoki muomalaga katta yoshdagi kishilarning fikrini diqqat bilan tinglash, diqqat bilan qabul qilish madaniyati yiyetishmasligini ko'p kuzatamiz. Bu esa o'ta odobsizlik ko'rinishidir. Dunyoda eng yomon odobsizlik-sizga gapirayotgan insonning so'zini tinglamaslik, yoki unga e'tiborsizlik, loqaydlik qilish. Bu holat gapirayotgan kishiga nisbatan haqoratdir. Bunday holatlarga hech kimning tushib qolmasligini istaymiz.

So'zlovchining nutq fazilatlaridan yana biri shuki, atrofda kishilarning kayfiyati, mavqeyi va yoshini hisobga olib, uning tabiatiga mos ravishda muloqot qilishdan iboratdir. G'am-tashvish bilan gapirayotgan kishiga hazil-mutoyiba qilish, uning dardini fikrlariga latifalar bilan javob qaytarish farosatli insonning ishi emas. Bundan tashqari, o'sha mansabdor kishiga maqtov bilan xushomad qilish ham tinglovchilarda yomon taassurot uyg'otadi.

Har bir suhbat jarayonida turli xil sharoitlarda yuz beradi. Ular uchun umumiy tomon shundaki, so'zlashdan ko'ra tinglashga ko'proq ahamiyat berish lozim. Ayniqsa, yoshi katta, o'zining ishi, mehnati va aql zukkoligi bilan tanilgan insonlarga so'zlash uchun ko'proq imkon berish lozim bo'ladi. Agar suhbatda bildirilayotgan fikrlar mabodo zerikarli, kishilarga maqbul bo'lmayotgan bo'lsa, bunday paytda suhbat mavzusini o'zgartirish, qiziqarli voqeaga torta bilish tajribasiga ega bo'lishi lozim. Umuman suhbat paytida samimiylilik, suhbat mavzusiga mos fikr keltira olish, tinglovchini, atrofda kishilarga cheksiz hurmat, toza va iliq munosabat nutq madaniyatining asosiy xususiyatlari sanaladi. Shu bilan birga nutqning tasviriy ifodalari-unga go'zallik baxsh etadi.

1. **Etiket** - Inson bu ko'hna olam qo'ynida yashar ekan, u shu jamiyat kishilari bilan muloqotga kirishib munosabat ko'rsatishga majburdir. Zero, har bir insonning boshqalar yoki ko'pchilik bilan munosabati nutq orqali

yuzaga chiqadi, shu asnoda uning aql-zakovati, madaniyati va ma'naviyati namoyon bo'ladi. Til asl manoda moddiylik kasb etadi (lug'aviy manosi – nutq azosi hisoblanib, kishilarda nutq tovushi hosil qiladigan vosita), ikkinchi manosi ham madaniyatga taalluqli bo'lib, u ajdodlarimizdan bizlargacha etib kelgan manaviy meros sanaladi. Yoxud o'zbek tilidagi lug'at- so'z manbasining umumiy yig'indisidir. Uchinchi manosi ijodiy mazmun kasb etib, so'z manbasidan qanday va qaytarzda foydalanib, nutq faoliyatimizdagi xatti- harakatimiz, aql- zakovatimiz, ruhiy holatimizni ifoda etuvchi jarayon anglashiladi. Ko'rinadiki, ikki manba faoliyat doirasi asosida so'z yotadi. So'z – inson faoliyati, hayoti uchun to'g'ri, aniq mano kasb etib muomala- munosabatda qo'llansagina, u jon oladi, "tiriladi". So'z - muomala, suhbatda qatnashmasa, umri hisharib boradi. Demak, har bir so'z ham inson kabidir, lekin insondan ko'p yashaydi, uning mehri bilan avloddan- avlodga meros bo'lib qolaveradi. Shuning uchun so'z manosini his qilish, uning kuch- qudratini anglash, u orqali bir- biriga ijobiy tasir ko'rsata olish esa inson madaniyati darajasini belgilaydi. Ulug' mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy so'z kuchi, qudratini his qilib unga shunday baho bergan edilar:

So'zdin o'lingning tanida ruhi pok,

Ruhdagi tan aro so'zdin halok.

(Manosi: so'z orqali o'lik kishiga ruh, tanadagi ruhga esa o'lim ham keltirish mumkin). So'z – ilmiy, badiiy adabiyotlarda til va nutq manosida ham qo'llanib keladi. Hozirgi kunda so'z va til o'zaro so'zlashuv uslubida, munosabatda, nutq esa ilmiy uslubda ko'proq qatnashadi. Nutq o'zaro muomala munosabatda "gapirish", "suhbatlashish", "so'zlashish" manolari bilan ifodalanadi. Shuning uchun "Gapirganda bilib gapir, tilingni (so'zingni) tiyib gapir", "Birov bilan so'zlashganda ehtiyot bo'l", "Suhbat odobing" kabi iboralar aslida nutq manosini anglatadi. Chunki nutq ikki yoki undan ortiq gapning mazmunan va grammatik jihatidan hosil bo'lgan fikrlar majmuasidir. Nutqning eng kichik birligi- gap. Ulug' alloma va shoirilar o'zaro munosabatda nutq go'zalligini nafaqat mazmunli gap tuza olish, balki uni odob, madaniyat, aql- zakovat bilan "bezab", bayon etishga davat etganlar. So'z sohibqironi Alisher Navoiy "Tiling birlan ko'nglingni bir tut" deb bejiz aytmaganlar. Chunki qalb –odamning botiniy ko'rinishi. Qalb birdaniga manan boyimaydi, u atrofda muhitni tahlil etish, uni ruhiy – hissiy anglash orqali yashnab boradi. Inson gapirayotganda uning aql – zakovati, odobi, muomalasi bilan birga qalbi ham namoyon bo'lib turadi. Yaxshi muomala ham kishilarga saxovat, yaxshilik ko'rsatishdir. Zero, Alisher Navoiy:

So'z dadur har yaxshilikki imkoni bor,
Mundin depturlarkim, nafasning joni bor

degarlarida ana shu ma'no yotadi. Bundan tashkari, xalkimizda "Yaxshining so'zi moy, yomonning so'zi -loy" "Yaxshi topib gapirar, yomon qopib gapirar", "Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar" kabi mahollarda ham yaxshi til, shirin muomala va manoga to'liq nutq ulug'langan. Biz ulug' ajdodlarning zanjiridagi bir bo'g'inli avlodimiz. Ularning urf-odatlar, an'analari, qadriyatlar bilan yo'g'rilgan shirin, latofatli, nazokatli tili-so'z boyliklarini ham keyingi avlodga eson-omon eltib topshiraylik! Xar bir so'z nutqimizda qo'llansa, o'z o'rmini topsagina, jon oladi. Tilimizdagi latif so'zlarimizning umriga zomin bo'lmaylik! Bu shafqatsizlik, ona tilimizga ajnabiy so'zlarni kiritib, meros so'zlarni anglamaslikdangina sodir bo'ladi. Biz nutqimizni qanchalik go'zallashtirsak, dilbar so'zlarni qo'llab, tinglovchi quloqlariga yetkazsak, bu bizning ulug' va buyuk o'zbek millatiga, xalqimiz, ona tilimizga e'tiqodimiz, ehtiromimiz va vatanparvarlik xislatimizdir. Bu esa har bir o'zbek kishisining o'zligi, millatparvarlik va milliy mentalitetidir.

Nutq etiketida shaxslarning munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Suhbatdoshlar o'zaro tanish - notanishligidan qaty nazar, odatda bir - biriga sermulozamat bo'lishga, izzat-ikrom, hurmat ko'rsatishga, bir-birlarining kayfiyatiga, ko'ngliga qarab gapirishga harakat qiladilar. Etiketda bunday vaziyatlarning barchasi hisobga olinishi va nazardan chetda qolmasligi zarur. Nutq etiketlarining asosiy ko'rinishlaridan biri - adabiy til madaniyatiga katta etibor berishdir. Suhbatdosh ko'ngliga nazokatli, yoqimli so'z topa olish muhimdir. Badiiy adabiyot namunalaridan malumki, hishloq odamlarining nutqi birmuncha sodda, zamonaviy nutq talablariga hamma vaqt ham to'liq javob beravermaydigan, shevachilik qusurlaridan butunlay qutula olmagan nutq sifatida namoyon bo'ladi. Buning aksi sifatida esa, shahar muomala etiketida esa boshqacha manzarani ko'ramiz. Shaharning tup aholisi yoki unda unda uzoq yashagan kishilarning, ziyolilari muomalalik, jamoaga, suhbatdoshning kayfiyatiga qarab muomalada bo'lish singari tahsinga loyiq holatlarini alohida qayd etish mumkin. Nutq vaziyatiga qadar suhbatdoshlar suhbat mavzusidan yoki unga aloqador ayrim malumot va dalillardan xabardor bo'lishlari mumkin va bu narsa ularni malum darajada muloqot jarayoniga tayyorlaydi. Ammo kutilgan natijalarni berishi yoki bermasligini shu nutqiy vaziyatning o'zi belgilaydi. Muloqot jarayoni etiketi quyidagi ko'rinishda bo'lishi lozim va u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

I. So'zlovchi faoliyatidagi bosqichlar:

1. Salomlashish va murojaat bosqichi .
 2. Tanishuv yoki ko'rishuv bosqichi .
 3. Daromad bosqichi
 4. Muddao bosqichi
 5. Xotima va xayrlashuv bosqichi
- II. Tinglovchi faoliyatidagi bosqichlar :
1. Tinglash bosqichi
 2. Munosabat bildirish.

So'zlovchi odatda tinglovchiga o'z fikrini maqullatish istagida bo'ladi, o'zi ko'proq gapirishga intiladi yoki shunday bo'layotganini sezmay qoladi. Bunday paytda esa tinglovchi -suhbatdoshga oson bo'lmaydi. Chunki tinglayotgan kishi ham so'zlayotgan kishining kayfiyati va istagida bo'lishi mumkin. Shuning uchun har qanday so'zlovchi tinglovchilarning murakab faoliyat turi -tinglash jarayonini chuqur hurmat qila bilishi va so'z tanlash qudratiga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, tinglovchi hamma narsani eshitavermaydi, o'ziga kerakli bo'lgan narsani eshitadi. Rivoyat qilishlaricha, ikki do'st yo'lda kelayotgan ekan. Yo'l juda ham gavjum va shovqin. Shunda ulardan biri: "Eshitganmisan, qanday yoqimli!" debdi. "Nimani?"- deb so'rabdi sherigi. "Chigirtga ovozi"- javob beribdi do'sti. Keyin bilsa, u zoolog ekan. "Menga qizig'i yo'q"- debdi sherigi. Shunda zoolog asfalt yo'lga tangani tashlab yuboribdi. Haligi sherigi "yalt" etib unga qarabdi. Shunda zoolog: "To'g'ri, biz o'zimiz istagan narsaning ovozi eshitamiz"-debdi.

Shunday qilib, nutq etiketi keng tushuncha bo'lib, uning uning asosiy belgi va sifatleri quyidagilar:

1. Nutqda samimiy bo'lishga intilish lozim.
2. Adabiy til me'yorlariga va so'zlovchi bilan so'z tanlashga qat'iy rioya qilish zarur.
3. Nutq etiketida shakl - xatti-harakat, tinglovchi vaziyati, sharoiti, jinsi, yoshi, vaqti va boshqa holatlar nazarda tutiladi.
4. Nutq etiketida tinglovchi dunyoqarashi, saviyasiga mos muomala jarayonini olib borish zarur.

Etiketning oltin qoidalar. Har bir bir madaniyatli kishi nafaqat etiketning asosiy shartlarini bilishi, balki o'zaro munosabat qoidalarining hayotiy ahamiyatini ham yaxshi anglashi lozim.

Butun jamiyat va uning har bir a'zosini hamisha har qanday vaziyatda hurmat qilish, o'zi bilan teng mavqeda ko'rish etiketning oltin qoidasidir.

Etiketning oltin qoidasidagi asosiy talablar quyidagilar:

1. Yaxshi xulq.

2. Jamoa joylarida o'zini tuta bilish.

3. Tashqi qiyofa.

4. Muomala madaniyati kabi tarkibiy qismlardan iborat.

Axloq nazariyasi, nutq odobi, ta'sirchan nutq, eng oliy insoniy muomala qoidalar, so'zlashish madaniyati, o'qituvchi nutqiga qo'yilgan talablar.

Muloqot- etiketning asosiy tarkibi. Muloqot-harakat, tuyg'u, fikr-mulohaza, ichki kechinmalarni o'zgalar bilan o'rtoqlashish. U shaxs fazilatlar, ichki "men"ning eng yaxshi qirralarini namoyon qiluvchi ijod shakli hamdir. Ammo etiket doirasidan chiqmay turib ham bema'lol axloqsizlik qilish, masalan, o'zgalar dilini og'ritish, ustidan kulish mumkin. Etiket insonning nafaqat tashqi, balki ichki qiyofasini ham o'ziga aks ettiradi.

Oltin qoidaning asosiy birinchi sharti yaxshi xulqdir. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam, g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligi va cheksiz mehnatsevarliklariga bog'liq ekanligini anglab etishishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir". Bu vazifalarni bajarish uchun ustoz va murabbiylar o'z mehnatlarini ayamassliklari kerak.

Insondagi shu tuyg'ulardan biri mehr. Shu oddiygina so'zda qancha-qancha ma'no bor. Uning mazmunini va mohiyatida oliyjanoblik, odamiylik va insonparvarlik, mardlik va saxovat kabi ulug' fazilatlar mujassamlangan. Mehr- kishi xulqining podshosi.

Xalqimizda "Yaratganga mehr qo'ya olmagan, boshqalarga mehr qo'ya olmaydi" degan naql mavjud. Haqiqatdan ham yaratganni tan olmay turib, ota-onamga mehrim baland deydiganlarga ishonib bo'lmaydi. Mehr-bu bamisoli quyosh. Uning buyuk nurlaridan har bir inson bahramand bo'lib kelmoqda. Olloh va uning Rasuliga mehr xususida islom ta'limotida ko'p yozilgan. Eng ulug' mehr ota-onaga bo'lgan mehrdir. Chunki inson bolasining qalbiga avval ota-onaga mehr uyg'otadi, hali tili chiqmay turib, Vatan tushunchasini anglamay ota-onaga mehr qo'yadi. uHech qanday moddiy boylikni mehr bilan almashtirib bo'lmaydi. Mehrga faqat mehr bilan javob berish mumkin. Odam hurmatini joyiga qo'yish, mehnatini e'zozlash- bu unga bo'lgan mehrdir. Ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan bu tuyg'uga amal qilmagan, bemehr bo'lgan kishilarga la'natlar o'qiladi. Shuning uchun ham xalqimiz orasida bir-birlarini yo'qlash, nochor

va nogiron oilalarga yordam berish eng qadimiy udumimizdir.

Nutq etiketining oltin qoidasining asosiy belgilaridan biri muomala-munosabatda so'z qudratini anglashdir. So'z-shirinsuxanlik, inson faoliyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki uning aql-idroki, fikr-tuyg'ulari, bilimi va madaniyati, saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Yaxshi so'z bilan kishilarning ishonchi, qalbini egallash mumkin.

Yaxshi so'z hayotning quroli bo'lib, unda olam-olam ma'no yotadi. So'z tilning tayanchi hamda go'zalligidir. So'z yuz , ko'z va tilning ko'rki hisoblanadi. "So'zning otasi aql, onasi til"-deyishadi keksalar. Muomala madaniyatida so'z- aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo'lsa ham suyakni tebratadi.

Odamning odobi dastavval uning tilida, keyin tili orqali bilimida ko'rinadi. Odob doirasidagi muomala etiketini o'zlashtirgan kishilarga farosatli, fahmli, odobli, aqli, es-hushli, madaniyatli deb baho beramiz.

Quroni Karimda insonning aytadigan so'zi, har bir xatti- harakatini, qiladigan ishini tartibga soluvchi qator hukmlar bor. Islom me'yori va mutanosiblikni mushtarak etuvchi manzuma sifatida insonning og'zidan chiqadigan har bir kalimani muayyan asoslar bilan iziga soladi.

Qur'oni Karimda : "U biron bir kalimani so'zlay boshlar ekan, yonida uning so'zlarini taftish qiluvchi nazoratchi turadi"- degan oyat mavjud. Oyatning mazmuni shundan iboratki, og'izdan chiqayotgan har qanday so'zlar odamlar orasida tezlik bilan o'z bahosini oladi.

Nutq etiketi oltin qoidalaridan yana biri - jamoat joylarida o'zini tuta bilishdir. Bu haqda ulug' shoir Navoiy zamondoshi XV-XVI asr manaviyatining yirik vakili Husayn Voiz Koshifiyning "**Futuvvatnomai Sultoniya yoxud javonmardlik tariqati**" asarining birinchi bobidagi "**Tariqat ahlining odobi**" deb nomlangan qism orqali dalillashni lozim topdik. Bunda, olim inson jamoat joylarida gapirish, muomalaga kirishish oldidan sakkiz narsaga alohida ahamiyat berish lozimligini uqtiradi: "Birinchidan, yolg'on gapirishdan, zero yolg'onchi xudoning dushmanidir. Ikkinchidan, va'daga xilof gapirish va munofiqona so'z aytishdan. Uchinchidan, g'iybat va bo'hton gaplardan saqlanish, chunki ular fosiqlar ishi sanaladi. To'rtinchidan, behuda bahsu munozaralardan, ayb qilish va gap tashishlardan ehtiyot bo'lish. Beshinchidan, o'zini maqtash va ta'riflashdan saqlanish, bu esa xudbinlikka olib keladi. Oltinchidan, ezmalikdan saqlanish. Ettinchidan, harg'ashdan, duoi bad qilishdan, chunki duo dilning ofatidir. Sakkizinchidan, mazax - masxara qilish va hazil - huzuldan ehtiyot bo'lish lozimligini uqtiradi.

Hozirgi davrda jamoa orasida o'zini tutish etiketi juda murakkab hodisadir. Ayniqsa, insoning oliymaqom fazilatlaridan biri tanishuvdir. Birgina tanishishning o'ziga xos etiketi mavjud. Masalan, mehmondorchilikda uy bekasi ayollarni, xo'jayini esa erkaklarni tanishtirishi lozim. Ko'chada, jamoat joylarida, transportda hamroxingizni uchratib qolgan odamlarga tanishtirib qo'yish shart emas. Ammo ular ko'proq suhbatlashsa, tanishtirish lozim.

Tanishishni xoxlamagan kishi bilan zinhor tanishishga harakat qilmaslik lozim.

Erkak kishi ayolga, kichik odamni yoshi kattaga, xodimni rahbarga tanishtirish kerak. Kishining yoshi va mavqesi alohida ustunlikka ega. Hamisha mavqe yoki katta odam birinchi tanishtiriladi.

Qo'l uzatish paytida biroz egilish yoki yengil tabassum qilish odat tusini olgan. Hissiz yuz ifodasi bilan quyuq ohangda "Bag'oyat mamnunman" yoki "Juda xursandman" deyish yaramaydi. Undan ko'ra, yangi tanishga u haqda avval eshitgani, nihoyat u bilan shaxsan tanishganlik sharofatiga ega ekanligini, xursand bo'lganini aytsa yanada go'zalroq bo'ladi.

Uchratganda so'rashish ham o'ziga xos etiketga ega. Uchrashganda so'rashish shaxsning muloyim va nazokatli munosabatlarining ilk namoyishi hisoblanadi. Suhbat chog'ida qo'lni cho'ntakka solib, qo'l siltab gapirish, yelka hisish, suhbatdoshga orqa o'girish, esnash, tez-tez soatiga qarash, gapni baland-qahqaha bilan tugatish etiketga xos bo'lmagan xususiyatlardir. Inson munosabatida etiketning oltin qoidalarini sifatida belgilanuvchi vositalardan biri- tashqi qiyofadir. Kiyinishning o'ziga xos tur va shakllari mavjud. Bunga xalharo o'lchovlar doirasidagi qat'iy an'anaviy bichimli kostyumlar kiradi. Ularning gazlamasi yuqori sifatli, rangi ham kishi kayfiyatiga mos bo'lishi shart. Poyafzal tanlovida ham shunga rioya qilinadi. Ko'zni hamashtiradigan har xil ranglardan imkon qadar qochish kerak. Lekin shaxs o'ta juratli bo'lsa, qip-qizil rangda ham kiyinishi mumkin sanaladi. Ana shu tarzda o'zaro munosabatda, etiketda insonning quyidagi tarziy munosabatlari muhim rol o'ynaydi: 1. **Holat.** Muloqot va suhbat O'zingizni erkin, shu bilan birga sipo, xushyor tutish lozim. O'zigizni o'ta erkin qo'yib yubarsangiz, sizni betartib yoki yengiltibat deb ham o'ylashlari mumkin.

2. **Nigoh.** Muloyim nazar bilan suhbatdoshingizga e'tibor bering. Zero, sizning jiddiy qiyofangiz suhbatdoshni noqulay ahvolga solib qo'ymasini.

Nutq etiketi oltin qoidalarining umumiy xususiyatini ifodalovchi belgi-xushmuomalalik hisoblanadi. Ayrim kishilardagi o'ziga xosliklar boshqa

shaxs bilan oson va yoqimli munosabatga kirishish, yoqimli bo'lish yoki odamni o'zidan uzoqlashtirishning asosiy sababi nimada?

Buning asosiy sababi, yuqorida takidlaganimizdek xushmuomalalik. Xushmuomalalik-atrofdagilar bilan so'zlovchini foydali va yoqimli shaxsga aylantiradi. U keskin vaziyatlarni yumshatadi, janjalning oldini oladi, o'zini tutishni o'rgatadi, hurmat va muxabbatga yo'l ochadi. Xushmuomalalikni o'rganish mumkin, ammo yurakdan chiquvchi tug'ma nazokat ham bor. Nazokat kishidan gap so'z va harakatlarni nazorat qilish asosida yuzaga keladi.

Nazokat koidalariga quyidagilar kiradi:

-shovqin solish, atrofdagilarga xalal berish va g'ashiga tegish;

-boshqa din, etiqod, millat yoki davlatni erga urish;

-birovni kamsitish, kamchilik va xatolari ustidan kulish;

-o'ziga uzatilgan qo'lni namoyishkorona olmaslik;

-hamsuhbatining yaqin kishisi haqida mensimay gapirish va boshqa holatlar.

Ayniqsa, o'qituvchi shaxsida bu oltin qoidalar juda katta o'rin tutadi. O'qituvchidan tashqi qiyofa oq ko'lak, dazmollangan kostyum - shim, bo'yinbog', papka, do'ppi yoki kitoblardan tashqari, o'zaro muomala-munosabat ham katta o'rin egallaydi. Uning tabiatida yuqoridagi xususiyatlar o'z ifodasini topgan va tashqi qiyofada, nutqda doimiy aks etib turishi zarur. O'qituvchi shaxsida quyidagi xususiyatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak:

1.O'z fanini sevishi, talabalar bilan samimiy mehr - muhabbatli muomala va munosabatda bo'lishi lozim.

2.O'qituvchi - xalq manaviyati va madaniyatining ko'zgusi sifatida namoyon bo'lishi. U o'z davri va zamonining ijtimoiy o'zgarishlari, shuningdek, global axborot yangiliklaridan xabardor ekanligini ko'rsata olishi zarur.

3.O'qituvchining asosiy quroli kitobdir. U o'z faniga doir va ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy va adabiy -badiiy mavzudagi yangi nashr etilgan kitoblardan xabardor bo'lishi shart.

4.Darsga doimiy tarzda tayyorgarlik bilan kirishi, dars mavzusini aniqlab, unga mos materiallarni tartibga keltirib, uni reja asosida bayon etishga o'rganishdan iboratdir.

O'qituvchining jamoat joylarida va dars jarayonidagi etiketi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoat joylarida, asosan, kiyinish, o'zini tuta bilish, tartibga keltirish, bo'yinbog'i, ayollarda esa soch turmagini to'g'rilash muhimdir. Bundan tashqari, soch tarash va hurpaytirish.

jimjiloqda tish tozalash, norozilikni qo'pol, tahqiromuz so'zlar bilan bildirish, shu kabi xunuk odatlardan o'zini yiroq tutish o'qituvchi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Dars jarayonida esa quyidagi xatti-harakatlardan xoli bo'lishi zarur. So'zlashuv yoki suhbat paytida quyidagi kamchilik va nuqsonlarga yo'l qo'ymaslik zarur : qo'lni cho'ntakka solib, ortga qilib, shuningdek, ko'krakda chalishtirib turish yoki o'tirish;

- qo'l siltab gapirish;
- inkor manosida bosh siltash ;
- nutqni turli imo - ishoralar bilan bezash;
- barmoq bilan stolni chertish, uzuk marjon yoki sumka bog'ichini o'ynash;
- suhbatdoshga teginish;
- suhbatdoshga orqa o'girish;
- esnash, tez-tez soatga qarash;
- gapni baland ovozda gapirish, shu kabi holatlar etiketni buzuvchi omillardir.

Hayotda, ayniqsa, o'zaro muloqotda, suhbat odobida buyuk notiqlik Husayn Voiz Koshifiy quyidagilarni alohida etiborga olish lozimligini uqtiradi:

1. Har kimning ahvoliga qarab munosib so'z aytsin.
 2. Dag'allik qilmasdan, nutq va muloyimlik bilan gapirsin.
 3. Gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin.
 4. Ovozni baland ko'tarmasin, eshituvchilarga malol keladigan qilib gapirmasin.
 5. Odamlarga nafi tegadigan ma'noli gaplarni gapirsin.
 6. Agar so'zning qimmatini -qadri bo'lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug'larning so'zi bamisoli urug'dir, agar urug' puch yoki chirigan bo'lsa, uni qayerda ekmang, unib chiqmaydi.
- Xullas, etiketning oltin qoidalarini chin dildan egallagan, unga har qadamda rioya etgan kishigina, hayotda ulkan muvaffaqiyatni qo'lga kiritadi va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi. Zero, bundan biz tilga olgan 4 fazilat: yaxshi xulq, jamoa joylarida o'zini tuta bilish, tashqi qiyofa va muomala madaniyatidagi talablar muhim vosita sanaladi. Xususan, o'qituvchi faoliyatida esa, bu omillar juda muhim bo'lib hisoblanadi.
1. Nutq etiketi – o'qituvchining dars va jamoa orasida o'zini tuta bilish, yuksak tashqi qiyofaga ega bo'lish va xushmuomalalik madaniyatiga qat'iy rioya qilish rasm – rusumidir.
 2. O'qituvchi nutq etiketi –uning jamiyatda o'z o'rnini belgilovchi, xalq

milliy etikasi, axloq -odob me'yorlariga qay darajada rioya qilishi bilan o'lchanadi.

3. O'qituvchi nutq etiketi- zamonaviy urf –odat va qoidalariga qat'iy amal qilishi asosida ro'yobga chiqadigan yuksak madaniyatli shaxs namunasidir.

4. O'qituvchi etiketining oltin qoidasi- yaxshi xulq, tashqi qiyofa, jamoa orasida o'zini tuta bilishi va muomala madaniyatining yuksak darajasidan iborat.

5. O'qituvchi nutq etiketiga qat'iy rioya qilish – mustahkam masuliyat va jamiyat shaxsi, atrofdagilar bilan astoydil munosabatni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ommaviy omil hamda vosita, urf – odatning yangi bosqichi bo'lib hisoblanadi.

O'qituvchi faoliyatining asosini dars mashg'uloti tashkil etadi. Dars – o'qituvchining aql – idroki, dunyoqarashi, tafakkuri va estetik dunyosining mahsuli sifatida amalga oshiriladi. O'qituvchi va talabaning eng masuliyatli, mehnati va izlanuvchanligi jarayonida kechadi. Hech bir dars hayotdan uzilgan, rejasiz, mavzusiz va quruq, siyqasi chiqqan fikrlar asosida qurilmasligi kerak. Garchi o'qituvchi qaysi darsga loqaysizlik qilsa, uning masuliyati va saviyasini tushirib yuborsa, talabalarning nafaqat darsga, balki shu fanga qiziqishlari yo'qoladi.

Ana shu nuqtai nazardan o'qituvchi dars jarayonidagi nutq madaniyatining asosiy qismi bo'lgan nutq etiketi ham juda katta o'rin egallaydi. Nutq etiketining asosida ham, eng avvalo, adabiy tilni bilish, adabiy tilda muomala munosabatda bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq etiketining xatti-harakat va fikrning uyg'unlashuvi asosida darsni tashkil etishga erishish lozim. YUqorida takidlaganimizdek, o'qituvchi faoliyatining zamirida ham, eng avvalo, yuksak xulq va madaniyat yotadi. Har bir talaba shaxsini hurmat qilish, u bilan samimiy munosabatda bo'lish muomala etiketining asosiy qismi sanaladi. Buning uchun esa talabaga nisbatan cheksiz mehr –muxabbat tuyg'usi shakllangan bo'lishi dardkor, chunki uning butun bilimi, his –tuyg'usi va tuzgan loiyihasi mazmuni talaba shaxsiga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun xar yangi, mazmunli fikr va qarash talabaning diqqati, e'tiborini tortishining asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, xar bir darsni tashkil etish o'ziga xos uslubdir. To'g'ri, darsda ilmiy uslub ustunlik qiladi. Lekin, ilmiy uslubning ham aniq vosita va xususiyatlari mavjud. Muayan ma'lumotlarni ketma –ket keltirish bilan uslub yaratilmaydi.

Buning uchun quyidagi xususiyatlardan samarali foydalanish ahamiyatlidir:

Nutqiy aniqlik. Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab etadi. Shuning uchun bu uslubda soʻzlarni asosan bir uslubda qoʻllash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyati birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash yoki neytral variantini tanlay olish malakasiga ega boʻlish lozim. Masalan: soʻz birikmasi va sintagma soʻzlarining bir –biridan farqini tushuntirishda, ona tili darsida quyidagicha aniqlikka erishish darkor: soʻz birikmasi ikki yoki undan ortiq soʻzning oʻzaro tobe –hokim munosabatidan tuziladi: Kitob varagʻi, odamning yaxshisi. Sintagma esa tobe hokim munosabati yoʻq ikki soʻzning bogʻlanishi asosida gap ichidagi toʻxtam asosida yuzaga keladi. Masalan: Men doʻstim bilan dars tayyorlash uchun kutubxonaga bordim. Gapda 3 ta sintagma mavjudki, u bir soʻzdan ham , ikki yoki undan ortiq mustaqil yoki yordamchi soʻzlar birikmasi bilan ham xosil boʻladi.

Nutq obyektivligi. Til materiali yoki aytilayotgan fikrning xaqqoniyligi, ishonchiligi va aniqililigi koʻrsatish uchun xizmat qilishi lozim . Xususan, ona tili va oʻqish darslarida oʻquvchilar muayyan soʻzning yozilishida xatoliklarga yoʻl qoʻyadilar. Masalan : oʻquv, masʼul, tafsilot soʻzlarini notoʻgʻri yozganda “Oʻzbek tili imlo lugʻati”kitobidan toʻgʻri yozishga, shuningdek, tayanch manbalardan foydalanishga oʻrgatish ham oʻqituvchining dars jarayonidagi goʻzal etiketlaridan sanaladi. Shu birgina etiket hamtalabalarda bilim oshishining obektivligini namoyon eta oladi.

3. **Mantiqiy izchillik.** Ilmiy bayon uslubining oʻziga xos xususiyatlaridan biri mantiqiy izchillikdir. Matnda soʻzlar, gaplar, xat boshi(abzate)lar oʻzaro mantiqiy bogʻlangan boʻlishi zarur. Shuning uchun ham ilmiy matnlarda bu izchillikni keltirish uchun maʼlumki, taʼkidlash lozimki, dar haqiqat, birinchidan, ikkinchidan, xulosa qilganimizda, koʻrinadiki, xulosa qilib aytganda kabi kirish soʻz, soʻz va birikmalar qoʻllanadi .

Hishalik. Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyat. Shuning uchun tilning tasviriy ifodalaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida boʻlib, asosan, sodda yoyiq xolatda boʻladi. Ilmiy uslubda qoʻshma gaplardan koʻp foydalaniladi, sodda gaplarni bir-biriga bogʻlash uchun bogʻlovchilar koʻp qoʻllaniladi. Oʻqituvchi dars jarayonida nafaqat ilmiy uslubdan, balki boshqa uslublarning ham oʻziga xosligini bilishi zarur. Oʻqituvchi, eng avvalo dars loyihasi ichida matnni yarata olish va uni reja asosida yoritish malakasini egallab olishi zarur. Har qanday oʻtilgan dars matni oʻqituvchi tomonidan mustaqil tayorlanmagan koʻrinishi uning natijali yakunlanishiga olib kelmaydi.

Matn – biror-bir muallif (Oʻqituvchi –S. a) ga tegishli boʻlgan, maʼlum

fikrlar majmuasi hisoblangan nutq, qoʻlyozma yoki nashrdan chiqqan asar tushuniladi. Ammo har qanday qoʻlyozmani ham matn deyish toʻgʻri emas. Matn boʻlishi uchun u hajmidan qatʼiy nazar, asar hisoblanishi va mazmunga ega boʻlishi zarur.

Matnni tahrir qilmoqchi boʻlgan kishi dastlab u bilan yaxshi tanish boʻlishi, toʻligʻicha oʻqib chiqishi, masalaning mohiyatini tushunib olishi zarur. Demak, har bir dars loyihasi ham soʻzlarning imlosi, fikr izchilligi, uslubiy kamchiliklardan xoli boʻlishi lozim.

Oʻqituvchi nutq etiketiga xos koʻrinishlaridan biri, oʻzi bayon etgan fikrdagi atama yoki ilmiy soʻzlarning manosini aniq ifodalashi, agar manosini anglash qiyin boʻlsa, unga izoh berib oʻtishi zarur. Shuning uchun ham ayrim atamalar tilimizda muqobil tarzda qoʻllanib kelinmoqda. Masalan:affiks-qoʻshimcha, anafora- misra boshidagi tovush takrori, epitet - sifatlash, antroponimlar – kishi ismlari, toponimlar – joy nomlari va hokazo.

Oʻqituvchining dars jarayonidagi asosiy quroli -soʻz.

Umumiy va keng manoda qaraganda oʻzbek tili sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, biz tom manoda bozor iqtisodiyotiga qadam qoʻymoqdamiz. Agar oʻtmishga nazar solsak, eng qadimiy davlatlardan hisoblangan Gretsiyada notiqlik sanatining rivojlanishida savdo ham muhim ahamiyat kasb etganligini koʻramiz. Bunday qiyosdan asosiy maqsad va mohiyat shuki, oʻqituvchi ham oʻz nutqi orqali zarur fikr va mulohazasi, dunyoqarashini kapital sifatida xaridor yoki isteʼmolchi(a. tinglovchi)ga sotadi. Lekin bu savdo juda yuksak madaniyat, salohiyat va nafosatga ega boʻlishi lozim. Bunday sharoitda shoir A. Oripov aytganidek, har kim oʻz molini maqtaydi.

Bozorga oʻxshaydi asli bu dunyo,

Bozorga oʻxshaydi bunda ham mani.

Ikkisi ichra ham koʻrmadim, ammo

Molim yomon degan biror kimsani.

Shunday qilib, oʻqituvchi nutq etiketi keng tushuncha boʻlib, u quyidagi sifatlarni oʻzida aks ettiradi:

1. Oʻqituvchi nutqi –dars jarayonida juda katta masuliyat talab etadi.
2. Oʻqituvchi nutqida toʻgʻrilik, aniqlik, mantiqiylik, tasirchanlik, ifodalilik kabi kommunikativ sifatlari oʻz ifodasini topmogʻi lozim.
3. Oʻqituvchi nutqi – tinglovchiga berilayotgan ehtiyoj namunasidir.

4.4. O'qituvchi nutqi ifodaviyligi grammatik jihatidan to'g'ri bo'lishi

Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz.

A.Navoiy

Tayanch iboralar: *Nutq ifodaviyligi, nutq to'g'riligi, nutq mantiqiyiligi, nutq ta'sirchanligi, metonimya, o'xshatish, mubolag'a, litota, sifatlash*

Nutq ifodaviyligi deb, nutqning barcha sifatlari: to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, tozalikni o'zida ifodalagan, shu asosda nutqning tinglovchi ongi va ruhiyatiga his-tuyg'u uyg'ota oladigan nutqqa aytiladi. Ulug' alloma Zamaxshariy shunday degan edi: "Tilingdan chiqqan sadaqa (ya'ni pandu nasihatining va ma'vizayu hasanang) ba'zan qo'lingdan (mol-dunyongdan) chiqqan sadaqangdan ko'ra xayrliroqdir"³. Demak, tinglovchiga tasir ko'rsatib, unga voqelik, hodisa va ijtimoiy hayot xususida qiziqish uyg'otsa, ular haqida aniq bir manfaat keltira olsagina, nutqning ushbu sifati ro'yobga chiqqan sanaladi. Nutq jarayonida tinglovchida shodlik, o'ychanlik, iztirob, taajjub, o'kinish, g'azab, nafrat kabi hissiyotlarning hosil bo'lishi nutq tasirchanligining belgisidir.

Nutq tasirchanligi tinglovchida taassurot uyg'otish, eng avvalo, notiqning nutqiy jarayonida tinglovchi bilan bo'lgan axloqiy sifatlari muhim o'rin tutadi. Ular notiqning o'zini qanday tuta bilishi, nutq bayon etish ovozinining samimiyligi, xushmuomalaligi, kamtarinligi va xatti - harakatlarining nutq mazmuni va mavzusiga mosligi bilan o'lchanadi. Bundan tashqari, notiqning mavzu doirasida his-hayajonga berilib ketmasligi, shoshilmaslik, aniq fikrni bayon etishi, hishalikka erisha olishi, muhim fikrni nomuhim fikrdan farqlay olishi, mavqe va yoshni, dunyoqarashini hisobga olishi, o'z shaxsini ustun qo'ymaslik kabi fazilatlariga ega bo'lishi zarur. Shuning uchun ham nutq vaziyatida uning tabiatidagi o'zligi namoyon bo'lib turadi. Bunga, ayniqsa, nutq ovozi muhim o'rin tutadi. So'zlarni aniq, ravshan, muayyan, yoqimli, mayin ovozda vazminlik bilan hovliqmasdan talaffuz qilib, fikrni yorqin ifoda eta olishi so'zlovchini maqsadga tez va oson yetaklay oladi.

Nutq ta'sirchanligi nutq odobi bilan o'lchanadi. Qaerda nima haqda gapirish lozimligini aniq belgilay olish ham nutq sifatiining asosiy vazifalaridan biridir. Masalan, nutq irod qilinayotgan joydagi kishilarning

³Zamaxshariy "Nozik iboralar" (-U. Uvatov tarjimasi)T. "Fan", 57-bet.
156

kayfiyatini bilish, to'yda o'lim va azadan gapirish, azada ham to'yi-yu, tantana haqida gapirish, majlisdagi o'zaro so'zlashuv uslubida munosabat qilish, oilada rasmiy ohangda so'zlashish, dars jarayonida ham ko'cha nutqidagi foydalanish nutq odobi va madaniyatining buzilishiga olib keladi. Nutq odobi, asosan, xalqimizning milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlariga qat'iy rioya qilingandagina yanada ko'rkamroq tus oladi.

Nutq ta'siriga erishmaslik, gapirayotganda tilga e'tiborsizlik qilish, erk berish, juda ko'p zulm, oqibatsizlikka olib kelishi xususida ulug' allomalarimiz necha asrlar oldin o'z qarashlarini bayon etganlar. Xususan: M. Qoshg'ariy "Devon lug'otit turk" asarida nutq odobi haqida:

Ko'p sukutda qush qo'nar,

Ko'rklik kishiga so'z kelar

(mazmuni: shoxi ko'p daraxtga qush qo'nadi, yaxshi kishiga so'z (maqtab) keladi) Yana: "Ardam boshi til-odob va fazilatlarining boshi tildir" deyiladi.

Nutq odobsizligiga yo'l qo'yg'an so'zlovchilar haqida ulug' alloma Yusuf Xos Xojib esa "Qutadg'u bilig" asarida:

Til arslon turur, ko'r eshikda yotur

Oyo avluk arsiq, boshingni eyur.

Ma'nosi: (Til arslondir, hara u doimo (seni) eshikda poylab yotadi. Ey mag'rur uy xo'jasi (ya'ni, til egasi), hushyor bo'lk, agar tilingga ortiqcha erkinlik bersang -uylamasdan so'zlasang, -u bir kun emas, bir kun (o'z boshingni) yeydi.²

Nutqda so'z va qo'shimchalarni tejab foydalanish ham nafaqat uning mantiqiyiligi, balki ta'sirchanligini oshiradi, grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan sanaladi.Gapda so'zlarni til vositalari bilan ma'no jinatdan aniq va to'g'ri bog'lay olishga grammatik shakllantirish deyiladi.

Nutqda tinglovchining lug'aviy so'z yoki birikma, fonetik vosita, so'z tartibi, mantiqan ayonligi jihatidan tejamkorlikka erishishi uning sifatiini oshiradi. Masalan: -lar qo'shimchasini tejab qo'llashning tejamkorligi xususida tilshunos olim G'.Zikrillayev shunday fikrni ifoda etadi: "Gapda bosh bo'lakdan bittasidagi qo'shimcha (-lar) yetarli bo'ladi. : "Talabalar to'plandi. Bu misolda ot (ega) dagi -lar ko'plikni bildiradi, fe'l-kesimdagi qo'shimcha (-di) bu ma'noga betaraf. (-lar qo'shimchasini olishiga hojatsiz-S. a). Olma ter deganda esa faqat son emas, shaxs, mayl, zamon hurmatga betaraflik, o'timlilik fe'l o'zagidan anglashilib sintaktik aloqa tartib yordamida amalga oshadi". Nutqdagi bunday tejamkorlik grammatik ma'no jihatidan ifodalanishiga juda ko'p misollar orqali dalillanadi⁴.

⁴Qarang: Zikrillayev F. "Istiqloq va ona tili". T. "Fan" 2004, 44-bet.

Tinglovchi ongiga shuur bera olgan nutq ta'sirchan bo'la oladi. Buning uchun notiq suhbat mavzusini yaxshi his qilib, uni bayon etish rejasini aniq belgilamog'i shart. Nutqdagi fikrlarning eng muhimlarini ajrata olishi, asosiy fikr, uni dalillovchi fikrlarni farqlay olish, ularni o'zaro bog'lab, tinglovchiga nutqning bosh maqsadini tushuntirib, shundan keyingina birin-ketinlik bilan bayon etishi lozim. Shuning uchun ham xalq tomonidan yaratilgan "Avval o'yla, keyin so'yla", "Etti o'lchab bir kes", "Yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z bosh qozi", "Yaxshi topib gapirar, yomon qopib gapirar" kabi mahollar ham bevosita nutq odobini yuzaga chiqarishga qaratilgan tajriba asosida paydo bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Nutq ta'sirchanligini ta'minlovchi vositalardan biri **sinonim** so'zlardir. Sinonim so'zlar so'zlovchi nutqini bir xil bayondan xalos etib, fikrining rang-barangligi, yoqimlilik, ta'sirchanligini yuzaga keltirib, tinglovchining diqqatini oshiradi. Masalan, sinonimik qatordagi so'zlar nutqda ma'nosi jihatidan nozik farqlanadi. M: tug'ildi, dunyoga keldi, tavallud topdi, ko'z ochdi, yangi farzand tug'ildi. Uning dunyoga kelishi ota-onaga cheksiz shodlik keltiradi. Bahorda tavallud topgan bola tez ulg'aya boshladi. Gaplardagi hamma o'rinda tug'ilmoq so'zi qo'llansa, fikrning sayozligi, yoqimsizligi oydinlashib qoladi. Yoki: o'lmoq, vafot etmoq, yulduzi so'nmoq, dunyodan o'tmoq so'zlari ham evfemizm – (o'zaro hurmat, e'zoz, takalluf qilib gapirish) jihatidan turlicha qo'llaniladi. Oddiy munosabatda "Faloncha o'ldi" deyiladi. Hurmat, e'zoz jihatidan esa: "olamdan o'tdi, qazo qildi, yulduzi so'ndi kabi iboralar qo'llaniladi. Nutq ta'sirchanligiga erishishda uning ifodaliligi alohida o'rin tutadi. Ifodalilik ham nutqning muhim sifatlaridan biri bo'lib, u ham ta'sirchanlik uchun xizmat qiladi.

Ifodalilik fikrni badiiy tasviriy vositalari orqali tinglovchiga yyetkazish, shu bilan birga nutqda ritm, ohang, sur'at, to'xtam va inversiya kabi xususiyatlarga to'g'ri, aniq erisha olish anglashiladi. Bu nutq sifati va vaziyatlari ko'pincha og'zaki nutqqa xos bo'lib, nutq ta'sirchanligini yuzaga chiqaruvchi vositalar sanaladi. Nutqda ko'p qo'llaniladigan tasviriy vositalardan biri jonlantirishdir. Unda insonga va jonli mavjudotga xos bo'lgan belgi, xatti-harakatning tabiat hodisalari, narsalar va tushunchalarga ko'chirilishi tushuniladi.

M: A. Oripovning "Munojotni tinglab" she'rida:

Qani ayt, maqsading nimadir sening,

Nega tilkalaysan, bag'rimni ohang.

Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim,

Nechun kerak rubob, senga shuncha g'am.

misralarida ohang, rubob jonlantirilib, odamga xos xususiyatlar

(tilkalash, rubob (u-jonsiz cho'pdan iborat musiqa asbobi)ga ko'chirilgan. Nutqda jonlantirish ko'p uchraydi: quyosh ufqdan bosh ko'tardi. Zarrin nurlarini har tomonlama yoydi. To'satdan paydo bo'lgan bulut qovog'ini o'yib oldi.

Nutqda keng qo'llaniladigan badiiy tasviriy vositalardan biri – **o'xshatishdir**. O'xshatish badiiy adabiyotda tashbeh deyiladi. Nutqda o'xshatishlar "dek", "day", "simon" qo'shimchalari, "misoli" "xuddi", "go'yo", "monand", "singari", "kabi", "yanglig'" so'zlari bilan hosil qilinadi. M: "Qushday yengil bo'ling!", "Alpomishdek paxlavon bo'lsin!", "Gavhar misoli aziz". "Paxlavonlar kabi maydonga tushdi", "Arslon yanglig' tashlandi" gaplari o'xshatish asosidagi fikrlar.

Jonlantirish va o'xshatish nutqda fikrni hissiy ifoda etish uchun xizmat qiladi. Voqea-hodisani tinglovchi ko'z oldida aniq namoyon etadi.

Ana shunday badiiy tasviriy vositalardan biri **majozdir**. Tasvirlanayotgan hodisa, narsa-buyumlarni qalbimizga, ongimizdagi belgilar bilan yaxlit, bir butun kuch ma'noda ifodalashga majoz deyiladi. Masalan: Toshayrak odam- rahm-shafqatsiz, po'lat irodali-kuchli, zabardast, tulki odam-ayyor, makrli va hokazo.

Nutqda va badiiy adabiyotda fikrning mazmundorligi, shaklning ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini tasvirlashda majoz juda ko'p qo'llanadi. M: "Mirzakarimboy-ilonning yog'ini yalagan odam". (Oybek "Qutlug' qon") YOzuVchi Mirzakarimboy obrazini nihoyatda ayyor, hiylagar, shafqatsizligini bir ibora bilan ifodalay olgan.

Majozning turlari ko'p. Ularga metafora (istiora) shakli tilimizda ko'p qo'llaniladi. Ikki narsa-hodisaning o'xshashligiga asoslangan majozga metafora yoki istiora deyiladi.

Metafora yopiq o'xshatish sanaladi. Oddiy o'xshatishda bir narsa-hodisa ikkinchisiga oshkora, oydin qiyos etiladi. Metaforada esa birinchi narsaning nomi-ikkinchi narsa-hodisa nomi bilan aytiladi.

Arzi ruxsor et bu kun, moh, gul o'lsun ko'kda kun

O'ylarkim, anjum o'lur, kun arzi ruxsor aylagach.

Bu baytda yor o'ya qiyos etilyapti. Ko'rinayaptiki, mumtoz she'riyatimizda ma'shuqa-oy, oftob, gul, shamshod ohu, sarv kabi narsalarga o'xshatilib, bevosita unga murojaat etiladi. Bunday o'xshatishlar istioraning go'zal namunalarini hisoblanadi. Istiora o'xshatishdan bevosita yashirin, hishargan shaklda kelishi bilan farq qiladi. Masalan, nutqqa onaning o'z farzandiga "Arslonim" deb murojaat qilsa, istiora sanaladi. U arslon yigit deb nisbat berilsa, unda o'xshatish sanaladi.

"Agar mug'ombir kishini "tulki sifat kishi" deyilsa o'xshatish, agar

badiiy aniqlovchi **sifatlash** deyiladi. Ayniqsa, nutq jarayonida sifatlashlar ko'p uchraydi. Masalan: Qora kun, baxtli inson, oltin qo'l, temir irodali odam, so'zamol kampir, ishyoqmas yigit, ko'ngli oq inson, oltin vodiy, serunum tuproq va hokazolar. Sifatlash doim biror shaxs, predmet yoki voqea-hodisa oldidan kelib, uning xususiyati, xarakteri, belgisini ifoda etadi. Sifatlash nutq jarayonida tinglovchining shaxs yoki predmet xususiyatini aniq tasavvurga ega bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Nutq jarayonida va badiiy adabiyotda qo'llaniladigan badiiy tasviriy vositalardan biri - **kinoyadir**. Kinoya tashqi nutq tomonidan uncha aniq namoyon bo'lmaydi, balki chuqurroq o'ylab haralganda, unda ifodalanayotgan so'z, ibora tinglovchida "ikkinchi" fikrni yuzaga keltiradi. Talmovsirab, bilib turib bilmaslikka olish, mazax va kalaka qilish kabi holatlarni ifodalaydi. Satira (achchiq kulgi) yoki yumor (yengil kulgi) ni paydo qiladi. Masalan: og'ir o'lim to'shagida yotgan chol kampiriga debdi:

-Men o'lganimdan keyin, u vabo kasali bilan o'ldi, deb aytinglar.

-Nimaga... - hayron bo'lib so'rabdi kampir.

-Chunki vabo yuqumli kasal... Senga hech kim yaqinlashmaydi - javob beribdi chol.

Kinoya'ning kesatq, zil ketkizish, qochirim kabi turlari bo'lib, u nutqqa ko'p qo'llanadi. Maslan, qochirim shakliga quyidagi voqea misol bo'la oladi:

- San ajoyib yigitsan, doim mehribonsan, - dedi Ahmad do'stim.

- Buni qachon sezding, do'stim...

- Uxlagan paytimda... - deb javob berdi do'sti. (Yumordan)

Bundan tashqari, kinoyada mensimaslik, birovning ustidan achchiq kulish (satira) sezilib turadi. Ayniqsa, A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida Qobil bobo ho'kizini o'g'irlatgach, Amin oldiga borganda, ularning dialogidan Aminning Qobil boboga nisbatan nopisandligini uning kinoyasi orqali sezish mumkin:

- Bisotimga hech narsa yo'q...

- O'zi qaytib kelmasmikan?... Birov olib ketsa qaytib kelaver deb qo'yilmagan ekan-da! Necha yig'lanadi? A? Yig'lanmasin.

Shunday qilib, nutq jarayonida fikrni ifodalash uchun juda ko'p badiiy ifodaviy tasvir vositalari mavjudki, ular nutqni tinglovchiga oson, yengil, rang-barang, yoqimli va ta'sirchan yetkazish uchun qo'llaniladi. Bu esa so'zlovchining nutq jarayonida ulardan qanchalik darajada unumli foydalanishga bog'liqdir.

Bob yuzasidan bilim natijasini aniqlash uchun savollar.

1. Fanning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Fan predmeti deganda nimani tushunasiz?
3. Fan qaysi fanlar bilan o'zaro aloqador?
4. Til madaniyati deganda nimani tushunasiz?
5. Nutq madaniyati -chi?
6. Nutq madaniyatini egallash uchun qanday vazifalarni bajarish lozim?
7. Nutq ta'sirchanligi deb nima uchun aytiladi?
8. Ta'sirchan nutq deb nimaga aytiladi?
9. Nutq ta'sirchanligini taminlovchi vositalarni ayting?
10. Tasviriy ifodalarni sanang.
11. Sinonimlar nima?
12. O'xshatish nima?
13. Mubolag'a deb nima uchun aytiladi?
14. Kinoyaga misol keltira olasizmi?

Bob yuzasidan test savollari:

1. "Nutq" so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- a) arabcha so'z bo'lib, fikrni so'z orqali ifodalash qobiliyati va mahorati;
- b) grekcha so'z bo'lib, biror san'at asarining biror ijodkor, davr, millatning o'ziga xos belgilari yig'indisi;
- c) arabcha so'z bo'lib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlari majmui;
- d) fikr ifodalashda o'zaro aloqa jarayonida yuzaga keladigan ibora, gap, so'z,

2. Nutq madaniyati nima?

- a) tildagi so'z boyligi nutq..
- b) tildagi imkoniyatlardan keng foydalana olish;
- c) tilning ifodaliligi;
- d) mahollardan foydalanish.

3. Nutq madaniyati fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) informatika, ximiya, fizika, biologiya;
- b) jug'rofiya, tabiatshunoslik, odobnoma;
- c) tilshunoslik, uslub-tunoslik, adabiyot, adabiyotnazariyasi, mantiq, psixologiya, pedagogika;
- d) zoologiya, falsafa, tarix.

4. Nutq madaniyati fanining tekshirish obyekti

- a) nutqning til qurilishi, adabiy til me'yorlari va nutqning kommunikativ aloqa uchun kerakli fazilatlarini tekshiradi;
- b) adabiy me'yordagi ikkilanishlarni bartaraf etadi;
- c) nutqning til qurilishi, uslublari, nutqiy asar ko'rinishlarini o'rganadi;
- d) tildagi imkoniyatlardan foydalana olish mumkin emasligini o'rgatadi.

5. "O'qituvchi nutq madaniyati" fanining asosiy maqsadi nima?

- a) tilni rivojlantirish;
- b) nutq madaniyati va malakasini rivojlantirish;
- c) nutq tarixi haqida ma'lumot berish;
- d) notiqlik san'atini shakllantirish.

6. "O'qituvchi nutq madaniyati" fanininga sosiy vazifasi nimadan iborat?

- a) adabiy til me'yorlari, uning tarixiyli, taraqqiy etib borishi, undagi ba'zi unsurlarni eskirishi, yangi me'yorlarning paydo bo'lishini kuzatadi;
- b) nutqning til qurilishi, adabiy til me'yorlarini egallashga da'vat etadi;
- c) adabiy til me'yordagi ikkilanishlarni bartaraf etadi;
- d) nutqning kommunikativ sifatlari haqida ma'lumot berish fanning vazifalariga kirmaydi.

7. Til madaniyati nima?

- a) tildagi iboralarining ko'pligi;
- b) tildagi sinonim, omonim, ko'chma ma'nodagi so'zlar;
- c) ko'p ma'nolilik;
- d) til vositalaridan o'rinli foydalanish.

8. Nutq madaniyati nima?

- a) tildagi so'z boyligi;
- b) tildagi imkoniyatlardan keng foydalana olish;
- c) tilning ifodaliligi;
- d) mahollardan foydalanish.

9. "Qozon" so'zi nutqda to'g'ri qo'llangan qatorni toping:

- a) qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi;
- b) u Kazanga jo'nab ketdi;
- c) bir qazon ovqatni paqqos tushirdi;
- d) Qozangap Edigeyning do'sti edi.

10. Adabiy til me'yoriga mos qatorni toping

- a) bu ishga hamma mahsul edi;
- b) bu ishga hama ma'sul edi;
- c) bu ishga hamma mas'ul edi;

- d) ishga hamma mahsuldor edi.

11. Uslubiy jihatdan xato fikrni toping:

- a) veterinar bo'g'oz mollarni ko'zdan kechirdi;
- b) bo'g'oz xotinlar nazoratdan o'tkaziladi;
- c) homilador ayollarga shifokor maslahat berdi;
- d) u Fors bo'g'ozida joylashgan.

12. Grammatik me'yorga rioya qilingan qatorni toping:

- a) meni kitobim uyda qolibdi;
- b) menim kitobim esimdan ko'tarilibdi;
- c) mening kitobim uyda qolibdi;
- d) mening kitobim uyda qolibti.

13. Tushum kelishigi belgisiz qo'llangan qatorni toping:

- a) cho'l havosi dillarga huzur baxsh etdi;
- b) ular olma daraxti tagida o'tirishdi;
- c) kitob o'qishni bir dam ham unutmang;
- d) bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi.

14. Kitobni o'qiganlik haqidagi fikr qaysi qatorda ifodalangan?

- a) men bu kitobni o'qidim;
- b) bu kitobni men o'qidim;
- c) o'qidim men bu kitobni;
- d) men kitobni bunda o'qidim.

15. "Katta boshimni kichik qilib yoningizga keldim"—degan ibora qaysi paytda to'g'ri sanaladi?

- a) talabaning domla oldidagi iltimosi;
- b) do'stlar orasidagi uzrida;
- c) yigit va qiz o'rtasidagi kechirim;
- d) kekxa, hurmatli kishining o'zidan kichik yoshidagi yaqin kishi oldidagi uzri.

16. "Andiz bilan cho'l ko'karar, qiz bilan el ko'karar"—maqolida kim ulug'langan?

- a) andiz
- b) cho'l
- c) qiz
- d) el

17. Ohang o'zgarganda ma'no o'zgaradigan qatorni toping:

- a) siz yomon odam emassiz;
- b) otang bolasi bo'lma, olam bolasi bo'l;
- c) yaxshilik—inson ziynati;
- d) mehnat qilsang, rohat ko'rasan.

18. Mensimaslik ohangi qaysi so'zda ifodalang?

- a) Assalomu alayko'm!
- b) Salom!
- c) Salo-o-m
- d) Salom?!

19. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping:

- a) shavqat, tadbiq, avf;
- b) shafqat, tatbiq, afv;
- c) tajjub, taaluq, tassuf;
- d) taajub, talluq.

20. Nutqning kommuni kativ(aloqaviy) sifatlari berilgan qatorni toping:

- a) nutq to'g'riliqi, aniqliqi, mantiqiyliqi, ifodaliligi;
- b) ko'p uslubliqi;
- c) sayhalanganliqi;
- d) majburiyligi.

21. "Hissiz aytilgan fikr qog'ozdan yasalgan gulga o'xshaydi" degan mashhur gapni qaysi adib bildirgan?

- a) Oybek;
- b) S. Ayniy;
- c) A. Qahhor;
- d) G'. G'ulom.

22. Sinonim so'zlardan qaysi biri badiiy uslubda ko'p qo'llaniladi?

- a) xurshid;
- b) quyosh;
- c) oftob;
- d) shams.

23. Qaysi so'z nutqda ijobiy ma'no ifodalaydi?

- a) kulmoq;
- b) jilmaymoq;
- c) irshaymoq;
- d) tirjaymoq.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov S. A. va b. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish T. "O'zbekiston" 2003 68-86 betlar.
2. Qo'ng'urov R, Begmatov E, Tojiev E. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. - Toshkent: "O'qituvchi", 1992, 75-103-betlar.
3. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. - Toshkent: "O'qituvchi", 1993, 83-86-betlar.
4. Begmatov E va boshqalar. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. - Toshkent: "Fan", 1988, 70-80-betlar.
5. Qilichev E, Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. - Buxoro "Buxoro davlat universiteti", 2002, 41-50-betlar.
6. Bekmirzaev N. Nutq madaniyati va notqlik asoslari. - Toshkent: "Fan", -2007, 148-153-betlar.
7. Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati 2-nashri. "A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi" Toshkent 2009 42-75 betlar.
8. Qo'ng'urov R, Begmatov E, Tojiev E. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. - Toshkent: "O'qituvchi", 1992, 27-42-betlar.
9. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. - Toshkent: "O'qituvchi", 1993, 20-31-betlar.
10. Qilichev E, Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. - Buxoro "Buxoro davlat universiteti", 2002, 11-19-betlar.
11. Bekmirzaev N. Nutq madaniyati va notqlik asoslari. - Toshkent: "Fan", -2007, 35-41-betlar.

ibratlidir: "So'z bilan aytganda tushungan odamga hamchi va qilich lozim emas". "Yaxshi yo'ldan yurish yaxshilik alomatidir". "Minnat ehson qiluvchining ehsonini yo'qqa chiqaradi", "Kichkina narsani andak hisoblama, chunki kichkina narsaning ham foydali o'rni bor", "Omma odat qilgan narsaga xiloflik qilma"⁷.

Ulug' fors-tojik shoiri Xusrav Dehlaviyning (XIV asr) nutq haqidagi fikrlari ibratlidir. U nutqni tinglovchiga mazmunini tasirchan tuzishga davat etadi

So'zlaringda bo'lsin fikru o'y yoniq,
Bo'lsin har so'zingda bir nuqta aniq⁸

O'zbek mumtoz adabiyotining ulkan namoyondasi Alisher Navoiy butun ijodi bilan o'zbek tilining ravnaqiga cheksiz hissa qo'shdi. A. Navoiyning buyuk "Xamsa", "Xazoyin-ul maoniy ("Ma'nolar xazinasi") "Muhokamatul-lug'atayn ("Ikki til muhokamasi"), "Mahnubul-qulub" ("Ko'ngillarning mahnubi") va boshqa asarlari inson tafakkuri va nutq tuzishning go'zal namunasi sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy "Mahnubul-qulub" asarida tilning qadr-qimmatini, undan foydalanish, nutqning jozibadorligi xususida shunday deydi: "Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manbai ham til. Tiliga kuchi etadigan (kishi) aql podshosidir: so'zga ahamiyat bermaydigan (kishi) la'natlangan past (kishi) dir" ("Mahnubul-qulub" 120-bet).

Shoir nutqda so'z ma'nosi va o'rmini qat'iy qadrlashga da'vat etadi. Shuning uchun ham u bu haqda achchiq tarzda gapirib:

Og'izg'a kelganni demak nodonning ishi,
Oldig'a kelganni emak hayvonning ishi,

deb aytadi va kishilarni o'ylab, fikrlab, ma'lum mantiqiy izchillikka erishgach, gap so'zlashga da'vat etadi:

So'zni ko'ngilda pishkormaguncha tilga
keltirma,

Har neki ko'ngulda bor-tilga surma.

Inson nutqi va tafakkuri bilan hayotning har qanday murakkabliklarini yengadi, qiyinchiliklariga bardosh bera oladi va orzular dengizidan suzib o'tib, maqsadi manziliga eta oladi. Ulkan o'zbek adibi A. Qodiriy ham o'zining xalqimiz uchun sevimli, aziz bo'lgan asari "O'tgan kunlar"ni yaratayotganda ana shunday jasoratni his qilishi ajab emas: "Har bir ishning ham yangi-ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydonga chiqishi, aqlarning yyetishmamlari ila asta-sekin tuzalib, takomilga yuz tutishi tabiiy

bir holdir". Adib mana shu jasorati bilan kelajakni ko'ra olgani, ushbu yozma nutqiy asari "O'tkan kunlar" romani bilan adabiyotga, boqiylik yuz tutajagini qalban, tafakkuri bilan chuqur his qilgan bo'lsa ajab emas.

Inson nutqi- uning tafakkuri mahsulidir. Chunki til- tafakkur tarjimoni sanaladi. Uning xatti- harakati, kurashi, jasorati, madaniyati va ma'naviyati ana shu nutq mahsuli bo'lgan tafakkurida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ulug' adib Ahmad Donishning tafakkuri, nutqi, tabiatini quyidagi o'lmas satrlarda ifodalay olgan.

"...Agar tafakkur daryosiga cho'msang, yangi osmonni xayoling qutichasiga joylaysan (ichki monologik nutq -S. a); agar xayol quvvatini ishlatang, etti qavat erni fikrning tokchasiga sig'dirasan (tashqi monologik nutq-S. a), agar qahr-g'azabining kelsa, yo'lbarsni mushukday ham ko'rmasan, agar mehribonliging tutar ekan, bechora chumolini kipriging ustida saqlaysan; agar saxiyliging jilva qilsa, kiygan to'ningni muhtojga berib, o'zing yalang'och qolasan, agar baxilliging tutsa, qumursqa og'zidagi donni talashasan; takabburliging tutsa, o'zimdanda boshqa hech kim bosh ko'tarmasin deysan; agar hasading qo'zg'alsa, o'tob yorug'ining erga tushishini ko'rolmaysan" Bu inson tabiati uning harakati bilan nutqiy munosabatida o'z inkishofini topadi.

Nutqiy muomala va munosabat nutq vaziyatida yuzaga keladi. Nutq ham, eng avvalo, bizning nazrimizda ma'lum bir millat urf-odat, qadriyati va an'analariga asoslangan bo'lishi shart. Nutq odobining zarur talablardan biri bizning urf-odatimizga ko'ra, so'zlovchi yoshi, jinsi, jamiyatda tutgan mavqeidan qat'iy nazar o'z suhbatdoshiga hurmat ko'rsatish, samimiy munosabatda bo'lishi lozim.

Bu hol "O'tkan kunlar" romanidagi savdogar Otabek va uning quli Hasanali munosabatida yorqin ifodalangan: Otabek: " Ba'zi yumushlar buyursam...

...Hasanali: " Buyuringiz, o'g'lim, "Otabek: "Rahmat, ota bo'lmasa bizga choy qaynatib beringiz-chi!" Hasanali: "Xo'p bo'ladi". Mana shunday munosabat bo'lganda suhbat ijobiy tarzda yakunlanadi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, nutq vaziyatida nutq ohangi juda katta vazifani bajaradi.

So'zlovchi kayfiyati qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u suhbatdoshiga yumshoq, muloyim ohangda munosabat qilishi lozim. Chunonchi, suhbatdoshining nomini turli ohangda ifodalab, unga nisbatan Ahmadjon deya yaqinlik ma'nosidan tashqari Ahmad!, hay Ahmad, ey, Ahmad! deya do'q-po'pisa, mensimaslik, etiborsizlik, loqaydlik, jerkish, buyruq kabi salbiy munosabatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Hozirgi paytda milliy qadriyatlarimiz tiklanib, suhbatdoshga nisbatan, taqdir, birodar, qadrdonim,

⁷ Bernini to'la asarlar. 14 tom, 1982, 64-bet.

⁸ Amir Xusrav Dehlaviy, asarlar, T. 5-bet.

do'stim, muhtaram kabi hurmat-ehtirom ma'nosini bildiruvchi so'zlardan unumli foydalanilmoqda. Qayerda nima haqda gaplashishni bilish nutq madaniyatining yuksak ko'rinishidir. Masalan, to'yda o'lim va aza haqida gapirish, azada xushchaqchaq hangomalashish, avtobusda, yo'lda sherigingizga qo'rs gapirish, atrofdagi kishilarni etiborga olmasdan hissiyotga berilib gapirish, hazil-mutoyiba qilish madaniyatsizlik belgisidir.

Hozirgi yoshlarimiz orasida o'z atrofidagi kattalarni hisobga olmasdan gapiraverish yoki muomalaga katta yoshdagi kishilarning fikrini diqqat bilan tinglash, diqqat bilan qabul qilish madaniyati yitishmasligini ko'p kuzatamiz. Bu esa o'ta odobsizlik ko'rinishidir. Dunyoda eng yomon odobsizlik-sizga gapirayotgan insonning so'zini tinglamaslik, yoki unga e'tiborsizlik, loqaydlilik qilish. Bu holat gapirayotgan kishiga nisbatan haqoratdir. Bunday holatlarga hech kimning tushib qolmasligini istaymiz.

So'zlovchining nutq fazilatlaridan yana biri shuki, atrofdagi kishilarning kayfiyati, mavqeyi va yoshini hisobga olib, uning tabiatiga mos ravishda muloqot qilishdan iboratdir. G'am-tashvish bilan gapirayotgan kishiga hazil-mutoyiba qilish, uning dardini fikrlariga latifalar bilan javob qaytarish farosatli insonning ishi emas. Bundan tashqari, o'sha mansabdor kishiga maqtov bilan xushomad qilish ham tinglovchilarda yomon taassurot uyg'otadi.

Har bir suhbat jarayonida turli xil sharoitlarda yuz beradi. Ular uchun umumiy tomon shundaki, so'zlashdan ko'ra tinglashga ko'proq ahamiyat berish lozim. Ayniqsa, yoshi katta, o'zining ishi, mehnati va aql zukkoligi bilan tanilgan insonlarga so'zlash uchun ko'proq imkon berish lozim bo'ladi. Agar suhbatda bildirilayotgan fikrlar mabodo zerikarli, kishilarga maqbul bo'lmayotgan bo'lsa, bunday paytda suhbat mavzusini o'zgartirish, qiziqarli voqega tortib bilish tajribasiga ega bo'lishi lozim. Umuman suhbat paytida samimiylik, suhbat mavzusiga mos fikr keltira olish, tinglovchini, atrofdagi kishilarga cheksiz hurmat, toza va iliq munosabat nutq madaniyatining asosiy xususiyatlari sanaladi. Shu bilan birga nutqning tasviriy ifodalari-unga go'zallik baxsh etadi.

5.2. Nutq texnikasi haqidagi tushuncha, uning asosiy unsurlari

*Notiqlik-javohirning o'zginasi,
salmog'iga qarab nur taratadi.
Asl donolik qisqa ifodalanadi.
L.N.Tolstoy*

Tayanch iboralar: *Nutq texnikasi, kommunikativ xulq, monologik nutq, dialogik nutq, tovush, diopozon, tambr, diksiya, ritmika*

Odam ato hayajonlanganida, qattiq qo'rqqanida yoki og'ir musibat ichida bo'lganida, umuman, turli hissiy holatlarga tushganida so'zlarkan. nafas olish va nafas chiqarish a'zolarini nazorat qilolmay qoladi. Buning natijasida normal fonatsiya uchun nafasi to'g'ri taqsimlanmaydi, ko'pincha oddiy bir so'z uchun ham nafasi yetmay qoladi. Tabiyki, uning nutqi, so'zlari, tovushlari g'ayriodatiy bir shakllarda voqelanadi. O'qituvchi bunday holatlarni ham hisobga olishi maqsadga muvofiq. U dars jarayonida keraksiz hissiyot va hayajonlarini jilovlab olishi kerak, aks holda bu holatlar uning nutqiga o'zining salbiy tasirini o'tkazishi mumkin.

Tajribali o'qituvchi faqat baland yoki past ovozda dars o'tmaydi. Tovushlarning balandligi, kuchi, tovlanishi va cho'ziqligidan iborat akustik sifatlarining turli darajalari (bu darajalarning diapazoni juda keng) ni bayon qilinayotgan axborotning mazmuni va tabiati, ayni paytda dars xonasidagi talabalarning ruhi -kayfiyatiga muvofiq ravishda modulyasiya qilinadi, ya'ni almashtirib turadi. Ana shu tarzda monoton, quruq, ifodalilikdan mahrum nutq shaklidan qutuladi va nutqning ohangdorligi, tasirchanligiga erishadi. O'qituvchining nutq texnikasi bilan bog'liq nuqsonlardan yana bir nutq sur'ati, tezligini to'g'ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maqsadga ko'ra mo'tadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Nutqning sur'ati, albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, ifodalanayotgan fikr qurilishiga uyg'un bo'lishi maqsadga muvofiq, aks holda, ya'ni o'qituvchi materialni faqat jadal sur'atda bayon qilsa, o'quvchi axborotni o'zini qilib olishga, axborot tarkibidagi muhim jihatlarni o'z vaqtida ilg'ashga, to'la idrok etishga qiynaladi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchining idrok surati o'qituvchining nutqi tezligidan orqada qoladi, unga "etib borolmaydi". Zotan, o'qituvchi nutqidagi me'yoridan ortiq jadal sur'at dars berish metodikasi qoidalari uchun ham begonadir. O'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlari, ayni dars paytidagi ruhiyatni, charchagan yoki charchamaganligi materialni qanday qabul

qilayotganligidan kelib chiqqan holda nutq sur'atini tanlasa, ham pedagogik, ham psixologik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

O'qituvchi nutqida fonatsiya jarayoni, ya'ni nutq paytida nafas olish nafas chiqarish bir tekisda, bir me'yorda va davomiy bo'lishi lozim. Baza noto'g'ri taqsimlangan nafas olish no'rin to'xtamning yuzaga kelishiga, fikrning mazmuni va estetik qurilishiga salbiy tasir ko'rsatadi. Bu holat, ayniqsa, o'qituvchining dars jarayonida haddan ziyod yoki ortiqcha his-hayajonga berilib ketishi va uni boshqara olmasligi tufayli sodir bo'ladi. CHunonchi, qo'shma gaplar bayonida sodda gaplar orasida to'xtamga erishish, bayon qilinayotgan axborotning mazmuni va zaruriyatini chuqur his qilish orqaligina amalga oshirish lozim. Masalan: Parpitayyor Ibrohimboyning hovlisida chorikorlik qilar ekan. U boy bug'doyini o'rar, "ho'p" ilar va don qilib, bo'ya eltib berar ekan. (N.Aminov "Kekirdak" hikoyasi) Agar o'qituvchi ushbu gapda to'rt o'rinda (ikki o'rinda ekan, o'rar va qilib so'zlaridan keyin) to'xtamga rioya etmasa, hatto fikr mazmuni va izchilligiga ham raxna solinadi. Tajribali o'qituvchi dars jarayonida nutq suratini baland yoki past ovozda doimiylikini belgilamaydi. Nutq surati (sur'ati) bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, xabarning oddiy yoki hissiy bo'yqodoriga alohida ahamiyat etiladi. Zero o'qituvchi nutqidagi jadal surat o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatini susaytiradi, dars samaradorligiga putur yetkazadi.

Nutq texnikasida ohang ham alohida o'rin tutadi. Har bir tovush alohida, to'g'ri va aniq talaffuz qilish muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlarni noto'g'ri talaffuz etish ularning gapdagi o'zaro o'rni va bog'lanishini yaxshi anglamaslik fikr mantiqliligiga ham putur yetkazadi. Masalan, asil-asl, azim-azm, maxsul-masul, asir-asr kabi so'zlarning manosi chuqur anglamasdan qo'llash, bo'lsa, kelsa kabi so'zlarda -l tovushi tashlab aytish, shuningdek, -lar qo'shimchasini -la tarzida qo'llash nutq ohangdorligiga raxna soladi. O'qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasi eng murakkab va doimiy munozaralarga sabab bo'ladigan jarayon. **Psixologik til bilan aytganda nutq texnikasi, notiq nutqining o'rinli, yoki o'rinsiz ekanligini belgilashda namoyon bo'ladi.** O'qituvchi har xil vaziyatlarda, turli xarakterdagi o'quvchilar bilan muloqotda bo'ladi. Demak u o'z nutqini ana shu vaziyatlar asosida, o'quvchilar holatiga qarab tuzishi, o'zgartirishi, doimo nutqining ta'sirchan chiqishiga e'tibor berishi, o'quvchilarni zeriktirib qo'ymasligi uchun tilning tasviriy vositalari bo'lmish metonimiya, metafora kabilardan foydalanishi lozim. O'quvchilar diqqatini jalb etish, o'rganilayotgan mavzuga ularni qiziqitira olish o'qituvchi nutq texnikasining asosiy xususiyatlaridir.

O'quvchi hayoti davomida o'qituvchisining nutqiy xususiyatlarini, o'quvchilarga murojaat qilish, savollarga javob berish usullarini xotirasida saqlaydi. O'qituvchi nutqi o'quvchilarga ta'lim - tarbiya berish vazifasini bajarishi kerak. Shuning uchun unga faqat umumdaniy emas, balki kasbiy va pedagogik talablar ham qo'yiladi.

O'qituvchi o'z so'zining mazmuni, sifati va oqibati uchun jamiyat oldida ijtimoiy javobgar shaxsdir. **Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi nutqi pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.**

O'qituvchinutqi deyilganda, o'qituvchining og'zaki nutqi ko'zda tutiladi. Og'zaki nutq - bu o'qituvchining gapirish vaqtida tuziladigan nutqidir.

Tajribali o'qituvchining nutqi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- o'qituvchi va uning tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabati va mahsulдор muloqotini;
- ta'lim jarayonida bilimni to'la qabul qilinishini, anglanishi va mustahkamlanishini;
- o'quvchilar faoliyatiga, ulardagi qobiliyat va iqtidor instinktni shakllantirish maqsadida ongi va hissiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish;
- o'quvchilarning o'quv va amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish.

"Pedagogik nutq" tushunchasi o'qituvchining kommunikativ xylqi tushunchasi bilan uzviy bog'liq. **O'qituvchining kommunikativ xulqi deyilganda, faqat uning gapirish va axborot berish jarayonigina emas, balki o'qituvchi va o'quvchi muloqoti uchun emotsional psixologik muhit yaratishga ular o'rtasidagi munosabat va ish uslubiga ta'sir ko'rsatuvchi nutqni tashkil etish va unga mos o'qituvchining nutqiy nazokati ham ko'zda tutiladi.**

O'qituvchining og'zaki nutqi monolog yoki dialog shaklida bo'ladi. Monologik nutqning keng tarqalgan shakli hikoya, maktab ma'ruzasi, sharh kabilardir. Dialogik nutq turli suhbat, savol - javob shaklida bo'ladi.

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun, o'qituvchining nutqi ma'lum talablarga javob berishi, ya'ni notiqlik mahoratini shakllantirish uchun lozim bo'lgan kommunikativ sifatlarga javob berishi hamda nutqi bir nechta adabiy normalarga mos kelishi lozim: chunonchi. zamonaviy normalarga, ifodali, adabiy til normalariga.

Pedagogik nutqning to'g'rilik, aniqlik, moslik, leksik boylik, ifodalilik va tozalik kabi kommunikativ sifatlari o'qituvchi nutqining madaniyatini belgilaydi.

Maqsadga muvofiq keladigan pedagogik nutq o'zining mantiqiyligi, ishonchliligi, kuzatuvchanligi bilan xarakterlanadi.

Pedagogik nutqning birinchi funksiyasi – o'rganilayotgan bilimlarni to'liq holda berilishini ta'minlashdan iboratdir. O'qituvchi nutqining kommunikativ o'ziga xosligi bilan bilimni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi va esda qolishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud. Nutq buni ta'minlashi yoki qiyinlashtirishi mumkin.

O'qituvchining nutqi faqat axborot berib qolmay, o'quvchining ongi, sezgisiga ta'sir qilishi, ularni o'ylash faoliyatiga undashi kerak.

O'qituvchi nutqining ikkinchi funksiyasi, o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi nutqi asosida, darsda o'rganilayotgan bilimlarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat.

O'quvchi, o'qituvchi nutqini eshita turib qator operatsiyalarni bajaradi: berilayotgan axborotni ko'rgazmali shaklda aniqlashtiradi, o'zidagi bilim bilan unga nisbatan munosabat bildiradi, eslab qoladi, nutq mantiqini, fikrlar rivojini kuzatib boradi.

Ovoz tonining balandligi, tovushning yuqoriligi, bir xilda gapirish o'quvchilarni charchatadi. O'quv – biluv jarayonining samarali bo'lishiga darsda o'qituvchi tanlagan kommunikativ xulq uslubi ham ta'sir qiladi. O'qituvchi ko'pincha "ovozingni o'chir", "jim o'tir", "boshingni ko'tarib o'tir", "mashqni tugat", "kitobni yop" kabi norozilikni bildiruvchi so'zlarni ishlatadi, yoki o'quvchining darsda javobini bo'ladi, "hap doimgidek hech narsa bilmaysan", "sen buni mavzuni qaerdan ham tushunarding" kabi pedagogik taktga xos bo'lmagan gaplarni ishlatadi, bu o'qituvchi bilan o'quvchi orasidagi munosabatning buzilishiga, aqliy faolligini pasayishiga olib keladi.

Pedagogik nutqning uchinchi funksiyasi – o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi mahsuldor o'zaro munosabatni to'g'ri ta'minlashdan iborat.

O'qituvchi nutqi – o'qituvchi va o'quvchi munosabatini boshqarish rolini ham bajaradi. Bu erda hamma narsa ahamiyatli: o'qituvchi o'quvchilarga qanday murojaat qiladi, salomlashadi, talablarini qanday qo'yadi, qanday ogohlantiradi, xohishini qanday bayon qiladi; nutq impotensiyasi, yuz ifodasi, qarashi ham o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi. Darsdan tashqari muloqotda ularning ahamiyati yanada ulkan bo'ladi. Ko'p narsa o'qituvchining individual muloqot uslubiga ham (qo'ruvga asoslangan, o'yinga, do'stona aloqaga asoslangan), muloqot doirasidagi ijtimoiy xarakteriga ham bog'liq.

O'qituvchi nutqining xususiyati, u avvalo o'quvchilarga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'ladi. O'qituvchi monologi ham o'quvchilar bilan ichki

dialog shaklida bo'ladi.

O'qituvchi og'zaki nutqining asosiy xususiyati, uning mazmuni o'quvchilar tomonidan ikkita kanal orqali tovush va vizual yo'l bilan qabul qilinishidir. Vizual harakatlar o'qituvchi nutqining ta'sirchanligi, ifodaliligini oshiradi, u o'qituvchining kayfiyati haqida ham o'quvchilarga axborot beradi. Shuning uchun yosh o'qituvchi muloqotda o'zining tashqi ko'rinishini boshqara olish ko'nikmasini shakllantirishi kerak.

O'qituvchi og'zaki nutqining yana bir xususiyati, uning improvizatsion (hech qanday tayyorgarliksiz) xarakterda ega ekanligidir. Tajribali o'qituvchi tekstga yoki konspektga qaramasdan, uyga maxsus tayyorlanmasdan gapiradi, o'quvchi uni tinglab turib, so'z va ifodalarda tutilayotganligini, ba'zan nutqiy kamchiliklarini ko'ra oladi. Shunday holat vujudga keladiki, go'yoki o'qituvchi notiq sifatida o'zligi haqidagi haqiqatni, fikrlarini birinchi marta o'quvchilar bilan ochayotgandek bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchi nutqini takomillashtirish. O'qituvchi nutqini takomillashtirishning quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- o'z-o'zini nazorat qilish;
- nutq madaniyatini rivojlantirish;
- nutqiy muloqotni barcha holatlarida adabiy nutq qoidalarini egallash uchun o'ziga sharoit yaratish.

O'z-o'zini nazorat va ifodali nutq malakalarini rivojlantirish uchun o'qituvchi o'z nutqiy faoliyatini kuzatishi, u jonli, xilma xil, hissiy bo'yloqlimi yoki bir xil monotonlimi, bilib borishi lozim.

Nutqni tayyorlash jarayonida o'zingizcha quyidagi savollarga javob toping: tinglovchilarda qanday fikr uyg'otmoqchisiz? Ularda qanday kayfiyat yaratmoqchisiz? Nutq mazmuni va sharoiti qanday intonatsiya va ritmni talab etadi? Bir necha bor nutqingizni qaytarib ko'ring.

Nutqingizni badiiy adabiyotdagi lavhalarga o'z taassurotlaringizni qo'shgan holda qayta to'ldiring.

Kommunikativ nutqning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, o'qituvchi o'zida notiqlik san'atiga xos, kator maxsus qobiliyatlarni rivojlantirishi talab qilinadi:

- ijtimoiy perseptiv qobiliyat;
- ijtimoiy tasavvur qobiliyati;
- o'zini boshqara olish qobiliyati;
- muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati;
- irodaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
- ishontira olish qobiliyati.

Nutq malakalari va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun

sharoit yaratuvchi notiqning umumiy ruhiy, jismoniy xususiyatlarini rivojlantirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziya'ni rivojlantirish ko'zda tutiladi. Bunday faoliyatda tovush, diapazon, tembr, diksiya, ritmika muhim rol o'ynaydi.

Tovush. Ba'zi o'qituvchilarga tovush tug'ma qobiliyat sifatida berilgan, lekin bu ham mashq qilib turilmasa buziladi. O'qituvchi o'z tovushini kuchli, egiluvchan, emotsional ta'sirchan qila olishi mumkin. O'qituvchi tovushining o'ziga xosligi nimada?

Avvalo, tovushining balandligida hamda uning kuchli nutq apparati organlarining faolligiga bog'liq. **Tovush eshitilishining uchuvchanligi, (polyotnost) bu ovoznimasofaga moslay olish, tovushni boshqara olishidir.**

Tovushning egiluvchanligi va harakatchanligi tovushni yengil boshqarish va tinglovchilarga moslashtira olishidir.

Diapazon - tovushning hajmi. Uning chegarasi juda yuqori va past ton bilan aniqlanadi.

Tembr - tovush bo'yog'i, yorqinligini namoyon qilib, shu bilan birga nutqning chiroyli, mayin, jozibali, o'ziga xosligini ta'minlaydi.

O'qituvchida kasbiy kasallik kelib chiqmasligi uchun, tovush gigienasiga amal qilish kerak. O'qituvchi ish vaqtining 50 foizi davomida gapirib turadi. O'qituvchi ish vaqti tugagach, 2-3 soat davomida uzoq vaqt kishilar bilan so'zlashishdan qochishi talab qilinadi. Zapyo bo'lib qolsa qisqa va sekin gapirishi kerak.

Dars jadvali qo'yilishida shunga e'tibor berish kerak. 3-4 soat darsdan ko'ng nutq apparati charchaydi, shundan so'ng 1 soat tovush dam olishi kerak. Tajribali, ko'p yillar ishlagan o'qituvchi 2-3 soatda charchaydi va 2 soat dam olishi kerak. YUqori nafas yo'llari, asab tizimlari, ovqatlanish rejimiga e'tibor berish kerak.

Diksiya - so'z, bo'g'in, tovushning aytilishidagi to'g'ri va aniqlik. Diksiya'ni takomillashtirish nutq organlarining harakatini qayta ishlash bilan bog'liq. Maxsus mashqlar orqali boshqariladi.

Ritmika - ayrim bo'g'inlarni aytishdagi to'liq davomiylik, shu bilan birga nutqni tashkil qilish etapi. Bu nutqning muhim elementi bo'lib, ba'zan intonatsiya va pauza o'rniga so'zdan ko'ra kuchli emotsional ta'sir qiladi.

O'qituvchinutqning tezligi, individual sifatiga, uning nutq mazmuni va muloqot holatiga bog'liq. Turli millatlarda nutq sur'ati turlicha bo'ladi. Ruslarda minutiga 120 ta so'z atrofida, inglizlarda 120-150 ta so'zgacha. Tadqiqotlarga ko'ra 5-6 sinflarda o'qituvchi minutiga 60 ta so'z, 9 - 11

sinflarda 75 tagacha so'z gapirishi to'g'ri bo'ladi.

Materialning murakkab qismini o'qituvchi past sur'atda, keyin esa tezroq gapirishi kerak. Mavzuga oid qoidalar va qonuniyatlar aytilganda, xulosa qilinganda nutq sekinlashadi.

Nutq texnikasi. O'quv vaqtining ko'p qismi (1/4, 1/2) o'qituvchining nutqi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'quv materialini o'quvchilar tushunishi o'qituvchi nutqning mukammalligi bilan bog'liqdir.

Ba'zilar tovush va uning tembri tug'ma deb bilishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovushni to'liqqayta qurish mumkinligini aniqlamoqda.

Tarixdan ham ma'lumki, 6a'zi kishilar o'zlarining nutqtovushlarini takomillashtirib borganlar. Chunonchi, Demosfen o'zining bu sohadagi kamchiliklarini tugatib borib, qadimgi Yunonistonning siyosiy oratorlaridan biriga aylangan. Yoki Vladimir Mayakovskiy ham 20 yoshidan boshlab rasmiy chiqishlar uchun og'ziga toshchalar olib, Rion daryosi bo'yida nutq so'zlashni mashq qilgan.

Nutqiy nafas organizmga hayot ta'minlab turishi bilan birga u nutqning energiya bazasi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Nutqiy nafas fonotsiol nafas deyiladi (fono-tovush). Kundalik hayotda nutqimiz dialogik tarzda bo'lib, nafas qiyinchilik tug'dirmaydi. Lekin darsda o'qituvchi ko'p gapirgan, ma'ruza o'qigan vaqtlarda o'zgarmagan nafas, mashq qilinmasaqiyinchilik tug'diradi: yuz qizaribketishi, nafasni tez-tez olish holati paydo bo'lishi mumkin.

Nafas olish jarayonida qaysi muskullar ishtirok etishiga qarab, nafas olishning quyidagi funksiyalari ajratiladi:

1. Yelka va ko'krak qafasining yuqori qismini ko'taruvchi muskullar ishtirokida nafas olish. Bunda kuchsiz, yuqori nafas olinib, o'pkaning faqat yuqori qismi faol ishlaydi.

2. Ko'krak orqali nafas olishni qovurg'alar orasidagi muskullar amalga oshiradi, diafragma kam harakatda bo'lib, nafas chiqarish kuchsiz bo'ladi.

3. Diafragmali nafas olish ko'krak hajmining o'zgarishi, diafragma hisharishi hisobiga harakatlanadi.

4. Diafragma va qovurg'a orqali nafas olishda - diafragmaning har tomonlama hajmi o'zgarishi, qovurg'alar orasidagi va qorindagi nafas muskullari ham qatnashadi. Shu nafas to'g'ri bo'lib, bu nutqiy nafas uchun asos bo'lib hisoblanadi.

5.3. O'qituvchi nutqining mantiqiyligi, grammatik jihatidan to'g'ri bo'lishi

Yaxshi fikrlar tiniq uslubni tab qiladi.

Uslub bu libos; fikr libos ostidagi tanga o'xshaydi.

F.M.Dostoyevkiy

Tayanch iboralar: *Kommunikativ nutq (aloqa sifatlar), nutq to'g'riligi, nutq aniqqligi, nutq tozaligi, nutqning jo'yaligi.*

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy xususiyatlari to'g'rilik va aniqlik bilan uzviy bog'liqdir. Chunki nutq grammatik jihatdan to'g'ri tuzilib, fikr ifodasi uchun aniq tanlangan lug'aviy birlik uning mantiqiyligini yuzaga chiqaradi. Mantiqiy izchillik buzilgan nutq tinglovchi yoki o'quvchida fikrning to'liq etib bormasligiga, bayon etilayotgan fikrning anglashilmasligiga olib keladi. Umuman "mantiq" so'zi gap, fikr, harakat va shuning kabilarni aql monandligi, asoslanganligi ma'nosini ifodalaydi. Demak, nutq mantiqiyligi, so'zlovchining ijtimoiy hayot va uni qay tarzda tasavvur etish, munosabati va uning tafakkur dunyosi bilan bog'liq hodisadir. Shuning uchun ham mantiqiylik nafaqat nutq jarayonida til birliklaridan o'rinli foydalanish bo'lib qolmasdan, uning mazmundorligini ham namoyon etadi. Mantiqiy nutq fikrning bir-biriga bog'liqligi va izchilligida ko'rinadi. Bunda matndagi birinchi gapdan to oxirgi fikrning mazmuni jihatidan uzviyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, mantiqiy nutqda voqea-hodisa, tushuncha va hodisaning mazmuni, mohiyatini to'g'ri anglash muhim o'rin egallaydi. Xususan, tushuncha predmet va hodisalarning mantiqan ajratilgan muhim belgilarni umumlashtirib, belgilashtirib, aks ettiruvchi umumiy tasavvur ma'nosini anglashdir.² Chunonchi, talabalar nutqida "Men sizni ko'p qidirdim" – gapi uchraydi. "Qidirmoq" so'zi ko'pincha narsa, buyumga nisbatan qo'llaniladi. To'g'ri, qidirmoq kishiga nisbatan ham qo'llanadi. Biroq, bunda ushbu so'z umuman yo'qolgan kimsa ma'nosida qo'llaniladi. Bu so'z ma'nosi chegaralangan bo'lib, asosan, nutqda yo'qolgan narsa haqida qo'llaniladi: Uzunni qidirish, kitobni qidirish. Shaxsga nisbatan izlamoq so'zi o'rinlidir. "Men sizni izladim." Xuddi shu ma'noda nutqda "bormoq", "ketmoq" so'zlarining ham ma'nosi jihatidan qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'yiladi. "Bormoq" shaxsning biror manzilga tomon yo'nalganligi ma'nosini anglatadi: "Men bosh binoga boraman" gapi esa

ko'pincha "Men bosh binoga ketaman" tarzida qo'llaniladi. Bu gapda "ketmoq" so'zining lug'aviy ma'nosida so'zlovchining biror ob'ektga yo'nalganlik ma'nosi emas, balki o'zi turgan joyini tark etmoq ma'nosida ekanligini anglamaslikdir.

Nutq mantiqiyligida o'zaro muomala munosabatini ifoda etuvchi etiket (biror jamiyatda ijtimoiy guruh va shuning kabilarda qabul qilingan o'zaro muomala qoidalari majmui⁹) lar mavjudki, bunday so'zlar ma'nosini to'g'ri anglamasdan qo'llash hollari uchrab turadi. Masalan, "bilasizmi?" so'zi rus millatiga mansub kishilar muomalasida ("znaete; segodnya pogoda ochen xolodno bivaet") ("His qilyapsizmi, bugun havo juda sovuq bo'ladi" degan fikr ifodalanmoqda. Bizning tilimizda ko'pincha "bilasizmi?" deb murojaat etilganda uning ilk lug'aviy ma'nosi- biror, soha ma'lumotga, bilimga egalik tushunchasi anglashiladi. To'g'ri, bu so'zning darak gap tarkibida qo'llanishda "his qilmoq", "idrok qilmoq", "anglamoq", "fahmlamoq" ma'nosini ifodalashni anglash mumkin: "Men, birodar, erimg tagida ilon qimirlasa bilaman (anglayman ma'nosida). Shuning uchun ham nutqimizda "bilasizmi?", murojaat, munosabat so'zi o'rmida "His qilasizmi?" "Anglaysizmi, sezaysizmi?" kabi so'zlarni qo'llasak, mantiq jihatdan joiz bo'lar edi. Bundan tashqari, o'zbek tilida o'zaro munosabat uchun do'stim, birodar, taqsir, janob, og'ayni, aka, uka, tog'o, amaki kabi so'zlar mavjudki, bu so'zlar shaxslarning bevosita yaqinlik muomala so'zlari sanaladi.

Taniqli olim N.Mahmudov nutqning jo'yaligi xususida fikr bildirar ekan, bu ham bevosita nutq mantiqiyligi bilan chambarchas bog'liq, mantiqiylik belgisini anglatadi: "Nutq tuzishda ifodalanmoqchi bo'lgan axborotning mavzusi, uning mantiqiy va xissiy- ruhiy mazmuni aniq tasavvur qilinmog'i va ana shularga uyg'un holatda til vositalari mazmunga muvofiq bo'lmagan har qanday til birligi, sintaktik struktura, intonatsiya, badiiy tasviriy vositalari, maqol, matal, turli iqtiboslarning nutqda begonaligi, bejoligi, juda tez bilinadi va bunday nutqni jo'yaligi deb bo'lmaydi"¹⁰ deb yozadi maqolasida. "O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l" iborasining qo'llanishi jihatidan mantiqsiz ifoda etilganligi aniq ko'rsatilgan. Haqiqatdan ham ushbu maqol ona yurtning bir joyidan ikkinchi joyida yashashga majbur bo'lgan shaxs tilidan aytilsa, uning mantiqiyligiga raxna solinadi. Bir talaba o'qituvchi bilan o'zaro suhbatda "Domla, sizning oldingizga katta boshimni kichik qilib keldim" deb iboraning mazmunini "iltimos" ma'nosida anglab qo'lladi. Aslida esa bu ibora "yosh xususiyati, vazifa, mansab jihatidan o'zidan katta kishi

⁹ Qodiriy Abdulla "Mehrobdan chayan" T. G'. G'AD N. 1991, 11-bet

¹⁰ Hamroev M. Ona tili T. Fan, 2006. ma'ruza matni. 71b

oldiga iltimos qilib borish" ma'nosini va mantiqiyligini anglamasdan qo'llaganligini his etmaydi. Bu esa nutqning nojoizligi va mantiqsizligidir.

Nutqning mantiqiyligi urf-odat bilan bog'liqdir. Masalan, bizning millatimiz vakillari bir-birini mehmon qilganda, uyiga taklif etadi. "Keling, mehmon bo'ling" yoki "Qani, marhamat choy ichamiz" deb uyiga da'vat etadi. "Choy ichmoq" iborasi nafaqat choy, balki ziyofat, ovqatlanish ma'nosida qo'llanadi. Choy ichish uchun taklif etilgan dasturxonga hamma egulik va ichimliklar qo'yiladi. Bu urf - odatiy holdir.

Shuning uchun ham yozuvchi A. Qodiriy "Mehrobdan chayon" romanida Anvarga ovqat hozirlash uchun borayotgan Ra'noni to'xtatib: "Anvar akangga choy berdingmi, qizim?"- deb so'raydi¹.

Ayrim iboralarning yaratilishida, ularda mantiqiylikning kuchli ifodalanishida xalq san'atkorligi (tor ma'noda badiiy vosita ma'nosida) ta'siri mavjudligi sezilib turadi. Chunonchi, taniqli tilshunos olim Alibek Rustamov "Halovini topsang, qor ham yonadi" maqolining yaratilishini quyidagicha izohlaydi: "Buni yoqimli, go'zal qilingan narsa, birinchidan, "qor" so'zining "halov" so'ziga uyg'unligi, ya'ni tovushdoshligi, ikkinchidan, qorning olovga zidligi, uchinchidan, bo'rttirish, ya'ni mubolag'a borligidir"-deb tahlil etadi¹¹.

So'zlarning ma'nosini anglamay qo'llash nutq mantiqiyligiga putur yetkazadi. Nutqda barcha so'zlar ham o'zaro mantiqiy munosabatga kirisha olmaydi. Gapda so'zlarning o'rmini zo'rma-zo'raki yoki almashtirib qo'llash mantiqsizlikni keltirib chiqaradi. Bir qo'llanmada: "Ayrim shaxs yoki predmetga atab qo'yilgan nomlar atqli ot deyiladi" deb ta'rif etiladi⁷ Nahotki muallif hayotda barcha shaxs nomga ekanligini bilmasa, deb qolasiz.

Xuddi shuningdek, "Yangi qurilayotgan korxonalar, binolar, uy-joylar, ko'chalar ham ko'kalamzor boqqa aylantirilmoqda (Sh. Rahim). Bu gapda binolar, uy-joylar (shuningdek, korxona, ko'cha ham-S. a), ko'kalamzorlashtirildi deyilmoqda. Lekin boqqa (mevali daraxt, tok va gul bilan band er maydoni) aylantirilishi mantiqsizlikdir.

So'zlarni bir-biriga mazmunan bog'lash, ular o'rtasidagi grammatik aloqani to'g'ri shakllantirish nutqning mazmundorligi va mantiqiyligini ta'minlaydi.

Xuddi shuningdek, "Yangi qurilayotgan korxonalar, binolar, uy-joylar, ko'chalar ham ko'kalamzor boqqa aylantirilmoqda (Sh. Rahim). Bu gapda binolar, uy-joylar (shuningdek, korxona, ko'cha ham-S. a), ko'kalamzorlashtirildi deyilmoqda. Lekin boqqa (mevali daraxt, tok va gul

bilan band er maydoni) aylantirilishi mantiqsizlikdir.

So'zlarni bir-biriga mazmunan bog'lash, ular o'rtasidagi grammatik aloqani to'g'ri shakllantirish nutqning mazmundorligi va mantiqiyligini ta'minlaydi.

Mazmunan bir xil bo'lmagan so'zlarni uyg'un holda qo'llash mantiqsizlikni keltirib chiqaradi. M: Suxandonning "Endi kuy va raqslar tinglab, dam oling. Gapida ma'no buzilgan. Chunki kuyni tinglashmumkin, ammo raqs tomosha qilinadi. YOki: Hammomda qatiq va shisha idishlar iste'mol qilish mantiqsizligiga yo'l qo'yilganligini ko'rish mumkin.

Nutq mantiqiyligida badiiy tasviriy vositalarni o'rinli qo'llash uning mazmundorligini yana oshiradi.

Bir rivoyatda shogird o'z ustozidan so'raydi: "Til nimadir?" Piri murshid javob berdi: Til - o'tkir qilich kabitdir. Agar undan ehtiyot bo'lmasang, o'zgalarning qalbiga sanchilgaydir". Ayrim rivoyatlarda til-qindagi pichoqqa, zaharli ilonga hamqiyos etiladi. Aslida bu qiyoslar mazmunan to'g'ri. Lekin tasvir jihatidan tilning o'tkir qilichga o'xshatilishi mantiqqa yaqin sanaladi. Qindagi pichoq, o'rmalovchi ilon esa tasvir jihatidan nisbatan yiroqroq.

Nutqning mantiqiyligi uning ifodaliligi bilan chanbarchas bog'liqdir. Masalan, E. Vohidovning quyidagi she'rida "Q" tovushi alohida ohangdoshlik kasb etganligini his etasiz va shoir mahoratidan zavqlanasiz:

Haro qoshing, halam qoshing,
Qiyiq qayrilma qoshing qiz,
Qilur qastinga qast qayrab-
Qilich qotil haroshing, qiz.
Qafasda qalb qushing qayrab
Qanot qoqmoqqa qo'ymaysan.
Qiyoy qilim, qalbinimni.
Qizdorsin quyoshing, qiz.

She'rda qiz qarashi-qotil qilichga, oshiq qalbi-qafasda qolgan qushga yoki yor nigohi -quyoshga o'xshatilishi nutq mantiqiyligini yanada oshirgan.

Nutqning mantiqiyligi - nutqning mantiqiy bo'lishi eng avvalo o'qituvchining so'z boyligi, tafakkur yuritish qobiliyati, idrok etish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi

boyligi keng bo'lishi mumkin. Ammo o'zi fikr yuritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega bo'lmasa, bilimlarini o'z tafakkuri doirasida tahlil qila olmasa notiqlik tilni juda yaxshi bilishi, so'z san'ati natija bermaydi. So'zlarning o'qituvchi ifodalayotgan mavzuga mos ravishda

¹¹ Rustamov A, So'z xususida so'z T.: "Yosh gvardiya", 1987, 72 b.

to'g'ri ifodalanishi, so'z birikmalarining, gaplarning, matnlarning bir-biriga to'g'ri kelishi, fikrni izchil bayon etish uchun bo'ysundirilishi nutqning mantiqiy boy ekanligini bildiradi. O'quvchilarga aytalayotgan fikr mantiqan bir-biriga bog'langan bo'lishi kerak. Gaplar o'rtasida fikriy bog'lanish, izchillik yo'qolishi bilan o'qituvchi nutqining mantiqiyiligi putur etadi.

O'rganilayotgan mavzu matnlari o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'lish uchun, matnlar boshlanma bilan ajratiladi (masalan, xulosa qilib aytganda; shu bilan birga; ta'kidlash lozimki va hokazo). Demak, **o'qituvchi nutqining mantiqiyiligi deyilganda, yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikr va mulohazalar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga muvofiq ishlatiladigan nutq tushuniladi.**

Nutqning tozaligi – O'qituvchi nutqining tozaligi, avvalo uning adabiy til lisoniy normalariga muvofiq kelishi bilan belgilanadi. O'qituvchining chiroyli va mazmunan boy nutqi hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, g'ayriadabiy til unsurlaridan holi bo'lishiga qarab baholanadi. Nutqning toza bo'lishiga halaqit beruvchi unsurlar: dialektizm va varvarizmdir. Zero, ushbu unsurlar badiiy adabiyotda ma'lum bir badiiy – estetik vazifani bajarsada, o'qituvchining dars jarayonidagi va tarbiyaviy faoliyatidagi nutqida ishlatilmasligi kerak. O'qituvchi doimiy ravishda idoraviy atamalarni, rasmiy so'z va iboralarini noo'rin ishlatishi o'z nutqining notabiiyligiga, ishonchsiz chiqishiga sabab bo'ladi. Natijada o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida o'qituvchi tomonidan ishonitirish metodi orqali qo'llaniladigan fikrlarni bayon etishga putur etadi.

Xulosa qilib aytganda, mantiqiy nutq deganda, ilmiy bir tizm asosida shakllangan, fikrlar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z o'zaro bir-biri bilan mazmunan uzviy bog'langan, aniq maqsadni yuzaga chiqarish uchun qaratilgan nutqni tushunamiz.

O'zaro muloqotda nutq tozaligi muhim o'rin tutadi. Nutq tozaligi ham fan atamasi bo'lib, u har bir shaxsning nutq madaniyatini aniq namoyon etuvchi xususiyatdir. Adabiy tilga xos bo'lmagan til unsurlaridan foydalanmaslik, undan nutq jarayonida qo'llamaslikka erisha olish nutq tozaligi deyiladi. Nutq tozaligi shaxsning tilga nisbatan go'zal madaniyatini namoyon etishini ko'rsatadi. Chunki nutq shaxsiy faoliyat bo'lsa-da, nutq takomili uchun xizmat qiluvchi til vositalari esa ajdodlarimizning ma'naviy merosidir. Zotan, nutqimiz tarkibidagi har bir til birliklari bizga undan xohlaganday foydalanish maqomini bermaydi. Ajdodlarimiz merosi bo'lgan til vositalari ma'nosi, so'z yasash zamonaviyligi, qo'llanish o'miga ko'ra o'ziga xos talablarga ega. Bu talablarni egallash nutq madaniyati, shuningdek, nutq tozaligini belgilaydi.

Nutq tozaligiga bir qancha til unsurlari xalaqit beradi. Ular quyidagilardan iborat: sheva, varvarizm, vulgar, argo, chetdan kirib qolgan so'zlar, parazit so'zlar.

Nutq tozaligiga asosiy raxna soluvchi unsur dialektizmlardir. Shevalar har bir kishining o'z hududi ta'sirida uning nutqidan tabiiy tarzda joy oladi. Shuning uchun adiblar badiiy asarlar yaratayotganda qahramonlarning qaysi hududdan ekanligini ko'rsatish maqsadida shevadan foydalanadilar. Bu sheva so'zlari umumadabiy tiliga yaqinroq bo'lib, ma'nosi jihatidan xalqqa ma'qul bo'lsa, uni o'z nutqida qo'llayveradi. Chunonchi, Abdulla Qahhorning "Sinchalak" povesti nomi ham sheva sanaladi. U adabiy tilda chittak ma'nosini ifodalaydi. Shunga qaramay, sinchalak so'zi ham hozirgi kunda sinonim tarzda qo'llanadi. Bundan tashqari, nutqimizdagi shunga o'xshash sheva so'zlari qo'llanadiki, uning go'yo adabiy tilga oid so'z sifatida qabul qilish mumkin: Masalan, emin-erkin (asta-sekin) burda-burda, ibi (ie) va hakozo. Bunday so'zlarning ko'pchiligi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham keltirilgan.

Dialektizmlar so'zlarning imloviy to'g'ri yozishda katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi paytda "afv etmoq" so'zining yozilishida xatoga yo'l qo'yiladi. Buning sababi bu so'z (etimologik jihatdan arabcha) tojikcha so'z ta'sirida avf shaklida tilimizda qo'llanish bo'lsa, ikkinchidan shevada "avf" tarzida qo'llanishidir. Bu so'z adabiy tilda "kechirim, uzr ma'nosini ifoda etadi. " Sizdan bu ulug' gunohim uchun afv so'rab, haydalgan o'g'lingiz-Otabek Yusufbek Hoji (A. Qodiriy. O'tgan kunlar) Shuningdek –lik o'rin-joy yasovchi qo'shimcha ham –li so'z yasovchi qo'shimcha bilan almashinib ketishida shevaning ta'siri kattadir. Bolalik uy bozor, bolasiz uy mozor. To'g'ri, garchi –lik affiksi oldin tilimizda belgi ma'nosini anglatgan: (Faqat bir-birisiga harshi o'tirgan yosh (Anvar va Ra'no-Sa) ma'nolik ko'z urishtirib kulimsidilar (A. Qodiriy. "Mehrobdan chayon" O'zbekiston. 1985, 136-bet). Lekin hozirgi adabiy tilimiz me'yoriga ko'ra, -li: (ma'noli) tarzda qo'llanmog'i lozim. Binobarin, adiblar asar qahramonining qal'lik ekanligini ko'rsatish maqsadida shevadan foydalanadilar. Quyida A. Qodiriy buxorolik yigit obrazini uning nutqi orqali mahorat bilan tasvirlagan:

-Iybi, iybi-dedi Rahim- burodaring ahvolini gapur-da, axe. Barpadari uyquki, peshinga chiqin bo'lsa, ko'chag'a bo'lib etgan to'palangni go'shingga ilasanmi? (Mehrobdan chayon" 226-227 betlar).

Bu parchada "iybi (ie), burodor (birodar), gapur (gapir) axe(axir), Barpadari (padariga qusur), chikin (-gacha), ko'chag'a(ko'chaga), to'palang (to'polon), go'shing (qulog'ing), ilasanmi? (olasanmi? Yoki

Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo'lmagan so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, qo'pollikda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish); parazit (ortiqcha) so'zlarning ishlatilishi nutq tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu hodisalar o'qituvchi nutqida uchramasligi uchun, o'qituvchi o'zini, fikrini boshqara olishi, doimiy ravishda nutqini boyitishi, mashq qilishi kerak.

Odamlar tilni qancha chuqur bilsa va unda so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, uning tafakkuri shunchalik boy bo'ladi. **So'z barcha dalillar, barcha fikrlar libosi, o'qituvchi nutqining poydevoridir.** Hikmatli so'zlar, ibora va mahollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinni va samarali foydalana olish lozim. Zero dunyoda so'z mulkidan ham ortiq va qimmatli xazina yo'qligini Sharq mutafakkirlari adabiy meroslarida bayon etganlar:

So'z ichra mudom aql yashirindur.

So'z chimildig'u, aql kelindur.

(Nosir Xisrab).

So'zni bilgan zarga bo'lmaydi muhtoj,

Zar qimmatli so'z bilan topar rivoj.

(Abdurahmon Jomiy)

Ham so'z ila elga o'limdan najot,

Ham so'z ila topib o'lik tan hayot.

(Alisher Navoiy).

Agar bo'lsang ipak kabi muloyim,

Muloyim sen bo'lsang quling bo'loyin.

Qulog'imga bergan panding olayin,

Kishiga qattiq so'z aytguvchi bo'lma.

Oqmasdan qolmaydi bir oqqan ariq,

Bir tanda odam goh semiz, goh ori.

Bir ko'zi harodir bir ko'zi yorug',

Qora deb qattiq so'z aytguvchi bo'lma.

(Maxtunquli).

Xullas, nutq madaniyatida nutqning tozaligi juda katta ahamiyatga ega. Nutq tozaligi, nutq sofliligiga erishish har bir shaxsning ona tilimizga mehr-muhabbati, madaniyati go'zalligiga erishishning asosi hisoblanadi.

Bob yuzasidan bilim natijasini aniqlovchi savollar:

1. Nutq odobini belgilovchi fazilatlar qaysilar?
2. Nutq odobiga yo'g'rilgan urf – odat, qadriyat va an'analarni ayting.
3. Nutq etiketi nima?
4. O'qituvchi nutqiga xos etiketlarni ayting.
5. O'qituvchining dars jarayonidagi etiketi nimalardan iborat?
6. O'qituvchining jamoa orasidagi etiketi qanday bo'lishi shart.
7. O'qituvchining rasmiy, siyosiy, ijtimoiy, adabiy–madaniy tadbir va yig'ilishlardagi etiketlari xususida nimalar bilasiz?
8. Oila etiketi haqida ham tushuncha va tasavvurlaringizni gapiring.
9. Nutq odobini belgilovchi fazilatlar qaysilar?
10. Nutq odobiga yo'g'rilgan urf – odat, qadriyat va an'analarni ayting.
11. Nutq etiketi nima?
12. O'qituvchi nutqiga xos etiketlarni ayting.
13. O'qituvchining dars jarayonidagi etiketi nimalardan iborat?
14. O'qituvchining jamoa orasidagi etiketi qanday bo'lishi shart.
15. O'qituvchining rasmiy, siyosiy, ijtimoiy, adabiy –madaniy tadbir va yig'ilishlardagi etiketlari xususida nimalar bilasiz?
16. Oila etiketi haqida ham tushuncha va tasavvurlaringizni gapiring.

Bob bo'yicha test savollari:

1. O'qituvchi o'quvchining faoliyatini baholash va rag'batlantirishda qanday so'zlarni qo'llaydi?

- a) besh, to'rt, uch, ikki;
- b) go'l, nodon, ahmoq, basir, hayvon;
- c) umring uzoq bo'lsin, biring ming bo'lsin, qadaming qutluq bo'lsin;
- d) ofarin, barakalla, rahmat, minnadorman.

2. “Kechirasiz, mendan o'tibdi”. “Afv eting, bundan so'ng takrorlamaslikka harakat qilaman” deyish so'zlovchining qanday maqsadini oshkor etadi?

- a) o'zaybi uchun kechirim so'rashini;
- b) o'z aybini tan olmasligini;
- c) o'zini mag'rur tutganligini;
- d) ma'yus, ojiz ekanligini.

3. “Ey farzand, so'zning yuzin va orqasin bilg'il va ularga rioya qilg'il, har na so'z desang, yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanini bilmasang, qushga o'xsharsanki, unga to'ti derlar,

ul doim so'zlar, ammoso'zning ma'nosin bilmas. Suxango'y shul kishi bo'lg'ayki, ul har so'zni desa, xalqqa ma'qul bo'lg'ay va xalq ham har so'z desa, unga ma'qul bo'lg'ay. Bunday kishilar oqillar qatoriga kirg'ay, yo'q ersa ul inson suratida mavjud bo'lg'on bir hayvondur" parcha kimning qaysi asaridan olingan?

- a) MirzoBoburning "Boburnoma" asaridan;
- b) AlisherNavoiyning "Mahbubul-qulub" asaridan;
- c) AbdullaAvloniyning "Turkiyguliston-yoxudaxloq" asaridan;
- d) Kaykovusning "Qobusnoma" asaridan.

4. Nutq odobi nima?

- a) tilni, adabiy til me'yorlarini bilish;
- b) muloyim, yoqimli, odobli so'zlash;
- c) aytilishi zarur bo'lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda yyetkazish. Xabarlarni tinglovchining ko'ngliga mos, adabiy me'yordagi ifodalar bilan yyetkazish;
- d) shirin so'zlik, muloyim so'zlik.

5. Nutqiy muomala nimadan boshlanadi?

- a) xushmuomalalikdan;
- b) salomlashishdan;
- c) shirin so'zdan;
- d) shirin tabassumdan.

6. "Qur'on" oyatlarida eng oliy insoniy muomala qoidalarini sifatida nimalar belgilangan?

- a) ota-ona bilan gaplashganda ularga og'ir botadigan so'z aytmaslik;
- b) shirin suxanlik, pastovoz bilan so'zlash;
- c) ochiq yuzli, xushmuomalada bo'lish;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

7. "Hifzilison" iborasi qaysi adib asarida uchraydi?

- a) Alisher Navoiy, Mirzo Bobur;
- b) Husayn Voiz Koshifiy;
- c) Abdulla Avloniy;
- d) Abdulla Qahhor.

8. Etiket deb nima uchun aytiladi?

- a) nutq odobi;
- b) fransuscha so'z bo'lib, biror jamiyatda ijtimoiy guruhda qabul qilingan o'zaro muomala qoidalarini;
- c) salomlashish odobi.

9. "Onajon siz farzandi ustida..." gapining oxirida qaysi iborani qo'llash lozim?

- a) yig'ladi;
- b) ko'z yosh to'kdi;
- c) dod soldi;
- d) faryod ko'tardi.

10. Dars jarayonida o'qituvchi nutq aniqligining ko'proq qaysi belgisiga ahamiyat berishi zarur?

- a) adabiy tilga;
- b) dalil va ma'lumotlarning aniq ifodasiga;
- c) ko'rgazma;
- d) dars qurilishiga.

11. Nutq mantiqiyligi nima?

- a) fikrni mazmunli ifoda etish;
- b) fikrni rang-barangligiga erishish;
- c) gaplar o'rtasidagi fikriy izchillik;
- d) iboralardan o'rinli foydalanish.

12. Nutq mantiqiyligi buzilgan qatorni toping:

- a) bahor o'z sepini yoyib kirib keldi
- b) atrof yashnadi;
- c) yangi qurilayotgan korxonalar, binolar, uy-joylar, ko'chalar ham ko'klamzor boqqa aylantirilmoqda;
- d) ko'chalar obod qilishmoqda.

13. Nutq mantiqiyligi to'g'ri berilgan qatorni toping:

- a) biz fikrlarimizni quyida bayon etganmiz;
- b) yuqorida biz fikrimizni bayon etmoqchimiz;
- c) bizning fikrlarimiz quyidagilardan borat;
- d) xulosa qilib shuni aytmoqchimizki, fikrlarimiz quyidagilardan iborat.

14. -li qo'shimchasi noto'g'ri qo'llangan qatorni toping

- a) bolali uy bozor, bolasiz uy mazor;
- b) bu surat sizga esdalik uchun berildi;
- c) besh bolali ona;
- d) semiz jomadonli kishi;

15. Nutq tozaligi deganda nimani tushunasiz?

- a) nutq to'g'riligi;
- b) mantiqiyligi
- c) fonetik-orfoepik jihat;
- d) izchilligi.

16. Qaysi gapda nutq tozaligiga rioya qilinmagan?

- a) oyijon, sog'-salomatmisiz?
- b) nanajon, o'tiribsizmi, mazza qilib?

c) ota, sizqaerda?

d) onajon, yaxshi etib keldingizmi?

17. Xo'sh, bundan maqsad nima? Xo'sh, nima demoqchisiz? Bu gapda nutq tozaligiga raxna soluvchi qaysi unsur qo'llangan?

a) takroriylik;

b) mantiqiylik;

c) siyqa(parazit) so'z;

d) ibora.

18. Ifodali nutq deb qanday nutqqa aytiladi?

a) tinglovchiga qiziqish uyg'otgan nutq;

b) sodda, ta'sirchan, hammabop nutq;

c) to'liq nutq;

d) mantiqiy nutq.

19. Yozma nutq ifodaliligini belgilovchi vositalarni toping:

a) tinish belgisi, so'z, gap;

b) badiiylik, uslubiy figuralar;

c) aniqlik, ibora, tasvir;

d) maqol, rivoyat, aforizm.

20. Nutq ritmi nima?

a) bir-biriga teng narsalarning bir xil vaqt birligida takrorlanib turishi;

b) urg'uli va urg'usiz, cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning nutqda birttekisda takrorlanib, uyushib kelishi;

c) so'zlarning takrorlanib kelishi;

d) gaplarning takrorlanib kelishi.

21. Intonatsiya(ifodaviylik) nima?

a) ovozning mazmunga mos pasayib-ko'tarilishi, to'xtam, so'z yoki jumalarning bo'linib-bo'linib aytilishi;

b) to'xtam;

c) ritm;

d) ohang.

22. Nutq jo'yaliligi nima?

a) nutqda voqelikni aniqlab ifoda etish;

b) tabiatga mos gapirish;

c) ma'qul fikr aytish;

d) to'g'ri gapni aytish.

23. Aniqlik necha xil bo'ldi?

a) 2 xil: narsaning aniqligi, tushuncha-aniqligi;

b) 3 xil: fikr aniqligi, so'z aniqligi, hodisa aniqligi;

c) 4 xil: narsa, tushuncha, fikr, hodisa aniqligi;

d) aniqlik turlarga bo'linmaydi.

24. Ushbu jumladan mantiqiylik buzilgan o'rinni aniqlang. Ko'pgina turli masalalarni bevosita dars vaqtida hal qilishga to'g'ri kelishi boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan

a) biri hisoblanadi;

b) ko'pgina so'zi ortiqcha so'zi ortiqcha;

c) bevosita so'zi noto'g'ri qo'llangan;

d) to'g'ri kelishi noto'g'ri qo'llangan.

25. Nutq ta'sirchanligi nima?

a) nutq mantiqiyligi

b) nutqda barcha sifatleri tinglovchiga qiziqish uyg'otish, hissiy-b) ta'sir ko'rsata olish;

c) nutq aniqligi;

d) nutq jo'yaligi.

26. Nutq ta'sirchanligini yuzaga chiqaruvchi asosiy vositalar qaysi?

b) gap;

b) matn;

c) badiiy-tasviriy vositalar;

d) so'z.

27. "So'zkitakror o'ldi, dilkash emas" degan mashhur fikr muallifi kim?

a) Navoiy;

b) Bobur;

c) Mashrab;

d) Cho'lpon.

28. Ritorik so'roq gap nutqda qanday rol o'ynaydi?

a) fikrni boyitadi;

b) fikrni rang-barangligi uchun qo'llaniladi;

c) fikr ta'sirchanligi uchun qo'llaniladi;

d) mazmun uchun qo'llaniladi.

29. Evfemizm qo'llangan qatorni toping

a) o'ldi;

b) vafot qildi;

c) jon berdi;

d) olamdan o'tdi.

30. Parallel tuzilgan nutq parchalari (misralar) oxirida ayni bir elementning takrorlanishidan iborat uslubiy figura nima deyiladi?

a) epifora;

b) epitaf;

- c) ellipsis;
d) cmfaza

Bob bo'yicha adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", NMIU, 2017, – 488 b.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va insom manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, "Ma'naviyat", 2017, – 416 b.
4. Bekmirzaev N. Nutq madaniyati va notqlik asoslari. Toshkent: "Fan", -2007, 100-138 -betlar.
5. Qilichev E, Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. - Buxoro "Buxoro davlat universiteti", 2002, 78-89 betlar.
6. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -Toshkent: "O'qituvchi", 1993, 44-84 -betlar.
7. Qo'ng'urov R, Begmatov E, Tojiev E. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. - Toshkent: "O'qituvchi", 1992, 139-145-betlar.

VI BOB. NOTIQLIK SAN'ATI, UNDAN FOYDALANISH, YO'L QO'YILADIGAN BA'ZI KAMCHILIKLAR USTIDA ISHLASH

6.1. Notqlik san'ati shakllanishining tarixiy jihatlari

Notliqning eng ulug' fazilatlaridan biri - zarur narsani aytishidagina emas, balki nozarur narsani aytmasligida hamdur.

Sitseron

Tayanch so'zlar: *Notliq san'ati, ritorika, nutq odobi, voizlik, madaniy mantiqiylik, ifodaviylik, nutq boyligi, nutq sofligi, til me'yori, sud notliqligi, siyosiy notliqlik, maqtov notliqligi.*

Nutq madaniyatining yuksak namunasi-bu notliqlik san'atidir. Notliqlik san'ati qadim tarixga ega. Bu san'atga Markaziy Osiyoda Arastu nomi bilan mashhur bo'lgan buyuk faylasuf olim Aristotel (384-322) o'zining "Ritorika" ("Notliqlik san'ati") asari bilan asos solgan. Olim ushbu asarida notliqlik san'atida nutqning sodda, samimiy ifodalab, tinglovchiga oson, tushunarli bo'lishi, nutqda hazil mutoyiba-hissiyot, har xil epitet, chog'ishtirish, qiyoslash, ko'rgazmali quroldan foydalanib, bularning barchasi asosiy fikrni ifoda etishga haratilisini bayon etadi. U san'atni egallashni 5 qismga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi:

1. Materialni kashf etish (har tomonlama tayyorlash)
2. Materialni joylashtirish shakli
3. Materialni eslab qolish (o'zlashtirish)
4. Materialni so'z yordamida to'g'ri aks ettirish
5. Materialni to'g'ri talaffuz etish.

Notliqlik san'ati qadimiy san'at turlaridan bo'lib, u ma'lum bir shaxs iqtidori va qobiliyati sifatida namoyon bo'lib, o'z nutqi bilan muayyan guruh, jamoa yoxud jamiyatning rivojlanishi uchun xizmat qiladigan fikr va g'oyalarni ifoda eta oladigan nutq egasidir. Shuning uchun ham notliqlik san'ati sarkardalik darajasi bilan qiyos etiladi. Bu san'at qadim Yunoniston (Gretsiya) mamlakatida shakllangan bo'lib, keyinchalik boshqa mamlakatlarga ham keng tarqalgan, bu mamlakatda Perikl, Lisiy, Aristotel, Demosfenlar notliqlik san'atida juda katta shuhrat qozonganlar. Ayniqsa, Aristoteldan so'ng Demosfen (384-323) bu sohada keng shuhrat qozonadi u notliqlik san'atini egallash uchun mashhur advokat Isey maktabida ta'lim oladi. Sud ishlari va notliqligini chuqur o'rganadi. Bu sohada mashhur

yozuvchi Esxil bilan o'zaro sud jarayonida tortishuvi butun mamlakat bo'ylab shov-shuvga aylanadi. Demosfenning notiqlik san'ati orqali Esxil katta jarimaga solinib, Afinadan badarg'a qilinadi. Notiqqa esa "Oltin gulchambar" mukofoti beriladi. Demosfenning ushbu suddagi nutqi vatanparvarlik namunasi sifatida shu nom bilan tarixda qolgan.

Aslida Demosfen nutq jarayonida "R" tovushini talaffuz etolmay, nutqi sustligidan bir necha marta minbarlardan tinglovchilar tomonidan tushirilib yuborilgan. U har kuni bir necha soatlab noto'g'ri talaffuz qilgan so'zlarini bot-bot takrorlab mashq qilgan. "R" tovushini talaffuz qilish uchun og'ziga tosh solib, qattiq va ravon gapirishga intilgan. Ana shunday murakkab harakatlar uni notiq darajasiga ko'targan.

Rim notiqlik san'ati yunon notiqlik san'atining davomi sifatida rivojlandi. Rimdagi tarixiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyot notiqlik san'atini yanada yangi darajaga ko'tardi. Bu mamlakatda notqlikning uch turi to'la shakllandi: **sud notiqligi, siyosiy notiqlik, maqto'v notiqligi.**

Sud jarayonida jabrlanuvchi manfaatini ko'zlab, nutq so'zlovchi notiq'larga **sinegorlar** deyilgan. Ularning nutqi sinegoriya deb atalgan. Keyinchalik ana shu sinegorlar toifasidan sud hay'atining ajralmas qismi advokatlar yuzaga keldiki, u sudda demokratik rol o'ynadi, deyish mumkin. Xuddi shuningdek, logograflar ham sinegorlardan o'sib chiqqan ixtisoslik egalari. Ular sud matnlarini yozib beruvchi shaxslar bo'lgan. Bu kasb egalari o'z ixtisosliklariga ko'ra huquqshunoslik, notiqlik va nutq matnini yozishda iqtidorli shaxslar bo'lishgan.

Siyosiy notiqlikda esa jamiyatda siyosiy va ijtimoiy g'oyalarni oldinga olib chiqi oladigan, unga ommani ishonтира oladigan notiq'lar muhim ahamiyat kasb etgan. **Maqto'v notiqligida** saylovlarda, jamoat orasida nufuzli shaxslarning o'mini yanada mustahkamlash uchun ularning xizmatlarini oshirib ko'rsatish maqsadida so'zlanadigan nutq egalari salohiyat kasb etgan. Xuddi shuningdek, notiqlik san'atini o'qitish uchun xizmat qiluvchi o'quv-mashq notiqligi vujudga kelgan. Bu o'quv-mashq notiqligi maktabi turli jarayonlarda notiqlik mahoratini kamol toptirgan.

Rimlik notiq'lardan biri eramizdan ilgari III- II asrlarda yashab o'tgan davlat arboblardan Mark Partius Kato yoki Katondir. Katon notiq sifatida nutq sanati nazariyasi va amaliyoti masalalari bilan maxsus shug'ullangan.

Keyinchalik Rimda aka-uka Tiberiy va Kay Grakx, Mark Anatoni, Mark Tulliy Sitseron kabi taniqli qator notiq'lar etishib chiqdilar. Ular orasida Sitseron sud notiqligi bilan shuhrat qozondi.

Mark Tulliy Sitseron (103-43) Rimdan uzoq bo'lmagan Arpina shahrida badavlat oilada dunyoga keladi. U YUnonistonning mashhur so'z

ustalari Litsiniy, Krass va Mark Antoniy kabi notiq'lardan so'z san'atining nozik sirlarini o'rganadi.

Sitseronning mashhur asari, uch kitobdan iborat "Notiq'lar haqida" deb nomlangan yuqorida zikr etilgan ustozlari tajribasi bayon etiladi. Bu kitobda Yuliy Sezar, Strabon, Katull, huquqshunos Ssevola Vauning shogirdlari Katt, Sulnitsiy Ruflarning ijtimoiy va siyosiy nutqlari, notiqlik san'ati iste'dodi yoritilgan. Sitseron ushbu asarida notiqlik san'atiga erishish uchun quyidagi talablarga qat'iy rioya qilishi lozim deb biladi:

1. Notiqning o'ziga ishonchi mustahkam bo'lishi kerak. Buning uchun esa notiq o'z nutqida olga suriladigan fikrga to'la ishonch hosil qilishi lozim.

2. Nutq to'liq isbotli dalillarga ega bo'lishi kerak.

3. Materialni to'plash nutqqa tayyorgarlikning asosidir.

4. Materialni to'g'ri joylashtirish – ekspozitsiyaga alohida etibor berish lozim. Joylashtirish shunday bo'lsinki, u materialni butunlay o'zlashtirib olishga yengillik yaratsin. Buning uchun esa nutqni aniq qismlarga bo'lish lozim.

5. Har qanday sohada ham nutqning muvaffaqiyatini bilish hal etadi. Agar notiq o'z nutqi qaratilgan sohani yaxshi bilmasa, u qanchalik sanatkor bo'lmasin, o'z tinglovchisini jalb etolmaydi.

Sitseron ushbu fikrlarini boyitib yana shunday deydi: "Kimki jo'n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o'rta darajada, ulug' hodisalar haqida esa zavq-shavq bilan gapirsa, shu odam san'atning chinakam ustasi bo'ladi"-deb aytadi.

Sitseronning yana "Notiq" va "Brut" ("Taniqli notiq'lar haqida") asarlari ham mavjud.

Notiqlik san'ati O'rta Osiyoda ham keng tarqalgan san'at turlaridan biri sanaladi. Ular orasida buyuk qomusiy olimlar A. Beruniy, A. Farobiy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Sakkokiy til, lug'at, grammatika va mantiqqa doir ilmiy asarlar yaratganlar. Bular o'z navbatida notiqlik san'ati rivojlanishiga munosib hissa qo'shishgan. Chunonchi, Beruniy asarlarida nutqni ikki xil yo'l bilan ifodalash –nabr va nazmda namoyon etish mumkinligini bildirsa, Farobiy grammatika va mantiq fanlarining nutqdagi o'rni va ahamiyatini izohlaydi.

Sharq notiqlik sanatining namoyondalaridan biri Kaykovusdir. U o'zining mashhur asari "Qobusnoma" bilan taniqlidir. Kaykovusning ushbu asari XI asr Sharq pedagogikasining nodir boyligi bo'lishi bilan bir qatorda notiqlik haqida ham nozik fikrlar bayon etilgan. Asrning "Suxandonlik bilan baland martabaga ega bo'lish haqida" deb nomlangan

ettinchi bobida va hunarni egallashga bag'ishlangan oltinchi bobida notiqlik sirlariga doir bildirilgan mulohazalar nafaqat o'sha davrda, balki hozirda ham katta ahamiyatga ega. U: "Notiqlikni egallash yo'li, birinchidan, tinimsiz mehnat qilishdir, deydi, – ikkinchidan, nutqing go'zal bo'lsin. So'zining ikki tomoni bordir. Biri go'zal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir. Xalq oldida gapiradigan so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul kilsin"

O'zbek mumtoz adabiyotining ulkan namoyandasi, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy butun ijodi bilan o'zbek tilining boyligi, naqadar go'zalligi, jozibadorligi, chuqur ma'no kasb etishini namoyon etdi. Shoirning "Agar sen shohsen-ogohsen, agar sen ogohsen- shohsen"- degan dono fikrida ham tilimizdagi so'z qadrini qanchalik yuksak darajada egallagan insonning shoh darajada bo'lishini anglash mumkin. U notiq (va'xzon yoki voiz) nutqidan inson hamisha ta'sirchan bo'lishini ta'kidlaydi: "Va'xzon shunday bo'lishi kerakki, uning majlisiga kirgan odam to'lib chiqsin, to'la kirgan odam esa yengil tortib, holi qaytsin". Uning voiz qanday bo'lishi haqidagi fikri ham ahamiyatlidir: "Voiz xaq so'zni targ'ib qilishi, Payg'ambar so'zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o'zi xaq va shu yo'lga solishi lozim. O'zi yurmagan yo'lga elni boshlamoq – musofirni yo'ldan adashtirib biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo'qotmoqdir. O'zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi - uyquchi kishining odamlarni bedorlikka davat etganiga o'xshash bir narsadir." Demak, voiz, avvalo, o'zi shariat va tariqat yo'lga kirgan notiq bo'lishi kerak ekan.

Navoiy davrining yuksak voizi, zamondoshi Mavlono Husayn Voiz Koshifiydir. O'zining "Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" (T, A Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, fors tojik tilidan N. Komilov tarjimai) asarida shunday yozadi: "Bilgilki, odamzodning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam, u sharaftan bebahradir. So'z hamma vaqt savob uchun ishlatilishi, to'g'ri va haqqoniy bo'lishi kerak. Notiq so'zlovchilarni ikki guruhga ajratadi: 1. Martabaga erishganlar. 2. Martabaga erishmaganlar.

Martabaga erishgan ulamolar (olimlar, oriflar-Sa) nutqda so'z o'mi va qadrini aniq biladiganlar hisoblanib, ular quyidagi qoidalarga rioya qilishlari zarur. Birinchidan, har kimning ahvoriga qarab, munosib so'z aytin. Ikkinchidan, dag'allik qilmasdan lutf va muloyimlik bilan gapirsin. Uchinchidan, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin. To'rtinchidan, ovozini baland ko'tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin. Beshinchidan, odamlarga nafi tegadigan

manoli gaplarni gapirsin. Oltinchidan, agar so'zning qadr- qimmatini bo'lmasa, uni tiliga olmasin, chunki ulug'larning so'zi bamisoli urug'dir, agar urug' puch yoki chirigan bo'lsa, uni erga eksang unib chiqmaydi –deb ko'rsatadi.

Martabaga erishmaganlar ko'pchilikni tashkil etib, endigina nutq fazilatlarini o'rganayotgan kishilardir. Ular quyidagi suhbat va nutq odobi qoidalarga rioya qilishlari zarur: birinchidan, so'zlamaganlarga gapirmasin. Ikkinchidan, so'zlayotganda ovozini baland ko'tarmasin. Uchinchidan, gapirayotganda o'ngu so'lga qaramasin. To'rtinchidan, g'arazli va kinoyali gaplarni gapirmasin. Beshinchidan, qattiq gapirmasin va betgachoparlik qilmasin. Oltinchidan, pushaymon bo'lmaslik uchun o'ylab gapirsin. Ettinchidan, odamlarning gapini bo'lib gap qaytarmasin. Sakkizinchidan, ko'p gapirmasin, chunki ko'p gapirish aqli nohislik belgisidir. Oz bo'lsa ham soz gapirishni shior etsin. (O'sha asar 3-7-5-8-betlar).

Notiqning quyidagi fikrlari ham ibratlidir: "Agar so'z senikimi yoki sen so'znikimi, deb so'rasalar aytgil: men so'zniki va so'z menikidir. CHunki so'z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib bo'lmaydi. Agar nuqsonli so'z qaysidir, deb so'rasalar, Xudo va Rasulning so'ziga (teng-S. A.) kelmaydigan so'zdir". (O'sha asar, 58-bet)

O'zbek adabiyotida ham o'z asarlari va nutq irod qilish mahorati bilan mashhur adiblar anchagina. Ular orasida Behbudiy, A. Avloniy, A. Qodiriy, Fitrat, CHo'lpon, G'. G'ulom, Oybek, X. Olimjon, M. Shayxzoda, A. Qahhorlar nomini ehtirom bilan tilga olmoq lozim. Keyingi yillarda esa S. Ahmad, Odil YOqub, P. Qodirov, E. Vohidov, A. Oripov, Sh. Xolmirzaev, O'zbek Hoshimov, Tog'ay Murod kabi adiblar ham o'z asarlari bilan xalq orasida shuhrat qozonganlar.

Birgina H. Olimjonning "Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman" maqolasida butun xalqni dushmanga harshi kurashga da'vat etuvchi so'zlari nihoyatda ta'sirlidir: "Qadim o'zbek yigitlari uzoq safarga otlanganlarida o'zlari bilan bir siqim ona tuproqni ham olib borganlar. Bu tuproq ularni xatarlardan himoya qilgan, ularni o'q o'ldira olmagan, nayza tesha olmagan, o'tdan olib o'tga tashlaganda ham omon saqlagan". Bir siqim tuproq-Vatan timsoli, yurt himoyasi uchun fidoyilik ramzi ekanini his qilish qiyin emas.

Xullas, yuqoridagi fikrlardan aniqlash mumkinki, suhbat va nutq madaniyati insonning jamiyatdagi o'mini topishda, shaxs va mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatishga erishtiradi. Nutq madaniyati – ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir.

Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli — yozma va ogʻzaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga eʼtibor yolgʻiz oʻqituvchidan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda oʻzlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlaridan biridir. Uni egallash har bir oʻqituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bogʻliq. Oʻqituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat maʼnaviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi meʼyordir. Oʻqituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga etadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar oʻgiti natijasida yillar davomida takomillashib boradi. Oʻqituvchida nutqiy qobiliyat boʻlishi lozim. Uni rivojlantirish faqat oʻqituvchining shijoatiga bogʻliq.

Nutq madaniyatining va notiqlik sanʼatiga umumiy, oʻxshash tomonlari bor. Har ikkala soha til va nutq, inson nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi oʻqituvchi nutqiy faoliyatining taʼsirchan, chiroyli boʻlishi uchun zarur hodisa boʻlib, uning nutqiy madaniyatini oʻstirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notiqlik sanʼati ham nutqning maʼnoliligi, nutqiy goʻzallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziqlanadi.

Baʼzi shaxslarda uchraydigan notiqlik sanʼati ogʻzaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiluvchi alohida sanʼatdir.

Nutq madaniyati va notiqlik tushunchalari orasida baʼzi oʻxshashlik, umumiy tomonlar bor. Bu har ikkala sohaning pirovard maqsadi, ish faoliyatining mushtarakligida koʻrinadi. Ammo shunga qaramasdan, nutq madaniyati tushunchasi bilan notiqlik tushunchasi aynan bir xil narsa emas. Oʻqituvchi nutq madaniyati va notiqlik orasidagi baʼzi muhim farqli tomonlarni va belgilarni bilishi lozim. Bular quyidagilar:

1. Nutq madaniyati, chinakam maʼnoda adabiy til bilan bogʻliq hodisadir. Uning paydo boʻlishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning normalari bilan bogʻliq. Notiqlik sanʼati uchun bular asosiy belgilar emas. Notiqlar orasida adabiy til talablariga toʻla amal qilmaydiganlar, maʼlum vaqtgacha, shevada ham chinakam notiqlik sanʼatini namoyish qilib kishilar qalbiga taʼsir qiluvchilar uchraydi. Soʻzga chechanlik, notiqlik, til materialining xarakteriga qarab emas, notiqning chinakam soʻz ustasi ekanligiga, tinglovchilarni oʻziga jalb etishida, taʼsirchan nutqiy sanʼatiga qarab belgilanadi.

6.2. Sharq va gʻarb mutafakkirlarining notiqlik sanʼati haqida qarashlari

Jim-jimador gapirishdan saqlan.

Til oddiy va goʻzal boʻlsin.

A.P.Chexov

Tayanch soʻzlar: *Notiqlik sanʼati, sharq notiqligi, gʻarb notiqligi, rim notiqligi, notiqlik qonuniyatlari, goʻzal va chiroyli nutq.*

Notiqlik sanʼatiga eramizdan oldingi VII asrda Yunonistonda asos solingan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilar edi. Ular, notiqlik sanʼatining yetuk namoyondalari boʻlib, oʻzlarining chiroyli soʻzlari, baland va taʼsirchan ovozlari bilan odamlar tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, taʼlim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik sanʼati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va meʼmorilik bilan birga notiqlik sanʼati ham murakkab va muhim sanʼat asari sifatida tan olingan. Notiqlik sanʼatini davlatning muhim ijtimoiy-siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga qizgʻin taʼsir etuvchi murakkab vosita ekanligi uchun Yunonistonda uni “Sanʼatlar shohi” deb atashgan.

Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda “Notiqlik sanʼati”ning eng takomillashgan va rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda notiqlik sanʼatining quyidagi uchta qonuniyatiga ayniqsa jiddiy eʼtibor berilgan:

- tinglovchiga tushuntirish (maʼlum bir gʻoyaʼni);
- tafakkurini uygʻotish (fikrini, ongini, maqsadini);
- tinglovchini oʻziga jalb qilish (huzur halovat va qoniqish hissini uygʻotmoq).

Notiqlar ushbu qonuniyatlarga amal qilgan holda “tinglovchilarga halovat bagʻishlash” orqali odamlarni ezgulikka, adolatparvarlikka, vatan oldidagi burchlariga sadoqatli boʻlishga, eng yaxshi insoniy fazilatlariga amal qilib, ularni bajarishga, odob va axloq qoidalariga rioya qilishga chorlar edilar. Bu ularning asosiy vazifasi hisoblanardi. Notiqlik sanʼatini chuqur egallagan, oʻzlarining goʻzal va chiroyli nutqlari bilan jamiyatda hurmat va eʼtibor qozongan Dinarx, Giperid, Gorgiy, Isokrat, Isey, Esxil,

Demosfen kabi namoyondalar Yunonistonning mashhur davlat arboblari bo'lib etishganlar.

Yunon notiqchilari og'zaki nutqning shakli va qonuniyatlarini, mulohaza va isbot kabi mantiq ilmi qoidalarini chuqur o'zlashtirganlar. Ular o'z fikrlari va tuyg'ularini ruhan o'quvchilar hamda tinglovchilar tafakkuri va ongiga chuqur singdira olganlar va keskin ta'sir o'tkazganlar. Har bir notiq o'z ustida yillab tinimsiz mashg'ulotlar olib borgan, sehrli ovoz sohibi bo'lish uchun nutq texnikasining barcha qonuniyatlariga amal qilganlar. Ular o'zlarining ta'sirchan nutqlarini namoyish qilish bilan notiqlik san'atini "Mafkuraviy va siyosiy kurash hamda yosh avlodni tarbiyalash quroli" deb hisoblagan va buni o'z faoliyatlarida isbotlab berganlar.

Mashhur faylasuf olim Sokrat (eramizdan avvalgi 469 — 399 yillar) savol-javob usuli orqali suhbat metodiga asos solganligi ma'lum.

Sokratning shogirdi Platon esa o'z ustoziga g'oyalarini davom ettirib, savol-javobni notiqlik san'atining bir shakli sifatidagi ahamiyatini yoritadi hamda uni inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og'zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslub sifatida baholab, uni mazmunan yanada boyitdi.

Yunonistonda notiqlik san'atining gullab yashnashi Demosfen (eramizdan avvalgi 384—322 yillar) nomi bilan uzviy bog'langan. U yoshlik yillaridanoq notiqlik san'atiga qiziqdi. Tug'ma duduq bo'lishiga qaramasdan, o'quvchi va tinglovchilarning istehzolariga bardosh berib, qizg'in va shiddatli mehnati bilan notiqlik mahoratini namoyish eta olgan. Faqat Demosfen Yunonistonda notiqlik san'atining etuk namoyodasi, ya'ni o'z davrining notiqlik san'ati bo'yicha elitasi sifatida mashhur bo'ldi. U davlat tribunasini siyosiy va mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi.

Demosfenning notiqlik san'ati g'oyalarini davom ettirib, qadimgi Yunonistonda Mark Sitseron (eramizdan avvalgi 106—43 yillar) nutq mahorati, uni takomillashtirish yo'llari, nazariyasi va tarixi bo'yicha o'z tajribalaridan kelib chiqib, bir nechta asarlar yaratdi. Sitseronning notiqlik san'ati tarixiga bag'ishlangan "Brut", "Notiqlik san'ati namoyondalari", "Notiq", "Notiqlik haqida" kabi asarlari shular jumlasidandir. Notiqlik san'atining ulkan imkoniyatlarini, odamlarni va jamiyatni boshqarishda qudratli kuch ekanligini ta'kidlab, uni davlatning siyosiy jihatdan bosh quroli deb hisoblaydi. Shu sababli har bir davlat rahbari va davlat arbobi notiqlik san'atining cheksiz imkoniyatlarini chuqur egallashi lozimligini aytadi. Sitseronning notiqlik san'ati nazariyasida "Ideal notiq" haqidagi g'oyalari muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, "Ideal notiq egasi yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimga ega, tafakkuri boy faylasuf bo'lishi kerak." Ideal notiqlar tinglovchilar qalbiga va his tuyg'ulariga tez, chuqur kirib

borishi, ularning kayfiyatini, ruhiyatini bilib, shodlik va sevinch tuyg'ularini, yoki aksincha, g'azab va nafratini ta'sirchan nutqi asosida uyg'ota olishi lozim.

Sitseron tomonidan ishlab chiqilgan va nazariy hamda amaliy jihatdan asoslangan notiqlik san'ati haqidagi ma'lumotlarni, tizimlar va uslublarni rimlik Kvintilian (eramizdan avvalgi 35-95 yillar) ma'lum bir tartibga keltirib, tabahalashtirib, undan shu soha bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchilar unumli foydalanishlari uchun qayta ishlab chiqdi. U notiqlik san'atining balandparvoz, asabga teguvchi teatr artistlariga xos ovoz ritorikasiga harshi edi. Kvintilianning fikricha, notiq tashqi ovoz natijalari bilan emas, balki ilmiy asosga ega, mazmunan boy, mukammal va "tiniq" nutq orqali ulkan yutuqlarga erishishi mumkin. U "Tarbiya haqida" asarida o'z nazariyalariga asoslanib, notiqlik san'atini o'rganish metodikasini yaratdi. Faylasuf olim o'z asarida ilk bor, notiqlik san'atining maktabda bolalar ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'siri haqidagi g'oyalarini ilgari surdi, o'qituvchilarga tarbiyachilar bilan qizg'in faoliyat olib borishlari uchun notiqlik san'atini mukammal o'rganishga doir metodikasini taqdim etdi.

Mamlakatimizda notiqlik san'atining rivojlanishi O'rta Osiyo madaniyati tarixi bilan bog'liq bo'lib, nutq madaniyati hamisha o'ziga xos mavqega ega bo'lib kelgan. O'rta Osiyoda notiqlik san'atining xususiyatlari shundan iboratediki, u eng avval o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilaredi. **Bu davrda notiqlik san'ati ustalarini nadimlar, hissaguylar, masalguylar, badihago'ylar, qiroatxonlar, muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham anashundan dalolat beradi. Movarounnahrda notiqlik san'ati voizlik deb atalgan.** Voizlik, ya'ni va'zxonlik haqida «Qur'on»ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan o'rinni foydalanish borasida yaxshi fikrlar aytilgan. Ammo tilning yaratuvchisi xalq ekanliginiva uning, eng avvalo, xalqqa xizmat qilishini to'g'ri anglovchi sog'lomfikrli kishilar uning ijtimoiy mohiyatini doimo to'g'ri tushunibkelganlar.

Sharq mutafakkirlari mudarrisning muloqotga kirishish odobi to'g'risidagi adabiy meroslarida ko'plab ijobiy fikrlarini bayon qilganlar. Ana shu nuqtainazardan haralsa, «Nutq odobi», «Muomala madaniyati» nomlari bilan yuritilib kelingan nutq madaniyati tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini jalb etgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Unsurul Maoliy Kaykovus Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi

Ba'zi shaxslarda uchraydigan notiqlik san'ati og'zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiluvchi alohida san'atdir.

Nutq madaniyati va notiqlik tushunchalari orasida ba'zi o'xshashlik, umumiy tomonlar bor. Bu har ikkala sohaning pirovard maqsadi, ish faoliyatining mushtarakligida ko'rinadi. Ammo shunga qaramasdan, nutq madaniyati tushunchasi bilan notiqlik tushunchasi aynan bir xil narsa emas. O'qituvchi nutq madaniyati va notiqlik orasidagi ba'zi muhim farqli tomonlarni va belgilarni bilishi lozim. Bular quyidagilar:

1. Nutq madaniyati, chinakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bo'lishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning normalari bilan bog'liq. Notiqlik san'ati uchun bular asosiy belgilar emas. Notiqlik orasida adabiy til talablariga to'la amal qilmaydiganlar, ma'lum vaqtgacha, shevada ham chinakam notiqlik san'atini namoyish qilib kishilar qalbiga ta'sir qiluvchilar uchraydi. So'zga chechanlik, notiqlik, til materialining xarakteriga qarab emas, notiqning chinakam so'z ustasi ekanligiga, tinglovchilarni o'ziga jalb etishida, ta'sirchan nutqiy san'atiga qarab belgilanadi.

2. Notiqlik – bu nutqning og'zaki shaklidir. Notiqlik san'ati og'zaki nutq san'atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli bo'lgan tushunchalardir.

3. Nutq madaniyatini jamiyat a'zolarining umumiy nutqiy faoliyatini ko'zda tutadi. Nutq madaniyati sohasining maqsadi va pirovard orzusi yosh avlod nutqini madaniylashtirishni mo'ljallaydi. Chin ma'nodagi notiqlik san'ati esa, alohida shaxslarning nutqiy mahoratini va san'atini ifodalaydi. Notiqlik, asosan nutq vositasida o'qituvchilar jamiyat talablari asosida yosh avlodga muayyan ta'lim va tarbiya beradi, yuqori malakali, raqobatbardosh, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlaydi.

4. San'atkor notiq nutqi, asosan, ko'pchilik tinglovchilarga, keng auditoriyalarga mo'ljallangan bo'ladi. Notiqni bir kishidan ortiq shaxslar tinglaydi. Nutq madaniyati mana shunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

5. O'qituvchi adabiy tilning keng imkoniyatlari va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan tajribali notiq bo'lishi mumkin. Biroq hamma o'qituvchi ham san'atkor ma'nosidagi mukammal notiq bo'la olmaydi. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir o'qituvchi nutq madaniyatidan xabardor bo'lishi shart.

6. Nutq madaniyati ko'pchilikka mo'ljallangan, ma'lum bir maqsadni ko'zda tutib ish ko'ruvchi soha. Bu ma'noda u keng omma uchun

mo'ljallangan talabdir, ammo notiqlik – shaxsiy qobiliyatdir.

7. Nutq madaniyati – bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, ya'ni adabiy tilni va uning normalarini o'rganish va bu normalarni qayta ishlash ishi bilan ham shug'ullanadi. Notiqlik san'ati esa bunday ilmiy – normativ faoliyatni ko'zda tutmaydi.

8. Notiqlik, ko'proq nutqning mazmunini, mantiqiy asoslarini, mundarijaviy tuzilishini e'tiborga oladi, nutq madaniyati esa, nutqning til qurilishi – lisoniy tuzilishiga e'tibor qiladi.

9. Notiqlik san'ati notiq uchun oldindan qanday so'zlash tizimi va rejasini bermaydi. Nutq madaniyati sohasi esa jamiyat a'zolarini ona tili, ya'ni adabiy til boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozasi talabiga ko'ra o'rinni foydalana olish ko'nikmasini beradi. Bunday ko'nikma, aslida har qanday san'atkor notiq uchun ham zarur.

10. Notiqlik san'ati haqidagi fan ancha qadimiy tarixga ega, nutq madaniyati ilmiy muammo va ilmiy soha sifatida muntazam yangilanib boradi.

O'quvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish o'qituvchi oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa, o'qituvchida yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasini bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, o'quvchilarni avvalo nutq rejasini bilan tanishtirib, so'zni boshlash lozim. Vaqtini hisobga olish, notiqlik fazilatlaridan biridir. CHunki so'zlash muddati oldin e'lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo'lsa, sal oldinroq tugatilsa, o'quvchilar zerikishmaydi.

Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligi haqidagi gap ma'lum ma'noda nutq sifatleri haqida aytilgan gaplarga yakun yasashdir. CHunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatoliklarni tahlil qilish, pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqdagi fikrlarni o'quvchilarga mazmunli yetkazishning xilma-xil yo'llari va vositalari mavjud. Ularni yordamchi vositalar deb ham atash mumkin. Masalan, yumor yoki biror hikoyatni olaylik. Nutqdagi uzluksiz ilmiy-ommabop fikr oqimi, uning bir maromda bayon qilinishi o'quvchini ham, har qanday tinglovchini ham zeriktirib qo'yishi mumkin. Shunday paytda, yumor, hikoyat notiq-o'qituvchiga juda qo'l keladi. Yumorning nutq mazmuniga mos holda keltirilishi yana ham yaxshidir. Shunday qilinsa, o'quvchi ham dam oladi, ham o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi.

Nutqda mavzu doirasida ba'zi fikr va mulohazalarni keltirish ham maqsadga muvofiqdir. Bunday fikrlar notiq fikrining to'g'riligini, haqqoniy ekanligini isbotlash uchun foydalaniladi, faqat ulardan foydalanishni suiste'mol qilmaslik kerak. Badiiy adabiyot namunalaridan, hikmatli so'zlardan, tildagi ifoda – tasvir vositalaridan nutqda o'rni bilan foydalanish ham foydadan holi bo'lmaydi.

Nutqning o'quvchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida notiq-o'qituvchining nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, imo-ishoralari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham o'rni bor. Samimiylik, xushmuomalalik, odoblilik, o'quvchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning o'quvchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi.

Mukammal notqlik san'atiga ega bo'lish – o'qituvchilar uchun ulkan mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Nutqning o'tkirligi, yorqinligi va originalligi tinglovchi va o'quvchida his-tuyg'u va qiziqish uyg'otishi, uning e'tiborini qaratichi, aytilayotgan narsaning mazmunini yaxshilab yetkazish uchun zarurdir.

Demak, nutq aniq va ravon bo'lishi, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi, adabiy talaffuz qoidalariga bo'ysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida o'rganilayotgan bilim o'quvchi qalbiga borib etadi. Shunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun o'qituvchidan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishlash, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq talab qilinadi.

6.4. Hozirgi davrda o'qituvchining nutq madaniyatini oshirishda notqlik san'atini egallash yo'llari

*Ishonch bilan gapir, ana shunda
so'z ham tinglovchilarni mahliyo
etish ham o'z-o'zidan kela qoladi.*
I. Gyote

Tayanch so'zlar: *O'qituvchi nutq odobi, o'qituvchining notqlik san'ati, nutq texnikasi, nutq sur'ati.*

Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili necha asrlik tarixiy taraqqiyoti davrida shakllanib, takomillashib, rivojlanib kelmoqda, U yangi demokratik jamiyatda, ayniqsa, siyosat, ijtimoiy taraqqiyot, madaniyat, fan va texnik

rivojlanishi bilan bog'liq har qanday murakkab tushuncha va tasavvurlarni, g'oya'ni xalqqa yetkazishda munosib aloqaviy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu asosda ulug' avlodlarimiz vakillarini har tomonlama milliy ruh, yuksak ma'naviy qudrat egasi, o'zligini anglash tuyg'usini kamol toptirishdek eng muhim vazifani ado etmoqda.

Yangi jamiyatni barpo etish, xalqimiz ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, yangi demokratik jamiyatning har bir shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalashimiz, yurt fuqarolarining ilg'or qatlami sanalgan o'qituvchi-pedagoglari oldida ham juda katta masuliyat yuklaydi. O'qituvchining asosiy vazifasi-yosh avlodni jismonan baquvvat, ma'nan barkamol, yuksak ilm sohibi va namunali insoniy fazilatlarining beqiyos egasi sifatida tarbiyalashdan iborat. O'qituvchi hamisha yangi davr o'zgarishlari, g'oyaviy-siyosiy, madaniy, ilmiy, qarashlari va yangiliklarini chuqur his qilgan holda dars jarayonida katta usuliy tayyorgarligi bilan ana shu maqsadga erisha oladi. Buning uchun esa o'zbek adabiy tilining fonetik, lug'aviy, orfografik (imlo) va grammatik xususiyatlarini yaxshi anglagan, bu sohada atroflicha bilim va malakaga ega bo'lishi lozim.

Til – ichki jihatdan tabiiylik kasb etsa-da, tashqi jihatdan, yangi bir butunlik sifatida ijtimoiy hodisadir.

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi uning jamoa, jamiyat va o'zaro munosabatda fikr ifodalash, aloqa vositasi sifatida xizmat qilishidir. Jamiyatdagi kishilarning ana shu til birliklari: lug'at tarkibi, tovushlar tizimi, grammatik va intonatsion qoidalaridan to'g'ri, aniq va jonli foydalanishlari asosida nutq paydo bo'ladi. Umuman, nutqni, bir imorat deb tasavvur qilsak, unga ketadigan g'isht, yog'och kabi barcha materiallari til asosida shakllanadi, barqarorlik topadi. Yanada oydinroq qilib gapirganda, nutq til birliklari va vositalari orqali yaraladi, nutqning ham ijtimoiyligi yuzaga keladi.

“Nutq madaniyati” fani predmetining asosi- kishilar nutqining adabiy til me'yorlari nuqtai nazardan me'yoriyligini kuzatish, uslubiy jihatdan to'g'ri va aniqligini izohlash, nutqning to'g'riligi, sofligi, ifodaliligi, mantiqiyliigi, ta'sirchanligi, shu asosda uning go'zalligini his qilishdir. Shaxs unga erishish uchun quyidagi vazifalarni doimiy va muntazam bajarib borishi zarur:

1. Har bir shaxs o'zbek adabiy tili me'yorlarini doimiy tarzda o'rganib, tilning fonetik, leksik, grammatik va intonatsion qoidalarini nazariy, ilmiy jihatdan egallab borishi zarur.

2. Tilimizdagi so'zlarning lug'aviy manosiini har doim chuqur anglashga, yangi so'zlarni faol nutqqa aylantirishi, ular orqali so'z

- o muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati;
- o irodaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
- o ishontira olish qobiliyati.

Nutq malakalari va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi notiqning umumiy ruhiy, jismoniy xususiyatlarini rivojlantirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziya'ni rivojlantirish ko'zda tutiladi. Bunday faoliyatda tovush, diapazon, tembr, diksiya, ritmika muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, notqlik san'atiga erishish, nutq madaniyatining har bir talablariga to'la javob berish va ijodiy faoliyat ko'rsatish demakdir. Bu esa o'qituvchidan juda katta mas'uliyatni talab etadi.

Bob natijasini aniqlovchi savollar:

1. Notqlik san'atini qanday tushunasiz?
2. Nutq madaniyati tarixi haqida nimalar bilasiz?
3. Notqlik san'atiga kim asos solgan?
4. G'arb notiqalaridan kimlarni bilasiz?
5. Sharq notiqalaridan kimlarni bilasiz?
6. Donolarning nutq odobi haqidagi fikrlarini keltira olasizmi?
7. Donolarning notqlik san'ati va sirlari haqidagi fikrlarini bilasizmi?
8. Notqlik san'atini qanday tushunasiz?
9. Nutq madaniyati tarixi haqida nimalar bilasiz?
10. Notqlik san'atiga kim asos solgan?
11. O'qituvchining dars jarayonidagi etiketi nimalardan iborat?
12. O'qituvchining jamoa orasidagi etiketi qanday bo'lishi shart.
13. O'qituvchining rasmiy, siyosiy, ijtimoiy, adabiy –madaniy tadbir va yig'ilishlardagi etiketlali xususida nimalar bilasiz?
14. Oila etiketi haqida ham tushuncha va tasavvurlaringizni gapiring.
15. O'qituvchining dars jarayonidagi etiketi nimalardan iborat?
16. O'qituvchining jamoa orasidagi etiketi qanday bo'lishi shart.
17. O'qituvchining rasmiy, siyosiy, ijtimoiy, adabiy –madaniy tadbir va yig'ilishlardagi etiketlali xususida nimalar bilasiz?
18. Oila etiketi haqida ham tushuncha va tasavvurlaringizni gapiring.

Bob yuzasidan test savollari:

1. Shaxsning o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalash usuli nima deyiladi?

214

- a) uslub;
- b) mahorat;
- c) iste'dod;
- d) metod.

2. Nutqning turli uslublari haqidagi ta'limot beruvchi fanning nomini belgilang

- a) uslubshunoslik;
- b) nutq madaniyati;
- c) tilshunoslik;
- d) adaniyatshunoslik.

3. Qaysi nutq uslubida badiiy til vositalari, ko'chma ma'noli so'zlar, iboralardan unumli foydalaniladi?

- a) so'zlashuv uslubda;
- b) publitsistik uslubda;
- c) ilmiy uslubda;
- d) badiiy uslubda.

4. Prezident Farmonlari, Oliy Majlis qarorlari, Xalqlar o'rtasidagi shartnomalar va rasmiy ish qog'ozlari, yuridik hujjatlar, qonunlar, buyruq va qarorlar, idoraviy hujj atlar qaysi nutq uslublari talablari asosida yoziladi?

- a) rasmiy uslub;
- b) publitsistik uslub;
- c) ilmiy uslub;
- d) so'zlashuv uslub.

5. Qaysi nutq uslubi haqida fikr yuritilayotganligini aniqlang. “Ikki yoki undan ortiq kishining suhbat, muloqoti shu uslubda quriladi. Bu uslub–erkin uslub deyiladi. Chunki tilning umumiy yoki xususiy me'yoridan ko'proq foydalaniladi. Madaniy ko'rinishi adabiy tilga asoslanganligidir”

- a) badiiy uslub;
- b) so'zlashuv uslub;
- c) ilmiy uslub;
- d) kitobiy uslub.

6. Qaysi nutq uslubi haqida fikr yuritilayotganligini aniq lang. “Fikrning aniq, mantiqli va muayyan dalilga asoslanganligini talab etadigan uslub. Fan-texnika madaniyat, san'at sohasida yoziladigan darslik, monografiya, bitiruv malakaviy ish, ilmiy maqola va ma'ruzalar shu uslubda yoziladi. Undagi asosiy xususiyat, fanga doir atamalar, qoida, shartli belgilar, chizma va grafik shakllarining ifodalanishidir”

215

- o muloqotda o'zining ruhiy holatini boshqara olish qobiliyati;
- o irodaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
- o ishontira olish qobiliyati.

Nutq malakalari va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli egallash uchun sharoit yaratuvchi notiqning umumiy ruhiy, jismoniy xususiyatlarini rivojlantirish, bunda tasavvurni, obrazli xotira va fantaziya'ni rivojlantirish ko'zda tutiladi. Bunday faoliyatda tovush, diapazon, tembr, diksiya, ritmika muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, notqlik san'atiga erishish, nutq madaniyatining har bir talablariga to'la javob berish va ijodiy faoliyat ko'rsatish demakdir. Bu esa o'qituvchidan juda katta mas'uliyatni talab etadi.

Bob natijasini aniqlovchi savollar:

1. Notqlik san'atini qanday tushunasiz?
2. Nutq madaniyati tarixi haqida nimalar bilasiz?
3. Notqlik san'atiga kim asos solgan?
4. G'arb notiqalaridan kimlarni bilasiz?
5. Sharq notiqalaridan kimlarni bilasiz?
6. Donolarning nutq odobi haqidagi fikrlarini keltira olasizmi?
7. Donolarning notqlik san'ati va sirlari haqidagi fikrlarini bilasizmi?
8. Notqlik san'atini qanday tushunasiz?
9. Nutq madaniyati tarixi haqida nimalar bilasiz?
10. Notqlik san'atiga kim asos solgan?
11. O'qituvchining dars jarayonidagi etiketi nimalardan iborat?
12. O'qituvchining jamoa orasidagi etiketi qanday bo'lishi shart.
13. O'qituvchining rasmiy, siyosiy, ijtimoiy, adabiy –madaniy tadbir va yig'ilishlardagi etiketlali xususida nimalar bilasiz?
14. Oila etiketi haqida ham tushuncha va tasavvurlaringizni gapiring.
15. O'qituvchining dars jarayonidagi etiketi nimalardan iborat?
16. O'qituvchining jamoa orasidagi etiketi qanday bo'lishi shart.
17. O'qituvchining rasmiy, siyosiy, ijtimoiy, adabiy –madaniy tadbir va yig'ilishlardagi etiketlali xususida nimalar bilasiz?
18. Oila etiketi haqida ham tushuncha va tasavvurlaringizni gapiring.

Bob yuzasidan test savollari:

1. Shaxsning o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalash usuli nima deyiladi?

- a) uslub;
- b) mahorat;
- c) iste'dod;
- d) metod.

2. Nutqning turli uslublari haqidagi ta'limot beruvchi fanning nomini belgilang

- a) uslubshunoslik;
- b) nutq madaniyati;
- c) tilshunoslik;
- d) adaniyatshunoslik.

3. Qaysi nutq uslubida badiiy til vositalari, ko'chma ma'noli so'zlar, iboralardan unumli foydalaniladi?

- a) so'zlashuv uslubda;
- b) publitsistik uslubda;
- c) ilmiy uslubda;
- d) badiiy uslubda.

4. Prezident Farmonlari, Oliy Majlis qarorlari, Xalqlar o'rtasidagi shartnomalar va rasmiy ish qog'ozlari, yuridik hujjatlar, qonunlar, buyruq va qarorlar, idoraviy hujjatlar qaysi nutq uslublari talablari asosida yoziladi?

- a) rasmiy uslub;
- b) publitsistik uslub;
- c) ilmiy uslub;
- d) so'zlashuv uslub.

5. Qaysi nutq uslubi haqida fikr yuritilayotganligini aniqlang. "Ikki yoki undan ortiq kishining suhbat, muloqoti shu uslubda quriladi. Bu uslub–erkin uslub deyiladi. Chunki tilning umumiy yoki xususiy me'yoridan ko'proq foydalaniladi. Madaniy ko'rinishi adabiy tilga asoslanganligidir"

- a) badiiy uslub;
- b) so'zlashuv uslub;
- c) ilmiy uslub;
- d) kitobiy uslub.

6. Qaysi nutq uslubi haqida fikr yuritilayotganligini aniq lang. "Fikrning aniq, mantiqli va muayyan dalilga asoslanganligini talab etadigan uslub. Fan-texnika madaniyat, san'at sohasida yoziladigan darslik, monografiya, bitiruv malakaviy ish, ilmiy maqola va ma'ruzalar shu uslubda yoziladi. Undagi asosiy xususiyat, fanga doir atamalar, qoida, shartli belgilar, chizma va grafik shakllarining ifodalanishidir"

ifodalanadi;

fikr mantiqiy va ashyoviy dalillar bilan mustahkamlanib boradi;

b) to'liqsiz gaplar, bir tarkibli so'zlar, so'z-gaplar deyarli uchramaydi

c) fanning turli sohalariga oid so'z va atamalarni qo'llash;

d) bayonning mantiqiy dalillarga suya'nishi bilan farqlanadi.

18. Nutqning to'g'riligi deganda nimani tushunasiz?

a) nutqning to'g'riligi uning adabiy til me'yorlariga mosligidir;

b) uslubiy me'yorga rioya qilgan nutq to'g'ri nutqdir;

c) grammatik me'yorga rioya qilgan nutq to'g'ri nutqdir;

d) fonetik jihatdan rioya qilingan nutq to'g'ri nutqdir.

19. "Qozon" so'zi nutqda to'g'ri qo'llangan qatorni toping:

a) qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi;

b) u Kazanga jo'nab ketdi;

c) bir qazon ovqatni paqqos tushirdi;

d) qozangap Edigeyning do'sti edi.

20. Adabiy til me'yoriga mos qatorni toping

a) bu ishga hamma mahsul edi;

b) bu ishga hama ma'sul edi;

c) bu ishga hamma mas'ul edi;

d) ishga hamma mahsuldor edi.

21. Uslubiy jihatdan xato fikrni toping:

a) veterinar bo'g'oz mollarni ko'zdan kechirdi;

b) bo'g'oz xotinlar nazoratdan o'tkaziladi;

c) homilador ayollarga shifokor maslahat berdi;

d) u Fors bo'g'ozida joylashgan.

22. Grammatik me'yorga rioya qilingan qatorni toping:

a) meni kitobim uyda qolibdi;

b) mening kitobim esimdan ko'tarilibdi;

c) mening kitobim uyda qolibdi;

d) mening kitobim uyda qolibti.

23. Tushum kelishigi belgisiz qo'llangan qatorni toping:

a) cho'l havosi dillarga huzur baxsh etdi;

b) ular olma daraxti tagida o'tirishdi;

c) kitob o'qishni bir dam ham unutmang;

d) bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi.

24. Kitobni o'qiganlik haqidagi fikr qaysi qatorda ifodalangan?

a) men bu kitobni o'qidim;

b) bu kitobni men o'qidim;

c) o'qidim men bu kitobni;

d) men kitobni bunda o'qidim.

25. "Katta boshimni kichik qilib yoningizga keldim"–degan ibora qaysi paytda to'g'ri sanaladi?

a) talabani domla oldidagi iltimosi;

b) do'stlar orasidagi uzrida;

c) yigit va qiz o'rtasidagi kechirim;

d) keksa, hurmatli kishining o'zidan kichik yoshidagi yaqin kishi oldidagi uzri.

26. "Andiz bilan cho'l ko'karar, qiz bilan el ko'karar"–maqolida kim ulug'langan?

a) andiz

b) cho'l

c) qiz

d) el

Bob bo'yicha adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov S. A. va b. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish T. "O'zbekiston" 2003 68-86 betlar.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", I jild. NMIU, 2017, – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : "O'zbekiston", NMIU, 2017, - 488 b.

4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va insom manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, "Ma'naviyat", 2017, - 416 b.

5. Qo'ng'urov R, Begmatov E, Tojiev E. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. - Toshkent: "O'qituvchi", 1992, 75-103-betlar.

6. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -Toshkent: "O'qituvchi", 1993, 83-86-betlar.

7. Begmatov E va boshqalar. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. - Toshkent: "Fan", 1988, 70-80-betlar.

8. Qilichev E, Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. - Buxoro "Buxoro davlat universiteti", 2002, 41-50-betlar.

9. Bekmirzaev N. Nutq madaniyati va notqlik asoslari. - Toshkent: "Fan", -2007, 148-153-betlar.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da har tomonlama etuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning mohiyati, zaruriyati, zamonaviy fan va texnikaning rivojlanish talablariga mos, barkamol avlodni tarbiyalash masalalari izchillik bilan tahlil etilgan, dolzarb vazifalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Shu bois, tinglovchilarni hozirgi zamon talabi ruhida tarbiyalash, olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, ko'nikma, malakalarini shakllantirishga qaratilgan ko'pgina ta'lim-tarbiya vositalari, uslubiy shakl yo'riqlari mavjud. Jumladan, bu borada tinglovchilarni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llanilgan usullar, vositalar, tadbir shakllari, urf-odatlar va an'analar, g'oyalar, hayotiy tajribalardan iborat namunalar majmuasidir.

O'quv qo'llanmada mualliflar pedagogik mahorat va nutq madaniyati talablari asosida faoliyat yuritish zarurligi bilan tanishtirish, pedagogik mahorat elementlari, pedagogik faoliyatda ularni qo'llay bilish, nutqning ta'lim - tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatishi, pedagogik muloqot funktsiyalari, tuzilmasi va turlari, pedagogik texnika elementlari, uni egallash yo'llari, pedagogik mahorat va nutq madaniyatining mazmuni, mohiyati, notiqlik san'ati, undan foydalanish, yo'l qo'yiladigan ba'zi kamchiliklar ustida ishlash, nutq texnikasi, til va nutqning qiyosiy tahlili, pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari xususida fikr yuritdilar. Tinglovchilarning faoliyatida nazariy - metodologik asoslar, mazmun, funktsiya, ularning vazifalari, o'quv - tarbiya jarayonini boshqarishda o'qituvchi va tarbiyachi mahorati aniq dalillar asosida yoritildi.

Maqsadimiz - tinglovchilarga, xususan, pedagogik ma'lumoti bo'lmagan bakalavr yoki diplomli mutaxassis darajasidagi, ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan kadrlar, faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchi-tarbiyachilar, pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalarga pedagogik qobiliyat va texnikani egallash hamda takomillashtirish haqida ma'lumot berishdan iborat.

Ushbu o'quv qo'llanmada kamchiliklar, hali qiyomiga etmagan fikrlar bo'lishi mumkin. Shu sababdan sizning fikr-mulohazalaringizni kutamiz va keyingi nashrlarda, ularni albatta inobatga olamiz.

ILOVALAR

1. O'QUVCHINING XARAKTER XISLATLARINI O'RGANISH.

Buning uchun A.E. Lichko ishlab chiqqan «Patoxarakterologik diagnostika savolnomasidan (PDC) foydalanib, xarakterga urg'u berishning (aktsentuatsiya)ning birqancha tipi ajratiladi.

Ular:

1. Gipertim tip - G
2. Tsikloid tip - TS
3. O'zgaruvchan tip - O'
4. Asabiy zaif tip - A
5. Senzitiv tip - S
6. Ruhiy zaiflik - R
7. Shizoid tip - Sh
8. Tutqanoqli tip - T
9. Jazavali tip - J
10. Bo'sh tip - B
11. Moslashuvchan tip - M

G - Gipertim o'smirlar.

Bu tipga mansub o'smirlar to'polonchi, tez zerikadigan, haddan tashqari mustaqil, hatto botirlik, sho'xlik bilan ajralib turadilar. Ular notanish kishi oldida uyalmaydilar, tortinmaydilar. O'yinlarda tengdoshlariga buyruq berishni yoqtirishadi. Tarbiyachilar ularning sho'xligidan arz qilishadi. Yaxshi qobiliyatlariga qaramasdan, tartibsizliklari, tez chalg'ishlari hisobiga yaxshi o'qimaydilar.

O'smirlik davrida asosiy xususiyat - har doim yaxshi ko'tarilgan kayfiyatda bo'ladilar. Bunday o'smirlar erta mustaqillik va erkinlik ko'rsatishadi, qat'iy tartib va rejimni yoqtirishmaydi. Qonun va qoidalarga yyengiltaklik bilan qarashadi.

Ular har doim ulfatlarga intilishadi, yolg'iz qolishni yoqtirishmaydi, tengdoshlari orasida rahbarlikka intilishadi. Tanishlarni tanlashda yaxshiyomonni farq qilmaydi va osonlik bilan shubhali ulfatlar orasiga tushib qolishi mumkin. Sarguzashtlarni, xavf-xatarni, haltis yurish-turishini yoqtiradi. Yaxshi yangi narsani his qilish xarakterlidir, yangi odamlar, joylar, predmetlar o'ziga tortadi. Bunday o'smirlar osonlik bilan ilhomlanib, boshlagan ishini oxiriga yyetkazmaydi, to'xtovsiz ravishda «sevimli ishi»ni o'zgartirib turadi. Uzoq o'tirib ishlashni talab qiladigan, diqqat bilan ishlashni, mayda ishni eplay olmaydi. Va'dasini bajarishda

pul masalalarida ham betartiblik bilan ajralib turmaydi, osonlik bilan harzga botib qoladi. Oliftagarchilikni, maqtanishni yaxshi ko'radi. Kelajakni shirin xayolda tasavvur qiladi. Muvaffaqiyatsizlik kuchli reaksiya ko'rsatish mumkin. Lekin, uzoq vaqtgacha yo'ldan chiqarishga qodir emas, jahldan tez tushadi.

Jinsiy hissiyot erta uyg'onadi va kuchli bo'ladi. Shuning uchun, erta jinsiy hayotga kirishishi mumkin.

Ts – Tsikloid tip.

Odatda, ularga tegishli bo'lmagan kattalar ustidan xatarli hazillar va hamma yerda kinoya qilishi xos bo'ladi. Hayotiy stereotipni tubdan o'zgartirishda, kamroq harshilik ko'rsatadi (masalan, maktabdan oliy o'quv yurtiga o'tishda). Bunday o'zgartirish subdepressiv fazani to'sishi mumkin. Bu bosqichdan nasihat, gina-qudrat, ayblashlarga tanlab javob qaytaradi.

Bolalik davrida tengdoshlaridan farqlanmaydi. O'smirlik yoshi boshlanishi bilan birinchi subdepressiv bosqich boshlanishi mumkin. Keyinchalik bu bosqichlar ko'tarilishi va bir xil kayfiyat bosqichlari bilan almashinishi mumkin. Bosqichlarning davomiyligi, dastlabki kunlar, 1-2 hafta, yosh o'tishi bilan ular ko'payishi, yoki aksincha, bartaraf bo'lishi mumkin.

Subdepressiv bosqichdan lanjlik, kuchsizlanish, hamma narsa qo'ldan tushib ketishi kuzatiladi. Ilgari oddiy va osonlik bilan erishilgan narsa katta zo'rihishni talab qiladi. O'qish qiyin bo'lib qoladi. Atrofdagi kishilarni yoqtirmaydi, ulfatlardan qochadi, sarguzashtlar va xavf - xatarga qiziqmay qo'yadi. O'smirlar bu kunlari uydin chiqmaydigan bo'lib qoladi. Kichik muvaffaqiyatsizliklar va ko'ngilsizliklar ham ish qobiliyati pasayganligi tufayli, bu davrda og'ir qayg'uriladi. Tanbeh va malomatlariga qo'pollik va ta'sirlanish bilan javob qaytaradi, ruhan umidsizlikka tushadi, ko'proq zerikishdan arz qiladi. Agar, bu kunlari ko'proq muvaffaqiyatsizlikka duch kelsa, shaxsiy irodasizligi, yetukmasligi, hech nimaga arzimastligi haqidagi fikrlarga osonlik bilan berilishi mumkin. Qattiq vahimaga tushishi, o'z-o'zini o'ldirishigacha olib kelishi mumkin. Tengdoshlari bilan guruhlar tashkil etish kuzatilib, subdepressiv fazaning ko'tarilish davrida so'na boshlaydi. «Sevimli ishi» o'zgaruvchan bo'ladi. Subdepressiv fazada ularni tashlab qo'yadi, ko'tarilish davrida unga qaytadi, yoki yangisini topadi. Uydin qochish, taksikoman xulq-atvor xos emas. Ulfatlar orasida faqat ko'tarishlar davrida aroq ichadi.

O' – O'zgaruvchi tip

Bolalikda tengdoshlaridan ajralmaydi. O'smirlik davrida asosiy xususiyat bu tez o'zgaruvchan kayfiyat bo'lib, hatto arzimast, atrofdagi bo'lar - bo'lmas sababga ko'ra ham o'zgarishi mumkin. Kimningdir bexosdan aytgan so'zi, tasodifiy suhbatdoshning sovuq qarashi ham, jiddiy ko'ngilsizlik va muvaffaqiyatsizlik bo'lmasa ham, ruhan tushkunlikka tushishi mumkin. Aksincha, qiziqarli suhbat, bir daqihalik maqtov, kimdandir eshitgan havasni keltiradigan, kelajak ham xushchaqchaqlik va quvnoqlikka olib kelishi mumkin. Ochiq va hayajonli suhbatlar davrida, yo kulgini, yoki ko'zida yoshni ko'rish mumkin. Bunday vaqtda hamma narsa kayfiyatga bog'liq bo'ladi: o'zini his qilish ham, kayfiyat ham, uyqusi ham, ish qobiliyati ham.

Ulfatlarining o'zgaruvchan vaziyatini yoqtiradi, ozodlikka intilishi o'rtamiyonadir. Agar, noqulay oilaviy sharoit bo'lsa, bu intilishi kuchayadi. Tengdoshlari bilan guruhlariga ajralish, kayfiyatga bog'liq bo'ladi. Kayfiyat yaxshi bo'lganda ulfatlarni izlaydi, kayfiyat yomon bo'lganda, ulardan qochadi. Tengdoshlari orasida yo'lbo'shchi roliga da'vo qilmaydi. Sevimli ishi bekordan - bekorga uzoq gap sotish, ba'zan badiiy havaskorlik, yoki ayrim uy hayvonlari bo'lishi mumkin. Jinsiy faollik odatda tegishish va xotin-qizlarga mulozamat qilishi bilan chegaralanadi.

A – Asabi Zaiflik

Bolalikdan quyidagi belgilar ko'zga tashlanadi: yomon uyqu, ishtahasi yo'qlik, injiqlik, qo'rqqoqlik, ba'zan kechasi qo'rshish, duduqlanish va boshqalar.

O'smirlik davrida tez charchash, tez jahli chiqishi, vahima tushishi asosiy xususiyatlar hisoblanadi. Charchash ayniqsa, aqliy mashg'ulotlar, yoki jismoniy va hissiy zo'rihishda, musobaqa sharoitida yaqqol ko'rinadi. Ko'pincha bo'lar - bo'lmas sabab jahli chiqishi, birdan jazavasi tutishiga olib keladi. Jahli chiqishi, ko'pincha afsuslanish va ko'z yoshi bilan almashadi. Vahimaga tushish, ayniqsa, kuchli bo'lishi mumkin.

Bunday o'smirlar kichik tana sezgilariga ham e'tibor berishadi, bajonidil da'volanadilar, o'rin - to'shak qilib yotib oladilar. Ko'pincha o'g'il bolalarda vahimaga tushish manbai, yurak hisoblanadi.

Spirтли ichimliklarni iste'mol qilishi xos emas. Tengdoshlariga, ulfatlarga intiladi, lekin ulardan tez charchaydi va yolg'izlikni afzal ko'radi yoki do'st bilan muomala qilishni yoqtiradi. O'z - o'zini baholash, sog'liq haqida g'amxo'rlikni aks ettiradi.

S – Senzitiv tip

Bolalikdan qo'rqadigan va hurkadigan bo'ladi. Ko'pincha

qorong'idan qo'rqadi, hayvonlarni chetlab o'tadi, bir o'zi uйда qulflanib, yolg'iz qolishga qo'rqadi, tengdoshlaridan yotsiraydi. Harakatlari o'yinlarni va janjal to'polonni yoqtirmaydi. Notanish kishi bilan osonlikcha muloqotga kirisha olmaydi. Bularning bari atrofdagilardan ajralgandek va odamlardan yotsiraydi, -degan noto'g'ri tasavvurga olib kelishi mumkin. Haqiqatda esa, bunday bolalar o'rganib qolgan kishisi bilan ko'p gaplashadi, o'zidan kichiklari bilan o'ynashni yoqtiradi. Chunki, ular bilan o'zini xotirjam va ishonchli sezadi. Tanishlari va yaqin kishisiga mehr qo'ygan, «uy bolasi» hisoblanadi. Maktab ularni tanaffuslardagi shovqin suron, urishi bilan qo'rqitadi. Odatda, tirishib o'qiydi. Har xil nazorat, tekshiruv, imtihonlardan qo'rqadi. Ko'pincha doskada javob berishga uyaladi.

Mahmadona deb nom chiqarishdan uyaladi. Bir sinfga o'rganib va hatto ayrim sinfdoshlari tomonidan ta'qibga olinishdan iztirob chekib, boshqa sinfga o'tadi. O'smirlik yoshining boshlanishi, hech qanday asoratsiz o'tadi.

Katta o'smirlik yoshiga o'tishi bilan qiyinchiliklar boshlanadi. Bu tipning ikki asosiy xususiyati ko'zga tashlanadi. Haddan tashqari ta'sirlanuvchanlik va shaxsiy yetukmaslikni his qilish, o'zidagi ko'p kamchiliklarni, ayniqsa, ahloqiy va irodaviy sohalarida ko'radi. Tug'ishganlariga bolalarcha mehr quyish saqlanib qolgan. Yaqin kishilarining g'amxo'rlikiga bajonidil ko'nikadi.

Javobgarlik, burch hissi, o'ziga atrofdagilarga haddan tashqari axloqiy talablar erta shakllanadi. Tengdoshlaridan yotsiramaydi, ularga intiladi, lekin do'st tanlashni yaxshi biladi, do'stlikka mehr qo'ygan. Shovqinli ulfatlardan yaqin do'stni afzal ko'radi. Bunday o'smirlarni qiziqishi ikki xil bo'ladi. Birinchisi aqliy axloqiy o'smirlarning xarakteri kasb etadi (san'at, musiqa, rassomlik, uy gullari va boshqalar). Bu jarayonning o'zidan orom oladi, umuman, katta natijalarga intiladi. Qiziqishlarning ikkinchi xili, shaxsiy yetuk emasligini bartaraf etishga intilishdan iborat. Bu erda erishadigan natijani olish muhimdir. O'g'il bolalar irodasizlikni sportning kuchli turlari bilan shug'ullanib, bartaraf etmoqchi bo'ladi. Qiz bolalar bo'lsa, tortinchoqlik va uyatchanlikni jamoat ishlarini bajarish bilan bartaraf etishga intiladilar.

R – Ruhliyl zaiflik

Bolalik davrida tortinchoq va qo'rqoqlik bilan bir harakatlarning qovushmaganligi, fikrlashga layoqatlilik va yoshiga mos bo'lmagan intellektual qiziqishlar erta uyg'onadi. Ba'zan notanish kishilardan va yangi predmetlardan qo'rhish, qorong'ilikdan, yopiq eshik ortida

qolishdan qo'rhish kuzatiladi.

Psixoaastenik xususiyatlari turlicha ko'rinadigan, qiyin davr maktabning 1 – sinfiga to'g'ri keladi. Bu tipning asosiy xususiyatlari – ikkilanuvchanlik, har xil fikrlarga ishonish va o'z yaqinlarining kelajagidan hadiksirash turidagi tashvishli gumonsirash va boshqalardir. O'g'il bolalarga onasidan xavotirlanish xos.

Ikkilanuvchanlik xos, ayniqsa mustaqil tanlash kerak bo'lganda uzoq o'ylanadi. Lekin, qaror qabul qilinganidan keyin, tezda bajarilishi kerak, bunda kishini hayron qoldiradigan chidamsizlik xos. Jismoniy taraqqiyot yaxshilikni istashdan iborat. Barcha qo'l ko'nikmalari va sport mashg'ulotlarini yaxshi egallay olmaydi. Bundan sportning oyoqqa og'irlik tushadigan turlari, mustasno. Bu turlardan, ba'zan yaxshi natijalarga ham erishish mumkin.

O'smirlarning ozodlikka intilish reaksiyasi kuchsiz ifodalangan, bu reaksiya, ko'pincha qandaydir yaqin kishilar bilan bog'liqlik bilan almashgan tengdoshlariga intilish, tortinchoqlik shakllarida ko'rinadi. Qiziqishlar intellektual – axloqiy sevimli ish bilan chegaralanadi. Jinsiy hayot (taraqqiyot) qisman umumiy jismoniy taraqqiyotidan ustun keladi. O'smirlarga xulq – atvor buzilishi (uydan qochish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish) xos. O'z – o'zini tahlil qilishga layoqatli bo'lishga qaramasdan o'z – o'zini baholash to'liq va to'g'rilik bilan farqlanmaydi.

Ruhliyl zaiflik xususiyatlari «yuqori aqliyl javobgarlik» sharoitida kuchayadi, ya'ni, kattalar, bolalarga, kichiklar yoki nochor a'zolariga harshi topshirilganda zo'rayadi.

Sh – Shizoid tip

Bunday bolalar bolalikdan yolg'iz o'ynashni yoqtiradi.

Ular tengdoshlariga kam intiladi, shovqinli o'yinlardan qochadi, kattalarning o'zaro suhbatlarini jim o'tirib, tinglashni afzal ko'radi. O'smirlik yoshda shizoid tipning barcha xususiyatlari chuqurlashadi. Dastlab odamlarga aralashmaslik va uzoqlashishni ko'rish mumkin. Ba'zan yolg'izlik o'z qiziqishlari bilan yashaydigan o'smirlarni oz darajada o'ziga tortadi. Aloqa o'mata olmaslik qobiliyati hammadan ko'p uni tashvishga soladi. O'ziga o'xshash do'stni izlashdagi muvaffaqiyatsiz urinishlar, aloqaning tez uzilishi yanada tortinchoq bo'lishga majburlaydi.

O'zgalar uchun ichki dunyosi har doim yopiq va ko'pincha sarguzasht ishlar bilan to'la bo'ladi, shizoid o'smirlar to'satdan yaxshi tanish bo'lmagan va tasodifiyl kishiga ham ichidagini aytib, yorilishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda ularning ichki dunyosi yaqin kishilarga noma'lumligicha qolishi mumkin. Ichki dunyosini anglab bo'lmalik va

his – tuyg'ularini ko'rsatishda tiyqlik ko'p hatti – harakatlarini boshqalar uchun kutilmagan va tushunarsiz qiladi. Shizoid o'smir turmushdagi mayda g'amxo'rlikka chidashi mumkin, u buni sezmasdan o'rnatilgan tartib va rejimga bo'ysunishi mumkin. Lekin, uning sarguzashtlari, qiziqish dunyosi haqida ruxsatsiz gapirishga urinishga ham qat'iy norozilik ko'rsatishi mumkin.

Atrofdagilar uning jinsiy faolligini sezmasligi mumkin. Lekin, tashqi «shahvoniylikka qarashli», jinsiy hayotdan hayratlanish, yorqin ishqiy sarguzashtlar bilan birikishi mumkin. Guruhiy qonunni buzishlar xos emas. Lekin, guruh «o'z odami deb tan olinishi uchun», «guruh uchun» jinoyat qilishga ham tayyor. Ulfatlar orasida juda sezgir, xotin – qizlarga mulozamat ko'rsatishga, tegishishga, sharoit mavjud bo'lganda jinsiy yaqinlik qilishga qodir emas. Shizoid o'smirlar o'zgalar uchun tasodifan eng qo'pol shakllarda jinsiy faollik ko'rsatishi mumkin.

T - Tutqanoqli tip

Ba'zi hollardagina bu tipning xususiyatlari bolalikdan namoyon bo'ladi. Bunday bola soatlab yig'lashi mumkin, uni ko'ndirish juda shafqatsizlik ko'rinishlari namoyon bo'ladi, bunday bolalar hayvonlarni qiynashi, kichiklarning jig'iga tegishni, o'jzlarning ustidan kulishni yoqtiradi. Maktabda o'quv qurollarni tutishda juda tartibli. Ko'pchilik hollarda bu tipning xususiyatlari o'smirlik yoshida namoyon bo'ladi. Ulardan asosiysi eng yomon darg'azab bo'lgan davrda va zahrini sochish mumkin bo'lgan insonni izlash hisoblanadi. Bunday holat soatlab, kunlab davom etadi. U jazava tutishi bilan bog'liq. Affektiv portlash to'satdan ro'y berganga o'xshaydi. Affekt uzoq, asta-sekin sodir bo'ladi. Arzimas narsa portlashga sabab bo'lishi mumkin. Qattiq hayajonlanish holati faqat kuchli bo'lib qolmay, u uzoq vaqt davom etadi.

Instinktiv hayot qattiq zo'rihish bilan ajralib turadi. Kuchli jinsiy qiziqish shafqatsizlik layoqatlari bilan birlashishi mumkin. Sevgi bilan birga kuchli rashk ham mavjud. Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish og'ir janjallar bilan tugaydi. Mastlikda qilgan ishini bilmaydi.

Qimor o'yinlariga ishqiboz. Boyishga bo'lgan qiziqish tez uyg'onadi. To'plangan narsasining moddiy boylik bo'lgani uchun uni to'plashga qiziqadi. Sport, jismoniy kuchni rivojlantirishga imkon bergani uchun o'ziga tortadi. Qo'shiq aytish va musiqa bilan yolg'iz shug'ullanishni yoqtiradi, bunda u zo'r hissiy orom oladi. Bunda, imillab harakatlanish, beso'naqaylik, harakat va hissiyotdan tortib, tafakkur va shaxsiy qadriyatlarga hamma narsada ko'rindigan sustlik umumiy xususiyat hisoblanadi. O'z ishiga zehni etsa ham hamma qoidalarga birma-bir rioya

qiladi. O'z sog'lig'iga katta e'tibor berish, shaxsiy qiziqishlarga rioya qilish, gina saqlash, xafagarchilikni unutmaslik, qiziqishlarning o'ziga cheklanishidan g'azablanish bilan birikadi.

J – Jazavali tip

O'zidan boshqani o'ylamaslik, o'zini hammadan baland qo'yish (egotsentrizm), atrofdagilarning har doim unga e'tibor berishlariga intilish, u bilan faxrlanishlariga, unga hayron qolishlariga, hurmatlashlariga, hamdard bo'lishlariga intilish asosiy xususiyat hisoblanadi. eng yomoni faqatgina kelajakda oddiy hech kim nazariga ilmaydigan, oddiy odam bo'lib qolishidan ham cho'chib, o'ziga nisbatan nafrat qo'ziydi, g'azabi qaynaydi. Qolgan barcha sifatlar shu xususiyat bilan aniqlanadi. O'ziga e'tiborini qaratish uchun o'z shaxsini bo'rttirib yolg'on so'zlaydi, xom xayol suradi. haqiqiy chuqur hissiyot mavjud emas.

O'smirlik yoshida xuddi shu o'rtoqlarining e'tiborini qaratish maqsadida xulq-atvor buzilishlaridan foydalanishi mumkin. Ular dars qoldiradilar, mehnat qilishni istashmaydi, ularni bir xil hayot qoniqtirmaydi, ularning obro'talabligini qondiradigan o'qish va mehnatda hurmatga sazovor bo'lish uchun ham, tirishqoqlik ham uyeticishmaydi. U bekorchilik qilishi bilan bir vaqtda kelajakda zo'r kasb egasi bo'lishga da'vo qiladi. Jamoa joylarida kishining jig'iga tegadigan xulq - atvorini namoyon qiladi. Odatda xulq – atvorning juda og'ir buzilishidan qochadi.

Uydan qochib ketish bolalik davridan boshlanishi mumkin. Uydan qochgan bolalar, ularni izlab boradigan joylarda bo'lishga yoki militsiya'ning e'tiborini o'zlariga qaratishga intilishadi. Spirtli ichimliklarni ko'p iste'mol qilib, mast bo'lishni yoqtirishadi. Ba'zan o'smirlar o'zlarini nashavand qilib ko'rsatishga ham tayyorlar.

Tengdoshlar bilan guruhlariga birlashganda rahbarlikka da'vo qiladi. Guruhning kayfiyatini juda yaxshi his qilganlari uchun bunday o'smirlar undagi intilishlarni, takliflarni, hodisalarni birinchi bo'lib ifodalaydilar, tashabbuskor bo'ladilar. Qiziqishlar hammanikidan baland. Buning uchun badiiy havaskorlik ham yoglar gimnastikasi ham, zamonaviy falsafiy oqimlar tanlanishi mumkin, bunda bu mashg'ulotlar ko'p mehnat talab qilmasligi kerak. Jinsiy mayli unchalik kuchli emas. Jinsiy xulq – atvorida teatral o'yinlar ko'p. O'spirinlar ko'pincha o'zlarining jinsiy his – tuyg'ularini yashiradilar, o'rtoqlari orasida obro'si tushib ketishdan qo'rqib, bu mavzuda suhbatlashishdan o'zlarini olib qochadilar, o'zlarini – o'zlari haqqoniy baholamaydilar.

B – Bo'sh tip

Bolalikdan quloq solmaslik bilan ajralib turadi, hamma joyga «burnini tiqadi», lekin, ular jazodan qo'rqib, boshqa bolalarga osonlik bilan bo'ysunishadi. Xulq-atvorning oddiy qoidalarini qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar. Ularni har doim kuzatib turish kerak.

Ularda birinchi sinfdayoq o'qish istagi yo'q. Qattiq nazorat qilishganda ilojisizlikdan bo'ysunishadi, lekin ilojini qilib, darsdan qochishga harakat qiladi. Kattalar buyurgan har qanday ishda, burch va majburiyatlarni bajarishda to'liq irodasizlik namoyon bo'ladi. Bekorchilikka, mahmadonagarchilikka, o'yin – kulgiga, kayf – safoga kuchli intilish juda erta seziladi. Darsdan qochib, kinoga kiradi yoki ko'chada o'ynab yuradi. O'rtoqlari tomonidan gijgijlangani uchun, ulfatlarini deb, yengiltak xulq – atvor egalariga bajonidil taqlid qiladilar va ularga bo'ysunadilar. Har bir kunni ko'chadagi ulfatlar orasida o'tkazishga tayyor. Bolalik davridanoq chekishni boshlaydi. Mayda o'g'riliklar qiladi. O'smirlar davrida kino kabi oldingi qiziqishlar vaqtini chog' qilmay qo'yadi. Bezorilarcha harakat qiladi, nashavandlikka qiziqish ko'rinadi. O'yin – kulgi qilish uchun xulq – atvor buziladi. Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish erta (ba'zan 12– 14 yoshdan) boshlanadi. Ular hech qachon yaqin kishilarni chin dildan sevmaydilar. Oilaviy tashvishlarga beparvo qaraydilar. Uning uchun yaqin kishilari eng avvalo, o'yin – kulgi manbai hisoblanadi. Ko'chadagi yomon bolalarga erta qo'shilishga intiladi. Ular o'zlarini – o'zlari mashg'ul qilishadi, yolg'izlikni yoqtirmaydi va bunday davrlarda o'yin–kulgi uchun joy izlashadi. Bo'sh o'smirlarda tashabbuskorlikning yyetishmasligi va qo'rqqoqlik, ularni bunday guruhlarining quroli bo'lib qolishiga olib keladi. Guruhiy qonun buzishda o'smirlar «emagan somsasiga pul to'laydilar».

Qandaydir mehnatni talab qiladigan qiziqishlarga ular erisha olmaydilar. Shuning uchun tasodifiy uchrashib qolgan kishi bilan soatlab gap sotadilar, qimor o'ynaydilar. Jinsiy mayli unchalik kuchli emas, lekin ko'chadagi guruhlar bilan bo'lishi jinsiy tajribasining erta ortishiga olib keladi.

M – Moslashuvchan tip

Asosiy xususiyat tevarak – atrofga doim moslashish xos. Ularning hayot Qonuni – «hammaga o'xshab» o'ylash, «hammaga o'xshab» harakat qilish, hamma narsa hammanikiday bo'lishiga intilishdir. Bunda «hamma» deb tevarak atrofdagi kishilar tushuniladi. Ular «hammadan» qolib ketishni istamaydi. Bu ayniqsa kiyimlar modasida aniq ko'rinadi.

Qandaydir yangi moda chiqqanda, uni moslashuvchan tip vakilaridan ko'p qoralovchilar bo'lmaydi. Ular yangi modani o'zlashtirib olganlari zahoti bu kiyim ularga yoqib qoladi, ilgari bu kiyimni yomonlaganliklarini ham unutib yuborishadi.


Tevarak-atrof har doim mos bo'lishga intilib, hech qachon unga harshi chiqqa olmaydilar. Shuning uchun yaxshi kishilar orasida yaxshi bo'lib, hamma ishlarni bekamu ko'st bajarishadi. Bezorilar orasiga tushib qolganlarning xulq – atvoridagi barcha odatlarni va qiliqlarni o'rganib olishadi. Moslashuvchan o'smirlar «ulfat uchun» ichaverib piyonista bo'lib ketishi va guruhiy qonunbuzarlikka tortilishi mumkin.

Moslashuvchan tipning bolaligi kattalar tomonidan nazorat qilib turilsa, yaxshi o'tadi. Bu tip faqat o'smirlar yoshida ko'rinadi. Ular o'rganib qolgan o'smirlar guruhini qadrlashadi, bu guruhning muntazamligini, tevarak – atrofning doimiyligini yoqtirishadi. Kasb tanlashda yoki o'qishni qayerda davom ettirishni tanlashda, ko'pchilik o'rtoqlari qaerni tanlashsa, u ham shu erni tanlaydi. Agar moslashuvchan o'smirlar o'rganib qolgan guruhni nima uchundir ro'yixushlik bermasa, bu eng og'ir psixik kasallikdek idrok etiladi. Ular ota – onalari yoki tarbiyachilari, o'rganib qolgan o'rtoqlari muhitdan qaytarib olingandagina bundan qutilishadi. Moslashuvchan tipning xarakteridagi bo'sh joyi – bu keskin o'zgarishlarga chiday olmasligidir. Hayotiy stereotipning buzilishi, o'rganib qolgan muhitdan ajralishdan qattiq azob chekishi mumkin. Bu o'smirlarning o'z – o'zini baholashi yomon emas. Ularning ko'pchiligi o'z xarakteridagi asosiy xususiyatlarni to'g'ri baholashadi.

Bu savolnoma 13 – 21 yoshdagi o'smirlar va yoshlarni tekshirishga mo'ljallangan. A.E. Lichko va uning xodimlari taklif etgan tiplarga bo'lish yordamida xarakterga urg'u berish (aktsentuatsiya) tipiga bog'liq ravishda tuzatish ishlarini olib borish mumkin.

Xakteri o'zgargan o'smir bilan ishlashning usullaridan biri aktsentuatsiya tipiga bog'liq ravishda unga yaxshi tashqi sharoit yaratishdir. Masalan, shizoid o'smirlarni faol jamoatchilik faoliyatiga jalb etishning, ko'p odamlar qatnashadigan jamoa tadbirlariga chorlashning foydasi yo'q. Uni chuqur individual mashg'ulotlarni talab etadigan aqliy, yoki jismoniy ishning biror turiga jalb etish, ko'proq foydalibroq bo'lur edi. (Masalan, matematik to'garaklarga qatnashish, komp'yuter uchun o'yinlar va programma tuzish va hokazo).

2. PSIXOGEOMETRIK TEST



Ko'rsatma: yuqorida ifodalangan beshta shaklga qarang. Siz "bu – Men!" deb ayta oladigan shaklingizni tanlab oling. Faqat hech qanday mantiqiy tahlil va nokerak aqliy harakatlar bilan shug'ullanmang. Bu hech narsaga olib kelmaydi. Faqat o'zingizni shaklingizni his qilishga harakat qiling. Agar juda qiynalayotgan bo'lsangiz, shakllar ifodalangan varaqni kuzatganingizda birinchi bo'lib sizning diqqatingizni jalb etgan shaklni tanlang. Bu shaklning nomini bir rahami bilan yozib qo'ying. Endi qolgan to'rtta shaklni ushbu tartibda o'zingizga ma'qulligi asosida joylashtirib chiqing. Marhamat, uzoq o'ylamasdan bu ishni amalga oshiring.

Agar qiynalsangiz quyidagi strategiyadan foydalaning: tasavvur qilingki, qolgan to'rtta, keyin 3 ta, keyin 2 ta shakl orasidan o'zingizni tanlashingiz kerak. Biz tajribaning boshidanoq sizga beshta emas, balki to'rtta, uchta shakl taklif etishimiz ham mumkin edi –ku. Oxirida qolgan, ya'ni nomini siz beshinchi raham belgilab qo'yadigan shakl, yaqqol sizniki bo'lmagan, ya'ni sizga to'g'ri kelmaydigan shakl bo'ladi.

Sizni tabriklaymiz! Ishning birinchi, eng og'ir bosqichi yakunlandi. Oldingizda sizning sub'ektiv intilishingiz aks etgan geometrik shakllarning tartibli qatori turibdi. Siz birinchi o'ringa qaysi shaklni qo'yganingizdan qat'iy nazar bu sizning asosiy shaklingiz, yoki sub'ektiv shaklingiz. Aynan shu sizning xarakteringizda va xulq –atvoringizdagi asosiy, ustun belgi va xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Qolgan to'rtta shakl esa, sizning xulq –atvoringizdagi yyetakchi ohangni bezab turadigan o'ziga xos belgilovchilar. Ularning ta'sir kuchi tartib rahami ortib borishi bilan pasayib boradi. Agarda, ikkinchi o'rinda turgan shaklning ayrim xarakteristikalarini siz o'z xulq –atvoringizda ko'rishingiz mumkin bo'lsa, oxirida, beshinchi o'rinda turgan shakl siz yaqqol o'zingizda bo'lmagan (o'zingizga yoqmay turgan) vaqtingizda namoyon bo'ladi. Oxirgi shaklning boshqacha ahamiyati siz uchun muhimroq – u sizga o'zaro munosabatga kirishishingiz eng qiyin kechadigan odamning shaklini ko'rsatadi (ishonchimiz komilki, siz psixogeometrik test yordamida bu qiyinchilikni muvaffaqiyat bilan bartaraf etasiz). Keling, endi psixogeometrik testni tushunish bilan

shug'ullanamiz.

Shaxs asosiy shakllarining qisqacha tavsifi.

Kvadrat. Agar sizning asosiy shaklingiz bo'lsa, demak – siz hormas – tolmas mehnatkashsiz! Mehnatsevarlik, tirishqoqlik, boshlangan ishni oxiriga yetkazishga bo'lgan ehtiyoj, ishini tugallashga erishishiga imkon beradigan qat'iyatlilik – bular haqiqiy Kvadratlarini mashhur qiladigan narsalardir. CHidamlilik, toqat va ishini ko'zini bilishlik odatda Kvadratlarini o'z sohasida yuqori malakali mutaxassis bo'lishini tayinlaydi. Kvadratlarida informatsiyaga nisbatan juda kuchli ehtiyoj mavjud, ular turli – tuman ma'lumotlarning kolleksionerlari hamdir. CHunonchi, bu kolleksiya qacerda – miyadami yoki maxsus kartotekadami saqlanishidan qat'iy nazar, u juda tartibli saqlanadi. Barcha ma'lumotlar sistemalashtirilgan, javonlarga ajratilgan. Kvadrat zarur informatsiya'ni shu zahotiyq bera oladi. Shuning uchun ham Kvadratlarini haqli ravishda erudit (juda bo'lmaganda o'z sohasida) deb hisoblashadi.

Fikriy tahlil – Kvadratning eng kuchli tomonidir. Agar, siz o'zingiz uchun to'g'ri chiziqli shakl bo'lmish Kvadratni qat'iy tanlagan bo'lsangiz, demak –shu narsa aniqki, siz "chap yarim sharli" fikrlovchilar, informatika tili bilan aytganda informatsiyalarni: $a - b - v - g$ va hokazo ketma – ketlikda qayta ishlovchilar toifasiga kirasiz. Kvadratlar natijani taxmin qilishdan ko'ra ko'proq "hisoblab" chiqaradilar. Ular fikrlash zanjirida birorta xalqani ham o'tkazib yubormaydilar, boshqalar bu narsani qilsalar, tushunishda qiynaladilar, buning natijasida diskomfort sezadilar. Kvadratlar mayda ikir –chikirlarga haddan tashqari e'tiborlilar. Aynan proektlar va rejalarning barcha konkret detallarini ishlab chiqadilar.

Kvadratlar o'zgarmas tartibni yaxshi ko'radilar: har bir narsa o'z joyida bo'lishi va o'z vaqtida amalga oshishi zarur. Haqiqiy Kvadrat "Stoldagi tartibsizlik – miyadagi tartibsizlikdir" degan maqolga chin dildan ishonadi. Kvadratning ideali –rejalashtirilgan, oldindan aytish mumkin bo'lgan hayotdir, unga turli "syurprizlar" va voqealarning borishi odatining buzilishlari sira yoqmaydi. U, doimo odamlarni va narsalarni o'z atrofida "tartiblashtiradi" va tashkil etadi.

Ushbu barcha sifatlar shunga olib keladiki, Kvadratlar juda yaxshi administrator bo'lishi mumkin (bo'ladi ham), lekin afsus ular kamdan – kam yaxshi rahbar, menedjer bo'lishlari mumkin. Tabiiyki Kvadratning yuqorida ko'rsatilgan barcha ustunliklari undagi o'jiz tomonlar bilan yonma –yon kechaverishi mumkin. Aybsiz bitta Parvardigorning o'zi!

Ikir – chikirlarga haddan tashqari berilganlik ("daraxt ortidagi

va hammani o'z atrofida aylanishga majbur qiladilar, ularsiz bizning hayotimiz o'z keskinligini yo'qotgan bo'lar edi.

To'g'ri to'rtburchak. To'g'ri to'rtburchaklar sizlar uchun hozir o'qiydigan narasangiz kutilmagan hodisa bo'lmasa kerak. Shundoq ham siz o'zingiz to'g'ringizda hamma narsani bilasiz.

Gap shundaki, To'g'ri to'rtburchak o'tish va o'zgarish holatini aks ettiradi. Bu, aytish mumkinki, shaxsning vaqtinchalik shakli bo'lib, qolgan to'rtta nisbatan turg'un shakllar hayotning ma'lum bir davrida bu shaklni o'ziga "kip" yurishi mumkin. Bular, hozirgi kunda o'zlari kechirayotgan hayot tarzidan qoniqmayotgan, shuning uchun ham yaxshi holatni izlash bilan band bo'lgan odamlardir. Mumkin, sizlardan kimdir yaqindagina kasbiy statusini o'zgarishini boshidan kechirgandir (moslashuv talab qiladigan holatlar: yangi ishga o'tish, lavozimda ko'tarilish yoki pasayishi): kimdir shunaqa o'zgarishlarni oldindan ko'rayotgan, sezayotgan bo'lishi mumkin. Kimningdir shaxsiy hayotida o'zgarishlar bo'lgandir. Umuman, To'g'ri to'rtburchak holatining sabablari turli – tuman bo'lishi mumkin, lekin ularni bir narsa birlashtiradi – o'zgarishlarning ma'lum odam uchun ahamiyatligi.

To'g'ri to'rtburchakning asosiy psixik holati muammolardagi chalkashganlik va ayni shu paytda o'ziga nisbatan mahsulidir. Bu bilan parallel ravishda unda ichki qo'zg'alish oshib boradi va bu uning xulq – atvorida aks etmay qolmaydi.

To'g'ri to'rtburchakning eng xarakterli belgilari – o'tish davri davomida hatti – harakatlardagi izchilligi yo'qligi va ularni oldindan bilish qiyinligidir. Siz, to'g'ri to'rtburchaklar, kundan – kunga, hatto bir kunning ichida ham kuchli o'zgarishlaringiz mumkin. Bu tabiiy hol, chunki, To'g'ri to'rtburchaklarning o'z – o'ziga berilgan bahosi past bo'ladi, nimadadir yaxshiroq bo'lishga intiladilar, yangi ish metodlarni, hayot uslublarini izlaydilar. Agar, To'g'ri to'rtburchakning xulq – atvoriga diqqat bilan razm solinsa, butun davr davomida uning goh "uchburchak", goh "aylana" va hokazo shakllarning kiyimini kiyib ko'rganligini payqash mumkin. To'g'ri to'rtburchak xulq – atvoridagi birdaniga, kutilmaganda va oldindan bilib bo'lmaydigan darajada o'zgarib turish odatda boshqa odamlarni uyaltiradi va xavfsiratadi, ular ongli ravishda "o'zagi yo'q odam" bilan muloqotdan qochishlari mumkin. Tushunarli, kim ham, axmoqona holatga tushib qolishni istaydi! To'g'ri, to'rtburchaklarga boshqa odamlar bilan muloqotga kirishish juda zarur, o'tish davrining yana bitta murakkabligi shundan iborat.

Shunday bo'lsada, boshqa odamlar singari To'g'ri to'rtburchaklarda

ham atrofda gilarni o'ziga jalb qiluvchi ijobiy fazilatlarini ko'rish mumkin. Bu, eng avvalo – qiziquvchanlik, sinchkovlik bo'layotgan barcha hodisalarga jonli qiziquvchanlik va botirlik. To'g'ri to'rtburchaklar oldinlari hech qachon qilmagan ishlarini qilishga intiladilar, oldin so'rashga yuragi betlamagan narsalarni so'raydilar. Mazkur davrda yangi g'oyalar, qiymatlar, tafakkur va hayot uslublari uchun ochiqdirlar, barcha yangilikni osonlikcha o'zlashtiradilar. To'g'ri, bularning orqa tomoni – haddan tashqari ishonish, ishonuvchanlik, soddalikning mavjudligidir. Shuning uchun ham To'g'ri to'rtburchaklardan osonlikcha foydalanish mumkin, axloq qoidalarini unchalik pisan qilmaydigan odamlar albatta, bundan foydalanadilar. Agar, siz haqiqatdan ham "To'g'ri to'rtburchak shaklini olgan bo'lsangiz, ehtiyot bo'ling! Shuni bilinki,"To'g'ri to'rtburchaklik" – bu bir bosqich xolos. U, albatta o'tadi. Va siz bu davrda o'zlashtirilgan tajriba bilan boyib, shaxs rivojining keyingi bosqichiga chiqasiz.

Aylana. Geometrik jihatdan Aylana –bu garmoniya'ning afsonaviy simvolidir. Ishonch bilan o'zining asosiy shakli sifatida Aylanani tanlagan odam eng avvalo, yaxshi shaxslararo munosabatlar tarafdoridir. Aylana uchun eng yuksak qiymat – odamlar, ularning baxti. aylana beshta shakl orasida eng ochiq ko'ngilidir. U, ko'pincha ish jamoasini ham, oilani ham mustahkamlab turuvchi "elim" vazifasini bajaradi, ya'ni guruhni stabilashtiradi.

Aylanalar beshta shakl orasidagi eng yaxshi kommunikatorlardir, chunki, ular eng yaxshi tinglovchilar hamdir (Uchburchaklar ham yaxshi kommunikatorlar, lekin ular boshqalardan ko'ra o'zlarini ko'proq tinglaydilar). Ular yuqori sezgirlikka egalar, rivojlangan empatiyaga hamdard bo'la olish, boshqa odamlarning kechinmalariga hissiy sherik bo'la olish qobiliyatiga egalar. Aylana boshqalarning quvonchini, boshqalarning qayg'usini o'zinikidek his qila oladi. Tabiiyki, odamlar aylanaga intiladilar. Aytish kerakki, aylanalar odamlarni juda yaxshi "o'qib oladilar" va bir daqiqadayoq mug'ombirlarni aldoqchilarni bilib oladilar.

Aylanalar o'z jamoasi (o'z komandasi) uchun kurashadilar va hamkasabalari orasida yuqori mavqega ega bo'ladi. Ammo ular, odatda, biznes sohasida kuchli menedjer va rahbar bo'la olmaydilar.

Birinchidan, Aylanalar ishdan ko'ra ko'proq odamlarga yo'nalganliklari uchun har bir odamga yohishga juda harakat qiladilar.

Ular tinchlikni saqlashga harakat qiladilar va shuning uchun ham ba'zida "qattiq" pozitsiya'ni egallashdan, hamda hammaga ham ma'qul

kelavermaydigan qarorlarni qabul qilishdan qochadilar. Aylana uchun shaxslararo kelishmovchilikka kirishdan ham og'ir narsa yo'q. Hamma odam bir – birlari bilan kelishib yursa, Aylana baxtli bo'ladi. Shuning uchun ham Aylana kim bilandir kelishmovchilikka kirishsa, aynan, Aylana birinchi bo'lib yon berishi ehtimoli kuchli. Boshqalar bilan yarashish – xulq – atvorning tipik "aylanaviy" belgisidir. Bu belgi boshqalarga xursandchilik keltirsa, Aylanani esa, o'z hamkasblari orasida taniqli qilsada, haddan ziyod yon berishlar, Aylananing o'ziga bo'lgan hurmatining yo'qolishiga, o'z – o'zini ayblash tendentsiyasining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, Aylanalar qat'iyatlilik bilan ajralib turmaydilar. Agar, ularga boshqaruv to'g'ri kelib qolsa, ular rahbarlikning yaqqol demokratik uslubini ustun qo'yadilar va har bir qarorni ko'pchilik bilan muhokama qilishga hamda ularning qo'llab – quvvatlashlariga taya'nishga intiladilar. Ma'lumki, bu narsa har doim ham o'zini oqlamaydi: yaxshi imkoniyatni boy berish mumkin. Bundan tashqari, Aylanalar "siyosiy o'yinlarda" o'zlarini, ko'pincha o'zlarini va "o'z komandalari" zarur tarzda ko'rsata olmaydilar. Bu hammasi, shunga olib keladiki, ko'pincha Aylanalarni kuchli shaxslar, masalan, Uchburchaklar o'ziga haratib oladilar, natijada ularni manipulyatsiya qila oladilar, Aylanalarning baxti shundaki, ular hokimiyat kimni qo'lida ekanligidan unchalik xavotir olmaydilar. Asosiysi, hammaning ko'ngli to'q bo'lsa va atrofda tinchlik hukm sursa bas.

Ammo, bitta narsada Aylanalar havas qilgudek qattqlik namoyon qiladilar. Agar, masala axloq va xaqiqatning buzilishiga borib tahalsa, Aylanalar odamlarning ehtirosli himoyachisiga aylanadi. Bunda, Aylanalar, agar hoxlasalar, juda ishonarli bo'lishlari mumkin.

Odatga ko'ra, ularning shaxslararo kelishmovchiliklarni a'lo darajada yechishlarida alohida fikrlash shakli "aybdor".

Aylana –bu to'g'ri chiziqli bo'lmagan shakl. O'zini ishonch bilan Aylanaga taalluqli deb hisoblaganlar "o'ng yarim sharli" fikrlovchilarga xosdir. "O'ng yarim sharli" tafakkur – obrazliroq, emotsional tusli bo'lib, unda tahlil qiluvchanlikka nisbatan integrativlik ustundir. Shuning uchun ham Aylanada informatsiya'ni qayta ishlash Kvadratdagi (Uchburchakdagi) singari ketma – ketlikda bo'lmay, balki ko'proq mozaik, uzug' –yulug'roq, ayrim zvenolarni tushirib qoldiradigan (masalan a... – ...d...) shaklda bo'ladi. Bu Aylanalar mantiqni yoqtirmaydi, degani emas. Ularda, hayotiy muammolarni hal etishda formalizmlar yyetakchi emas. Insoniy munosabatlar sohasida ular uchun asosiy narsa muammoning sub'ektiv omillariga e'tiborni qaratish, ya'ni hatto qarama –

harshi nuqtai nazarlarda ham umumiylikni topishga intilishdir.

Aytish mumkinki, Aylana - tug'ma psixolog. Ammo, katta jiddiy biznesning boshida turish uchun Aylanaga tashkilotchilik ko'nikmalari yyetishmaydi.

Zigzag. Bu shakl kreativlik, ijodkorlik simbolidir. CHunki, beshta shakl ichida bu eng nodir va yakkeyu –yakka yopilnagan shakldir.

Agar, siz asosiy shakl sifatida Zigzagni qattiq tanlab olgan bo'lsangiz, siz xaqiqiy "o'ng yarim sharli" fikrlovchi, boshqacha fikrlovchisiz, chunki, chiziqli shakllar o'zlarining miqdori bilan sizdan ustunlikka ega. Kvadrat yoki Uchburchak ko'pincha sizning belgingizga e'tibor berishmaydi. Psixologning: Bu shaklni qaerga joylashtirasiz? – degan savoliga: "Bu ham shaklmi? Men buni kimdir chizib tashlagan narsa, deb o'ylabman", degan javobni olish mumkin. Nihoyat, Zigzaglar orasida boshqalarga qaraganda, ko'proq chapaqaylar uchraydi. Bu ham ularning "o'ng yarim sharli" ekanligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, eng yaqin harindoshingiz Aylana singari, sizga (faqat ko'proq miqdorda) obrazlilik, intuitivlik, integrativlik, jimjimadorlik xos. Qat'iy, izchil deduktsiya –bu sizning uslubingiz emas. Zigzagning fikri juda kuchli: hatto, A dan Ya gacha sakrashlar qiladi. Shuning uchun ham, ko'pchilik chiziqli, "chap yarim sharli" shakllar uchun Zigzagni tushunish qiyin. "O'ng yarim sharli" tafakkur mayda bo'lakchalarda to'xtalmaydi: shuning uchun ham u dunyo aksini nimalardir hisobiga soddalashtirib, yaxlit, garmonik kontseptsiyalar va obrazlamihmda go'zallikni ko'ra oladi. Zigzaglar odatda rivojlangan estetik hisga ega bo'ladilar.

Zigzag tafakkurida har doim – "Qandaybo'lar ekan agar?... " "Qanday bo'lar ekan, agar bu va ana u fikrlarni birlashtirsak? Buning natijasida nimaga ega bo'lamiz?" degan savol ustun bo'ladi. Butunlay boshqa – boshqa, bir –biriga o'xshamaydigan fikrlarni qo'yish va shuning asosida yangi, original fikrni topish – mana Zigzaglarga eng yoqadigan narsa. Aylanadagidan farq qilib Zigzaglar kelishuvchanlikni xush ko'rmaydi, aksincha – ularda fikrlar kelishmovchilikni keskinlashtirish va yangi kontseptsiya tuzish orqali ushbu kelishmovchiliklar o'z yyechimini topadi. Ular o'zlarining tabiiy aqli o'tkirligini ishlatib, juda zaharxanda bo'lishlari, yangi yyechimlar imkoniyatiga ega, "boshqalarning ko'zini ochishlari" mumkin, Zigzaglar dunyoni doimiy o'zgaruvchan holda ko'rishga odatlanganlar. Shuning uchun ham, ular uchun hech qachon o'zgarmaydigan narsalar: shablon, qoidalar va ko'rsatmalar, har doim ko'nadigan yoki o'zini ko'nayotgandek ko'rsatadigan odamlardan hech zerikarli narsa yo'q.

Zigzaglar yaxshi tashkillashtirilgan sharoitlarda samarali mehnat qila olmaydilar. Aniq vertikal va gorizontal aloqalar, qat'iy belgilangan vazifalar va ish uslublarining doimiyligi, ularning g'ashiga tegadi. Ular uchun ish joyida katta rang – baranglik va rag'batlantirishning yuqori darajasi bo'lishi zarur. Ular shuningdek, o'z ishida boshqalarga tobe bo'lishlik hohlamaydilar. Bunday holda Zigzag jonlanadi va o'zining asosiy vazifasini bajara boshlaydi – yangi fikrlar va ish uslublarini o'ylab topa boshlaydi. Zigzaglar hech qachon narsalar hosil qilishda hozir qilinayotgan, yoki oldin qilingan uslublardan qoniqmaydilar. Hech narsa Zigzagni Kvadratning "Biz buni har doim shunday qilardik" deydigan gapchalik jahlini chiqarmaydi. Zigzaglar kelajakka intiladilar va borliqqa qaraganda imkoniyatga ko'proq qiziqadilar. Boshqalar uchun narsalar olarni qanchalik real bo'lsa, ular uchun fikrlar, g'oyalar olarni ham shunchalik real. O'z hayotining ancha qismini ular ushbu xayoliy dunyoda o'tkazadilar, shuning uchun ham ular amaliyotda no'noq, noreal va ishonuvchanlar.

Zigzag beshta shakl orasida eng hayajonlanuvchani, eng qo'zg'aluvchanidir. O'zida yangi va qiziq fikr tug'ilsa, uni butun dunyoga yoyishga tayyor. Zigzaglar – o'z fikrlarini charchamas tarqatuvchilardirlar va o'z atrofidagi barchani bunga qiziqtirish qobiliyatiga egadirlar. Ammo, ularga siyosiylik yyetishmaydi: ularda bosiqlik yo'q, "haqiqatni yuziga aytadilar", ulardagi g'alatilik bilan qo'shilgan holda bu xususiyatlar o'z g'oyalarini hayotga tatbiq etishga xalaqit beradi. Bundan tashqari, ular konkret detallarni ishlashda va boshlagan ishlarini oxiriga yetkazishda unchalik kuchli emaslar.

3. O'QUVCHILAR JAMOASIDA SHAXSLARNING O'ZARO MUNOSABATINI ANIQLASH

Sotsiometriya metodikasi va uni o'tkazish.

Sotsiometriya so'zi o'lchash, o'rganish (sotsio - jamoa, metriya - o'lchash) degan ma'noni anglatadi.

Sotsiometrik metodining asoschisi – amerikalik mikrosotsiolog olim Djon Morenodir. Sotsiometrik so'rov usuli bir qancha kamchilik va nuqsanlarga ega bo'lishiga qaramay, keng psixologik amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan metodikalardan biridir.

Ishning bajarilishi. Bu metod yordamida jamoa, yoki guruhni o'rganish uchun guruh a'zolariga savol beriladi. Bu savol - sotsiometrik

mezon deb ataladi. Sotsiometrik mezon guruh hayoti uchun muhim bo'lishi, guruh hayotini aks ettirishi kerak.

Masalan, maktab o'quvchilari uchun: «Siz sinfdoshlaringizdan kim bilan bir partada o'tirishni hohlaysiz?» degan mezon muhimdir. Ammo, kollejlarda, yoki institut o'quvchilari guruhida, bu muhim emasdir.

Misol:

Bir partada o'tirish uchun o'rtoq tanlash metodi. Tekshirish muvaffaqiyatli o'tishi uchun osoyishta, ishchi sharoit zarur. O'qituvchi (o'quvchi) o'quvchilar bajarishi kerak bo'lgan topshiriqni aniq tushuntiradi:

Bolalar, kelgusi chorakdan sizlarni partalarga o'z hohishlaringiz bilan o'tirtirmoqchimiz. Hozir, bir varaq qog'oz olib, Siz kim bilan birinchi navbatda birga o'tirishni hohlasangiz, uning familiyasini yozing, bordi-yu biz Sizni o'zingiz tanlagan kishi bilan o'tirg'iza olmasak, u vaqtda yana kim bilan o'tirishni istardingiz, o'sha sinfdoshingizning familiyasini yozing. Basharti birinchisi bilan ham, ikkinchisi bilan ham o'tirishingizning iloji bo'lmay qolsa u vaqtda qaysi sinfdoshingiz bilan o'tirgan bo'lardingiz. Shuning familiyasini yozing.

1. _____
2. _____
3. _____

Endi, xuddi shu tartibda kim bilan o'tirishni hohlamasligingizni ko'rsating (agar shundaylar bo'lsa).

1. _____
2. _____
3. _____

To'g'ri mezon tanlash uchun, guruhni o'rganish, ularning hayotida nima muhim ekanligini bilish, zarurdir. Tanlanayotgan mezon guruhni qaysi faoliyat jarayonida o'rganishni maqsad qilib qo'yganligiga bog'liqdir (o'yin, o'qish, mehnat).

Ish oson bo'lishi uchun o'quvchilarga savolni kartochka ko'rinishida tayyorlab beriladi.

Savollarkartochkasi

Sotsiometrikmezon (savol)	Hohlayman (Ismi yoki familiyasini ko'rsating)	Hohlamayman (Ismi yoki familiyasini ko'rsating)

1	Agar sizning guruhingizni qayta tuzmoqchi bo'lsalar, siz guruhda kimlar bilan birga qolishni hohlaysiz? Kim bilan birga o'qishni hohlamaysiz?	1 2 3 4	1 2 3 4
2	Siz uchun qiyinbo'lgan daqihalarda kimlarga murojaat qilar edingiz? Kimga murojaat qilishni hohlamaysiz?	1 2 3 4	1 2 3 4
3	Yotoqxonada o'z guruhdoshlaringizdan kim bilan bir xonada yashashni hohlar edingiz? Kim bilan hohlamaysiz?	1 2 3 4	1 2 3 4

So'rov ma'lumotlari jadval matritsa (sotsiometriya jadvali) tarzida rasmiylashtiriladi.

Sotsiometriya jadvalining ko'rinishi

№	Kim tanlayapti	Kimni tanlayapti												Utanladi		
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	+	-	Σ
1.																
2.																
3.																
4.																
5.																
6.																
7.																
8.																
9.																
10.																
11.																
12.																
Unitanladilar		+														
		-														
		Σ														
O'zarotanlashlar																

Tanlovda kimni afzal ko'rish tartibi «1,2,3...» rahamlari bilan, istamastik hollari «-1,-2,-3...» belgisi bilan ifodalanadi.

Sotsiometriya jadvali to'ldirilgandan keyin, o'zaro tanlashlar aniqlanib, ular aylanaga olinadi. Masalan, bir o'quvchi ikkinchisini tanlab, ikkinchisi ham birinchini tanlagan bo'lsa, bu o'zaro tanlashdir. O'zaro tanlashlar aylanaga olish bilan belgilanadi.


Navbatdagi vazifa jadvaldagi barcha natijalarni jadval pastidagi qatorlarga yoziladi va ular tahlil qilinadi.

Avvalambor, guruhdagi liderlar (eng ko'p tanlanganlar), guruhga befarq qaraydiganlar (hech qanday tanlashga ega bo'lmaganlar), salbiy tanlanishga ega bo'lganlar aniqlanadi.


Olingan natijalarni tahlil qilayotganda har bir o'quvchi mavqeining sababini bilishga harakat qilishi kerak. (Nima uchun lider, nima uchun guruh a'zolari yoqtirmaydi va h.k.). Bu borada asosiy e'tiborni salbiy tanlanishga ega bo'lganlarga qaratish kerak.

Guruhning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish uchun, guruhdagi guruhchalar aniqlanadi. Buning uchun, istalgan o'zaro tanlashga ega bo'lgan guruh a'zosining tartib rahami jadvalning ustuniga ham, qatoriga ham yoziladi. Keyin shu kishi bilan o'zaro tanlashga ega bo'lgan ishtirokchi rahami ham, xuddi shu tartibda yoziladi. Shu tariqa, o'zaro tanlashlar davom ettiriladi.

Paydo bo'lgan kichik guruh a'zolarining o'zaro munosabatlarini bilish uchun sotsiogramma tuziladi. Sotsiogramma tuzishda quyida berilgan shartli belgilardan foydalaniladi.



Tanlov bo'yicha olingan ma'lumotlar sotsiogramma shaklida grafik asosida ifodalanadi (rasmga qarang).



Tanlov sababini aniqlash uchun har bir o'quvchi bilan yakka tartibda suhbat o'tkaziladi. Jamoadagi shaxslararo munosabatlarni yaxshilash maqsadida va unda har bir o'quvchining mavqeini, ayniqsa, «qabul qilinmaganlar» va «rad etilganlar» ning mavqeini mustahkamlash uchun tegishli tushuntirishlar beriladi, ularning miqdoriy va ijobiy sifatlarini ochib berishga alohida e'tibor jalb qilinadi.

Tahlil to'liq bo'lishi uchun aniqlangan har bir kichik guruhning sotsiogrammasi alohida chiziladi va tahlil qilinadi.

Guruhning jipsligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish taklif qilinadi:

$$K_{\text{jip.}} = \frac{V^+ - V^-}{n(n-1)}$$

$K_{\text{jip.}}$ – jipslik koeffitsienti,

V^+ , V^- – musbat va manfiy o'zaro tanlashlar soni,

n – guruh a'zolari soni,

Agar tanlashlar soni cheklangan bo'lsa formuladagi $n(n-1)$ o'rniga $K \cdot n$ qo'yiladi.

$$K_{\text{av.}} = \frac{V^+ - V^-}{K \cdot n}$$

K – tanlash mumkin bo'lgan a'zolar soni. Masalan, «3 kishini tanlang!» deyilgan bo'lsa, u holda $K=3$.

Sotsiometrik so'rovnoma yordamida olingan barcha materiallar guruhga yozilgan psixologo-pedagogik xarakteristikada aks ettiriladi.

Sotsiometriya jadvali (misol tariqasida)

No	Kim tanlayapti	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27
1	Abulova S.		2				3						1															
2	Azimov I.											2						3		2								
3	Amonova S.									1						2	3				2							
4	Amonov S.					1						2															3	
5	Amirova G.								2								2											1
6	Amirov A.											1							2			3						
7	Avezova R.															3					1							2
8	Abdulova G.		2		2		1																					
9	Badirova Z.		2			1																3						
10	Buxranov R.			1								2							3									
11	Bozorov S.								1				2											2				
12	Erkinov Sh.													1										2	2			
13	Fayziev G.	1				2					3																	
14	Hamroev A.		1					2						3														
15	Ishoqov S.				1								2										3					
16	Istamova Z.	1											2															3
17	Kamolov H.					1											2										2	
18	Lutfiyev Z.		1						2														3					
19	Salomov A.						2									2												3
20	Raximov O.		2									2							3									
21	Samatova Z.			1				2					3															
22	Tursunov F.	1											2															3
23	Hojieva M.			1									2									3						
24	YOriyev Sh.												2					2			1							
25	YOrov M.	1											2					2										
26	Shodiev S.		1					2			3																	
27	Sharipova I.					2							1			3												
	Tanlashlar:	4	4	3	4	4	4	3	2	2	3	2	1	2	1	4	4	2	2	1	2	3	3	1	1	2	2	4
	O'zaro tanlashlar		1			2	1		1			1	2					1		1	1			1	1	2		1

O'zaro tanlashlar va kichik guruhlar

	2	20
2		+
20	+	

	11	23
11		+
23	+	

	12	24	25	17
11		+	+	
24	+			
25	+			+
17			+	

	5	8	27
5		+	+
8	+		
27	+		

	6	19
6		+
19	+	

4. GURUH O'QUVCHILARINING O'Z JAMOASIGA BO'LGAN MUNOSABATINI O'RGANISH

Tekshirish maqsadi: o'quvchilar o'z kursdoshlariga va guruhga qanday munosabatdaligini aniqlash.

Tekshirish metodikasi:

O'quvchilarga quyidagi savolga javob yozish va jadvalni to'ldirish taklif etiladi.

Bajarish tartibi. Har bir o'quvchi quyidagi ko'rsatilgan jadvalni chizib oladi va unga baholanishi kerak bo'lgan 10 ta xususiyatni yozadi. Keyin jadvalni to'ldirishga kirishadi. Avval, baholanayotgan xususiyat bo'yicha kimni (baholanayotgan) na'muna qilib ko'rsatish mumkinligini jadvalning oxirgi ustuniga yozadi. Keyin guruh o'quvchilarning qancha qismi shu xususiyatga ega ekanligini belgilaydi. (+ belgisini qo'yadi.)

Quyidagi sifatlar sizning guruhingiz o'quvchilarida qanday rivojlangan?

№	Shaxs sifatleri	Qanday xususiyatlarga ega				Kimni namuna qilib ko'rsatasiz
		Guruhning barcha tala-balari	Ko'pchilik tala-balar	Ba'zi tala-balar	Bir, ikki kishi	
1	Kasbga doir bilimlarni o'zlashtirishi juda mustahkam					
2	Kasbga doir ko'nikma va malakalar yaxshi rivojlangan					
3	Oobiliyatilik va bilimlilik					
4	Mustaqil ishlay olish					
5	Umumiy madaniyatligi					
6	Guruh va jamoa hayotini qiziqarli ishlar bilan boyitish					
7	O'rtoqlarni tushuna olish, ularga yordam berishga tayyorligi					
8	Oliyjanoblik va haqqoniyligi					
9	Sabr toqatligi, o'zini tuta bilishi					
10	Ijtimoiy faolligi					

XULOSA CHIQUARISH BARCHA O'QUVCHILARNING TO'LDIRGAN JADVALLARI TAQQOSLANADI

1. Har bir o'quvchi o'z guruhini qanday baholashi aniqlanadi. Agar o'quvchi 3-ustunga ko'p «+» qo'ygan bo'lsa, u o'z guruhini yuqori baholaydi, agar 6-ustunga ko'p «+» qo'ygan bo'lsa past baholaydi.

2. Har bir ustun bo'yicha guruho'quvchilari qo'ygan «+» belgilari hisoblanib, o'rtacha arifmetik qiymat topiladi. Bu guruh o'quvchilari o'z guruhini qanday baholanganligini ko'rsatadi.

3. Guruh o'quvchilarida qaysi xususiyatlar yaxshi, qaysi birlari esa kam rivojlanganligi aniqlanadi. Ish oxirida xulosa yoziladi.

5. NOTIQLIKNING 41 QOIDASI

Har qanday shaxs—shoir, yoki yozuvchi, aktyor, yohud rassom bo'lmaganidek, moxir no tiq ham bo'lolmasligi mumkin. Lekin, "izlaganga toley yor", - deganlaridek, sidqidildan intilgan shaxs bunday mavqeyni egallashi mumkin.

Quydagi qoidalar shu haqda fikr qo'zg'aydi:

1. Nutqingiz rejasi varaqning birinchi betiga yozilsin. Rejani bir necha varaqqa yozmang, adashib ketasiz.

2. Ommabop yo'sinda so'zlanayotgan muayan nutqingiz taxminan o'ylangan va tayyorlangan bo'lishiga erishing.

3. Tajribali notiqgina o'zining ommabop nutqini o'z tajribasiga tayangan holda ko'pchilik oldida dadil namoyon etishi mumkinligi yodingizda bo'lsin.

4. Ommabop nutq oldidan, albatta, chuqur o'ylab, uni tinglaydigan auditoriya va gapiradigan gap, o'zingizga bog'liq ekanini his etib olmog'ingiz shart.

5. Agar, reglament belgilangan bo'lsa, nutq mazmunini qisqartiring: ko'p yomon gapirgandan ko'ra, oz va soz so'zlang.

6. Har bir nutqning boshlanishi, o'rtasi va oxiri bo'ladi. Eng muximi, nutqingiz oxirini qanday tugatishni esda saqlang.

